В прошлом веке 1960-70 гг. в процессе ирригации и мелиорации большое значение имело состав и содержание легкорастворимых солей в такырных участках Устюрта. Нами в период проведения инженерно-геологических съёмок картированием выявлены сооружения искусственного сбора такырных и подтакырных вод [1,5,6]. Эти сооружения датированы строителями 1969 годом на железобетонных покрытиях (рис.2). А также обнаружены искусственный водопой для животных сооруженный очень простым способом. Например, изображенный на рисунке 2 -Д котлован на площади примерно 300-500 м<sup>2</sup> с юга и с северной стороны сооружен искусственная дамба из местного материала. По всему периметру наблюдаются следы пребывания животных и пернаты птиц для водопоя.



**Рис.2. Искусственное сооружение такырных вод (А, Б), подтакырных вод из колодцев (В, Г) и (Д) космический снимок искусственного водоема на территории Южного Устюрта (фото А.П.Акимовой, 2024 г.)**

Вышесказанное ещё раз свидетельствует о том, что метод сбора дождевых вод заключается в использовании непроницаемости глинистых поверхностей – такыров, используется при строительстве сардоб в пустынных условиях. Благодаря его плотной поверхности, большая часть атмосферных осадков, выпадающих на такыры, собирается на пониженных участках такыра, где и строится сардоба (рис.3). периметр и дно по краям такыра покрыта зеленым растением в виде кустарников, саксаулов, верблюжьими колючками и солеросами.

Этим растениям и сине-зелёным и диатомовым водорослям большая роль принадлежит в формировании такыров. В процессе жизнедеятельности эти растения и водоросли значительно подщелачивают среду и активно разрушают алюмосиликатную тонкодисперсную часть почвы своими жизненными выделениями. При этом водоросли оказывают влияние и на формирование поверхностной пористой корки такыров:




**Рис. 3. Высохший искусственный водоём на территории Южной части Устюрта (фото А.П.Акимовой, 2024 г.)**

- потребляя в процессе фотосинтеза  $CO_2$ , они способствуют переводу гидрокарбонатов кальция в карбонаты и цементации корки;

- выделяя кислород, водоросли обуславливают возникновение пористого сложения корки.

Таким образом, существенным моментом при выполнении комплексных исследований условий формирования подтакырных подземных вод является выявление наиболее проницаемых зон, таких как выветренные зоны трещинообразования и ослабленные зоны разломов (табл.1). Так, в частности, примерами народной технологии и гидротехники являются сбор и хранение дождевых вод в сардобах, колодцах-чирле; использование поверхностного атмосферного стока; строительство буровых колодцев с механическим подъемом воды.

Ниже по разрезу под такырным и такыровидным плотным слоем представлен верхнемиоценовые трещиноватые, закарстованные известняки и мергели (рис.4). Трещиноватость этих горных пород является результатом неотектонической обстановки и зоны выветривания данного региона. Изменения в этой зоне, в основном, связаны с расширением естественных трещин и реже – с образованием новых, что в целом приводит к увеличению водопроницаемости пород. Изменения в результате химического выветривания наблюдаются на границах трещин и разломов.



**Рис. 4. Схематический разрез такыра Каракалпакского Устюрта (составил К.М.Джаксымуратов, Г.Э.Очилов):**

- 1 – скважина и её номер; 2 – уровень грунтовых вод; 3 – нижняя зона активного водообмена; 4 – глубина заложения фильтра; 5 – известняки; 6 – мергели; 7 – супесчаные отложения с включением гравия; 8 – трещины; 9 – карстовые полости

Обломочная зона представлена породами,

нарушенными интенсивной трещиноватостью в результате физического, химического выветривания. Для этой зоны характерна большая неоднородность по всем показателям физических и физико-механических свойств: трещиноватости, водо- и газопроницаемости, прочности и деформируемости. Эти показатели могут отличаться в пределах зоны более чем на порядок. Так как подобное расчленение является инженерно-геологической схематизацией и главные признаки выделенной зоны определяют ее поведение при взаимодействии с другими средами, в том числе с инфильтруемыми подземными водами, то по аналогии с массивами не выветренных пород к обломочной зоне следует относить породы, которые по современной классификации грунтов принадлежат к классу обломочных. Верхняя зона представлена практически новым геологическим образованием, коренным образом отличающимся от материнской породы по составу, состоянию и свойствам. В этой зоне преобладают вторичные глинистые минералы, образовавшиеся в результате выветривания, здесь накапливаются гипс, карбонаты, окислы железа.

**Выводы.** Таким образом, исследование направлено на изучение природных факторов, которые в той или иной степени способствуют формированию линз пресных грунтовых вод в толщах известняках и мергелях неогеновых

отложений. При этом наиболее существенным моментом в процессе выполнения комплексного исследования является то, что искусственное формирование подтакрырных пресных вод на участках, где имеют место выветренные, закарстованные и трещиноватые горные породы. Глубина проницаемых зон или выветривания, желательна, не должна превышать 50 м.

Исследованиями такырных участков Южной части Каракалпакского Устюрта выявлено возможность искусственного накопления питьевого и промышленного назначения поверхностных и подземных вод как способом строительства поверхностных искусственных сооружений так, и подземных резервуарах в трещиноватых и закарстованных горных породах.

В настоящее время необходимо применять меры по сохранению такырных площадей от разрушений. На территории Каракалпакского Устюрта из-за отсутствия постоянных дорог движение транспортных средств осуществляется повсеместно по такырным площадям, наиболее ровным и удобным для проезда. В связи с этим необходимо детально изучать такырные участки, наиболее пригодные для водоснабжения, и упорядочить движение транспорта, запретив движение на такырах, как на источнике водоснабжения.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Джаксымуратоа К.М. Оценка гидрогеологических условий зон активного водообмена для комплексного использования подземных вод (на примере каракалпакского Устюрта). Дисс.на соискан. док. наук (DSc) по геол.-мин. наукам, Ташкент, 2023, 188с.
2. Куликов Г.В. Устюртской артезианский бассейн. Ташкент: Фан,1975,120 с.
3. Богданов А.Н., Хмыров П.В. История развития и современное состояние сырьевой базы углеводородов Устюртского региона. М.: Нефтегазовая геология. Теория и практика. - 2022. - Т.17. - №1, С.3-18.
4. Кунин В.Н., Лещинский Г.Т. Временный поверхностный сток и искусственное формирование грунтовых вод в пустыне. М., АН СССР, 1960,98с.
5. Джаксымуратов К.М., Есенбаев Г.Р., Закиров М.М., Бегимкулов Д.К., Худойбердиев Т.М. Моделирование подземных вод зоны активного водообмена участка Уру Каракалпакского Устюрта. Ташкент: Вестник НУ, № 3/2, -С.229-234.
6. Джаксымуратов К.М., Закиров М.М., Бегимкулов Д.К., Худойбердиев Т.М., Очиллов Г.Э. Модель формирования подземных вод в Каракалпакском Устюрте. 26-Медународная научно-практическая Конференция «Инновация-22». Ташкент, ТГТУ, с.560-567.

UO‘K: 622.765.2

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.27

## XONDIZA BOYITISH FABRIKASINING MIS, QO‘RG‘OSHIN VA RUX KONSENTRATLARINI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR



**Xasanov Abdirashid  
Saliyevich**

*“Olmaliq KMK” AJ bosh  
muhandisining ilm-fan bo‘yicha  
o‘rinbosari, texnika fanlari doktori,  
professor, Olmaliq, O‘zbekiston*



**Eshonkulov Uchqun  
Xudaynazar o‘g‘li**

*Qarshi davlat texnika universiteti  
“Geologiya va konchilik ishi”  
kafedrasi, texnika fanlari falsafa  
doktori, dotsent,  
Qarshi, O‘zbekiston*



**Soatov Bekzod Shokir  
o‘g‘li**

*Termiz davlat muhandislik va  
agrotexnologiyalar universiteti  
“Neft-gaz va konchilik ishi”  
kafedrasi assistenti,  
Termiz, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xondiza boyitish fabrikasining texnologik jarayonlari, qayta ishlash samaradorligini oshirish uchun qo‘llanilgan usullar va amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlari yoritilgan. Fabrika polimetall rudalarini boyitishda mis, qo‘rg‘oshin va rux konsentratlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, bu jarayon bir necha bosqichli flotatsiya texnologiyasiga asoslangan. 2016–2018 yillarda amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlari natijasida texnologik jarayonlar samaradorligi oshib, konsentratlarda metallar tarkibi yaxshilandi. Xususan, mis boyitma tarkibidagi mis miqdori 14,15% ga oshirildi, qo‘rg‘oshin va rux boyitmalarida esa sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Fabrikada qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar chiqindi tarkibidagi metall yo‘qotishlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkonini berdi. Mazkur tajriba konchilik va metallurgiya sanoati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mis, rux, qo‘rg‘oshin, fabrika, boyitish, flotatsiya, polimetall, metallurgiya, maydalash, jarayon, konsentrat, filtr, maydalash, yanchilish, mahsulot, nasos, metallquyultirgich.

## ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА МЕДНЫХ, СВИНЦОВЫХ И ЦИНКОВЫХ КОНЦЕНТРАТОВ НА ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКЕ ХОНДИЗА

**Хасанов Абдирашид  
Салиевич**

*Заместитель главного инженера  
по науке АО “Алмалыкский ГМК,”  
доктор технических наук,  
профессор, Алмалык, Узбекистан*

**Эшонкулов Учкун  
Худойназар угли**

*Каршинский государственный  
технический университет,  
кафедра «Геология и горное  
дело», доктор философии по  
техническим наукам, доцент,  
Карши, Узбекистан*

**Соатов Бекзод Шокир  
угли**

*Ассистент кафедры «Нефть, газ  
и горное дело» Термезского  
государственного университета  
инженерии и агротехнологий,  
Термез, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье освещены технологические процессы на обогатительной фабрике Хондиза, методы, примененные для повышения эффективности переработки, и выполненные реконструкционные работы. Фабрика специализируется на обогащении полиметаллических руд

и производстве медных, свинцовых и цинковых концентратов, что осуществляется на основе многоступенчатой технологии флотации. В результате реконструкционных работ, проведенных в 2016–2018 годах, повысилась эффективность технологических процессов и улучшился состав металлов в концентратах. В частности, содержание меди в медном концентрате увеличилось на 14,15%, а в свинцовых и цинковых концентратах были отмечены значительные изменения. Применяемые на фабрике инновационные технологии позволили снизить потери металлов в отходах и улучшить качество продукции. Этот опыт имеет важное значение для горнодобывающей и металлургической отраслей, способствуя развитию передовых технологий и производственных процессов.

**Ключевые слова:** медь, цинк, свинец, фабрика, обогащение, флотация, полиметалл, металлургия, измельчение, процесс, концентрат, фильтр, дробление, шлам, продукция, насос, металл, сгущение.

## **TECHNOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCING THE EFFICIENCY OF COPPER, LEAD, AND ZINC CONCENTRATE PRODUCTION AT THE KHONDIZA PROCESSING PLANT**

**Khasanov Abdirashid  
Saliyevich**

*Deputy Chief Engineer for Science  
of JSC "Almalyk MMC," Doctor of  
Technical Sciences, Professor,  
Almalyk, Uzbekistan*

**Eshonkulov Uchkun  
Khudaynazar ugli**

*Department of "Geology and  
Mining" of Karshi State Technical  
University, Doctor of Philosophy in  
Technical Sciences, Docent  
Karshi, Uzbekistan*

**Soatov Bekzod Shokir  
ugli**

*Assistant of the Department of "Oil  
and Gas and Mining" of the Termez  
State University of Engineering and  
Agrotechnologies, Termez,  
Uzbekistan*

**Abstract.** This article highlights the technological processes of the Khondiza Processing Plant, the methods applied to enhance processing efficiency, and the reconstruction works carried out. The plant specializes in the beneficiation of polymetallic ores to produce copper, lead, and zinc concentrates, utilizing a multi-stage flotation technology. As a result of reconstruction works implemented between 2016 and 2018, the efficiency of technological processes improved, and the metal content in the concentrates was enhanced. In particular, the copper content in copper concentrates increased by 14.15%, while significant changes were observed in lead and zinc concentrates. The innovative technologies adopted at the plant have reduced metal losses in waste and improved product quality. This experience is of great importance to the mining and metallurgical industries, contributing to the development of advanced production technologies and processes.

**Keywords:** Copper, zinc, lead, plant, beneficiation, flotation, polymetallic, metallurgy, crushing, process, concentrate, filter, grinding, product, pump, smelter.

**Kirish.** Dastlab 2010 yilning dekabr oyida Xondiza boyitish fabrikasida dastlabki konsentratlar olinishi yo'lg'a qo'yildi, oradan bir yil o'tib ya'ni 2011 yilning may oyida esa Xondiza boyitish fabrikasining rasman ochilish marosimi bo'ldi.

Xondiza boyitish fabrikasi polimetall rudalarini qayta ishlab mis, rux va qo'rg'oshin boyitmalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Boyitish fabrikasi bir necha bosqichli texnologik jarayonlarni o'zida mujassam etuvchi, kollektiv va selektiv flotatsiyalash amalga oshiriladigan O'rta Osiyodagi yagona boyitish korxonasi hisoblanadi [2].

Flotatsiya bo'linmasi bir seksiya bilan taqdim etilgan. Rudani boyitish kollektiv va sellektiv flotatsiya usulida amalga oshiriladi.

Fabrika ko'p turdagi (polemetall) rudalarni boyitishdan to mis (Cu), rux (Zn), qo'rg'oshin (Pb) konsentratlarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayon bilan shug'ullanadi.

Mis-qo'rg'oshin-rux polimetall rudalarini qayta ishlashga ixtisoslashgan Xondiza boyitish fabrikasi foydalanishga topshirilganidan keyingi o'tgan davr ichida nafaqat loyiha quvvatlariga chiqish, balki ishlab chiqarish tizimini tubdan takomil-

lashtirishga erishgan korxonalar sirasiga kiradi. Jumladan, 2015 yil yakunida Olmaliq kon-metallurgiya kombinati mutaxassisleri tomonidan konsentratlarda metallar miqdorini oshirish maqsadida olib borilgan tadbirlar tezda o'z samarasini berdi [1]. Ruxni flotatsiyalash uchun qo'shimcha kameralarning o'rnatilishi ushbu bo'g'in ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan bir qatorda misning seleksiyalanishini yanada ko'payishiga xizmat qildi. [2] Birgina ushbu tadbirning o'zi rux konsentratida metall miqdorini o'rtacha 3-4% gacha ortishiga zamin yaratdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Fabrika ishlab chiqarish tizimiga nazar tashlar ekanmiz, u maydalash, flotatsiyalash, quyuqlashtirish, mis, rux, qo'rg'oshin konsentratlarini flotatsiyalash va mis-qo'rg'oshin konsentratlarini saralab olish bosqichlarini o'z ichiga olganiga guvoh bo'lamiz. Texnologik jarayonlar uch bosqichda rudalar maydalanishini nazarda tutadi. Asosiy va nazorat flotatsiyasi hamda kollektiv konsentratlarni qayta tozalash bo'g'inlarida yuqori natijalarga erishilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining so'nggi bosqichlaridan biri hisoblanuvchi suvsizlantirish bo'limi IJ-15 rusumli 7 ta quyuqlashtirgich va 3 ta Diemma filtr-presslari bilan jihozlangan [3].

Mis, qo'rg'oshin va rux konsentratlari nasoslar yordamida quyuqlashtirilish uchun quyuqlashtirish uskunalariga yuboriladi. Quyuqlashtirish uskunalarida jarayonlar izchil amalga oshiriladi. Filtr-presslarda suvsizlantirilgan konsentratlar bo'lmalarga to'kilishi va u yerdan avtotransport vositalariga ortib berilishi bilan fabrikaning texnologik jarayonlari o'z yakuniga yetkaziladi.

Boyitish fabrikasining asosiy inshootlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Maydalash (maydalash uchastkasi).
2. Qabul qilish bunkerlari.
3. Boyitish korpusi (asosiy korpus).
4. Reagentlar tayyorlash korpusi.
5. Suv ta'minoti inshootlari.
6. Quyultirgichlar.
7. Ma'muriy-maishiy inshoot.

Flotatsiya jarayoni uchun talab etiladigan bo'tananing 75% i -0.071 mm kattalikda yanchilishiga uch bosqichda erishiladi.

Sikloraliq flotatsiya chiqindisi №214 (ГрАК 350/40) nasos zumpfiga, III bosqichdagi maydalashga yo'naltiriladi. III bosqich uchun 22 m<sup>3</sup>

hajmli sharli tegirmon (II bosqichli tegirmonli bir tipdagi МШЦ 3,2x3,1) ko'zda tutilgan. III bosqichdagi sikloraliq flotatsiya chiqindisi, nazorat mis-qo'rg'oshin flotatsiya konsentratlari va tegirmondan chiqayotgan mahsulotning tasniflanishi to'rtta ГЦР-500 gidrosiklonlardan batareyada amalga oshiriladi. ГЦР-500 gidrosiklonlarning mayda fraksiyasi asosiy mis-qo'rg'oshinli kollektiv flotatsiyaga kelib tushadi [5].

Kollektiv flotatsiya siklida mis-qo'rg'oshin konsentratini oxirigacha maydalash operatsiyasi ko'zda tutilgan. Oxirigacha maydalashga sikloraliq va asosiy mis-qo'rg'oshin flotatsiyasining ko'pikli mahsulot (konsentrat) lari yo'naltiriladi. Oxirigacha maydalash uchun ikkita ГЦР-360 gidrosiklonlar bilan yopik siklda ishlaydigan МШЦ 2,7x3,6 B=17,5 m<sup>3</sup> sharli tegirmon qabul qilingan. ГЦР-360 gidrosiklonning mayda fraksiyasi (to'kilmasi) quvurlar orqali oqib, mis-qo'rg'oshin konsentratini ikki bosqichli qayta tozalashga yo'naltiriladi.

Tayyor konsentratlar nasoslari bilan (mis, qo'rg'oshin va rux konsentratlarini quyultirish uchun) quyultirgichlariga o'tkaziladi.

Barcha mahsulotlar uchun 60 m<sup>2</sup> samarali tindirish maydoniga ega bo'lgan IJ-15M2 tipi o'lchamidagi quyultirgichlar: kollektiv konsentratni quyultirish va yuvish uchun – ikkita quyultirgich, rux konsentratini quyultirish uchun - ikkita quyultirgich. Quyultirgichlar ochiq havoda joylastirilgan. Barcha quyultirgichlarning tindirilgan oqava suvlari maxsus quvurlar orqali boyitish fabrikasi chiqindixonasiga yo'naltiriladi.

Quyultirilgan konsentratlar 25 m<sup>3</sup> hajmli filtrlash bo'linmasi orqali chanlarga yetqaziladi. Filtrlash uchun vertikal plastinali filtr-presslardan foydalaniladi. Filtr-presslar konsentratlarning namlik darajasini 8-12% ga tushirish imkonini beradi. Bu qayta ishlash texnologik zanjiridan quritishni chiqarib tashlash imkonini beradi [4].

**Natijalar.** O'tgan yillar mobaynida boyitish fabrikasini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida bir qancha rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Rekonstruksiya otirichno-flotatsion kompleks, Mis flotatsiyasiga oraliq folotatsiyasi hamda quyultirish qozonlari qo'shildi.

Mis flotatsiyasida sig'imi 1,2 kub bo'lgan 6 ta ФПМ o'rniga sig'imi 3,2 kubli 3 ta ФПМga almashtirildi.

Mis-qo'rg'oshin flotatsiyasida 3,2 kubli 4 ta


ФПМ оʻrnatilib, (sanoat mahsuloti) oraliq flotatsiyasi tashkil qilindi. Natijada flotatsiya jarayoni vaqti uzaydi.

Kengaytirish va rekonstruksiya ishlarining samarali olib borilishi natijasida, chiqindi tarkibida metallar pasayishi hamda boyitmalar olishning oshishiga erishildi.

Quyultirgich oqava suvlarida metallarni mexanik yoʻqotishlarining oldini olish maqsadida qushimcha 1-dona quyultirgich qurildi.

2017 yilda mis flotatsiyasiga oʻzgarish kiritilib, oraliq flotatsiyasini nazorat flotatsiya sifatida, nazorat flotatsiyasini 2-asosiy flotatsiya sifatida ishlatish yoʻlga qoʻyildi. Natijada flotatsiya jarayoni vaqti uzaytirildi. Bu oʻzgarishlar natijasida mis ajratib olish oʻrtacha 10-12% ga, yaʼni 42 % dan 54% gacha oshdi.

2018 yilda 1-mis qayta tozalash chiqindilari va nazoratdagi koʻpikli mahsulot materiallari qaytarib quyultirgichga uzatilib, takroriy tozalash ishlari oʻtkazila boshlandi. Natijada ajratib olish oʻrtacha 2% ga, yaʼni 54% dan 56% gacha oshishiga erishildi.




**2-rasm. Mis flotatsiyasining sxemasi (rekonstruksiya keyin).**

Boyitish fabrikasi rekonstruksiya qilishdan oldingi va keyingi jarayonlarda mis, rux va qoʻrgʻoshinlarning boyitmalarining taqqoslama koʻrsatkichlari jadval koʻrinishida.

1-jadval

**Texnologik sxema oʻzgarishidan oldin va keyin asosiy koʻrsatkichlar**

No	Nomlanishi	Oʻl. Bir.	Texnologik sxema oʻzgarishidan oldin	Texnologik sxema oʻzgarishidan keyin	(-Kamayish; + koʻpayish)
1	Qayta ishlangan ruda	tn.	394 361	1 934 718	+1 540 357
2	Qayta ishlangan rudadagi misning % miqdori	%	0,55	0,61	+0.06
2.1	Mis metalini ajratib olinishi (извлечени я)	%	41,70	55,85	+14,15
2.2	Mis boyitmasi tarkibidagi mis metali	tn.	905,7	6 553,1	+5 648,1



**1-rasm. Mis flotatsiyasining sxemasi (rekonstruksiya oldin).**

2.3	Mis boyitmasi olinishi (выпуск)	tn.	5 094	33 765	+28 671
3	Qayta ishlangan rudadagi qo'rg'oshin ning tarkibi	%	2,03	2,16	+013
3.1	Qo'rg'oshin metalini ajratib olinishi (izvlecheniya)	%	50,58	59,56	+8,98
3.2	Qo'rg'oshin boyitmasi tarkibida qo'rg'oshin metali	tn.	4 045,4	24 895,1	+20 849,7
3.3	Qo'rg'oshin boyitmasi olinishi (выпуск)	tn.	11 981	70 588	+58 607

**Xulosa.** Xondiza boyitish fabrikasida amalga oshirilgan texnologik rekonstruksiya ishlari va innovatsion yondashuvlar natijasida ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin. Boyitish jarayonlariga kiritilgan o'zgartishlar va flotatsiya sxemasining takomillashtirilishi natijasida mis, qo'rg'oshin va rux metallarining boyitmalari sifati va ajratib olinish ko'rsat-

kichlari yaxshilangan. Xususan, misning ajratib olinishi 41,7% dan 55,85% gacha oshgan, qo'rg'oshin uchun esa ushbu ko'rsatkich 50,58% dan 59,56% gacha ko'tarilgan. Shuningdek, metall yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan choralar chiqindilarning ta'sirini pasaytirib, ishlab chiqarishning unumdorligi oshirilmogda.


2018–2020 yillarda amalga oshirilgan kengaytirish va rekonstruksiya tadbirlari natijasida korxonada quvvati oshirilib, texnologiyalarning energiya va resurs tejamliligini yaxshilashga erishildi. Mis va qo'rg'oshin konsentratlarining quyultirish jarayoniga qo'shilgan innovatsion uskunalar konsentratlarning namligini kamaytirib, tashish va qayta ishlash jarayonlarini optimalashtirildi.

Ushbu ilg'or texnologiyalar polimetall rudalarni boyitish sohasida yangi imkoniyatlarni ochib bergan holda, sanoatdagi boshqa korxonalar uchun namuna sifatida qo'llashimiz mumkin. Qilingan ishlar rudalarni qayta ishlashda yuqori darajada samarali usullardan foydalanish imkonini beradi, konchilik va metallurgiya sanoati rivojiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хакимов, К. Ж., Каюмов, О. А. У., Эшонкулов, У. Х. У., & Соатов, Б. Ш. У. (2020). ТЕХНОГЕННЫЕ ОТХОДЫ-ПЕРСПЕКТИВНОЕ СЫРЬЕ ДЛЯ МЕТАЛЛУРГИИ УЗБЕКИСТАНА В ОЦЕНКЕ ОТВАЛЬНЫХ ХВОСТОВ ФИЛЬТРАЦИИ МЕДНО-МОЛИБДЕНОВЫХ РУД. *Universum: технические науки*, (12-1 (81)), 54-59.
2. A.Yusupxodjaev S.Xudoyarov, "Metallurgiyada ishlab chiqarish texnologiyasi" Toshkent "Turon iqbol" 2007.
3. Yusupxodjaev A.A. Xojiev Sh.T., Mirzajonova S.B. Анализ состояния системы в металлургии. – Т.: LAP LAMBERT Academic Publishing. – 2020. – 189 s.
4. I.Umarova "Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi" darslik Toshkent 2013.

UO‘K: 622.621

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.30

## BURG‘ULASH-PORTLATISH ISHLARIDA TOG‘ JINSLARI MASSIVIGA

### TA’SIRI



**Mislubayev Ilxom  
Tuychibayevich**

Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti,  
Konchilik ishi fakultet decani, t.f.d.,  
professor, Navoiy, O‘zbekiston  
ORCID ID: 0009-0004-6530-6729



**Nurxonov Xusan Almirza  
o‘g‘li**

Qarshi davlat texnika universiteti  
“Geologiya va konchilik ishi”  
kafedrası, texnika fanlari falsafa  
doktori, dotsent,  
Qarshi, O‘zbekiston  
ORCID ID: 0000-0003-4526-7211



**Latipov Zuhridin Yoqub  
o‘g‘li**

Qarshi davlat texnika universiteti  
“Geologiya va konchilik ishi”  
kafedrası, texnika fanlari falsafa  
doktori, dotsent,  
Qarshi, O‘zbekiston  
E-mail:  
[zuhridin.latipov7@gmail.com](mailto:zuhridin.latipov7@gmail.com)  
ORCID ID: 0000-0002-6540-6672

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yer osti konlarini burg‘ilash va portlatish ishlari orqali massivdan ajratib olishda, tog‘ jinslari yoriqlilik darajasi aniqlashda dasturiy ta‘minotlar foydalangan holda tahlil qilingan. Tog‘ jinslari yoriqlilik darajasi aniqlashda massiv bloklarining tasnifiga bo‘lingan hamda massiv ajralmalarning turli tarkibli jinslar uchun o‘rtacha ajralish o‘lchamlari aniqlangan. Tog‘ jinslarining ichki tuzilishida tabiiy yoriqlarning zichligi va tarqalish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoriqlilik, blok, burg‘ilash-portlatish ishlari, massiv, ajralma, zichlik, g‘ovakdorlik, suv o‘tkazuvchanlik, ye osti kon lahimi, mustahkamlik, qatlam, struktura, granulometrik.

## ВЛИЯНИЕ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ НА МАССИВ ГОРНЫХ ПОРОД

**Мислибаев Илхом  
Туйчибаевич**

Навоийский государственный  
горный и технологический  
университет, декан горного  
факультета, д.т.н., профессор,  
Навои, Узбекистан

**Нурхонов Хусан  
Алмирза угли**

Каршинский государственный  
технический университет,  
кафедра «Геология и горное  
дело», доктор философии по  
техническим наукам, доцент,  
Карши, Узбекистан

**Латинов Зухриддин  
Ёкуб угли**

Каршинский государственный  
технический университет,  
кафедра «Геология и горное  
дело», доктор философии по  
техническим наукам, доцент,  
Карши, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье проведен анализ процесса отделения массива при проведении буровзрывных работ в подземных рудниках, а также определения степени трещиноватости горных пород с использованием программного обеспечения. При определении степени трещиноватости горных пород выполнено разделение массива на блоки, а также определены средние размеры отделения массива для пород различного состава. Рассмотрены плотность и особенности распространения естественных трещин во внутренней структуре горных пород.

**Ключевые слова:** трещиноватость, блок, буровзрывные работы, массив, отделение, плотность, пористость, водопроницаемость, подземная горная выработка, прочность, пласт, структура, granulometria.

## IMPACT ON THE ROCK MASS IN DRILLING AND BLASTING OPERATION

**Mislibaev Ilkhom**

**Tuychibaevich**

Navoi State University of Mining  
and Technology, Dean of the  
Faculty of Mining, Doctor of  
Technical Sciences, Professor,  
Navoi, Uzbekistan

**Nurkhonov Khusan**

**Almirza ugli**

Karshi State Technical University,  
Department of Geology and Mining,  
Doctor of Philosophy in Technical  
Sciences, Docent,  
Karshi, Uzbekistan

**Latipov Zuhridin Yokub**

**ugli**

Karshi State Technical University,  
Department of Geology and Mining,  
Doctor of Philosophy in Technical  
Sciences, Docent,  
Karshi, Uzbekistan

**Abstract.** This article analyzes the separation of the rock mass during underground mining through drilling and blasting operations, as well as the determination of the fracture degree of rock formations using software tools. In determining the fracture degree of rock formations, the rock mass was classified into blocks, and the average separation sizes for different types of rock compositions were identified. The density and distribution characteristics of natural fractures within the internal structure of the rock formations were also examined.


**Keywords:** fracture, block, drilling and blasting operations, rock mass, separation, density, porosity, permeability, underground mine working, strength, layer, structure, granulometric.

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyodagi ko‘plab tog‘-kon sanoatida yer osti kon-qazish ishlari davomida burg‘ulash-portlatish ishlarining (BPI) parametrlari tajriba ma‘lumotlari asosida aniqlanadi. Ular eksperimental ishlar va ilmiy-texnik asoslashni talab qiladi. Bunda BPI parametrlarini tanlashning asosiy mezon sifatida portlovchi moddalar (PM)ning sarfi olinadi. Bu turli xil fizik-mexanik xossalarga ega bo‘lgan tog‘ jinslari, qo‘llanilayotgan portlovchi moddalarining kimyoviy-fizik xususiyatlari, shuningdek, zaryadlarni portlatilayotgan massiv ichida joylashishini hisobga olishi kerak. Amaliyotda keng tarqalgan yondashuvlarda BPI parametrlarini aniqlash bo‘yicha izlanuvchi ko‘rsatkichlar portlashning boshlang‘ich parametrlari sifatida qabul qilinadi, ya‘ni portlovchi moddalarning sarfi va kon lahimlari portlatilgan qatlamlar parametrlari hisobga olinadi. Tayyorlovchi va qazish lahimlari uchun portlatilgan qatlamlarda zaryadlarning joylashuvi parametrlarini aniqlashga bag‘ishlangan ishlar ushbu masalalarni to‘liq yoritmagan. Bu qisqacha umumlashtirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotlarning mavjudligiga qaramay, yer osti tog‘ qazish ishlarida burg‘ulash-portlatish ishlarining parametrlarini ilmiy asosda aniqlash metodikasini yaratish tog‘-kon fanlari va ishlab chiqarishning dolzarb va muhim vazifasidir. Burg‘ulash-portlatish ishlari yer osti tog‘ qazish ishlarida muhim texnik-geologik tadbirlar majmuasini tashkil etadi. Ularni to‘g‘ri tanlash keyingi texnologik jarayonlarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oldindan belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Tog‘ jinslari massivi yoriqligi, massivning suv o‘tkazuvchanligi hamda turli yer osti kon lahimlarini barqarorligiga va portlatilgan jinslarning sifatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Tog‘ jinslari yoriqligi portlatilgan tog‘ jinslari zarrachalar yirikligiga ta‘siri uzoq vaqtdan beri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotchilardan M.M.Protodyakonov tog‘ jinslarida yoriqlarning hosil bo‘lishi ularning portlatish orqali maydalanishini sezilarli darajada osonlashtirishini ta‘kidlagan. M.M.Protodyakonov tomonidan ishlab chiqilgan tog‘ jinslarini mustahkamlik koeffitsienti bo‘yicha yer osti kon lahimlarini o‘tishda uchraydigan deyarli mustaxkam jinslar uchun ishlab chiqilgan. Shu sababli, tog‘ jinslarining portlatishga moyilligi ularning mustahkamligi bilan bog‘liq deb o‘rganilgan [1,3,7]. A.F.Suxanov tomonidan tog‘ jinslarining portlatishga moyilligi bo‘yicha guruhlanishi ishlab chiqilgan bo‘lib, yoriqlilik darajasiga asoslangan tasniflash amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega ekanligini aytilgan. Ba‘zi hollarda aynan yoriqlilik tog‘ jinslarini massivdan ajratishda sabab bo‘luvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tog‘ jinsi qanchalik yoriqligi yuqori bo‘lsa, uni qazib olish shunchalik erishiladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, tog‘ jinslari massivi bitta o‘rtacha o‘lchamdagi qatlamlardan tashkil topgan deb taxmin qilingan edi. Turli massivlarda yoriqlilik darajasi turli tog‘ jinslarda farqlanishi mumkinligi ham qabul qilingan. Aslida esa yoriq hosil bo‘lgan tog‘ jinslari massivi turli

o'Ichamdagi qatlamlardan iborat bo'lib, o'ziga xos donador tarkibga ega [1,6].



**1-rasm. Turli xil jinslarda bortning qiyalik qismidan olingan fotosurat.**

Tog' jinslarining mayda blokli hamda yirik donador ohaktosh.


Ushbu tadqiqotlarni birinchi bo'lib A.J.Mashanov, V.K.Rubtsov va V.N.Oparin katta e'tibor qaratgan. V.K.Rubtsov yoriqlilikni tavsiflash uchun o'rtacha yoriqlar orasidagi masofa hamda massiv tarkibidagi yirik qatlamlarning foiz miqdori kabi ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif qilgan. Turg'un qiyaliklarni asoslash uchun, fotosuratlar har 3–5 metrda maxsus fotoapparat yordamida aniqlangan. Barcha blok o'lchamlaridagi tabiiy ajralmalarining donador tarkibini aniqlash uchun har bir tekshirilayotgan blok uchun alohida amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijalari AutoCAD dasturi yordamida tog' jinslari massividagi tabiiy ajralmalarining donador tarkibini kompyuter dasturlari orqali baholashga oid namunaviy tasvirlar 1-rasmida har xil bloklilik turidagi massivlar uchun keltirilgan [2,4,8].

**Natijalar.** Tabiiy qatlam ajralmalarining o'rtacha o'lchami bo'yicha tog' jinslari massivlari to'rt sinfga bo'linadi: mayda blokli – juda kuchli yoriqlangan jinslar; o'rta blokli – kuchli yoriqlangan jinslar; yirik blokli – o'rtacha yoriqlangan jinslar; juda yirik blokli – kam yoriqlangan jinslar [5,9,11,12]. Ushbu bloklarning turli nisbatlarda birikishi va foiz tarkibi tog' jinslari massividagi tabiiy ajralmalarining donador tarkibini belgilaydi. Tajriba ishlarida konlarning aniqlik ma'lumotlari bo'yicha 1-jadvalda umumlashtirilgan natijalar tabiiy ajralmalar (bloklarning) o'lchami 0 dan 1,4 metrgacha oraliqda o'zgartirildi. 1-jadvalda tog' jinslari massividagi tabiiy ajralmalarining donador tarkibi keltirilgan.

1-jadval

**Massiv bloklarining sinflar bo'yicha tasnifi**

Massivda bloklarining sinflar bo'yicha tasnifi	Massiv bloklari (yoriqlilik darajasi)	Massivdagi ajralmalarining o'lchamiga qarab foiz tarkibi (m)						O'rtacha ajralma diametri, m	
		<0,20	0,21-0,40	0,41-0,60	0,61-0,80	0,81-1,00	1,01-1,20		>1,21
I	Mayda blokli (juda kuchli yoriqlangan)	81,2	10,3	7,0	0,8	0,7	-	-	0,15
II	O'rta blokli (kuchli yoriqlangan)	48,0	27,0	10,5	6,0	4,2	3,3	1,0	0,31
III	Yirik blokli (o'rtacha yoriqlangan)	29,5	20,2	14,0	11,8	10,6	8,7	5,2	0,50
IV	Juda yirik blokli (kam yoriqlangan)	17,5	16,1	14,6	13,2	12,7	12,9	13,0	0,66



**2-rasm. Tabiiy ajralmalarining turli massivlardagi o'lchamlariga bog'liq holda foiz tarkibi:**

● – mayda blokli, ■ – o'rta blokli, ▲ – yirik blokli, ◆ – juda yirik blokli.

1-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy ajralmalar tog' jinslari massivining struktura elementlarini tashkil etadi. Ularning o'lchamlari quyidagi kategoriyalar bo'yicha ajratilgan: 0,2 m gacha; 0,21 m dan 0,40 m gacha; 0,41 m dan 0,6 m gacha; 0,61 m dan 0,8 m gacha; 0,81 m dan 1,60 m gacha; 1,01 m dan 1,20 m gacha; 1,2 m dan katta. Bu o'lchamlar tabiiy ajralmalarining strukturaviy darajalarini ifodalaydi. Tabiiy ajralmalarining turli o'lchamlar bo'yicha foiz tarkibining analitik ifodasi va ularning grafik tasviri tog' jinslari massivlarining strukturali modelini hosil qiladi. Bunday modelni yaratish uchun 1-jadval ma'lumotlariga asoslanib, tabiiy ajralmalarining o'lchamlariga qarab foiz tarkibini aniqlash uchun analitik bog'lanishlar topilishi kerak. Keyinchalik, standart dasturlar yordamida ularning tekis diagramma chiziqchilari va har bir blok sinfi bo'yicha aniqlik ko'rsatkichi aniqlanadi [1].


**Xulosa.** 1-jadval ma'lumotlari shuni shuni ko'rsatadiki, turli tabiiy ajralmalarining foiz tarkibi bo'yicha hisoblangan qiymatlar barcha blok sinflari uchun amalda o'lchangan qiymatlar bilan deyarli mos keladi. Biroq, mayda blokli massivlarning birinchi ikki fraksiyasi bundan farq qiladi. Shunday bo'lsada, ajralmalarining bunday tarkibi amaliyotda haqiqiy holatni yanada aniqroq aks ettiradi. Umuuman olganda, tabiiy ajralmalarining granulometrik

tarkibini aniqlash bo'yicha hisoblash usuli bel- | gilangan vazifani hal qilishda samarali yechimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мусахан А.Б. Автоматизированное проектирование рациональных параметров взрывных работ при проходке подземных горизонтальных выработок // Диссертация. Республика Казахстан Алматы, 2023. 33-40 ст.
2. Мислибаев И.Т., Нурхонов Х.А. Методика расчета параметров для гладкого взрывания для обеспечения сохранности проектного контура в условиях рудника Каракутан//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2. – Issue 9. – Tashkent, 2022. – pp. 412-421. ISSN 2181-1784 (SJIF 2022: 5.947).
3. Фугзан М.И. Изучение действия взрыва в предварительно напряженной среде // Физико-технические исследования разработки и обогащения руд. М.: 1973 . –248 с.
4. Nurkhonov Kh.A., Misliboev I.T. Design of contour explosion parametrs // Web of scientist: international scientific research journal. – Indonesia, Nov., 2022. – Vol. 3. – Issue 11. (WoS) – pp. 605-611. ISSN: 2776-0979 (SJIF 2022: 5.949).
5. Нурхонов Х.А. Способы снижения интенсивности выбросов породы с использованием зарядов специальной конструкции//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2. – Issue 6. – Tashkent, 2022. – pp. 536-540. ISSN 2181-1784 (SJIF 2022: 5.947).
6. Андреев Р.Е. Повышение эффективности контурного взрывания при проходке горных выработок глубоких горизонтов подземных рудников // Дисс...канд. тех.наук.-Санкт-Петербург, 2009. –137 с.
7. Нурхонов Х.А. Классификация методов контурного взрывания подземной разработки месторождений полезных ископаемых // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2019. – №4. – С. 55-56 (05.00.00; №7).
8. Нурхонов Х.А., Каримов Ё.Л., Хужакулов А.М., Латипов З.Л. Методика расчета параметров контурного взрывания предварительного щелеобразования // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2020. – №2. – С. 83-86 (05.00.00; №7).
9. Akbarov T.G., Toshtemirov U.T., Nurkhanov Kh., Khojakulov A. Recommended Support Structures for Excavations in Difficult Mining and Geological Conditions // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – India, February 2020. – Vol. 7. – Issue 2. – pp. 12798-12802 (05.00.00; №8).
10. Nurxonov X.A., Mansurova S.A. Qisqa muddatli portlash sodir bo'lganda tog' jinslarining buzilish radiusini aniqlash orqali burg'ulash-portlatish ishlari pasporti parametrlarini ishlab chiqish // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 1. – Issue 1. – Tashkent, 2021. – pp. 147-150. ISSN 2181-1784 (SJIF 2021: 5.423).
11. Нурхонов Х.А. Результаты исследования характера распределения напряжений вокруг зарядов сложной конструкции // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2. – Issue 5/2. – Tashkent, 2022. – pp. 756-760. ISSN 2181-1784 (SJIF 2022: 5.947).
12. Нурхонов Х.А., Мислибаев И.Т., Назаров З.С. Обоснование конструкций шпурового заряда для контурного взрывания при проходке горизонтальных подземных выработок // Инновационные технологии. – Карши, 2022. – №3. – С. 3-6. (05.00.00; №38).

UO‘K: 622.271.3

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.4

## GIDRAVLIK BURG‘ILASH MASHINASINING TEXNIK KO‘RSATKICHLARI VA SAMARDORLIK TAHLILI



**Abduazizov Nabijon  
Azamatovich**

*Texnika fanlari doktori, professor,  
Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston*



**Jurayev Akbar  
Shavkatovich**

*Texnika fanlari falsafa doktori,  
dotsent, Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston*



**G‘aybullayeva Gulchirov  
Zavqijon qizi**

*Magistrant, Navoiy davlat konchilik  
va texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish jarayonida gidravlik burg‘ilash mashinalarining ishlash ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Kon-geologik sharoitlarning murakkablashuvi va zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan talabning ortishi gidravlik tizimlarning konstruksiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotda burg‘ilash samaradorligi, gidravlik tizimning barqarorligi, quvvat manbalari va ekspluatatsiya xarajatlari tahlil qilinib, bu ko‘rsatkichlarning burg‘ilash jarayonlariga ta‘siri yoritilgan. Ushbu tahlillar burg‘ilash texnologiyalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** gidravlik burg‘ilash mashinasi, texnik ko‘rsatkichlar, samaradorlik, mexanik tizim, gidravlik tizim, ekspluatatsiya xarajatlari.

## ТЕХНИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ ГИДРАВЛИЧЕСКОЙ БУРОВОЙ МАШИНЫ

**Абдуазизов Набижон  
Азаматович**

*Доктор технических наук,  
профессор, Навоийский  
государственный горно-  
технологический университет,  
Навои, Узбекистан*

**Джураев Акбар  
Шавкатович**

*Доктор философии по  
техническим наукам, доцент,  
Навоийский государственный  
горно-технологический  
университет,  
Навои, Узбекистан*

**Гайбуллаева Гульчирой  
Завкиджон кизи**

*Магистрант, Навоийский  
государственный горно-  
технологический университет,  
Навои, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются эксплуатационные показатели гидравлических буровых машин, используемых при открытой добыче полезных ископаемых. Усложнение горно-геологических условий и рост требований к современным технологиям вызвали необходимость совершенствования конструкции гидравлических систем. В исследовании проанализированы эффективность бурения, стабильность гидравлической системы, источники питания и эксплуатационные расходы, а также их влияние на процессы бурения. Эти анализы служат основой для разработки практических рекомендаций по повышению эффективности технологий бурения.

**Ключевые слова:** гидравлическая буровая машина, технические показатели, эффективность, механическая система, гидравлическая система, эксплуатационные расходы.

## TECHNICAL PERFORMANCE AND EFFICIENCY ANALYSIS OF HYDRAULIC DRILLING MACHINES

**Abduazizov Nabijon  
Azamatovich**

Doctor of Technical Sciences,  
Professor, Navoi State University of  
Mining and Technology,  
Navoi, Uzbekistan

**Juraev Akbar  
Shavkatovich**

Doctor of Philosophy in Technical  
Sciences, Associate Professor,  
Navoi State University of Mining  
and Technology, Navoi, Uzbekistan

**Gaybullaeva Gulchiroy  
Zavkijon kizi**

Master's student, Navoi State  
University of Mining and  
Technology, Navoi, Uzbekistan

**Abstract.** This article examines the operational performance of hydraulic drilling machines used in open-pit mineral extraction. The increasing complexity of geological conditions and the rising demand for modern technologies have necessitated the improvement of hydraulic system designs. The study analyzes drilling efficiency, hydraulic system stability, power sources, and operational costs, highlighting their impact on drilling processes. These analyses provide practical recommendations for enhancing the efficiency of drilling technologies.

**Keywords:** hydraulic drilling machine, technical performance, efficiency, mechanical system, hydraulic system, operational costs.

**Kirish.** Mamlakatimiz konlarida burg'ilash dastgohlarining turlari keng qo'llanilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib hozirda qattiq tog' jinslarini qazib olishga dastgohlarning uzatish qismlaridagi yuklama kuchlarining to'liq samarali yetkazilishi burg'ilash jarayonini tezlashishi va skvajinalar sonini rejadagi vaqtga yetkazishga olib keladi. Mamlakatimizda avvaldan keng va ishonchli qo'llanilib kelayotgan burg'ilash dastgohlaridan biri SBSH bo'lib hozirda 1-jadvalda keltirilgan xorijiy burg'ilash dastgohlari ham konlarimizda o'z faoliyatlarini amaliyotda ijobiy ko'rsatib kelmoqda.

Gidravlik burg'ilash mashinasining gidravlik tizimida gidronasoslar ishchi suyuqliklarni bosim ostida harakatga keltirib gidravlik energiyani yuzaga keltiradi. Gidravlik quvurlar, himoyalovchi, boshqaruvchi va nazorat qiluvchi gidro elementlar esa bu energiyani mexanik harakatga keltiradigan gidrodvigatellarga uzatadi. Natijada aylanma, burlima va to'g'ri chiziqli ilgarilanma qaytma harakatlar yuzaga keladi.

**Adabiyot tahlil va metodlar.** Tog'-kon mashinalarining ishonchligini ta'minlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimini takomillashtirishning fan va amaliyotini rivojlantirishga Bashta T.M., Baryshev V.I., Berman V.M., Brenner V.A., Brodskiy G.S., Kantovich L.I., Koval P.V., Kovalevskiy V.F. tomonidan katta hissa qo'shildi. Kovalenko V.P., Krasnikov Yu.D., Pastoev I.L., Poderni R.Yu., Rahutin G.S., Rokshevskiy V. A., Skritskiy V.Ya., Solod G.I.,

Stolpovskix I.N., Toshov J.B., Finkelshtein Z.L., Akira Tsutsui, doktor. Etsujiro Imanishi, Feliks Nga, Jaklin Glass, Ley Ge, Long Quan, Milosh Vukovich, Roland Leyfeld, Takao Nanjo va boshqalar gidravlik kon mashinalarining konstruksiyalarini takomillashtirish va unumdorligini oshirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Gidravlik burg'ilash mashinasining asosiy tizimlari hozirgi kungacha takomillashtirilib kelingan va hozirga kelib quyidagi asosiy tizimlardan tashkil topgan:

1. Mexanik tizimi:

- metall konstruksiya;
- pastki rama;
- buriluvchi platforma;
- ishchi qurilmalar;
- harakatlanish mexanizmi.

2. Gidravlik tizimi:

- gidravlik silindr;
- gidronasos;
- gidromator;
- zolotniklar;
- yuqori bosim rukavasi;
- filtr;
- boshqaruvchi va himoyalovchi qurilmalari.


3. Elektrik tizimi:

- zolotniklarni boshqaruv salenoidlari;
- yoritish, isitish, ishchi qurilmalarni past haroratda isitish, haroratni boshqaruvchi datchiklar tizimi;

- bosim, bort kompyuteridagi ko'rsatkichlarni boshqarish, operatorga ma'lumotni yetkazish qurilmalari.

4. Quvvat manbai:

- ichki yonuv dvigateli;
- elektrodvigel;
- buralish reduktori;
- harakatlanish va uzatma reduktori;
- gidravlik nasoslar.



**1-rasm. SBSH va xorijiy gidravlik burg'ilash dastgohining 1 soatdagi burg'ilash unumdorligining solishtirma grafigi.**

1-jadval


**Burg'ilash mashinalarining asosiy texnik parametrlari**

Parametrlar	Rudgormash Voronej	Terex Reedrill USA	Tamrok Finlyandiya	Atlas Kopko Shvetsiya
Mashina turi	SBSH-250	SKS	D-75KS	Pit Viper 275/271
Quduqning 60diametri shartli, mm	250 – 311	270-311	228-279	200-270
Burg'ilash quvurining uzunligi, m	8,2 – 18	10,7	10,6	12,2-17
Maksimal burg'ilash chuqurligi, m:	55	53,3	53,3	60
Uzatish kuchining yuqori chegarasi, kN	350	391	340	340
Maksimal aylanish momenti, Nm	15187-21000	15187	17425	11800
Xarakat tezligi	1,6	1,8	2,4	1,8
Kompressorning ishlashi; m <sup>3</sup> /min	32, 40, 50	44	37; 45; 57	54/41

Xorijiy gidravlik burg'ilash dastgohining ish massasining yengillashuvi evaziga harakat manovrligining oshishi va uzatish yuklamasining 50 % ga oshishi kabi afzalliklar kuzatilmoqda va buning natijasida ushbu dastgohlardan konlarimizda keng foydalanishga ehtiyoj tug'ilmoqda. 1-rasmda SBSH

va xorijiy gidravlik burg'ilash dastgohining 1 soatdagi burg'ilash unumdorligining solishtirma grafigi keltirilgan.

SBSH turidagi va gidravlik burg'ilash dastgohlaridan foydalanishda o'ziga xos xarajatlar yuzaga keladi. Bunda ishchilar ish haqi, energiyalar sarfi, amortizatsiya, ta'mirlash xarajatlari, dolota xarajatlari va boshqa xarajatlar ko'zda tutiladi. Gidravlik burg'ilash dastgohining tan narxi yuqori bo'lsa-da, ta'mirlash muddatiga kelishini bir muncha uzunligi, dastgohni ishlatish ish kuchini kamligi bilan muvozanatlashtiradi. SBSH va xorijiy dastgohlar bilan burg'ilash xarajatlari tarkibini tahlil qilish (rasm. 2) [2] shuni ko'rsatadiki, oxirgi burg'ilash paytida dizel yoqilg'isi xarajatlari barcha xarajatlarning 38 % ini tashkil qiladi. Agar burg'ilash narxini taqqoslasak 1 p. m. har bir mashina uchun va 100% SBSH-270IZ narxini oling, keyin SBSH-250 MNA uchun bu 110-140%, SKS uchun – 160-220% va D75KS uchun – 200% ni tashkil qiladi.



**2-rasm. SBSH va xorijiy dastgohlar bilan burg'ilash xarajatlari tarkibini tahlili.**

**Muhokama.** Demak gidravlik burg'ilash mashinasining ishlash ko'rsatkichlarini tahlili shuni ko'rsatadiki uning samaradorligi, ishonchliligi va ishlash xavfsizligini belgilaydigan bir nechta asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu xususiyatlar:

**Unumdorlik.**

Burg'ilash tezligi: gidravlik o'rnatish quvvatiga, burg'ilash asbobining turiga, tosh xususiyatlariga va ish rejimiga bog'liq bo'lgan eng muhim omillardan biri. Yuqori burg'ilash tezligi stansiyaning umumiy ish faoliyatini yaxshilashga imkon beradi.

Burg'ilash chuqurligi: mashina burg'ilash

mumkin bo'lgan maksimal chuqurlik uning konstruksiya xususiyatlariga va gidravlik tizimining kuchiga bog'liq.

Quduq diametri: burg'ilash ustuni va burg'ilash asbobining diametri mashina burg'ilashi mumkin bo'lgan quduq diametrlarining diapazonini aniqlaydi.

#### **Gidravlik tizimning ko'rsatgichlari.**

Gidravlik tizimning kuchi: tizimning samaradorligini belgilaydigan muhim ko'rsatkich. Quvvat mashinaning ishlashi va tosh qarshiligini yengish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Suyuqlik bosimi va oqimi: gidravlik tizimlar ish suyuqligining bosimi va oqimi asosida ishlaydi. Burg'ilash uskunasi barqaror ishlashini ta'minlash uchun ushbu parametrlar optimal tarzda sozlanishi kerak.

Gidravlik tizimning barqarorligi: tizimning ishlash parametrlarini (bosim, oqim tezligi), uzoq vaqt davomida ushlab turish qobiliyatini, shuningdek, ortiqcha yukdan keyin tizimni tiklash tezligini o'z ichiga oladi.

#### **Ishonchlilik va yeyilishga qarshilik.**

Materiallari va sifatli tayyorlanganligi: burg'ilash asbobidan tortib gidravlik nasoslar va bo'g'inlargacha bo'lgan barcha mashina komponentlari yeyilishga va mexanik yuklanishga chidamli yuqori sifatli materiallardan tayyorlanishi kerak.

Ta'mirlash qobiliyati: burg'ilash mashinasi eskirgan qismlarni almashtirish yoki ta'mirlashni osonlashtiradigan konstruksiya xususiyatlariga ega bo'lishi kerak.

Kapital ta'mirlashdan oldingi o'rtacha masofa: kapital ta'mirlash yoki komponentlarni almashtirish o'rtasida o'tadigan vaqtni hisobga olish muhimdir.

#### **Chaqqonlik va harakatchanlik.**

O'lehamlari va vazni: ba'zi bir ish turlari mashinaning yuqori harakatchanligini talab qiladi va bu uning hajmini, massasini va tashish imkoniyatini aniqlaydi.

Ko'tarish va o'rnatish tizimi: gidravlik tizimlar bilan jihozlangan bo'lib mashinaning barqarorligini va burg'ilashning aniqlikligini ta'minlash uchun muhimdir.

#### **Energiya samaradorligi.**

Energiya iste'moli: zamonaviy gidravlik burg'ilash qurilmalari maksimal energiya samaradorligini oshirishga intiladi. Bu esa operatsion

xarajatlarni kamaytiradi. Energiya qanchalik samarali ishlatilishini va yoqilg'i sarfini yoki elektr energiyasini optimallashtirishning mumkin bo'lgan usullarini hisobga olish muhimdir.

Ekotizimga ta'siri: ba'zi hollarda mashinaning ekologik ta'sirini, masalan, emissiya darajasi, yoqilg'i sarfi va atrof-muhitga ta'sirini baholash muhimdir.

#### **Ekspluatatsion xavfsizligi.**

Haddan tashqari yukdan himoya qilish tizimlari: o'rnatish haddan tashqari yuk yoki favqulodda vaziyatlarda shikastlanishning oldini oladigan himoya tizimiga ega bo'lishi kerak.

Uskunaning holatini kuzatish va diagnostika qilish: zamonaviy burg'ilash qurilmalari ko'pincha sensorlar va diagnostika tizimlari bilan jihozlangan bo'lib, ular barcha asosiy elementlarning, shu jumladan gidravlik tizim, elektr tizimi va boshqa muhim qismlarning holatini kuzatishga imkon beradi.

Operatorning qulayligi va xavfsizligi: ish joyining ergonomikasi, boshqaruv va Avtomatlashtirish tizimlari va himoya mexanizmlarining mavjudligini o'z ichiga oladi.

#### **Ekspluatatsion shartlari.**

Ish harorati va namlik: ko'pgina gidravlik qurilmalar juda past yoki yuqori harorat hamda ma'lum bir iqlim sharoitida ishlashga mo'ljallangan.

Ish rejimlari: shlangi burg'ilash qurilmalari turli xil rejimlarda ishlashi mumkin: uzluksiz, davriy yoki tizimni tiklash uchun vaqti-vaqti bilan.

#### **Ekspluatatsion xarajatlar.**

Xizmat narxi: materiallarni (masalan, filtrlar, moylar, muhrlar) muntazam parvarish qilish va almashtirish xarajatlarini baholash.

Foydalanish narxi: yoqilg'i, energiya resurslari, mehnat xarajatlari va mashinaning umumiy ishlash narxiga ta'sir qiluvchi boshqa omillarni o'z ichiga oladi.

#### **Har xil turdagi ishlarda qo'llash.**

Tog'-kon ishlari: turli xil jinslarda burg'ilash uchun gidravlik qurilmani qo'llashni baholash-yumshoqdan qattiqlikkacha.

Neft va gaz quduqlari: neft va gaz sanoati uchun quduqlarni burg'ilashda foydalanish xususiyatlari, bu yerda burg'ilashning aniqligi va chuqurligi uchun qo'shimcha talablar bo'lishi mumkin.

Geologik tadqiqotlar: geologik tadqiqotlar uchun burg'ilashning aniqligi va ishonchligini

baholash.


**Xulosa.** Gidravlik burg‘ilash mashinasining ishlash ko‘rsatkichlarini tahlil qilish turli xil obyektlarda o‘rnatishning eng samarali va xavfsiz ishlashini ta‘minlash uchun ushbu parametrlarning bar-

chasini hisobga olishi kerak. Nafaqat burg‘ilash uskunalarning chidamliligi, balki burg‘ilash jarayonlarining iqtisodiyotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan ishlash ham to‘g‘ri ishlash va muntazam texnik xizmat ko‘rsatishga bog‘liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуазизов Н.А. Разработка методов повышения эффективности карьерных гидрофицированных экскаваторов на основе оптимизации их гидравлических систем Узбекистан // Дисс. док. техн. наук. – Алмалык, 2020. – 200 с.
2. Слесарев Б. В. Обоснование параметров и разработка средств повышения эффективности эксплуатации карьерных гидравлических экскаваторов: автореф. дис. ... канд. техн. наук. — М.: Институт горного дела, 2005. — 24 с.
3. Rakhutin M.G., Giang Quoc Khanh, Krivenko A.E., Tran Van Hiep. Evaluation of the influence of the hydraulic fluid temperature on power loss of the mining hydraulic excavator. Journal of Mining Institute.2023. Vol. 261, p. 374-383.
4. Беленков Ю.А., Нейман В.Г., Селиванов М.П.,и др.Надежность объемных гидроприводов и их элементов. М., Машиностроение, 1977 г. — 167 с.
5. Abduazizov N.A., Toshov J.B. Analysis of the influence of the temperature of the operating liquid on the performance of hydraulic excavators // “GORNIY VESTNIK UZBEKISTANA”, 2019, №3 (78) pp. 89-91.
6. Atakulov L.N., Haydarov Sh.B. Improving the excavator bucket loop. International Engineering Journal For Research & Development. – India, 2021. – Vol. 6, Issue 4. – pp. 1-9.
7. Buri Toshov, Akbar Khamzayev, Shaxlo Namozova. Development of a circuit for automatic control of an electric ball mill drive// AIP Conference Proceedings 2552, 040018 (2023).
8. Usmonov M. Studies of factors affecting tire wear //texnicheskie nauki: problemy i resheniya. – 2021. – s. 117-121.

УДК: 669.295:621.9:621.35

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.31

## ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ, ПЕРЕРАБОТКИ И ПРИМЕНЕНИЯ РЕНИЯ В ВЫСОКОТЕХНОЛОГИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ПРОМЫШЛЕННОСТИ



**Хасанов Абдирашид  
Салиевич**

*Заместитель главного инженера  
по науке АО "Алмалыкский ГМК,"  
доктор технических наук,  
профессор, Алмалык, Узбекистан*



**Хакимов Камол  
Жураевич**

*Заведующий кафедрой  
«Нефтегазовое и горное дело»,  
доктор философии по  
техническим наукам, доцент,  
Термезский государственный  
университет инженерии и  
агротехнологий,  
Термез, Узбекистан*



**Ахмедов Урал  
Чориевич**

*Доктор философии по химии,  
доцент, Термезский  
государственный университет  
инженерии и агротехнологий,  
Термез, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются физико-химические свойства рения, его методы получения и сферы применения. Обсуждаются способы переработки первичного и вторичного сырья, включая гидрометаллургические и пирометаллургические методы извлечения рения. Особое внимание уделено процессам рециклинга и технологическим аспектам получения металлического рения. Приводятся данные о промышленном производстве, спросе и значении рения в авиационно-космической промышленности и нефтехимии.

**Ключевые слова:** Рений, редкие металлы, переработка рения, рециклинг, суперсплавы, гидрометаллургия, пирометаллургия, авиационная промышленность, катализаторы.

## YUQORI SANOAT TARMOQLARIDA RENIYNI OLIISH, QAYTA ISHLASH VA QO‘LLASH TEXNOLOGIYALARI

**Hasanov Abdirashid  
Saliyevich**

*"Olmaliq kon-metallurgiya  
kombinati" AJ bosh muhandisining  
ilm-fan bo'yicha o'rinbosari,  
texnika fanlari doktori, professor,  
Olmaliq, O'zbekiston*

**Xakimov Kamal  
Jurayevich**

*"Neft-gaz va konchilik ishi"  
kafedrasini mudiri, texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, dotsent,  
Termiz davlat muhandislik va  
agrotexnologiyalar universiteti,  
Termiz, O'zbekiston*

**Axmedov O'ral  
Choriyevich**

*Kimyo fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent, Termiz davlat  
muhandislik va agrotexnologiyalar  
universiteti, Termiz, O'zbekiston*

**Аннотация.** Ушбу мақолда ренийнинг физик-кимйовий хossalari, olinish usullari va qo'llanilish sohalari ko'rib chiqiladi. Birlamchi va ikkilamchi xom ashyolarni qayta ishlash usullari, jumladan, reniyni ajratib olishning gidrometallurgik va pirometallurgik usullari muhokama qilinadi. Rений metalini olishning texnologik jihatlari va retsikling jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Rенийning sanoat ishlab chiqarishi, talabi va aviatsiya-kosmik sanoati va neft kimyosidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Калит so'zlar:** Rений, nodir metallar, reniyni qayta ishlash, retsikling, superqotishmalar, gidrometallurgiya, pirometallurgiya, aviatsiya sanoati, katalizatorlar.

## TECHNOLOGIES FOR OBTAINING, PROCESSING, AND APPLYING RHENIUM IN HIGH-TECH INDUSTRIAL SECTORS

**Khasanov Abdirashid  
Saliyevich**

*Deputy Chief Engineer for Science  
of JSC "Almalyk MMC," Doctor of  
Technical Sciences, Professor,  
Almalyk, Uzbekistan*

**Khakimov Kamol  
Juraevich**

*Head of the Department of Oil and  
Gas and Mining, Doctor of  
Philosophy in Technical Sciences,  
Docent, Termez State University of  
Engineering and Agrotechnologies,  
Termez, Uzbekistan*

**Akhmedov Ural  
Chorievich**

*PhD in Chemistry, Docent, Termez  
State University of Engineering and  
Agrotechnologies,  
Termez, Uzbekistan*

**Abstract.** This article discusses the physicochemical properties of rhenium, its production methods, and applications. Methods for processing primary and secondary raw materials, including hydrometallurgical and pyrometallurgical methods for extracting rhenium, are discussed. Particular attention is paid to the processes of recycling and technological aspects of obtaining metallic rhenium. Data on industrial production, demand, and the importance of rhenium in the aviation and space industry and petrochemicals are presented.

**Keywords:** Rhenium, rare metals, rhenium processing, recycling, superalloys, hydrometallurgy, pyrometallurgy, aviation industry, catalysts.

**Введение.** Рений по промышленной классификации относится, наряду с галлием, индием, таллием, германием, селеном и теллуrom, к рассеянным редким металлам. Основаниями для включения рения в эту подгруппу редких металлов являются, во-первых, достаточно низкое содержание его в природе (7·10<sup>-8</sup> %) и, во-вторых, отсутствие собственных минералов (извлекают рений, в основном, из молибденовых и медно-молибденовых руд как побочный продукт). В то же время, рений по физическим и химическим свойствам резко отличается от своих соседей по подгруппе: его плотность составляет 21,0 г/см<sup>3</sup> (четвертое место после осмия, иридия и платины), температура плавления – 3180 ± 20 °C (второе место после вольфрама). Рений с тугоплавкими редкими металлами (вольфрамом, молибденом, танталом и ниобием) образует твердые растворы с его предельным содержанием до 50 мас. %, что является основанием для создания сплавов рения с этими металлами (а также с никелем, кобальтом и хромом).

Рений производят в очень небольших количествах: в 2020 г. мировой объем его производства составил порядка 70 т. Стоимость рения (в виде перрената аммония) в последние годы удерживается на уровне 1000 дол./кг.

**Литературный анализ и методология.**

Впервые рений нашел применение в нефтехимии как частичный заменитель платины в составе катализаторов. В последние десятилетия произошли значительные изменения в структуре потребления рения. В настоящее время до 80 % суммарного спроса на данный металл приходится на авиакосмическую отрасль, где его используют как компонент высокожаропрочных сплавов на основе никеля (так называемых суперсплавов), применяемых для литья монокристаллических турбинных лопаток, работающих в критических секциях авиационных и ракетных двигателей. Наибольшая часть остальных 20 % его потребления связана с производством катализаторов дегидрогенизации и крекинга нефти [1-5].

Высокий спрос на рений и его дороговизна предопределили повышенное внимание к рециклингу рения, то есть получению его из вторичного сырья. В общем балансе производства рения получение его из первичного (минерального) сырья занимает порядка 80 %, остальное приходится на вторичное, причем доля рения, извлекаемого из вторичного сырья, непрерывно возрастает. Согласно статистике, уровень переработки рения в секторе жаропрочных сплавов ежегодно увеличивается на 5%.


К вторичным ресурсам рения относятся

отходы производства порошкового металлического рения, его сплавов с молибденом, вольфрамом и никелем, отходы суперсплавов, отработанные алюмоплатинорениевые катализаторы, отходы производства полуфабрикатов и изделий из рения. Практически все образующиеся ренийсодержащие отходы перерабатываются, что обусловлено, в том числе, и установлением высокой цены на них. Для извлечения рения из вторичного сырья применяют различные пиро- и гидрометаллургические методы, основными из которых являются окислительный обжиг, вакуумная плавка, хлорирование и фторирование, а также анодное растворение [4-9]. Выбор той или иной технологической схемы переработки в каждом отдельном случае определяется видом вторичного сырья, типом сплава, а также имеющимся технологическим оборудованием. В любом случае при выборе технологии утилизации рения, в первую очередь, используют те, которые обеспечивают максимальную степень его извлечения. В настоящем сообщении рассмотрены варианты переработки отходов суперсплавов с целью извлечения из них рения в той или иной форме.

**Обсуждение.** В наибольших количествах существуют окисленные молибденовые руды, которые имеют плохую обогащаемость методами флотации, и, наконец, всевозможные отходы, хвосты, кеки от переработки руд и концентратов, которые занимают значительную долю в металлургии молибдена. Основные способы переработки сульфидных молибденовых концентратов представлены в предыдущих разделах. Первой и важнейшей стадией в процессе переработки молибденового концентрата является обжиг. Молибденовый концентрат, поступающий на переработку, содержит 75-95% сульфида молибдена и рения, а также сульфиды сопутствующих металлов меди, железа, цинка, свинца и нерудные примеси: оксиды кремния, алюминия, карбонаты кальция, магния. В молибденовом концентрате молибдена 45-55%, серы 30-35%. Обжиг необходим для удаления всей серы. Сульфатная и сульфидная сера, присутствующая в обожженном концентрате также недопустима, так как легко растворяется и загрязняет растворы, получаемые при дальнейшем гидро-


металлургической обработке огарков. При создании окислительной атмосферы в печи необходимо выжечь из концентрата весь свободный углерод, масла и флотореагенты. Из флотореагентов особенно необходимо удаление коллекторов, покрывающих сульфиды и оксиды пленкой, делающей их гидрофобными. Уменьшение смачиваемости концентрата приводит к снижению извлечения молибдена в раствор при гидрометаллургической переработке. В большинстве молибденовых концентратов содержится рений.

При обогащении медно-молибденовых (рис. 2) руд Re следует за Mo, который сам часто является попутчиком Cu. При флотации до 80% Re попадает в концентрат. Так, молибденовые концентраты, получаемые при обогащении медно-порфировых руд, содержат 0,02- 0,17% Re. Окислительный обжиг сульфидных молибденовых концентратов проводят при 550÷650°C. Для обжига молибденовых концентратов традиционно используются следующие аппараты: муфельные или камерные печи с ручным перегреванием огарка; вращающиеся трубчатые печи; многоподовые печи; печи кипящего слоя. Содержащийся в концентрате рений образует  $Re_2O_7$ , который уносится с газовым потоком. Улавливание металла осуществляется с помощью специальных мокрых систем (скрубберы, барботеры) в сочетании с сухими аппаратами (циклоны, рукавные фильтры), которые могут улавливать 60–70% Re.



**Рис.1. Принципиальная технологическая схема получения перрената аммония в АО «Алмалыкский ГМК».**

Получения металлического рения осуществляется в следующем порядке:



Эти методы получения рения можно разделить на три группы:

- 1) восстановление перренатов калия и аммония водо родом;
- 2) электролитическое выделение (осаждение) рения из растворов - метод электролиза;
- 3) термическая диссоциация галогенидов рения.

При восстановлении перренатов аммония или калия водородом получается порошок рения. При электролитическом выделении получают порошок или чешуйки (губчатые осадки рения). Способом термической диссоциации получают рениевые покрытия.

*Восстановление перрената калия водородом.* Перренат калия восстанавливают водородом при температурах выше 600°C по следующей суммарной реакции:



Обычно восстановление проводят в две стадии. Первая стадия низкотемпературная, ниже температуры плавления  $\text{KReO}_4$ , равной 550°C, вторая – высокотемпературная, выше 600°C.

Разработано несколько способов восстановления перрената калия, отличающиеся режимами.

Предложено проводить восстановление перрената калия водородом при температуре красного каления. Для уменьшения воздействия свободной щёлочи на стенки сосуда и увеличения действия водорода, производят предварительное смешение перрената калия с  $\text{KCl}$  или  $\text{NaCl}$ , взятыми в количестве, несколько раз превышающим по весу  $\text{KReO}_4$ . Вместо хлорида можно примешивать порошок металлического рения, а для получения рениевого сплава –

металл или окись металла, с которыми рений в последствии должен быть сплавлен. Полученный металл содержит десятые доли процента калия, по всей вероятности в виде ренита калия  $\text{K}_2\text{ReO}_3$ , который не удаётся полностью удалить ни промыванием, ни даже повторным восстановлением. Это не имеет большого значения, если рений используется для легирования, так как калий при высоких температурах возгоняется.

По другому способу рений получают медленным нагреванием перрената калия до 1000°C в атмосфере водорода в неглазированной лодочке из твёрдого фарфора. Полученный кристаллический порошок рения также загрязнён калием. Для получения более чистого металла его промывают водой, к которой прибавлено немного уксусной или соляной кислоты, и дополнительно восстанавливают при 1000°C в атмосфере водорода.

Описан также способ восстановления перрената калия, по которому измельчённый до – 0,25 мм (60 меш)  $\text{KReO}_4$ , предварительно высушенный в течение часа при 175°C, восстанавливают водородом в серебряной лодочке два часа при 250°C, а затем при 500°C тоже 2 часа. Восстановленную смесь при 1000°C до получения металла нужной чистоты. Чистый металл содержит 99,0-99,8% рения при выходе 85- 95%.

Известен также способ получения порошка металлического рения, по которому перренат калия загружают в серебряную трубку, которую помещают в печь, наполненную водородом. Температуру в печи регулируют в пределах 235-350°C. По окончании реакции восстановления печь медленно охлаждают. Смесь удаляют из печи и промывают горячей дистиллированной водой для удаления невосстановившегося рения. Полученный высушенный порошок рения имеет серовато-чёрный цвет.

В промышленных условиях, на заводе Леопольдсгале в Германии нашёл применение следующий способ. Тонкоизмельчённый перренат калия перемешивают с двойным по весу количеством хлорида калия и восстанавливают в токе водорода при тёмно-красном калении. Хлористый калий добавляют для того, чтобы он впитал в себя легко плавкий перренат калия, в результате чего создалась бы большая поверх-

ность для воздействия водорода. Продукт восстановления промывают водой, горячей разбавленной соляной кислотой, затем снова водой и сушат. Получают чистый продукт, содержащий в качестве примесей лишь несколько десятых процента калия, 0,1-0,2% кислорода, 0,001% железа, тысячные доли процента кальция и магния. Особенно вредна примесь калия, которую не удаётся удалить ни дополнительным восстановлением, ни самым тщательным промыванием. Можно предположить, что во время восстановления часть калия внедряется в кристаллическую решётку рения. Примесь калия делает порошок непригодным для получения пластического рения. Штабики из такого порошка плохо спекаются; их плотность не удаётся довести выше 60% от теоретического.

Ниже приведены уточнённые режимы получения рения из перрената калия. Оптимальной температурой восстановления следует считать 480-500°C, так как ниже 480°C процесс восстановления протекает замедленно, а температура начала плавления перрената калия находится в пределах 518-552°C. Продолжительность восстановления два часа. Скорость пропускания водорода при восстановлении, например, 20 г перрената калия составляет: за первые 0,5 ч – 100-110 мл/мин, за вторые 0,5 ч – 70-80 мл/мин, в дальнейшем – 30-40 мл/мин. При нагревании и охлаждении печи достаточна скорость пропускания водорода, равная 15-20 мл/мин. Наилучшим материалом для лодочки является никель марки I.


Полученный металлический рений промывают горячей водой и затем 5%-ным раствором HCl. Выход металла от перрената калия составляет 97-98%.

Промывные воды, содержащие рений, утилизируются. Полученный металлический рений содержит в качестве примесей, % никеля – 0,001; железа – 0,005; меди – 0,005; калия – 0,018; кальция – 0,010; натрия – 0,005; молибдена – 0,001; алюминия – 0,005.

Расход основных материалов на получение 1 кг Re составляет водорода – 1100 л, воды – 40 л, соляной кислоты (33%) – 0,4 л, перекиси водорода (30%) – 0,08 л, KOH – 0,8 кг.

#### **Восстановление перрената аммония**

**водородом.** При восстановлении перрената аммония водородом получается более чистый металл (не загрязнённый калием), так как образующийся аммиак улетучивается. Процесс восстановления протекает по реакции:




Полученный перренат аммония восстанавливают в токе водорода при температуре 1000-1100°C. Полученный рений – достаточно чистый продукт, представляет собой тонко измельчённый серый порошок, похожий на пепел.

Если исходным продуктом является перренат калия, то процесс получения металлического рения ведут через операцию конверсии перрената калия в перренат аммония. Для этого перренат калия восстанавливают водородом в две стадии: при 500-600°C в серебряной лодочке на первой стадии и при 1000-1050°C в фарфоровой лодочке – на второй стадии. Полученный загрязнённый металл нагревают в токе кислорода при 500°C для образования семиоксида рения.  $\text{Re}_2\text{O}_7$  растворяют в аммиаке и перекиси водорода. Получают чистый  $\text{NH}_4\text{ReO}_4$ , который восстанавливают описанным способом. Схема получения металлического рения с применением данного метода приведена на рис. 2. По этой схеме перренат калия восстанавливают в две стадии, затем промывают порошок рения с целью максимального удаления калия в виде гидроксида. Полученный металл окисляют до  $\text{Re}_2\text{O}_7$  и выщелачивают водой. Раствор нейтрализуют гидроокисью аммония для получения перрената аммония, который выделяют из раствора методом кристаллизации. Перренат аммония измельчают до крупности – 0,044 мм в шаровых мельницах, футерованных резиной, и восстанавливают в атмосфере водорода. Крупность полученного металлического порошка рения находится в пределах 1 – 25 мкм.

Описан также способ восстановления перрената калия, по которому измельчённый до – 0,25 мм (60 меш)  $\text{KReO}_4$ , растворяют в 10%-ным раствором HCl и из полученного раствора при помощи сероводорода осаждают семи-сернистый рений. Полученный  $\text{Re}_2\text{S}_7$  растворяют при нагревании до 40°C в 10%-ном растворе  $\text{NH}_4\text{OH}$  и 30%-ном растворе  $\text{H}_2\text{O}_2$ . Раствор упаривают досуха и остаток обрабаты-

вают  $\text{HNO}_3$  для удаления  $\text{SO}_2$ . Затем остаток растворяют в аммиаке и вновь упаривают досуха. Полученную смесь  $\text{NH}_4\text{ReO}_4$  и  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ , высушенную при  $110^\circ\text{C}$ , медленно нагревают в токе водорода до  $1100^\circ\text{C}$  в кварцевой лодочке в течение двух часов, а затем также медленно охлаждают. Выход металлического рения по этому способу составляет 80-90%. Металл получается очень чистым.







**Рис.2. Схема получения металлического рения.**

Перренат аммония из перрената калия может быть получен и другими способами, подробно изложенными в разделе 5.7.2.

*Восстановление перрената калия и аммония водородом под давлением (в растворах и твёрдом состоянии).* Установлено, что перренаты калия и аммония как в растворах, так и в твёрдом виде восстанавливаются водородом при сравнительно низких температурах ( $200-300^\circ\text{C}$ ) под давлением 20-100 атм. При восстановлении безводных перренатов калия или аммония водородом под давлением в 50 атм металлический рений получается всего за 1-2 ч.

При восстановлении водородом под давлением растворов перренатов калия или аммония в присутствии соляной кислоты можно получить ряд промежуточных соединений рения низшей валентности, например  $(\text{NH}_4)_2\text{ReCl}_6$  и  $(\text{NH}_4)_2\text{ReCl}_4$ , которые могут быть использованы для получения металлического рения высокой

степени чистоты, не содержащего кислород. Восстановление протекает по следующим реакциям:



К «хлорным» способам относится также способ, заключающийся в хлорировании технического рения при температуре  $600-700^\circ\text{C}$ . Полученный пентахлорид рения,  $\text{ReCl}_5$  очищают вакуумной дистилляцией. Хлорид разлагают водой. При этом 65-70% рения осаждается в виде гидратированной двуокиси. Полное разложение хлорида достигается при  $\text{pH}=2,5-3,0$ . Отфильтрованный и промытый осадок сушат в вакууме и восстанавливают водородом в две стадии: сначала при  $400-600^\circ\text{C}$ , а затем при  $800^\circ\text{C}$ . Раствор окисляют перекисью водорода, нейтрализуют аммиаком и выделяют из него перренат аммония, который возвращают на восстановление. Метод обеспечивает хорошую очистку от примесей щелочных и щелочно-земельных металлов. В тоже время железо, кремний и ряд других примесей не отделяются.


**Заключения.** Рений является редким и ценным металлом, обладающим уникальными физико-химическими свойствами, что делает его незаменимым в авиационно-космической и нефтехимической промышленности. Несмотря на ограниченные природные запасы, переработка вторичного сырья и усовершенствованные методы получения рения позволяют удовлетворять растущий спрос на этот металл. Применение современных технологий переработки и утилизации ренийсодержащих отходов играет ключевую роль в снижении затрат и повышении эффективности использования данного редкого элемента.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Санакулов К., Петухов О.Ф. и др. Способ извлечения рения // Патент Республики Узбекистан IAP 04651, приоритет от 20.11.2009.

2. Кокушева А.А., Дайрабаева Г.А., Усабекова А.Ш., Перфельев Н.А.. Извлечение рения из сернокислотных шламов Джезказганского медеплавильного завода // Цветные металлы. – 1992. - № 5. – С.14 – 15.
3. Палант А.А., Трошкина И.Д., Чекмарёв А.М. Металлургия рения. – М.: Наука, 2007. 298 с.
4. Савицкий Е.М., Тылкина М.А., Поварова К.Б. Сплавы рения. – М.: Наука, 1965.
5. Санакулов К.С., Мухиддинов Б.Ф., Хасанов А.С. Химические Элементы свойства, получение, применение. Ташкент «Турон замин зиё» 2016 г. 493 с.
6. Хасанов, А. С., Хакимов, К. Ж., Шодиев, А. Н., & Эшонкулов, У. Х. (2018). Уран и Золото. *Мухофаза+ Ижтимиойсийосий, илмий-амалий ва бадий журнал*, (01 (157)), 13.
7. Хасанов, А. С., Эшонкулов, У. Х., & Каюмов, О. А. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЖЕЛЕЗА ИЗ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ СЫРЬЁ И РУДЫ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 291-298.
8. Хасанов, А. С., & Эшонкулов, У. Х. (2023). ПОДГОТОВКА ИСХОДНОГО ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩЕГО СЫРЬЯ К ПЕРЕРАБОТКЕ И ЛАБОРАТОРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ВОССТАНОВЛЕНИЮ. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(4), 34-46.
9. Эшонкулов, У. Х., Хасанов, А. С., & Хужакулов, А. М. (2022). НОВЫЕ СПОСОБЫ ОБОГАЩЕНИЯ КОНЦЕНТРАТОВ И ПРОЦЕССЫ ПОДГОТОВКИ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ РУД. *Научные основы и практика переработки руд и техногенного сырья* (pp. 119-125).
10. Abdurashid Khasanov, & Uchkun Eshonkulov. (2023). STUDY OF METHODS OF IRON SEPARATION FROM IRON-CONTAINING RAW MATERIALS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(11), 119–123. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/818>
11. Хасанов, А. С., & Эшонкулов, У. Х. (2023). ПОДГОТОВКА К ОБОГАЩЕНИЮ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩЕГО СЫРЬЯ ДЛЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЖЕЛЕЗА. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 143-151.
12. Khasanov, A. S., Eshonqulov, U. X., & Khojiev Sh, T. (2022). Technology for the Reduction of Iron Oxides in Fluidized Bed Furnaces. *Technology*, 6(12), 23-29.
13. Эшонкулов, У. Х. У. (2022). ХАРАКТЕРИСТИКА И ТИПЫ ЖЕЛЕЗНЫХ СЫРЬЁ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 303-308.
14. Хакимов, К. Ж., Эшонкулов, У. Х., & Умирзоков, А. (2020). Complex Processing Of Lead-Containing Technogenic Waste From Mining And Metallurgical Industries In The Urals. *THE AMERICAN JOURNAL OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (TAJET) SJIF-5.32 DOI-10.37547/tajet*, 2(9), 2689-0984.

UO‘K: 622.7

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.11

## PAST NAVLI TEXNOGEN CHIQUINDILAR TARKIBIDAN NODIR METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH



**Voxidov Baxriddin Raxmidinovich**

*Texnika fanlar doktori, professor, Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti, Navoiy, O‘zbekiston*

*E-mail: [baxriddin.vokhidov@mail.ru](mailto:baxriddin.vokhidov@mail.ru)*

*ORCID ID: 0000-0002-0819-6752*



**Yandashev Alisher Anvar o‘g‘li**

*Assistent Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston*

*E-mail: [karmana.tiger@gmail.com](mailto:karmana.tiger@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0002-9683-3201*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada past navli texnogen chiqindilar tarkibidan nodir metallarni ajratib olish texnologiyasi tadqiq qilingan. Mualliflar texnogen chiqindilarning tabiiy resurslarga ta’sirini kamaytirish va nodir metallarni qayta ishlashning samarali usullarini izlash zaruratini ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda, chiqindilardan nodir metallarni ajratib olishda qo‘llaniladigan fizik-kimyoviy jarayonlar, kimyoviy reaksiyalar va yangi texnologiyalar tahlil qilinadi. Xususan, maqolada ajratib olishning samaradorligi va iqtisodiy jihatlari, shu bilan birga ekologik ahamiyati o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Texnogen chiqindilar, nodir metallar, chiqindilardan metallarni ajratib olish, qayta ishlash texnologiyasi, ekologik ta’sir, kimyoviy jarayonlar, fizik-kimyoviy jarayonlar, iqtisodiy samaradorlik.

## ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ РЕДКИХ МЕТАЛЛОВ ИЗ СОСТАВА ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ НИЗКОГО КАЧЕСТВА

**Вохидов Бахриддин Рахмидинович**

*Доктор технических наук, профессор, Навоийский  
государственный горно-технологический университет,  
Навои, Узбекистан*

**Яндашев Алишер Анвар угли**

*Ассистент Навоийский государственный горно-  
технологический университет, Навои, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье исследуется технология извлечения редких металлов из состава техногенных отходов низкого качества. Авторы рассматривают необходимость поиска эффективных методов переработки техногенных отходов с целью минимизации их воздействия на природные ресурсы и извлечения редких металлов. В статье анализируются физико-химические процессы, химические реакции и новые технологии, используемые для извлечения редких металлов. В частности, рассматриваются эффективность извлечения, экономические аспекты, а также экологическая значимость этих процессов.

**Ключевые слова:** Техногенные отходы, редкие металлы, извлечение металлов из отходов, технология переработки, воздействие на окружающую среду, химические процессы, физико-химические процессы, экономическая эффективность.

## STUDY OF THE TECHNOLOGY FOR EXTRACTING RARE METALS FROM LOW-GRADE TECHNOGENIC WASTE

**Vokhidov Bakhriddin Rakhmidinovich**

Doctor of Technical Sciences, Professor, Navoi State University of  
Mining and Technology, Navoi, Uzbekistan

**Yandashev Alisher Anvar ugli**

Assistant Navoi State University of Mining and Technology, Navoi,  
Uzbekistan

**Abstract.** This article investigates the technology for extracting rare metals from low-grade technogenic waste. The authors examine the need for effective methods of processing technogenic waste to minimize their impact on natural resources and extract rare metals. The article analyzes the physical-chemical processes, chemical reactions, and new technologies used for extracting rare metals. Specifically, the efficiency of extraction, economic aspects, and ecological significance of these processes are discussed.  
**Keywords:** Technogenic waste, rare metals, extraction of metals from waste, recycling technology, environmental impact, chemical processes, physicochemical processes, economic efficiency.

**Kirish.** Metallurgik ishlab chiqarish jarayonlari natijasida hosil bo'lgan texnogen chiqindilar nafaqat atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadi, balki ichida qimmatbaho resurslar saqlaydi. Nadir va noyob metallar, masalan, indiy, galliy, hafniy, lantanidlar, va boshqa elementlar, yangi texnologiyalar va elektronika sanoatida keng qo'llaniladi. Texnogen chiqindilarni qayta ishlash hozirgi kunda ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim masala bo'lib qolmoqda. 2-GMZ texnogen chiqindilari tarkibida mavjud qimmatbaho metallarni, ayniqsa, oltin va kumushni ajratib olish jarayonlari, ularni samarali qayta ishlashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish zaruratini yaratadi. Ushbu maqolada, texnogen chiqindilardan oltin va kumushni ajratib olishning gravitatsiya boyitish va sianidlashtirish usullari orqali amalga oshirilgan tadqiqot natijalari taqdim etiladi.

#### **Texnogen chiqindilar turlari:**

**1. Konsentratlar:** Metallurgik jarayonlardan olingan konsentratlar, ko'pincha ruda sifatida saqlanadi va unda metallarning yuqori foizi bo'ladi.

**2. Shlaklar:** Metall ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan slaklar, ayrim hollarda, noyob metallarni o'z ichiga oladi.

**3. Katalizatorlar:** Kimyo sanoatida ishlatilgan va o'zining ishlov berish jarayonidan keyin chiqadigan katalizatorlar.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** So'nggi yillarda texnogen chiqindilardan nodir metallarni ajratib olish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Ilgari o'rganilgan texnologiyalar orasida kimyoviy eritmalar va fizik-kimyoviy jarayonlar alohida o'rin tutadi. Xususan, suyuqlik-ekstraksiya usuli, past navli chiqindilardan metallarni ajratishda eng samarali metodlardan biri sifatida tan olingan. Biroq, ushbu usulning yuqori energiya sarfi va uzoq davom etadigan jarayonlari ekologik va iqtisodiy

nuqtai nazardan samaradorligini kamaytiradi. Ion almashinuvi va elektrokimyoviy texnologiyalar hamda yangi biotexnologik usullar esa ushbu jarayonni takomillashtirishga yordam beradi. Tadqiqotlarda shuningdek, yuqori samarali nanotexnologiyalarning qo'llanilishi va ularning texnogen chiqindilarni qayta ishlashdagi potentsiali o'rganilgan. Ekologik ta'sir va iqtisodiy samaradorlikni hisobga olgan holda, yangi texnologiyalarni joriy etishning istiqbollari sezilarli darajada oshdi [1].

2-GMZ texnogen chiqindilaridan metallarni ajratib olish jarayonlari ekologik xavfsizlikni yaxshilash va qayta ishlash samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, boyitish jarayonlarida zararli moddalar miqdori kamayishi, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi muhim jihatlar metallurgiya sohasining afzalliklaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda, 2-GMZ texnogen chiqindilarini gravitatsiya usulida boyitish hamda sianlash jarayonlarining metodlarining samaradorligi turli eksperimental sharoitlarda o'rganilgan. Har bir metodning afzalliklari va cheklovlari aniq belgilab, ularning o'zaro ta'sirini yaxshilash va jarayonlarni optimallashtirish yo'llari ko'rsatilgan [3].

#### **Ajratish usullari**

**1. Kimyoviy ajratish:** Noyob metallarni ajratish uchun turli kimyoviy reaksiya va eruvchanlikdan foydalaniladi. Masalan, eritmalar orqali anion va kationlarni ajratish.

**2. Fizik metodlar:** Fizik jarayonlar, masalan, magnit ajratish yoki flotatsiya orqali metallni ajratib olish.

**3. Biologik metodlar:** Ba'zi bakteriyalar va mikroorganizmlar, noyob metallarni o'z ichiga olgan chiqindilarni qayta ishlashda qo'llanilishi mumkin.

**4. Termal usullar:** Termal usullar, masalan,

yuqori haroratda eritish, metallning ajratilishini ta'minlaydi.

**Natijalar.** Tadqiqotda texnogen chiqindilarni gravitatsiya usulida boyitish hamda sianlash usullar sinovdan o'tkazildi. Har bir usulning samaradorligi va parametrlar bo'yicha olingan natijalar quyida keltirilgan.

**Gravitatsiya boyitish jarayonining natijalari.** Gravitatsiya boyitish jarayonida olingan boyitma va chiqindilar tahlil qilingan. Quyidagi jadvalda gravitatsiya boyitish natijalari keltirilgan:

- Rotor ayl. Tezligi;
- Boyitmadagi miqdor;
- Chiqindidagi miqdor.

1-jadval

**Gravitatsion usulda boyitish natijalari**

Mahsulot nomi	Chiqish, %	Miqdori Au, g/t	Ajratib olish, %	Tajriba shartlari
Boyitma	56,9	2,4	71,6	60% -0,074+0 mm
Grav-ya chiqindisi	43,1	0,2	28,4	Rotor ayl. tezligi 40%
Dast. tex. chiqindi	100	0,45	100	7 daqiqa, 2,8-3 l/min suv sarfi

2-jadval


**Gravitatsiya boyitishning boshqa natijalari**

Mahsulot nomi	Chiqish, %	Miqdori Au, g/t	Ajratib olish, %	Tajriba shartlari
Boyitma	48,7	3,1	64,3	70% - 0,074+0 mm
Gravitatsiya chiqindisi	51,3	0,25	35,7	Rotor ayl. tezligi 40%
Dast. tex. chiqindi	100	0,39	100	7 daqiqa, 2,8-3 l/min suv sarfi

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, gravitatsiya boyitish jarayonining samaradorligi yuqori, ammo ajratib olish darajasi materialning granulometrik tarkibiga bog'liq. Ko'proq yanchilgan materiallar, ya'ni -0,074 mm dan kichik zarralar gravitatsiya boyitish jarayonida samarali ajratib olinadi.



**1-rasm. Knelson MD3 markazdan qochirma konsentratiori sxemasi.**



**2-rasm. Har bir bosqich uchun zarrachalar o'lchamini ajralish darajasiga bog'liqlik grafigi.**

**Sianlash jarayonining natijalari.** Sianlash jarayonida, NaCN konsentratsiyasi va kislorodning to'yinganligi oshirilishi natijasida ajratib olish samaradorligi yuqori bo'ldi. Quyidagi jadvalda sianlash jarayonidagi oltin va kumushning ajratib olish darajasi ko'rsatilgan:

- Sian konsentratsiyasi;
- Boshlang'ich miqdori;
- Eritmadagi miqdori, mg/l;
- Qoldiq kekdagi miqdori, %;
- Ajratib olish darajasi, %.

3-jadval

**Sianlash jarayonidagi ajratib olish darajasi**

Namuna №	Sian konsentratsiyasi, %	Boshlang'ich miqdori, g/t	Eritmadagi miqdori, mg/l	Qoldiq kekdagi miqdori, %	Ajratib olish darajasi, %
Namuna №1	0,055-0,060	7,20	5,65	0,25	78,51
Namuna №2	0,05-0,055	8,40	6,79	0,34	80,86
Namuna №3	0,05-0,055	10,13	7,95	0,45	78,45

4-jadval

**Sianlash jarayonidagi kumushning ajratib olish darajasi**

Namuna №	Sian konsentratsiyasi, %	Boshlang'ich miqdori, g/t	Eritmadagi miqdori, mg/l	Qoldiq kekdagi miqdori, %	Ajratib olish darajasi, %
Namuna №1	0,055-0,060	18,92	6,79	1,78	69,45
Namuna №2	0,05-0,055	21,22	9,53	1,7	74,30
Namuna №3	0,05-0,055	18,33	5,63	1,55	69,95

Si natijalari gravitatsiya boyitish jarayoniga nisbatan yuqori ajratib olish darajasini ko'rsatdi, bu esa o'z navbatida oltin va kumushni ajratib olishning samarali usulini tasdiqladi.


**Xulosa.** Ushbu tadqiqotda past navli texnogen chiqindilardan nodir metallarni ajratib olish texnologiyasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mavjud texnologiyalar ekologik va iqtisodiy jihatdan bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, texnologiyalarni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar va yangi metodlarni joriy etish bu jarayonlarni yanada samarali qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, biotexnologik usullar

va nanotexnologiyalarning qo'llanilishi ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishga yordam beradi va texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Kelajakda, texnogen chiqindilardan metallarni ajratib olish texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu sohada yangi ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlar davom ettirilishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Y.A. Kotlyar M.A. Meretukov L.S. Strijko. Nodir metallar metallurgiyasi. Tarjimonlar: B.R. Voxidov, O.U. Fuzaylov, I.M.Rajabboyev, G.F. Mamaraimov, J.N. Narzullayev, I.N. Murodov Navoiy 2021 y.
2. Q.S.Sanaqulov, V.N.Sitenkov, P.A. Shemetov «Ko'p qatlamli qoplamalardan oltinni uyumda tanlab yeritish» O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasining, «Fan» nashriyoti, Toshkent – 2011. Tarjimonlar “Metallurgiya” kafedrasida professor-o'qituvchilari: A.O. Azimov, N.B. Xujaqulov, A.R. Aripov, I.M. Rajabboev, B.R. Voxidov, A.B. Bo'ronov, S.Z. Namazov.
3. B.R.Voxidov, A.S.Xasanov. Texnogen xomashyolardan platinoidlarni ajratib olish texnologiyasini yaratish // Kompozitsion Materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali, Tashkent 2022 y. №1. B.188-192. (02.00.00; №4).
4. Miller P.C. The design and operating practice of bacterial oxidation plant using moderate thermophiles. In: Rawlings, D.E. (Ed.), Biomining: Theory, Microbes and Industrial Processes. Springer Verlag, Berlin.- 1997.-297p.
5. Вохидов Б.Р., Хасанов А.С. // Исследование и разработка технологии извлечения металлов платиновых групп из техногенного сырья АО «АГМК» // ХИВ Международная научно-практическая конференция «Металлургия светных, редких и благородных металлов». Сибирского отделения РАН, г. Красноярск, Россия 2021 г. 6-9 Сентября С.29-32.
6. Voxidov B.R. // «Umumiy metallurgiya» nomli o'quv qo'llanmasi // Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 31.05.2020y. dagi 237-546-sonli qarori, Navoiy 2021y. 440 b.

UO‘K: 66.02

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.12

## SAPONIT MINERALINI KONVERSIYA YO‘LI BILAN QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH



**Umirov Farxod  
Ergashovich**

*Texnika fanlar doktori, professor,  
Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston  
E-mail: [umirov3@yandex.ru](mailto:umirov3@yandex.ru)*



**Pirnazarov Feruz  
Gulomovich**

*Doktorant Navoiy davlat konchilik  
va texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston  
E-mail: [fg.pirnazarov@mail.ru](mailto:fg.pirnazarov@mail.ru)*



**Qurbonov Mehrob  
Nuriddinovich**

*Assistent Navoiy davlat konchilik va  
texnologiyalar universiteti,  
Navoiy, O‘zbekiston  
E-mail:  
[mehrobqurbonov99@gmail.com](mailto:mehrobqurbonov99@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0000-4897-9455*

**Annotatsiya.** Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari tomonidan Navoiy viloyatining Navbahor tumanida joylashgan Vaush konida dolomit minerali tarkibida saponit minerali mavjudligini kimyoviy va zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan aniqlangan bo‘lib, ushbu mineralning kimyoviy va mineralogik tarkibi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki saponit minerali tarkibida kalsiy va magniy oksidi 20-23% ni tashkil etadi. Ushbu saponit mineralini xlorid kislotasi bilan qayta ishlash jarayoni va kalsiy xlorid tuzi bilan qo‘shib kuydirish jarayoni orqali magniy xlorid eritmasini ajratib olish va uni magniy xloratigacha o‘tkazish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** natriy gipoxlorit, saponit, mineral, magniy xlorid, magniy xlorat, kalsiy xlorid, defoliant, kaustik soda.

## РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ МИНЕРАЛА САПОНИТ ПУТЕМ КОНВЕРСИИ

**Умиров Фарход  
Эргашович**

*Доктор технических наук,  
профессор, Навоийский  
государственный горно-  
технологический университет,  
Навои, Узбекистан*

**Пирназаров Феруз  
Гуломович**

*Докторант Навоийского  
государственного горно-  
технологического университета,  
Навои, Узбекистан*

**Курбонов Мехроб  
Нуриддинович**

*Ассистент, Навоийский  
государственный горно-  
технологический университет,  
Навои, Узбекистан*

**Аннотация.** Учёными Навоийского государственного горного и технологического университета было установлено наличие минерала сапонит в составе доломита месторождения Вауш, расположенного в Навбахорском районе Навоийской области. Это было подтверждено с помощью химических и современных физико-химических методов анализа. Были проведены исследования химического и минералогического состава данного минерала, которые показали, что содержание оксида кальция и магния в сапоните составляет 20-23%. В статье также описан процесс переработки минерала сапонит с использованием хлоридной кислоты и обжиг с добавлением хлорида кальция для выделения раствора хлорида магния и его дальнейшего преобразования в магний хлорат.

**Ключевые слова:** натрий гипохлорит, сапонит, минерал, хлорид магния, магниевый хлорат, хлорид кальция, дефолиант, каустическая сода.

## DEVELOPMENT OF A TECHNOLOGY FOR CONVERSION PROCESSING OF THE MINERAL SAPONITE

**Umirov Farkhod  
Ergashovich**

*Doctor of Technical Sciences,  
Professor, Navoi State Mining and  
Technological University, Navoi,  
Uzbekistan*

**Pirnazarov Feruz  
Gulomovich**

*PhD student at Navoi State Mining  
and Technological University,  
Navoi, Uzbekistan*

**Qurbonov Mekhrob  
Nuriddinovich**

*Assistant, Navoi State Mining and  
Technological University, Navoi,  
Uzbekistan*

**Abstract.** Scientists of Navoi State Mining and Technological University established the presence of saponite mineral in the composition of dolomite of Vaush deposit, located in Navbahor district of Navoi region. This was confirmed using chemical and modern physico-chemical methods of analysis. Studies of chemical and mineralogical composition of this mineral were carried out, which showed that the content of calcium and magnesium oxide in saponite is 20-23%. The paper also describes the processing of saponite mineral using chloride acid and roasting with the addition of calcium chloride to release magnesium chloride solution and its further conversion into magnesium chlorate.

**Keywords:** sodium hypochlorite, saponite, mineral, magnesium chloride, magnesium chlorate, calcium chloride, defoliant, caustic soda.

**Kirish.** Saponit minerali birinchi bo'lib Ukraina davlatining Xmelnitski viloyatida topilgan bo'lib, u dunyodagi eng boy saponit kon hisoblanadi. Adabiyotlardan ma'lumki, Saponit minerali "yuvuvchi tosh" nomi bilan yuritilib, montmorillonit guruhiga kiruvchi silikatlar hisoblanadi, och qizg'ish – qoramtir rangli, hidsiz va tamsiz modda.

Kimyoviy formulasi  $(Ca,Na)_{0.3}(Mg,Fe)_3(Si,Al)_4O_{10}(OH)_2 \cdot 4H_2O$  tarkib bo'lib, ko'p xollarda Fe, Cr ga almashgan bo'ladi, bundan tashqari tarkibida Ni, Zn, Cu, Li va boshqa metallar ham uchraydi [1-3]. Hozirgi kunda saponit minerali quyidagi sohalarda: oqava va texnologik suvlarni tozalashda, radioaktiv moddalarni yutuvchi tabiiy sorbentlar, yuqori adsorbsiyalanish, katalitik va filtrlovchi xossasiga ega bo'lgan modda, chorva mollari uchun ozuqa komponentlarini, qishloq xo'jaligi uchun mikroelementli o'g'itlar, metallurgiya sanoatida metallarni quyish, tibbiyot va farmatsevtikada davolovchi preparatlar sifatida ishlatilib kelinmoqda [7,8]. O'zbekistonda saponit mineralini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hozirda olib borilmoqda [4-7]. O'zbekiston Respublikasining Qizilqum vohasi mahalliy xomashyolarga boy va eng ko'p kimyoviy elementlar tarqalgan maskan hisoblanib, bu yerda Qizilqum fosforiti, Navbahor dolomiti, Uchtut bentoniti, Karmana ohaktoshi, ser-

petiniti, Gazg'on marmari, Nurota bazalti v.b. uchraydi. Ushbu konlar Respublikamizning xalq xo'jaligining va kimyo sanoatining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari tomonidan Navoiy viloyatining Navbahor tumanida joylashgan Vaush konida dolomit minerali tarkibida saponit minerali mavjudligini aniqlashgan. Shu sababli ushbu maqolada saponit minerali bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayon etilgan [8-10]. Maqolada tarkibida magniy oksidi saqlagan mineral saponitni xlorid kislota bilan qayta ishlash jarayoni orqali magniy xlorid eritmasini ajratib olishdagi olingan natijalar va kalsiy xlorid bilan qo'shib kuydirilgandaki natijalar keltirilgan. Bizga ma'lumki respublikamizda magniy xlorid asosan Turkmaniston va Xitoydan valyuta hisobiga olib kelinadi. Ushbu magniy xlorid magniy xloratini sintez qilish uchun ishlatiladi. Magniy xlorati yetishtiriladigan paxtaning bargini to'kuvchi defoliant sifatida islatiladi. Bu esa defoliant tannarxining yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda [7-8].

**Metodologiyasi.** Saponit mineralida bir qancha namunalar olindi va tajribalar o'tkazish uchun Retsch RM-200 rusumli harakatlanuvchi analitik maydalagich qurilmada maydalandi. Maydalangan saponit minerali 0,01-4,0 mm li AS-200 BASIC

rusumli mexanik laboratoriya qurilmasi elaklaridan o'tkazilib, namunalarga ajratildi. Olingan namunalar kimyoviy analiz, alanga-fotometriyasi – Model-410 rusumli qurilmada, X-ray phases, IK spektri IRTRACER-100 SHIMADZU IK-Fur'e spektrometrida, derivatogrammasi LABSYSEVO–rusumli zamonaviy qurilmada, rentgenoflyoresent va mikroskopik tahlil qilish usullari o'rganilgan.

**Natijalar.** Navbahor tumanida joylashgan Vaush konida dolomit minerali tarkibida saponit minerali mavjudligi aniqlangan bo'lib, ushbu mineralning kimyoviy va mineralogik tarkibi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki saponit minerali tarkibida kalsiy va magniy oksidi 20-23% ni tashkil etadi va ushbu mineral asosida magniy birikmasini ajratish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar keltirilgan.

Ushbu tadqiqotlar olib borishdan avval dastlab saponit mineralining kimyoviy tarkibi o'rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.




1-jadval

**Vaush konidagi saponit mineralining kimyoviy tarkibi**

Modda miqdori, mass. %							
SiO <sub>2</sub>	TiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	FeO	MnO	MgO	CaO
29,1	0,7	2,8	6,8	2,1	0,14	21,74	23,71
K <sub>2</sub> O	Na <sub>2</sub> O	CuO	ZnO	NiO	Sr	qo'shimchalar	H <sub>2</sub> O
2,4	1,54	0,5	0,9	0,8	0,11	2,8	2,44


Ushbu natijalar saponit mineraliga mos kelishini va yanada aniqligini ko'rish uchun IK spektri, derivatogrammasi va rentgenofazali tahlillar o'tkazildi. IQ-spektroskopik tahlili IRTRACER-100 (Shimadzu, Yaponiya) spektrometrida 400-4000 sm<sup>-1</sup> chastota sohasida o'tkazildi. Namunalar KBr asosida tabletka qilish orqali tayyorlanadi. IQ spektrlarida Saponit Si-O 798,53; 930,54; 1000,85 sm<sup>-1</sup> valentlik tebranish mintaqasida aniq yutilish chiziqlarini hosil qiladi. Kremniy-kislorodli tetraedrlarning simmetriyasi saponitning kristall panjarasini tashkil etuvchi kationlarning kattaligiga bog'liq, chunki magnezianing oshishi bilan Si-O tebranishlarining chastotasi oshadi. Saponitdagi temir-magniy almashinuviga eng sezgir 930-1000 sm<sup>-1</sup> mintaqadagi chiziqli chastota reaksiyasi. Shu-

ningdek, saponitning IQ spektrlarida OH guruhlarining tebranishlari tufayli 3630-3903 sm<sup>-1</sup> mintaqada ko'plab yutilish guruhlari kuzatiladi [9]. Differensial termik tahlil Setaram LabSys Evo derivatografida 20-800°C harorat oralig'ida o'tkazildi. Pechni isitish tezligi 10°C/min. Standart sifatida sintetik samfir ishlatiladi. Saponitning sinov namunasini 800°C ga qizdirganda massa yo'qotilishi 10,22% ni tashkil qiladi. 90-160°C sohasidagi endoeffektlar saponitni tashkil etuvchi kristallararo minerallarning ichki yuzasida adsorbsiyalangan suvni olib tashlashga to'g'ri keladi. 675- 800°C da karbonat minerallarining parchalanish sohasida massa yo'qotish tezligi sezilarli darajada oshadi, 9,11% namunalarning massa yo'qotilishi asosan kalsitning intensiv parchalanishiga javob beradi. Olib borilgan kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil natijalari saponit mineralining tarkibi, xossalari uni kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa sohaslariga ishlatish mumkinligini tasdiqlaydi. Shuning uchun saponit mineralini konsentrlangan va suyultirilgan xlorid kislotada eritilib xlorid tuzlarini hosil qilishni o'rganildi. Unda xlorid kislotada bilan saponitni eritganimizda quyidagi reaksiyalar sodir bo'ladi.




Tajribada magniy xlorid hosil qilish uchun eritma ishqoriy muhitga o'tkazildi.

Saponit minerali asosida olingan magniy xloridi [9] eritmasi bilan natriy gipoxloritini konversiya jarayoni quyidagicha amalga oshirildi. Dastlab uch og'izli sig'imi 500 sm<sup>3</sup> bo'lgan kolba ichiga sensorli termoboshqaruv bilan ta'minlangan aralashtirgich birlashtirilgan. Kolbaga 20g magniy xlorid tuzi va ekvivalent miqdordagi natriy gipoxlorit solindi. Ma'lum haroratni ushlovchi termostatli kolba solindi va intensiv aralashtirilib jarayon 60, 75 va 90°C harorat va 30 dan 90 daqiqa oralig'ida amalga oshirildi va quyidagi kimyoviy reaksiyalar borishini ko'rsatdi:



Bu jarayonni umumiy quyidagi kimyoviy reaksiya bilan ko'rsatish mumkin.



Unda oraliq mahsulot magniy gipoxloriti hosil bo'lishi va qo'shimcha natriy gipoxloriti qo'shish

orqali magniy xlorati hosil bo'lishi aniqlandi.

Konversiya jarayoni bug'latmasdan olib borilganda (2-jadval), konversiya darajasining haroratga bog'liq ravishda ortib borishi aniqlandi. 60, 75 va 90°C haroratlarda dastlabki 60 minut vaqt mobaynida konversiya darajasi mos ravishda 15,06%, 15,83% va 25,90% ni tashkil qildi. 90 minutdan keyin konversiya darajasi yuqoridagi haroratlarga mos ravishda 17,30%, 18,65% va 32,85% gacha ko'tarildi. Suyuq fazadagi magniy xloratining miqdori yuqoridagi haroratlarda 90 minutdan keyin mos ravishda 12,52%, 13,50% va 23,77% ni tashkil qildi. Konversiya davomiyligining keyingi uzaytirilishi amalda konversiya darajasining ortmasligini ko'rsatdi.

2-jadval

**Bug'latmasdan olib borilgan konversiyaning tezlik konstantasi va konversiya darajasining haroratga va jarayon davomiyligiga bog'liqligi**

Harorat °C	Vaqt (τ), min.	Suyuq fazadagi Mg(ClO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> miqdori, %	Konversiya darajasi (Ck), %	Tezlik konstantasi, K·10 <sup>-2</sup> τ <sup>-1</sup>
60	30	5,86	8,1	0,254
	45	9,55	13,2	0,261
	60	10,90	15,06	0,258
	90	12,52	17,3	0,261
	o'rtacha 0,257			
75	30	7,62	10,53	0,457
	45	9,80	13,54	0,462
	60	11,46	15,83	0,463
	90	13,50	18,65	0,463
	o'rtacha 0,462			
90	30	6,91	9,55	0,664
	45	12,77	17,65	0,670
	60	18,74	25,90	0,668
	90	23,77	32,85	0,671

Konversiya jarayonini bug'latish orqali olib borilganda, jarayon intensivligi sezilarli darajada ortadi, buni 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin. 60°C haroratda 90 minutdan keyin reaksiyon aralashmadan 19,65% suvning bug'latilishi konversiya darajasini 30,85% gacha, 75 °C haroratda 90 minutdan keyin reaksiyon aralashmadan 47,33% suvning bug'latilishi konversiya darajasini

61,81% gacha ko'tarilishiga olib keladi. Harorat ortishi bilan konversiya jarayoni tezlashadi va suv bug'latish darajasi ortadi. Harorat 90°C da va davomiylik 90 minut bo'lganda suv bug'latish darajasi va konversiya darajasi mos ravishda 79,15% va 75,21% ni tashkil qildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, konversiyada hosil bo'lgan eritma (Mg(ClO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>) ning tarkibi kimyoviy, fizikkimyoviy usullarda yordami analiz qilindi. Tarkibidagi ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> ioni mavjudligi permanganometrik usul yordamida, Mg<sup>2+</sup> atom absorbsion fotometriyasi va kompleksometrik usullar yordamida tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi.


3-jadval

**Suyuq faza tarkibi va konversiya darajasining haroratga va suvning bug'latish darajasiga bog'liqligi**

Harorat °C	Vaqt (τ), min.	Suyuq fazadagi Mg(ClO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> miqdori, %	Konversiya darajasi (Ck), %	Tezlik konstantasi, K·10 <sup>-2</sup> τ <sup>-1</sup>	Harorat °C
60	30	8,30	7,76	7,35	0,542
	45	16,70	15,61	11,85	0,558
	60	23,79	22,24	15,85	0,554
	90	30,85	28,84	19,65	0,553
	o'rtacha 0,552				
75	30	23,99	22,43	17,25	2,635
	45	33,28	31,11	30,20	2,671
	60	51,68	48,31	40,60	2,686
	90	61,81	57,78	47,33	2,694
	o'rtacha 2,666				
90	30	27,43	25,64	36,50	9,149
	45	39,24	36,68	55,87	9,163
	60	69,76	65,21	69,55	9,323
	90	75,21	70,31	79,15	9,317
	o'rtacha 9,271				

Olingan nazariy magniy xloratning tarkibi mass. %: Mg<sup>2+</sup> -14,95; ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> - 43,77; Na<sup>+</sup> - 15,34; Cl<sup>-</sup> -34,06; OH<sup>-</sup> -1,74; H<sub>2</sub>O -3,5 Amaliy olingan magniy xlorat tarkibi mass. %: Mg<sup>2+</sup> -13,75; ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> -39,13; Na<sup>+</sup> -17,13; Cl<sup>-</sup> -38,07; OH<sup>-</sup> -1,74; H<sub>2</sub>O -3,3 mavjudligi aniqlandi. IQ spektroskopik tahlil strukturani sifat jihatidan aniqlash va yangi birikmalarni aniqlash uchun qo'llaniladigan usullardan biridir. Strukturani aniqlash va kimyoviy bog'lanish tur-larini aniqlash maqsadida, NaClO va MgCl<sub>2</sub> ning boshlang'ich moddalari hamda ajratib olingan birikmaning tarkibini o'rganish uchun Mg(ClO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va NaCl ning IQ spektrlari va uning tarkibiy

qismlari o'rganildi (1-rasm).



**1-rasm. Konversiya uchun xomashyo ( $MgCl_2$ ) va ( $NaCl$ ), konversiyada hosil bo'lgan mahsulotlar  $Mg(ClO_3)_2$  va  $NaCl$  ning IQ spektroskopiyasi.**

IQ spektroskopiyasining  $3600-3000\text{ cm}^{-1}$  mintaqadagi natriy gipoxlorit spektrlarida kristallanish suviga tegishli tebranishlar kuzatiladi. Xuddi shu guruhning deformatsiya tebranishlari  $1633\text{ cm}^{-1}$  mintaqada paydo bo'ladi.  $1400\text{ cm}^{-1}$  da natriy xloridning antisimmetrik cho'zish tebranishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Spekrda hali ham  $935-950\text{ cm}^{-1}$  da qizg'in chiziqlar mavjud va bu  $[ClO_3]$ -ionlarining simmetrik cho'zilish tebranishlarini bildiradi.  $NaClO$  uchun xarakterli chiziqlar  $3630\text{ cm}^{-1}$  mintaqada,  $[ClO]$ -ionlarining simmetrik cho'zilish tebranishlari va uning antisimmetrik cho'zish tebranishlari  $671-700\text{ cm}^{-1}$  da kuzatiladi.

Shunday qilib, IQ spektroskopiyasi ma'lumotlariga asoslanib, konversiya jarayoni natijasida  $[ClO]$ -ioni  $[ClO_3]$ - va  $Cl^-$  ( $NaCl$ ) ionlariga aylanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Olingan IQ-spektroskopik natijalar konversiya jarayonida  $Mg(ClO_3)_2$  va  $NaCl$  ning hosil bo'lishini tasdiqladi.

Saponit minerali tarkibidagi magniy silikat tuzlarini magniy xloridga o'tkazish maqsadida saponit mineralini kalsiy xlorid tuzi bilan qo'shib termik ishlov berish jarayoni tadqiq qilindi. Jarayon 50:10, 50:20 va 50:50 massa nisbatlarida  $200^\circ C$  dan  $600^\circ C$  gacha vaqt davomida olib borildi.

Saponit mineralini  $CaCl$  tuzi bilan turli temperaturalarda 60 minut vaqt mobaynida kuydirildi. Kuydirilgan aralashmani 500 ml suvda aralastirilib xona haroratida eritilib, olingan eritmani filtrdan o'tkazilib qattiq va suyuq fazaga ajratildi. Ajratilgan qattiq faza tarkibi o'rganildi va quyidagi jadvalda foiz tarkibi keltirildi.


Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki Saponit mineralini kalsiy xloridi bilan termik ishlov berish natijasida magniyning eritmaga o'tishi 50g:20g

massa nisbatda 9,42 foizdan 50g:50g massa nisbatda 15,4 foizgacha oshib borar ekan.

4-jadval

**Saponit mineralini  $CaCl$  tuzi bilan birgalikda kuydirilganidan keyin olingan natijalar**

Element	200°C 50g+ 50g tuz	300°C 50g+ 10g tuz	400°C 50g+ 20g tuz	400°C 50g+ 50g tuz	500°C 50g+ 50g tuz	600°C 50g+ 50g tuz
Na	ND %	ND %	50.9 %	ND %	ND %	ND %
Mg	13 %	13.7 %	9.42 %	13.6 %	15.4 %	12.1 %
Al	5.68 %	6.02 %	3.55 %	5.62 %	6.01 %	6.02 %
Si	14.5 %	15.7 %	8.47 %	13.7 %	14.3 %	11.5 %
Ca	61.5 %	60.0 %	26.4 %	62.1 %	59.9 %	65.4 %
Fe	5.34 %	4.62 %	1.18 %	4.94 %	4.44 %	5.03 %



**2-rasm.  $500^\circ C$  haroratda 50:50 g nisbatdagi saponit va  $CaCl$  aralashmasining IQ Spekr olingan  $400-4000\text{ cm}^{-1}$  diapazondagi FTIR analiz diagrammasi.**

Saponit uchun  $3468\text{ cm}^{-1}$  va  $3406\text{ cm}^{-1}$  nuqtalarida keng piklarning paydo bo'lishi mineral ichida strukturaviy suv va  $Mg-OH$  yoki  $Al-OH$  bog'lari bilan bog'langan gidroksil guruhlarining mavjudligini ko'rsatadi.  $2350\text{ cm}^{-1}$  sohasidagi piklar mineral strukturasi ushlab qolingani  $CO_2$  yoki boshqa gazlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda, bu pik mineral yuzasida karbonat kislotasi adsorbsiyasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu diapazon ko'pincha gilli mineralning asosiy tuzilishi uchun xarakterli emas va mineralning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini yoki aralashmalarni ko'rsatishi mumkin.  $1600-1650\text{ cm}^{-1}$  diapazonidagi piklar smektitlar guruhidagi mineralning qatlamlararo joylarda joylashgan suv

molekulalarining deformatsion siljishlari bilan bog'liq. Saponit adsorbsiyalangan suvni o'z ichiga oladi, bu esa ushbu diapazonda xarakterli chiziqning paydo bo'lishiga olib keladi. Qo'shimcha ravishda,  $1404\text{ sm}^{-1}$  atrofida keng diffuz chiziq paydo bo'lishi, bu karbonatlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, saponit strukturasi ma'lum darajada buzilganligini anglatadi. Saponit uchun xarakterli pik  $1000\text{--}1050\text{ sm}^{-1}$  diapazonida joylashgan; bu yuqoridagi diagrammada  $1041\text{ sm}^{-1}$  ga to'g'ri keladi va tetraedrik ramkada Si-O-Si bog'lari bilan bog'liq.  $600\text{--}900\text{ sm}^{-1}$  diapazonida  $880\text{ sm}^{-1}$  va  $602\text{ sm}^{-1}$  piklari saponitning oktaedrik qatlamlarida joylashgan Al-OH yoki Mg-OH guruhlarining deformatsion siljishlari bilan bog'liq.  $460\text{ sm}^{-1}$  va  $420\text{ sm}^{-1}$  sohalaridagi piklar Si-O egilish siljishlari bilan bog'liq bo'lib, bu silikat minerallari, jumladan,


saponitda ko'p uchraydi. Ushbu past energiyali siljishlar silikatlarining tuzilishini aks ettiradi.

**Xulosa.** O'zbekistonda saponit mineralini mavjudligi aniqlanib, uni kimyoviy va mineralogik tarkibi, IK-spektri, derivatogrammasi va rentgenofazali tahlillar aniqlangan bo'lib, natijalar saponit mineraliga mos kelishini ko'rsatdi. Ushbu saponit mineralini xlorid kislotasi bilan qayta ishlash jarayoni orqali magniy xlorid eritmasini ajratib olish natijalari o'rganildi: harorat -  $40\text{--}95^\circ\text{C}$ , HCl konsentratsiyasi - 20%, magniy oksidi miqdoridan kelib chiqib xlorid kislotasi normasi 100%,  $t = 2$  soat magniy oksidi eritmaga o'tish darajasi (90,36%) bo'lishi aniqlandi. Saponit mineralini  $200^\circ\text{C}$  dan  $600^\circ\text{C}$  gacha bo'lgan haroratlarda CaCl qo'shib qizdirish natijasida Mg miqdorini oshirish o'rganildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Умиров Ф.Э., Номозова Г.Р., Шодикулов Ж.М. Физико-химические свойства и агрохимическая эффективность новых дефолиантов на основе хлоратов натрия, магния и кальция, содержащих ПАВ // *Universum: Химия и Биология*. Москва -2021. №1 1(79). С. 33-35. 2.
2. Умиров Ф.Э., Номозова Г.Р., Вахобов Ж.В. Исследование получения хлоратов натрия, магния и кальция на основе гипохлорита натрия. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences* Vol.1(1), 2020 P.12-17 3.
3. Умиров Ф.Э., Музафаров А.М., Пирназаров Ф.Г. Investigation of the production of surfactants containing sodium chlorate based on sodium hypochlorite. *Research, Journal of Critical Reviews* [http://www.jcreview.com/index.php JCR](http://www.jcreview.com/index.php>JCR). 2020; 7(10): 2577-2581.
4. Умиров Ф.Э., Номозова Г.Р., Шодикулов Ж.М. Solubility Diagram of the Sodium Hypochlorite–Sodium Chloride–Water System. *Russian Journal of Inorganic Chemistry*, 2022, Vol. 67, No.4, pp. 514–518. © Pleiades Publishing, Ltd., 2022. ISSN 0036- 0236.
5. Умиров Ф.Э., Шодикулов Ж.М. Научно-технологические принципы комплексного использования серпентинита Карманинского месторождения. *Обогащение руд* №1(397), 2022 С. -41-45.
6. Умиров Ф.Э., Шодикулов Ж.М., Умиров У.Ф. Исследование процессов получения хлорат-магниевое дефолианта на основе серпентинита Арветенского месторождения. «Путь науки» (№ 10 (80), 2020 С.-19-22.
7. Умиров Ф.Э., Шодикулов Ж.М. Научно-технологические принципы комплексного использования серпентинита Карманинского месторождения. *Обогащение руд* №1(397), 2022 С. -41-45.
8. Umirov F. E., Nomozova G. R., Shodikulov Zh. M. Solubility Diagram of the Sodium Hypochlorite–Sodium Chloride–Water System. *Russian Journal of Inorganic Chemistry*, 2022, Vol. 67, No. 4, pp. 502–507.
9. Umirov F. E., Пирназаров Ф.Г. Studying the composition of local raw material saponite mineral rich in magnesium oxide and recovering chloride-chlorate from it // *The American Journal of Engineering and Technology* (ISSN – 2689-0984) September 15, 2023. 13-20с.

UO‘K: 669.332.3

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.13

## MIS SANOATI SHLAKLARINI QAYTA ISHLASHDA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR SHARHI (TAHLIL)



**Turdiyeva Aziza Yoqub qizi**

Toshkent davlat texnika universiteti “Materialshunoslik”  
mutaxassisligi magistranti, Toshkent, O‘zbekiston  
E-mail: [turdiyevaaziza34@gmail.com](mailto:turdiyevaaziza34@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0006-6045-8082



**Norxudjajev Fayzulla Ramazonovich**

Texnika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat texnika  
universiteti “Materialshunoslik” kafedrasi mudiri,  
Toshkent, O‘zbekiston  
E-mail: [norxojaev.fayzulla@mail.ru](mailto:norxojaev.fayzulla@mail.ru)  
ORCID ID: 0000-0002-5513-1521

**Annotatsiya.** Hozirgi sanoatlashgan dunyo talablaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda juda ko‘plab metallurgik zavodlar ikkilamchi xom-ashyoni qayta ishlashni yo‘lga qo‘ygan. Bunga sabab qilib ruda zahirasi kamligi va metallurgik korxonalaridan chiqqan chiqindilar ekologik falokatni keltirib chiqarishi ko‘rsatilishi mumkin. Yer osti zahiralaridan oqilona foydalanish va uni tejashning eng samarali usuli bu kon-metallurgiya sanoati chiqindilaridan foydalanishni jadallashtirish hisoblanadi. “Olmaliq KMK” AJ – O‘zbekiston Respublikasining eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lib, unda sanoat jarayonlaridan yiliga jami 500 ming tonna mis shlaklari hosil bo‘ladi. Odatda mis shlaklarida tahminan 32-37% gacha temir mavjud va 0,5-1,5% misdan iborat, bu uning qayta ishlash uchun qimmatli ikkilamchi manba ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, mis shlaklaridan oqilona foydalanish hamda ekologik xavotir kuchayib borayotganligi sababli, xavfli materiallar sifatida tavsiflangan mis shlaklaridan har tomonlama foydalanish uchun tegishli texnologiyani ishlab chiqish bugungi kun uchun juda dolzarbdir. **Kalit so‘zlar:** shlak, kremniy, mis, temir, rux, flyus, shteyn, oltingugurt, uglerod, flotatsiya, konsentrat, pirit, xalkopirit, xalkozin, arsenopirit, mishyak, pirometallurgiya, boyitish, kislota.

## ОБЗОР (АНАЛИЗ) СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ШЛАКОВ МЕДНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

**Турдиева Азиза Ёкуб кизи**

Магистрант по специальности «Материаловедение»  
Ташкентского государственного технического университета,  
Ташкент, Узбекистан

**Норхуджаев Файзулла Рамазонович**

Доктор технических наук, профессор, заведующий кафедрой  
«Материаловедение» Ташкентского государственного  
технического университета,  
Ташкент, Узбекистан

**Аннотация.** Исходя из требований современного индустриального мира, сегодня многие металлургические заводы наладили переработку вторичного сырья. Это может быть связано с низкими запасами руды и экологической катастрофой, вызванной отходами металлургических предприятий. Наиболее эффективным способом рационального использования и экономии подземных ресурсов является интенсификация использования отходов горно-металлургической промышленности. АО «Алмалыкский ГМК» - одно из крупнейших промышленных предприятий Республики Узбекистан, где в результате промышленных процессов ежегодно образуется в общей сложности 500 тысяч тонн медных шлаков. Обычно медные шлаки содержат около 32-37% железа и 0,5-1,5% меди, что указывает на то, что он является ценным вторичным источником для переработки. Таким образом, в связи с рациональным использованием медных

шлаков и растущей экологической обеспокоенностью, разработка соответствующей технологии всестороннего использования медных шлаков, которые классифицируются как опасные материалы, очень актуальна на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** шлак, кремний, медь, железо, цинк, флюс, штейн, сера, уголь, флотация, концентрат, пирит, халькопирит, халькозин, арсенопирит, мышьяк, пирометаллургия, обогащение, кислота.

## REVIEW OF MODERN RESEARCH ON THE PROCESSING OF COPPER INDUSTRY SLAGS (ANALYSIS)

*Turdieva Aziza Yokub kizi*

*Master's student in Materials Science at Tashkent State Technical  
University, Tashkent, Uzbekistan*

*Norkhujaev Fayzulla Ramazonovich*

*Doctor of Technical Sciences, Professor, Head of the Department  
of "Materials Science" of Tashkent State Technical University,  
Tashkent, Uzbekistan*

**Abstract.** Based on the requirements of today's industrialized world, many metallurgical plants have established the processing of secondary raw materials. This can be attributed to low ore reserves and the environmental disaster caused by waste from metallurgical enterprises. The most effective way to rationally use and conserve underground reserves is to intensify the use of mining and metallurgical industry waste. JSC "Almalyk MMC" is one of the largest industrial enterprises of the Republic of Uzbekistan, where a total of 500 thousand tons of copper slags are formed annually from industrial processes. Usually, copper slags contain approximately 32-37% iron and 0.5-1.5% copper, which indicates that it is a valuable secondary source for processing. Thus, due to the rational use of copper slags and growing environmental concern, the development of appropriate technology for the comprehensive use of copper slags, characterized as hazardous materials, is very relevant today.

**Keywords:** slag, silicon, copper, iron, zinc, flux, matte, sulfur, carbon, flotation, concentrate, pyrite, chalcopyrite, chalcocite, arsenopyrite, arsenic, pyrometallurgy, enrichment, acid.

**Kirish.** OKMK AJ ning mis eritish zavodida mis konsentratlarini uzoq muddatli qayta ishlash natijasida 7 million tonnadan ortiq chiqindi shlaklari to'plangan. Hozirgi vaqtda eski shlakning bir qismi OKMK 2-Mis boyitish fabrikasida flotatsiya usuli bilan qayta ishlanib, mis, oltin va kumush olinmoqda. Shlaklarni qayta ishlash texnologiyasining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Cu, Fe, Ag va Au kabi barcha qimmatli tarkibiy qismlarni ajratib olish texnologiyasi bilan birga yangi turdagi qotishmalar, jumladan, sement o'rnini bosuvchi kompozit materiallar tayyorlash imkoniyati mavjudligi ma'lum.

Shlak to'planishi katta maydonlarning band qilinishi hamda atrofdagi suv va tuproqning zararlanishi tufayli ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Muammoga ilmiy yondashuv mis shlaki miqdorini kamaytirish va uni foydali mahsulotlarga qayta ishlashni o'z ichiga olgan texnologiyalardan foydalanishni ifodalaydi. Cu-Fe-S-Si-O-(Zn) sistemasida rux va boshqa elementlarning shlak, shтейн va metall fazalari orasida taqsimlanishi 1200°C


(1473 K) haroratda aniqlangan. Metall faza suyuq mis yoki qattiq metall temirdan iborat bo'lgan. Metall faza bilan muvozanat sharoitlari mis shlakini tozalash va qayta ishlash uchun suyuqlanmani kamaytirish texnologiyalarini ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mis asosan mis-temir-oltingugurt minerallaridan, [1] jumladan xalkopirit ( $\text{CuFeS}_2$ ) va bornit ( $\text{Cu}_5\text{FeS}_4$ ), shuningdek xalkozin ( $\text{Cu}_2\text{S}$ ) va enargit ( $\text{Cu}_3\text{AsS}_4$ ) dan olinadi. Ular odatda sof holda uchramaydi, balki bir-biri bilan va turli xil aralashmalar ayniqsa pirit ( $\text{FeS}$ ) bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Mis rudalarida silikat birikmalarining miqdori 95% dan kam bo'lmaganligi sababli, xomashyo maydalanadi va flotatsiyaga yuboriladi, natijada mis konsentratlari va chiqindi hosil bo'ladi, so'ng eritish zavodiga yuboriladi. Eritishning maqsadi misning yo'qotilishini minimallashtirgani holda, iloji boricha ko'proq keraksiz temir, oltingugurt va iqtisodiy qiymatga ega bo'lmagan minerallarini yo'qotishdir. Bunga quyidagilar orqali erishiladi: (I) temirni

ushlab qoladigan alohida fayalit ( $2\text{FeO}\cdot\text{SiO}_2$ ) fazasini hosil qilish uchun tegishli miqdordagi kremniy dioksidi ( $\text{SiO}_2$ ) ni qo'shish va (II) yuqori haroratda oltingugurt ni oltingugurt dioksidi sifatida chiqarib tashlash uchun kislorod qo'shish orqali oltingugurt trioksidi ( $\text{SO}_3$ ) suv bilan reaksiyaga kiritilib,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Shu sababli, ko'plab mis eritish zavodlari chiqindi gazlardan foydalanadigan kislotada ishlab chiqarish korxonalarini bilan birlashtirilgan (Biswas va Davenport, 2013). Biroq, har bir tonna mis ishlab chiqarilganda, taxminan ikki tonna temir-silikat shlakni hosil bo'ladi (Byung-Su Kim et al., 2013). Ular tarkibida qimmatli komponentlar, jumladan  $\text{FeO}$  (35-49%),  $\text{SiO}_2$  (28-40%),  $\text{CaO}$  (1-10%),  $\text{MgO}$  (1-3%),  $\text{Al}_2\text{O}_3$  (2-15%),  $\text{Cu}$  (taxminan 1%), shuningdek 1% dan kam miqdorda  $\text{Mn}$ ,  $\text{Ni}$ ,  $\text{Zn}$ ,  $\text{Co}$  mavjud bo'lishiga qaramay chiqindi sifatida uyumlarga yuboriladi. Manbada mis shlakini qayta ishlashning texnologik sxemasi taklif etilmoqda: (I) mis shlakini  $800^\circ\text{C}$  dan yuqori haroratda 2 soat davomida havo yordamida oksidlash; (II) oksidlangan shlakka natriy gidroksid eritmasi (140 g/l) bilan  $190^\circ\text{C}$  da 3 soat davomida gidrotermik ishlov berish; (III) qattiq moddani suyuq fazada yuqori haroratda filtrlash orqali ajratish; (IV) pH ni o'zgartirish yo'li bilan suyuq silikat fazasini gidroliz qilish orqali gel hosil qilish; (V) amorf  $\text{SiO}_2$  ni (kremniy dioksidi geli)  $80^\circ\text{C}$  da qotirish yo'li bilan olish. Kremniy ajratib olish uchun shlakka ishlov berish jarayonlari aniqlanib, optimallashtirildi. Oksidlovchi gazdagi kislorod parsial bosimining ortishi oksidlanish mexanizmini o'zgartirish va oksidlanish jarayonini sezilarli darajada kuchaytirish aniqlandi. Gidrotermik ishlov berish jarayonida  $\text{SiO}_2$  ni ajratib olishda  $\text{NaOH}$  konsentratsiyasi hal qiluvchi omil bo'ldi. Uning 60 dan 140 g/l gacha oshirilishi qoldiq  $\text{SiO}_2$  miqdorini ikki barobardan ko'proq kamaytirdi va qattiq fazada seolit minerali ( $\text{NaAlSi}_2\text{O}_6\cdot\text{H}_2\text{O}$ ) hosil bo'lishini sezilarli darajada pasaytirdi.

Rux mis sulfidli ma'danlar uchun umumiy element bo'lib, mineral sfalerit,  $\text{ZnS}$  sifatida, shuningdek, murakkab ma'danlarda bir qator boshqa sulfidli va oksidli minerallarning qattiq eritmalarida mavjud [2]. Natijada misni birlamchi eritish uchun asosiy xomashyo bo'lgan ko'plab mis sulfid konsentratlarida rux uchraydi. Mis va rux, shuningdek,  $\text{Cu-Zn}$  qotishmalarini qayta ishlashda hosil

bo'lgan shlaklar va shteynlar kabi ikkilamchi materiallarda, sanoat chiqindilarida va ishlab chiqarish muddati tugagan mahsulotlarda hosil bo'ladi. Misni birlamchi eritish yoki konvertatsiya qilishda rux potentsial ravishda gaz, suyuq shlak, qattiq oksidlar (masalan, spinel, sinkit yoki villemmit), shteyn va metall fazalari orasida tarqalishi mumkin. Yallig' qaytaruvchi pechida, Noranda reaktorida, Outokumpu eritish pechida, va IsaSmelt yoy pechida mis eritishning sanoat sharoitlari uchun shlak va shlakdagi rux konsentratsiyasi o'lchandi (1-rasm).



**1-rasm. Shlak va shteyn fazalarining o'lchangan kompozitsiyalariga muvozanatlash vaqtining ta'siri.**

Shlak, shteyn va metall muvozanatining past  $R$  ( $\text{SO}_2$ ) sharoitlarini o'rganishning yana bir sababi mis ishlab chiqaruvchi korxonalarining shlakni tozalash jarayonlariga sarmoya kiritishga bo'lgan qiziqishining ortishidir. Asosiy harakatlantiruvchi kuch mis shlaklarini qayta ishlash va ulardan qurilish materiallari sifatida foydalanish salohiyati bo'lib, bu zararli aralashmalarni olib tashlashni talab qiladi, ya'ni.  $\text{Pb}$ ,  $\text{As}$  va  $\text{Zn}$ .  $\text{Cu}$  va boshqa qimmatbaho metallarni qo'shimcha ravishda ajratib olish  $\text{Ni}$ ,  $\text{Co}$  ni shlakni tozalashda ham olish mumkin.

Kalsiy mishyak shlakni (KMS) mis ( $\text{Cu}$ ), qo'rg'oshin ( $\text{Pb}$ ) va rux ( $\text{Zn}$ ) kabi rangli metallarni ishlab chiqarish metallurgiya jarayonida hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotdir [3]. KMS tarkibida kalsiy arseniti ajralib chiqishi va inson salomatligiga potentsial xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, KMSni xavfsiz va samarali utilizatsiya qilish hamda boshqarish usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.


Tarkibida mishyak bo'lgan qattiq chiqindilarni an'anaviy barqarorlashtirish usullariga asosan jarayoni mishyakni immobilizatsiya qilish va ajralib chiqishini oldini olish uchun bir nechta mexanizmlarni o'z ichiga oladi: kimyoviy fik-

satsiya, kapsulalash va qotirish. Kimyoviy fiksat-siya shlak va qo‘shimchalar o‘rtasidagi reaksiyalar natijasida sodir bo‘lib, kalsiy arsenatlari kabi yangi birikmalarni hosil qiladi. Kapsulalash jarayoni shlakni bog‘lovchi material ichida fizik jihatdan izolyatsiyalashni o‘z ichiga olib, mishyak ajralib chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Qotirish esa shlakni qattiq holatga aylantiradi va mishyak harakat-chanligini kamaytiradi. Ushbu mexanizmlar birga-likda mishyakni saqlashni yaxshilaydi va ekologik xavflarni minimallashtiradi. Biroq, barqarorlash-tirish jarayoni sezilarli miqdorda barqarorlash-tiruvchi moddalarni talab qiladi, bu esa hajm, og‘irlik va pH miqdoriga ta’sir qiladi, ya’ni kislota miqdori oshadi. Bundan tashqari, yuqori ishqoriylik esa kalsiy saqlovchi moddalarning samaradorligini cheklaydi.

**Materiallar va uslublar.** Tadqiqotda kalsiy arsenit silikatidagi mishyakni barqarorlashtirish uchun mis shlakidan foydalanishni va bug‘latish hamda kristallanish jarayonlari orqali kalsiy arsenit silikatida mishyakning mineral fazasini qayta tiklashni taklif etadi. Bu usul nafaqat chiqindini foydali mahsulotga aylantiradi, uni iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali qiladi, balki mishyak-ning kimyoviy barqarorligini oshiradi va shu orqali uning atrof-muhitga sizib chiqishini kamaytiradi. Mis shlakidagi temir ionlari va silikatlar barqaror mineral fazalarni hosil qilish orqali mishyakni barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, silikatlar yangi hosil bo‘lgan temir arsenat minerallari bilan birikib, kalsiy arsenit silikatida mishyakning barqarorligini yanada oshiradi va uning tarqalishini cheklaydi. Qolaversa, bu yonda-shuv an’anaviy barqarorlashtirish usullariga nisba-tan chiqindilarning umumiy hajmini kamaytiradi, mishyakni uzoq muddat samarali saqlash imkonini beradi.

Kalsiy arsenit silikati va ishlov berilgandan keyingi qoldiqning XPS spektrlari 2a va b-rasmlarda ko‘rsatilgan. XPS spektri (2a-rasm) Kalsiy arsenit silikat namunasida mishyakning asosiy shakli 45,12 eV bog‘lanish energiyasiga ega bo‘lgan mishyak (V) ekanligini ko‘rsatdi. Bu 66,90% ni tashkil etib, kalsiy arsenit silikatda amorf  $Ca_3(AsO_4)_2$  mavjudligini tasdiqlaydi. XPS spektri (b-rasm) ishlov berilgandan so‘ng mishyak(III) ning 6,24% I As (V) ga (45,44 eV) aylanganligini ko‘rsatdi. Bu mishyakni immobilizatsiya qilish

uchun foydali bo‘ldi mishyakni As (V) ning bog‘lanish energiyasi 45,12 eV dan 45,44 eV ga siljidi, bu As va boshqa elementlar o‘rtasida yangi koordinatsion munosabatlar shakllanganligini ang-latadi. XRD, infraqizil va Raman tahlillari asosida yangi kaatialayt fazasining hosil bo‘lganligi tasdiq-landi. RTT, infraqizil va Raman tahlillari asosida yangi katilait fazasining shakllanishi tasdiqlandi.



**2-rasm. Kalsiy arsenit silikati va ishlov berilgandan keyingi qoldiqning XPS spektrlari.**

XPS spektrlari: (a) Kalsiy arsenit silikat oldingi; (b) ishlov berilgandan so‘ng qoldiq uchun; (c) Kalsiy arsenit silikat ishlov berilgandan so‘ng qoldiqning optik tasviri; (d) va ishlov berilgandan so‘ng qoldiqning TCLP bo‘yicha umumiy As konsentratsiyalari; (e) Kalsiy arsenit silikat va ishlov berilgandan so‘nggi qoldiqdagi mishyak As ning morfologik taqsimoti (F1: oson eriydigan fraksiyalar; F2: qaytariluvchi fraksiya; F3: oksid-lanuvchi fraksiya; F4: qoldiq fraksiya).

Qattiq chiqindilarni utilizatsiya qilish – bu barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun turli sanoatlardan chiqadigan chiqindilardan foydala-nishni ham o‘z ichiga oladi. Mis shlaki [4] misni eritish va tozalash jarayonida hosil bo‘ladi. Bu chiqindi materiallar abraziv chiqindilar bo‘lib, turli sanoatlardan chiqadigan chiqindilardan foydalanish barqaror rivojlanishni ta’minlashda fuqarolik va atrof-muhit muhandislarining oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Shu bilan birga, bu mavjud materiallar xarajatlarini hisobga olish bilan bog‘liq. Chiqindi mis shlaki abraziv asboblari, yo‘l qurilishi va og‘ir materiallar sifatida ishlatilishi mumkin. Mis

shlakining qayta ishlanishi ortib borayotgan bo'lsa-da, uning yillik ishlab chiqarilishi hali ham katta hajmdagi chiqindilar sifatida yig'ilib, saqlanmoqda. Mis shlakini qayta ishlashda eng katta imkoniyatlardan biri sement va beton ishlab chiqarishda foydalanishdir. Ko'plab tadqiqotchilar mis shlakini sement, ohak kukuni, chang, sement o'rnini bosuvchi materiallar sifatida, shuningdek, qattiq va yumshoq agregatlarning qisman o'rnini bosuvchi sifatida beton va sement ishlab chiqarishda ishlatishni o'rgandilar. Mis shlakining sement va betonda ishlatilishi barcha tegishli sanoatlar uchun, ayniqsa mis shlaki ko'p ishlab chiqariladigan hududlarda atrof-muhit va iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Ushbu maqola mis shlakining qo'llanilish sohalarini va uning turli faoliyatlarda ruxsat etilgan foydalanilishini ko'rib chiqadi.

Mis ishlab chiqarish jarayonida [5] og'ir metallar tutgan katta miqdordagi mis shlaki hosil bo'ladi va uning tarkibidagi 0,5 - 8,0% og'irlikdagi mis yo'qoladi, bu esa qayta ishlanishga arziydi. Ushbu tadqiqotda mis shlakini tozalash uchun chiqindi koks va gips qo'llanildi, yo'qotilgan mis qaytarilib, oltingugurtlanib, shteyn tomchilari boyitilgan. Biroq, oddiy tortishish kuchi sharoitida shteyn tomchilarining erkin cho'kishi uchun 1350°C yuqori harorat talab etiladi. Shu asosda, tozalangan shlakdan shteyn tomchilari 1200°C past haroratda 3 daqiqa ichida o'ta yuqori tortishish kuchi yordamida samarali ajratib olindi. Bunda misni qayta tiklash darajasi 99,56 foizgacha yetdi, shteyn fazasida va tozalangan shlakdagi mis miqdori mos ravishda 85,84 va 0,08 foiz og'irlikni tashkil etdi. Bundan tashqari, og'ir metall elementlari (Pb, Zn, Ni va boshqalar) ko'chishi, taqsimlanishi va tanlab eritmaga o'tish xususiyatlari o'rganildi va tahlil qilindi, shuningdek, uchuvchan moddalar va qoldiqlarni qayta ishlash hamda ulardan foydalanish masalalari muhokama qilingan. Tadqiqotda mis shlakini tozalash va bir vaqtning o'zida mis resurslarini qaytarish-oltingugurtlash eritish va past haroratda o'ta yuqori tortishish kuchi yordamida ajratish orqali qayta tiklashning ekologik toza usuli taklif etiladi. Bu esa issiq mis shlakini chiqindi koks va gips bilan birgalikda qayta ishlash uchun ilmiy yechim taqdim etadi.

Mis-shlakni ajratish samaradorligiga harorat, oksidlanish sharoiti, xomashyo sifati, shlak tarkibi va xususiyatlari har tomonlama ta'sir qiladi, bu esa

shlakda katta miqdorda mis yo'qotilishiga olib keladi. Mis kimyoviy erish va mexanik tortilish orqali oksidlovchi muhitda metall mis sulfidi, oksid yoki silikat shaklida shlak tarkibida qoladi, natijada shlakdagi mis miqdori ba'zan mis rudasi tarkibidan yuqori bo'ladi. Qisqacha aytganda, past sifatli xomashyoda mis yo'qotilishining asosiy manbai mexanik yo'l bilan yutilgan metall mis yoki xomashyo bo'lsa, 70% dan yuqori mis tarkibli xomashyo uchun kimyoviy yo'qotishlar asosiy sababdir. Mis xomashyosining odatdagi sifati 45-65% mis ekanligini hisobga olsak, shlakdagi mis yo'qotilishi asosan mexanik qoplanish natijasida sodir bo'ladi, chunki mis shlakida muqarrar ravishda ortiqcha Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> (magnetit) hosil bo'lishi tufayli shlakning erish harorati va qovushqoqligi oshadi. Co, Ni, Pb, Zn, Au, Ag kabi ba'zi qimmatbaho elementlar va Bi, Sb, Hg, As kabi boshqa zararli elementlar ham silikat asosidagi matritsa fazasida joylashgan bo'lib, aynan shu sababli mis shlaki sanoat qattiq chiqindisi sifatida qadrlanadi. So'nggi yillarda sanoatdagi mis shlakini drenajlash va elektr shlak-tozalash pechiga o'tkazilgandan so'ng tozalash uchun pirometallurgik usullar qo'llaniladi, bunda shlakning qovushqoqligini kamaytirish va mis fazasining cho'kishini osonlashtirish uchun ba'zi tiklovchi va flyus elementlari qo'shiladi.

Chiqindi mis shlaki turli [6] qimmatbaho elementlarni o'z ichiga olgan tipik xavfli qattiq chiqindi hisoblanib, hozirgacha samarali utilizatsiya qilinmagan. Ushbu tadqiqotda chiqindi mis shlakidan qimmatbaho elementlarni (mis, temir, qo'rg'oshin va rux) ajratib olish uchun bosqichma-bosqich ekstraksiya jarayoni taklif etilgan. Aniq bosqichlar quyidagicha: 1) Misni boyitish uchun flotatsiya jarayoni qo'llanilgan va flotatsion konsentratdagi mis miqdori 21,50% bo'lganda, misning ajratib olish darajasi 77,78% ni tashkil etgan. 2) Flotatsiya chiqindilari ohaktosh bilan granulalangan, so'ngra yashil granulalar qaytarilgan va magnit separatsiya jarayoni o'tkazilgan. Magnit konsentratdagi temir va mis miqdori 90,21% Fe va 0,4% Cu bo'lganda, mos ravishda 91,34% temir va 83,41% mis ajratib olingan. 3) Nomagnit chiqindilar oddiy portlandsement olish uchun klinker va standart qum bilan aralashtirilgan. Taklif etilgan jarayon orqali chiqindi mis shlakidan bir nechta mahsulotlar olingan: 21,50% Cu tarkibli konsentrat;

90,21%, 65,17% ZnO va 2,66% PbO tarkini to'g'ridan-to'g'ri qaytarish changi hamda qurilish uchun oddiy portlandsement. Chiqindi mis shlakini kompleks utilizatsiya qilish usuli chiqindisiz ishlab chiqarishga erishadi va amaliy qo'llash uchun katta salohiyatga ega.

**Muhokama va natijalar.** Eritish orqali qaytarish chuqur qaytarish jarayoni hisoblanadi; bu jarayon davomida FeO 1450°C dan yuqori haroratda qaytaruvchi modda yordamida cho'yan temirgacha qaytariladi Bu usul temirning yuqori darajada tiklanishiga erishish imkonini beradi, ammo pechning xizmat muddatini qisqartiradi. Mis shlakidan temirni to'g'ridan-to'g'ri qaytarish va magnitli ajratish orqali olish samarali usul hisoblanadi. MShni 1200-1300°C haroratda qaytarish orqali fayalit va mis sulfidini metall temir va misga aylantirish, so'ngra Fe-Cu qotishma fazasini hosil qilish mumkin. Keyinchalik Fe-Cu qotishmasini ajratib olish uchun magnitli separatsiya jarayoni qo'llaniladi. Biroq, magnitli ajratish chiqindilari samarali ishlatilmagan.

Tadqiqot ishida xom ashyo sifatida suyuq mis shlakidan foydalanib, to'g'ridan-to'g'ri qaytarish jarayonida mis, temir, qo'rg'oshin va rux kabi qimmatbaho komponentlarning boyitilishi va ko'chish qonuniyatlari o'rganilgan. Maqbul sharoitlarda (1500°C harorat, 1,06 ishqoriylik, 60 daqiqa eritish vaqti va mexanik aralashtirish) mis shlakidagi mis, temir, qo'rg'oshin va ruxning ajralib chiqish

darajasi tegishli 98,83%, 99,59%, 97,45% va 98,51% ni tashkil etgan.


**Xulosa.** Tahlil qilingan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, mis sanoati qattiq chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalari eng avvalo "yashil" sanoat talablari, atrof-muhit muhofazasi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bunda, chiqindisiz sanoat eng muhim faktor bo'lib, bugungi kunda ushbu talablarga javob beradigan kon-metallurgiya sanoati bir qancha rivojlangan mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan. Sanoatga "yashil" talablarning qo'yilishi ko'p hollarda iqtisodiy jihatdan samarasiz deb qaraladi. Biroq ko'pyillik ilg'or tajribalardan ko'rinib turibdiki, avvaliga iqtisodiy samarasiz bo'lsada ekologik jihatdan muhim deb hisoblangan texnologiyalar, hozirda mamlakat taraqqiyoti uchun har tomonlama foydalidir.

Qayta ishlanayotgan kon rudalarining xususiyatlari, hudud talablaridan kelib chiqib, mis sanoati shlaklarini qayta ishlashning eng samarali usuli ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, dunyoda olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining mis sanoati shlaklarining tarkibi, xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni qayta ishlash, ulardan qimmatbaho komponentlarni maksimal ajratib olishning maqbul texnologiyasini ilmiy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gyurov, S., Marinkov, N., Kostova, Y., Rabadjieva, D., Kovacheva, D., Tzvetkova, C., Penkov, I. (2017). Technological scheme for copper slag processing. *International Journal of Mineral Processing*, 158, 1–7. doi:10.1016/j.minpro.2016.11.008
2. Svetlana Sineva, Denis Shishin, Maksym Shevchenko, Peter C. Hayes, Evgueni Jak. Experimental study and thermodynamic modeling of distribution of elements among slag, matte and metal in the Cu-Fe-O-S-Si-(Zn)-(Al, Ca, Mg) system for copper slag cleaning applications, *Journal of Materials Research and Technology*, Volume 23,2023, Pages 5280-5300, ISSN 2238-7854, <https://doi.org/10.1016/j.jmrt.2023.02.120>.
3. Lanbin Wang, Wenjie Xie, Yangming Xu, Wenqi Zhang, Yan Sun, Yu Chen, Ruan Chi, Yaguang Du. Enhancing arsenic immobilization in calcium arsenate slag through mineral phase reconstruction using copper slag via acid evaporation // *Process Safety and Environmental Protection*. Volume 193, 2025, Pages 421-431, <https://doi.org/10.1016/j.psep.2024.11.053>.
4. Murari, K., Siddique, R., & Jain, K. K. (2014). Use of waste copper slag, a sustainable material. *Journal of Material Cycles and Waste Management*, 17(1), 13–26. doi:10.1007/s10163-014-0254-x

UO‘K: 622.27

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.10

## KOVULDI OLTIN KONIDA QAZIB OLINGAN BO‘SHLIQNI TO‘LDIRISH TEKNOLOGIYASINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH



**Bakirov G'ayrat**  
**Xoliqberdiyevich**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, "Konchilik ishi" kafedrasida dotsenti, Olmaliq, O'zbekiston*  
E-mail: [gayrat2018@inbox.ru](mailto:gayrat2018@inbox.ru)



**Alimov Shoxriddin**  
**Muxammadovich**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, "Konchilik ishi" kafedrasida v.v.b., dotsenti, Olmaliq, O'zbekiston*  
E-mail: [alimov\\_shm@mail.ru](mailto:alimov_shm@mail.ru)



**Mavlanov Abdulla**  
**Abdixakimovich**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, "Konchilik ishi" kafedrasida katta o'qituvchisi, Olmaliq, O'zbekiston*  
E-mail: [abdulamavlyanov@gmail.com](mailto:abdulamavlyanov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Kovuldi koni sharoitida qazib olingan bo'shliqni to'lg'azma aralashmalaridan foydalangan holda to'ldirish ishlari haqidagi ma'lumotlari keltirilgan. Kon sharoitida to'lg'azma ishlarining texnologiyasi kon-geologik va kon-texnik sharoitlarida samarali qo'llanilishlarining ko'rsatkichlarini aniqlangan. Kovuldi konida qazib olingan bo'shliqni to'ldiruvchi aralashmalarni vertikal va gorizontal quvurlarda gidrostatik bosimi yordamida tortishish rejimiga asoslanib reologik xususiyatlarini yaxshilash hisobiga tashish ishlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Qotuvchi to'lg'azma, kamera, "Sekushiy" ruda tanasi, selik, to'lg'azma massiv, transport qilish sxemasi, gidrostatik bosim, reologik xususiyatlari, sement.

## УЛУЧШЕНИЕ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ ЗАПОЛНЕНИЯ ОЧИСТНОГО ПРОСТРАНСТВА НА ЗОЛОДОБЫВАЮЩЕМ РУДНИКЕ КАУЛЬДЫ

**Бакиров Гайрат**  
**Холикбердиевич**

*Доцент кафедры горного дела Алмалыкского филиала Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Алмалык, Узбекистан*

**Алимов Шохриддин**  
**Мухамматович**

*Доцент кафедры горного дела Алмалыкского филиала Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Алмалык, Узбекистан*

**Мавланов Абдулла**  
**Абдихакимович**

*Старший преподаватель кафедры горного дела Алмалыкского филиала Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Алмалык, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье представлены сведения о работах по заполнению очистного пространства закладочными смесями в условиях рудника Каульды. Определены показатели эффективного применения технологии закладочных работ в горно-геологических и горно-технических условиях. Рассмотрена подача закладочной смеси очистного пространства по вертикальным и горизонтальным трубопроводам, за счет улучшения реологических свойств, ос-

нованного на использовании гравитационного режима гидростатического давления на руднике Каульды.

**Ключевые слова:** Твердеющий наполнитель, камера, рудное тело «Секущее», илам, заполняемый массив, схема транспортировки, гидростатическое давление, реологические свойства, цемент.

## IMPROVEMENT OF THE MAIN INDICATORS OF THE TECHNOLOGY OF FILLING THE EXTRACTION SPACE AT THE KAULDY GOLD ORE MINE

**Bakirov Gayrat**

**Kholikberdievich**

Associate Professor of the  
Department of Mining, Almalyk  
branch of the Tashkent State  
Technical University named after  
Islam Karimov, Almalyk,  
Uzbekistan

**Alimov Shokhriddin**

**Mukhammatovich**

Associate Professor of the  
Department of Mining, Almalyk  
branch of the Tashkent State  
Technical University named after  
Islam Karimov, Almalyk,  
Uzbekistan

**Mavlanov Abdulla**

**Abdikhakimovich**

Senior Lecturer, Department of  
Mining, Almalyk Branch of  
Tashkent State Technical University  
named after Islam Karimov,  
Almalyk, Uzbekistan

**Abstract.** This article presents information about the work of filling the extraction space with backfill mixtures in the conditions of the Kauldy mine. The indicators of the effective use of the backfill technology in mining-geological and mining-technical conditions are determined. The feeding of the backfill mixture of the cleaning space through vertical and horizontal pipelines is considered, due to the improvement of rheological properties based on the use of the gravitational mode of hydrostatic pressure at the Kauldy mine.

**Keywords:** Consolidating filler, stope, “Sekushiy” ore body, slime, filler massif, transportation scheme, gidrostatic pressure, rheological properties, cement.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda yer osti konchilik ishlarining jadal ravishda rivojlanib borishi natijasida konning geologik sharoitlari murakkablashib bormoqda buning natijasida ish olib borilayotgan qatlamlarda kon ishlarini olib borishda qiyinchiliklar va kon bosimlarini boshqarishda muammolar yuzaga kelmoqda. Qiyinchilik va muammolarni bartaraf etish va oldini olish uchun qazib olingan boshliqni to‘ldirish texnologiyasiga bo‘lgan talab yer osti konchilik ishlarida ortib bormoqda.

Qazilgan boshliqni to‘ldirib qazib olish texnologiyasi konchilik sanoati rivojlangan Kanada, AQSh, Yaponiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Hindiston, Germaniya, Avstraliya mamlakatlarida polimetall, mis, temir va boshqa rudalarni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Qo‘llanilishining rivojlanish tizimlaridagi ulushi: gorizont qatlamlarni to‘ldirish bilan qazib olishda-38,3%, kamerali va nimqavatlariga bo‘lib qazib olishda-36,7%, ustun kamerali to‘ldirib qazib olish tizimi va boshqalarda-10,9% larni tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda rangli va qimmatbaho metall rudalarining MDH mamlakatlarida 25% ni,

Avstraliyada 30% ni, Kanadada 40% ni, Finlyandiyada 85% ni, Fransiyada 87% ni qazilgan boshliqni to‘ldirib qazib olish tizimlarida qazib olinmoqda. Bu usulda qazib olingan mahsulotlarning sifati va boyitish jarayonida kam xarajatligi bilan qotishmani tayyorlashdagi qo‘shimcha xarajatlarga qaramay, ushbu tizimining samaradorligi yuqoriligini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz hududida joylashgan yer osti konlarini qazib olishda qazilgan bo‘shliqni to‘ldirish texnologiyasi “Olmaliq konmetallurgiya kombinati” AJ ning Kovuldi oltin konida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda [1, 2, 5-6].

**Adabiyot tahlil va metodlar.** Konlarni to‘lg‘azma materiallar bilan to‘ldirib qazib olish tizimlarini takomillashtirishga Bronnikov D.M., Vyatkin A.P., Makarov S.V., Beloborodov I.S., Volkov Ye.P., Medvedev V.V., Berkovich V.M., Dordjiev D.Yu., Jilkina N.F., Zubkov A.V., Lizunkin V.M., Lyashenko V.I., Linkov A.M., Matveev I.F., Maxno D.E., Osintsev V.A., Pavlov A.M., Pakulov G.V., Pirogov G.G., Petuxov I.M., Semenov Yu.M., Sosnovskiy L.I., Sosnovskaya Ye.L., Sidorov V.S., Xomyakov V.I., Fisenko G.L.,

Yasichenko V.B. va boshqalar hissa qo'shishgan. Ular har xil sharoitlar uchun to'lg'azma materiallarni tanlash, arzon biriktiruvchilardan foydalanish va qazib olingan bo'shliqni to'lg'azmalar bilan to'ldirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ahamiyatli yutuqlarga erishganlar.

O'zbekiston Respublikasida yer osti usulida konlarni qazib olish texnologiyasini rivojlantirishga Raximov V.R., Isamuhamedov U.A., Akbarov T.G., Raimjanov B.R., Lobanov V.S., Kiselenko A.S., Orudjov U.S., Muxitdinov A.T., Xakimov Sh.I., Mislibayev I.T., Xasanov A.R. va boshqa olim va mutaxassislar katta hissa qo'shgan bo'lib, ularning ishlarida Angren va Zarmitan oltin ma'dan zonasi konlarining quyi gorizontlarida ma'dan qazib olish texnologiyasini yaratishning asosiy tendentsiyalari va yo'nalishlari tadqiq etilgan [2, 4].

Kovuldi konida to'lg'azma ishlari texnologiyasi (1-rasm) quydagicha, bu tizim quydagi kon-geologik va kon-texnik sharoitlarida samarali qo'llanilishi mumkin:

- ruda tanasi yotish burchagi  $10 - 30^{\circ}$  dan oshmasligi kerak;
- ruda tanasining qalinligi eng kamida 1,5 m bo'lishi kerak, qalinlik 3-30 m bo'lganda samarali qo'llaniladi;
- rudaning mustahkamlik koeffitsiyenti professor M.M.Protodyakonov shkalasi bo'yicha 13-14 dan yuqori bo'lishi kerak.

Konda tayyorlash va qazib olish ishlari quyidagi tartibda olib boriladi:


- qatlam shtreki o'tiladi;
- qatlam shtrekining yon tomonlaridan har 3 metrda birlamchi va ikkilamchi kameralar belgilab olinadi;
- belgilab olingan kameralarning birlamchisi qazib olinadi;
- qazib olingan birlamchi kameralar qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldiriladi;
- birlamchi kameradagi to'lg'azma qotgandan so'ng ikkilamchi kamera qazib olinadi;
- qazib olingan ikkilamchi kameralar qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldiriladi;
- har ikkala turdagi kameralar qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldirilgandan so'ng qatlam shtregi to'lg'azma bilan to'ldiriladi.

Kovuldi oltin konini o'zlashtirish jarayonida

quyidagi asosiy muammolar yuzaga kelmoqda:

- ✓ Qotuvchi to'lg'azmaning mustahkamligi past, sababi qum fraksiyasi va zichligi yuqori, natijada tayyorlangan beton qorishmasidan sement yuvilib ketishi yuzaga kelmoqda;
- ✓ To'ldiriladigan tozalovchi kameralardagi to'siqlar masofasini kattaligi sababli to'lg'azma yotqiziladigan kamera tubida va to'siq atrofida to'lg'azma shippgacha to'lmasligi, natijada to'lg'azma va ship orasida bo'shliq yuzaga kelishi kuzatilmoqda;

To'lg'azma quvurlarida tiqilib qolish holatlari tez-tez yuzaga kelmoqda, kameraga smenalik hajmdagi qotuvchi to'lg'azma yotqizilgandan so'ng, quvur ichida qolgan qorishmani chiqarib tashlash uchun suvning o'zini quvur ichidan yurg'uziladi, natijada kameradagi sement yuvilib ketadi, yoki to'siq tashqarisida amalga oshirilsa gorizontda 20 - 30 sm sathli suvga to'lishi yuzaga kelmoqda.



**1-rasm. Qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldirib, kameralardan seliklarni qazib olish tizimi.**

1 – kamera; 2 – selik; 3 – burg'ilangan shpurlar; 4 – selikdan qulatilgan ruda; 5 – to'lg'azma massivi; 6 – to'siq.

**Natijalar va muhokama.** Quyida Kovuldi oltin konida qotuvchi to'lg'azma tayyorlashning texnologik sxemasi ko'rsatib o'tilgan:

Kovuldi koni "Janubiy" qazib olish uchastkasi 720-gorizontdagi "Sekushiy" ruda tanasini o'zlashtirishdagi ruda tanasi va o'tiladigan kon lahimlari ko'rsatkichlari 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

Qirquvchi kon lahimi ya'ni qatlam shtregini o'tishni hisoblashda ruda tanasidan o'tiladigan qatlam shtrekining umumiy hajmi  $304.5 m^3$  ni tashkil qiladi.

Tozalovchi kon lahimi ya'ni birlamchi va ikkilamchi kameralarni o'tib qazib olishda  $1080 m^3$  (yoki  $\Sigma V_{tz} \cdot \gamma = 1080 \cdot 2,65 = 2862 t$ ) tozalash ishlari

amalgga oshiriladi.

Qazib olingan bo'shliqni qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldirish ishlarini amalga oshirish uchun 1 993,5 m<sup>3</sup> to'lg'azma sarflanadi.

Kovuldi koni sharoitida qazib olingan bo'shliqni to'ldiruvchi aralashmalari vertikal va gorizontal quvur trubalar liniyasida o'z o'g'irligining statik bosimi yordamida tortishish rejimida (tortishish kuchlari ta'sirida) tashiladi.

1-jadval

**“Sekushiy” ruda tanasini ko'rsatkichlari**

Ruda tanasining ko'rsatkichlari	Qiymati
Qalinligi, m	9
Cho'ziqligi bo'yicha uzunligi, m	21-24
Kengligi, m	6-11
Yotish burchagi, α°	8-30


2-jadval

**O'tiladigan qirquvchi kon lahimlari ko'rsatkichlari**

O'tiladigan qirquvchi kon lahimi nomi va o'lchami	Qiymati
Qatlam shtregi uzunligi, m	24
Tozalash kamerasi uzunligi, m	11
Ruda tushirgichdan qatlam shtregigacha bo'lgan masofa, m	80
Qatlam shtregi ko'ndalang kesim yuzasi, m <sup>2</sup>	10,5
Tozalash kamerasi ko'ndalang kesim yuzasi, m <sup>2</sup>	9

To'ldiruvchi aralashmalar yig'ish quvurlari yordamida yetkazib boriladi. Ish unumdorligi quvur liniyasining diametri va uzunligiga, balandlik farqiga va aralashmaning reologik xususiyatlariga bog'liq.

Qazilgan bo'shliqni to'ldirish quvurlari asosiy quvurlarga (magistral, ko'tarish tomoni bo'ylab, skvajinalar, kon kapital ishlari bo'ylab yotqizilgan) va qazish bo'linmasi (blok, qatlam) ichidagi asosiy yoki yordamchi qurilmalar bo'ylab joylashgan mahalliy quvurlarga bo'linadi [1, 3].



**2-rasm. Qotuvchi to'lg'azmani tayyorlash texnologiyasi va transport qilish sxemasi.**

Qazib olingan maydonni to'ldiruvchi aralashma bilan to'ldirish texnologiyasi sun'iy massivlarni qurish sxemasiga va qazib olingan qatlamni qayta to'ldirish bilan ruda zaxiralarini qazib olish tizimida foydalanilgan gorizontal qatlamlarga ya'ni gorizontal qatlamlarni pastga yoki yuqoriga qarab qazib olinishiga bog'liq bo'ladi.

To'ldiruvchi aralashmani joylashtirish texnologiyasining birinchi sxemasi - har xil quvvatli (ikki yoki undan ko'p qatlamli) to'ldiruvchi aralashmalarni massivlarga bir hil qilib joylashtirish.

**Xulosa.** Kovuldi koni sharoitida to'lg'azma aralashmalarini tashish to'ldirish quvurining vertikal va qiya liniyalarida statik bosim tufayli o'z og'irlik kuchi ta'sirida (gravitatsion kuchlari ta'sirida) amalga oshiriladi.

To'lg'azma aralashmalari to'ldirish quvurlari orqali tashiladi. Tizim unumdorligi quvur liniyasining diametri va uzunligiga, balandliklardagi farq hamda aralashmaning reologik xususiyatlariga bog'liq.

To'ldirish quvurlari asosiy (ko'tarilmalar, skvajinalar, kon kapital ishlari orqali yotqizilgan magistral liniyalar) va qazish birligi (blok, qatlam) ichidagi asosiy yoki yordamchi ishlar bo'ylab joylashgan uchastka quvurlariga bo'linadi.

Kerakli reologik va mustahkamlik xususiyatlariga ega bo'lgan to'lg'azma aralashmasini olish uchun to'lg'azma aralashmasini tayyorlash jarayonida texnologik operatsiyalarni, shuningdek aralashma tarkibiy qismlarining sifatini va qotib bo'lgan to'lg'azma massasini nazorat qilish kerak.


To'lg'azma aralashmalarining tarkibiy qismlari, ularning maqbul tarkibi, tayyorlash texnologiyasi uchun ishlab chiqarish sharoiti talablariga muvofiqligi, qazib olingan bo'shliqqa tashish va yotqizish usullari, shuningdek sifat nazoratining barqarorligini ta'minlash hamda Kovuldi konidagi to'lg'azma massasining tuzilishi va mustahkamlik xususiyatlarini bashorat qilish imkoniyatlarini beradi.

Qazib olingan bo'shliqni to'lg'azma aralashmasi bilan to'ldirish texnologiyasi sun'iy massivlarni barpo etish sxemasiga va gorizontal qatlamlardagi ruda zaxiralarini qazib olish tizimida foydalaniladigan, qazib olingan maydonni to'lg'azma aralashmasi bilan to'ldirishga ya'ni, gorizontal qatlamlarni pastga yoki yuqoriga qarab qazib olinishiga bog'liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Цыгалов М.Н. Разработка месторождений полезных ископаемых с монолитной закладкой. — М.: Недра, 1980. -176 с.
2. Mislibayev I.T., Alimov Sh.M., To‘uchiboyev Z.I. Qotuvchi aralashmalarining reologik xossalarini aniqlash // O‘zbekiston Konchilik xabarnomasi, Navoiy 2024. —№1. -79-81 b. ISSN – 2181-7383.
3. Малетин Л.В., Осеев О.Б., Левин В.С., Мохов А.И. Опыт развития и совершенствования технологии закладочных работ // Горный журнал. - 1991. - № 5. - С. 52-54.
4. Мислибоев И.Т., Гиязов О.М. Технологические особенности подземной разработки жильных месторождений // Горный вестник Узбекистана. – Navoiy, 2008. – № 4.-С. 46-40.
5. Hasanov O.A., Alimov Sh.M. Приготовление закладочной смеси с использованием отходов производственной угольной золы, пустых пород и мраморной крошки // «Tabiiy resurslardan samarali foydalanishda agroekotizimlar barqarorligining dolzarb muammolari» mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy anjumani maqolalar to‘plami. Buxoro, 2023. – 314-317 b.
6. Mislibayev I.T., Alimov Sh.M. Kovuldi konida qazib olingan bo‘shliqni to‘ldirish texnologiyasini takomillashtirish // Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligiga bag‘ishlangan «Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish yutuqlari, muammolari va istiqbollari» mavzusidagi IV-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. – Navoiy, 2023. – 41-42 b.
7. Меликулов А. Д. и др. Статья. Геомеханические факторы повышения эффективности геотехнологий с учетом их ресурсопродуктивности и ресурсосбережения в современных рыночных условиях //Журнал «Проблемы энерго-и ресурсосбережения. – 2019. – №. 3. – С. 52-63.
8. Бакиров Г. Х. РАСЧЕТ ПАРАМЕТРОВ АРОЧНОЙ КРЕПИ ОТКАТОЧНОГО ШТРЕКА В УСЛОВИЯХ ШАХТЫ «КЫЗЫЛ-АЛМА» //Universum: технические науки. – 2022. – №. 8-1 (101). – С. 62-66.
9. Yu G. N. et al. MAINTENANCE OF UNDERGROUND MINING DEVELOPMENTS IN SEISMIC-TECTONIC ACTIVE AREAS //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2022. – №. 5-6. – С. 26-36.
10. Bakirov G. et al. METALL ROMLI MUSTANKAMLAGICH EGILUVCHAN QISMINING ISH SHAROITLARINI VAHOLASH VA UNING REJIMINI BOSHQARISH //Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 64-70.
11. Бакиров Г. Х. и др. ОБОСНОВАНИЕ ПРИНЦИПОВ ВЫБОРА КОНСТРУКЦИИ И ОПТИМАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ КРЕПИ ПОДЗЕМНЫХ ВЫРАБОТОК //IJDOKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 162-167.
12. Sohbov I. Y. et al. “QIZIL-OLMA” KONI SHAROITIDA KON LAHIMLARIDAGI KON BOSIMINI EXAMINE 2D KOMPYUTER DASTURIDA HISOBLASH ISHLARINING TAHLILI //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 2414-2424.
13. Бакиров Г. Х. УПРАВЛЕНИЕ СОСТОЯНИЕМ МАССИВА В ЗОНАХ ОПОРНОГО ДАВЛЕНИЯ ПРИ СИСТЕМАХ С ОБРУШЕНИЕМ ВМЕЩАЮЩИХ ПОРОД //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 9-13.
14. Melikulov A. D., Bakirov G. X., Alimov S. M. QAZIB OLINAYOTGAN VA ISTIQBOLLI OLTIN RUDA KONLARINING GEOLOGIK VA TEKTONOFIZIK SHAROITLARINING GEOTEKNOLOGIYALARGA TA’SIR ETISHINING TAHLILI //Sanoatda raqamli texnologiyalar. – 2024. – Т. 2. – №. 4-1. – С. 62-67.
15. Almirzao‘G‘Li N. X., Bakirov G. KONTURLI PORTLATISH SAMARADORLIGIGA KONTURLI SHPURLAR ORASIDAGI MASOFA VA SHPURLARNI YAQINLASHISH KOEFFITSIENTINING TA’SIRI //Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности. – 2024. – Т. 2. – №. 4-1. – С. 31-36.

UO‘K: 662.7

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.23

**MURAKKAB TARKIBLI XOM-ASHYOLARDAN QIMMATBAHO  
METALLARNI AJRATIB OLIISH JARAYONIDA GIDROMETALLURGIK  
USULLARNING ILMIIY ASOSLARI VA AMALIY QO‘LLANILISHI**



**Aripov Avaz Rozikovich**

*Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O'zbekiston*  
E-mail: [avaz.aripov.82@bk.ru](mailto:avaz.aripov.82@bk.ru)  
ORCID ID: 0000-0002-0428-507X



**Sayfullayev Farruxjon Ibodovich**

*Assistent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O'zbekiston*  
E-mail: [farruxsayfullayev96@mail.ru](mailto:farruxsayfullayev96@mail.ru)  
ORCID ID: 0009-0005-0641-1956



**Qurbonov Mehrob Nuriddinovich**

*Assistent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O'zbekiston*  
E-mail: [mehrobqurbonov99@gmail.com](mailto:mehrobqurbonov99@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0000-4897-9455



**Jabborova Surayo G'ulomovna**

*Assistent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O'zbekiston*  
E-mail: [jabborovasurayo22@gmail.com](mailto:jabborovasurayo22@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada murakkab oltin tarkibli pirit-arsenoperit ruda va boyitmalarni gidrometallurgik qayta ishlash jarayonlari va turli usullari muhokama qilindi, hamda jarayonlarning afzalliklari va kamchiliklari hisobga olindi. Ushbu usullarga an'anaviy texnologiyalar, bakterial oksidlash, shuningdek, yuqori va past haroratdagi tanlab eritish va keyingi sianid bilan ishlov berish jarayonlari kiradi. Ushbu usullarning kamchiliklari suyuq va qattiq fazalarni ajratish bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi. Degidratatsiya jarayonlari gidrometallurgik texnologiyalarning ajralmas qismidir. Effektiv bo'lmagan fazalarni ajratish jarayoni uskunaning samaradorligini pasaytirishi va energiya iste'molini oshirishi mumkin. Mualliflar xom-ashyo samaradorligini oshirish va ularning to'liq ishlatilishini yaxshilashga oid yechimlarni ko'rib chiqadilar.

**Kalit so'zlar:** gidrometallurgiya, qimmatbaho metallar, murakkab tarkibli xom-ashyo, eritish jarayoni, cho'ktirish, ekologik jihatlar, iqtisodiy samaradorlik, degidratatsiya jarayonlari, quyultirish, filtrlash.

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ**

**ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗВЛЕЧЕНИЯ  
ДОРОГОЦЕННЫХ МЕТАЛЛОВ ИЗ УПОРНОГО СЫРЬЯ**

**Aripov Avaz Rozikovich**

*Доктор философии (PhD) по техническим наукам, Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан*

**Сайфуллаев  
Фаррухжон Ибодович**

*Ассистент, Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан*

**Курбонов Мехроб  
Нуриддинович**

*Ассистент, Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан*

**Джабборова Сурайё  
Гуламовна**

*Ассистент, Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан*

**Аннотация.** В статье обсуждаются процессы и различные методы гидromеталлургической переработки сложных золотосодержащих пирит-арсенопиритовых руд и концентратов, а также учитываются преимущества и недостатки этих процессов. К данным методам относятся традиционные технологии, бактериальное окисление, а также выборочное выщелачивание при высоких и низких температурах с последующей обработкой цианидом. Не-

достатки этих методов включают проблемы, связанные с разделением жидкой и твердой фаз. Процессы дегидратации являются неотъемлемой частью гидрометаллургических технологий. Неэффективное разделение фаз может снизить производительность оборудования и увеличить потребление энергии. Авторы рассматривают решения, направленные на повышение эффективности использования сырья и его полного извлечения.

**Ключевые слова:** Гидрометаллургия, Драгоценные металлы, Сложносоставляющее сырьё, Процесс плавки, Осаждение, Экологические аспекты, Экономическая эффективность, Процессы дегидратации, Концентрация, Фильтрация.

## SCIENTIFIC FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPLICATION OF HYDROMETALLURGICAL METHODS IN THE PROCESS OF EXTRACTING PRECIOUS METALS FROM REFRACTORY RAW MATERIALS

**Aripov Avaz Rozikovich**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
Technical Sciences, Navoi State  
Mining and Technology University,  
Navoi, Uzbekistan

**Sayfullaey Farruxjon  
Ibodovich**

Assistant, Navoi State Mining and  
Technological University, Navoi,  
Uzbekistan

**Qurbonov Mekhrob  
Nuriddinovich**

Assistant, Navoi State Mining and  
Technological University, Navoi,  
Uzbekistan

**Jabborova Surayo  
Gulomovna**

Assistant, Navoi State Mining and  
Technological University, Navoi,  
Uzbekistan

**Abstract.** The article discusses the processes and various methods of hydrometallurgical processing of complex gold-bearing pyrite-arsenopyrite ores and concentrates, taking into account the advantages and disadvantages of these processes. These methods include traditional technologies, bacterial oxidation, as well as selective leaching at high and low temperatures followed by cyanidation. The disadvantages of these methods include issues related to liquid-solid phase separation. Dehydration processes are an integral part of hydrometallurgical technologies. Inefficient phase separation can reduce equipment performance and increase energy consumption. The authors consider solutions aimed at improving raw material efficiency and its complete utilization.

**Keywords:** Hydrometallurgy, Precious metals, Complex composition raw materials, Smelting process, Precipitation, Environmental aspects, Economic efficiency, Dehydration processes, Concentration, Filtration.

**Kirish.** Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ushbu asrda jahon oltin qazib olish hajmining asosiy o'sishi murakkab va qiyin boyitiladigan oltin tarkibli rudalar hamda boyitmalarni keng jalb etish orqali ta'minlanishi rejalashtirilgan [6]. Bu esa bunday rudalarni qayta ishlashga bo'lgan talablarning ortishiga olib keladi, chunki ularning samarali qayta ishlanishi yanada murakkab texnologiyalarni va ilg'or ishlab chiqarish jarayonlari sxemalarini talab qiladi. Bunday usullar qatoriga gravitatsion ajratish, flotatsiya, kuydirish, eritish va gidrometallurgik yuvish (tanlab eritish) kabi texnologiyalar kiradi [12].

Qiyin boyitiladigan rudalar dunyo bo'yicha jami oltin zaxiralarining 30% dan ortig'ini tashkil etadi. Ushbu rudalar asosan ikki asosiy toifaga bo'linadi:

– Oltin kremniy (kvars) minerallari bilan bog'langan rudalar;

– Oltin sulfidli birikmalar bilan bog'langan rudalar.

Rudani maydalash jarayonida sulfidlar bilan bog'langan mayda tarqalgan oltin zarrachalarining faqat kichik qismining yuzasi ochiladi. Asosiy qismi esa pirit yoki arsenopirit tarkibida qoladi. Sulfidli oltin rudalarining murakkabligi shundaki, oltin sulfid minerallarida nafaqat mayda tarqalgan tabiiy metall zarralari shaklida, balki qattiq eritma holatida, ya'ni kolloid zarrachalar ko'rinishida ham uchraydi [7].

Ushbu tadqiqotning maqsadi murakkab tarkibli xomashyolar, masalan, murakkab pirit-arsenopirit rudalari va boyitmalarini avtoklav-gidrometallurgik qayta ishlash texnologiyasining asosiy

afzalliklarini ko‘rib chiqish hamda avtoklavda oksidlovchi tanlab eritish jarayonidan olingan mayda dispers eritmalarini keyingi quyultirish jarayonlariga ba‘zi parametrlarning ta‘sirini o‘rganishdan iborat. Mavjud ishlov berish usullarini tahlil qilish asosida murakkab sulfidli oltin tarkibli xomashyolarni avtoklavli ishlov berish texnologiyasining afzalliklarini, xususan, past haroratda tanlab eritish jarayonini baholash va ushbu turdagi tanlab eritishdan keyin eritmada kuzatiladigan bir qator xususiyatlarni aniqlash hamda oksidlangan eritmalarini keyingi quyultirish jarayonlarining murakkabligini keltirib chiqaruvchi omillarni belgilash mumkin bo‘ladi. Taklif qilingan optimal shartlar quyultirish va filtrlash jarayonlarining qabul qilingan samaradorlik ko‘rsatkichlarini ta‘minlaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Murakkab sulfidli oltin xomashyolar tarkibida oltin mayda dispers zarracha ko‘rinishida mavjud bo‘lib, ularni qayta ishlash usullari bir qator parametrlar, masalan, ruda va boyitma tarkibi, texnologik va mexanik xususiyatlarga bog‘liq. Hozirgi vaqtda sulfidli oltin xomashyolari tarkibidan oltinni ajratib olish uchun bir nechta texnologiyalar mavjud. Ular orasida termokimyoviy (kuydirish), kimyoviy (tanlab eritish) va mexanik (yanchish) jarayonlar, shuningdek, ularning kombinatsiyalashgan usullari mavjud [13].

Murakkab tarkibli oltin rudalaridan oltinni ajratib olishning an‘anaviy usullaridan biri flotatsiya usulida boyitish, olingan boyitmalarni oksidlovchi kuydirish va keyinchalik kuydirilgan boyitmalarni sianlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi [12]. Ushbu usul juda oddiy bo‘lsa-da, jiddiy kamchiliklarga ega:

– Sulfid va yuqori darajadagi toksik arsenit chiqindilari bilan atrof-muhitning zararlanishi;

– Oltin zarrachalari yuzasida past erish nuqtasiga ega bo‘lgan birikmalarning qoplamalari hosil bo‘lishi va natijada oltinning past tiklanishi, shuningdek, arsenit sublimatsiyalariga zarrachalarning aralashishi;

– Yuqori darajadagi toksik arsenit oksidlarni zararsizlantirish jarayonlarining qimmatligi.

Hozirda kunda murakkab tarkibli oltin piritarsenopirit rudalaridan oltin ajratib olishning an‘anaviy usullari gidrometallurgik texnologiyalar bilan almashtirilmoqda. Sababi jarayonda sulfid va arsenit birikmalarining gaz chiqindilarining yo‘q-

ligi, shuningdek, arsenitning past toksik birikmalar shaklida chiqarilishi va ular chiqarilishi mumkin bo‘lgan oqova suvlar orqali to‘xtatish havzasiga chiqarilishi sababli, ushbu texnologiyalar atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga maksimal darajada javob beradi. Bundan tashqari, gidrometallurgik texnologiyalar boshqa usullarga nisbatan yuqori oltinni ajratib olishni ta‘minlaydi.


Hozirgi vaqtda kompleks murakkab oltin tarkibli xomashyolarni qayta ishlashda, bakterial va avtoklavli ajratish usullari hamda keyinchalik jarayonda hosil bo‘lgan keklarni sianlash kabi usullar ustunlik qilmoqda [4, 6, 7, 8]. Ushbu usullarning afzalliklari xomashyolarni qayta ishlashning yaxlitligi va barcha qimmatbaho komponentlarning yuqori miqdorda ajratib olinishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotda murakkab oltin tarkibli rudalarining bakterial tanlab eritish texnologiyasi o‘rganildi, bunda oltin sulfidli minerallar, masalan, pirit va arsenopirit minerali ichida mayda dispers zarracha ko‘rinishida tarqalgan. Ushbu texnologiya sulfidli minerallarni bakterial parchalanishini, tanlab eritishdan keyin bakterial eritmalarining tozalash va qayta ishlash jarayonini hamda bakterial oksidlash jarayonidan olingan keklarni sianlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi [3, 9]. Sulfidlarni kislotali bakteriyalar yordamida parchalanishi asosida bakterial tanlab eritish orqali oltin ajratib olish jarayonini yuzlab foizgacha oshirish mumkin. Shuning uchun bakterial tanlab eritish texnologiyasi turli oltin ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda (Janubiy Afrika, Avstraliya, Xitoy, O‘zbekiston va boshqalar) [14]. Oltin konsentratlarini bakterial oksidlash yordamida qayta ishlash jarayonining texnologik ketma-ketligi 1-rasmda ko‘r-satilgan.

Tadqiqotlar mikroorganizmlarning rudalar shakllanishi va o‘zgarishidagi katta rolini, shuningdek, ularning tabiiy sharoitlarda sulfid minerallarini oksidlash va eritish qobiliyatini ochib berdi.




Bakterial oksidlash texnologiyasi oltin ajratib olish uchun manba bo‘lgan flotakonsentratining qayta ishlangan eritmalarida ammoniy sulfat eritmasi va sulfat kislota qo‘shilgan holda qayta aralashiriladi, shunday qilib, tayyorlangan suspenziyaning qattiq komponentining miqdori 15% dan kam bo‘lmasligini ta‘minlanishi kerak. Tayyorlangan suspenziya mexanik aralashtirish va aeratsiya bilan jihozlangan chanlarga yuboriladi va

keyinchalik tanlab eritish jarayoniga o'tkaziladi.



**1-rasm. Bakterial oksidlash yordamida oltin tarkibli boyitmalarni qayta ishlash jarayonining texnologik sxemasi.**

Sulfid minerallarining bakterial oksidlanishi, quyidagi reaksiyalar asosida sulfat va arsenit kislotalarining hosil bo'lishiga olib keladi [9]:







60 soatlik bakterial oksidlash jarayonidan so'ng arsenopiritning oksidlanish darajasi 80-90% ga yetadi. Bakterial oksidlashning samaradorligi avtoklavli oksidlash jarayoniga yaqin bo'lib, oksidlovchi kuydirish usulidan samaraliroq hisoblanadi. Biroq, avtoklavli oksidlash usuli sulfid minerallarining to'liqroq oksidlanishini ta'minlaydi va natijada oltinni yuqori darajada ajratib olish imkonini beradi. Bundan tashqari, bakterial oksidlash jarayonida katta hajmli uskunalardan foydalanishni talab qiladi, bu esa kapital xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Avtoklavli oksidlash jarayonlari gidrometallurgik texnologiyalarda rangli metallarni bevosita ajratib olish samaradorligini oshirish, ularning selektiv ajratib olinishini yaxshilash hamda yangi birikmalarni hosil qilish imkonini beradi, bu esa eritmalarni osonroq qayta ishlashga yordam beradi [10]. Shuningdek, ushbu texnologiyalardan foyda-


lanish oltinni chang bilan yo'qolishining oldini oladi hamda murakkab chang yig'ish va tozalash tizimlariga ehtiyojni bartaraf etadi.

Kislotali muhitda sulfidli minerallarining, xususan, arsenopirit va piritning avtoklavli oksidlovchi tanlab eritish jarayonida quyidagi reaksiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin [7]:



Elementar oltingugurt jarayonga xalaqit beruvchi komponent hisoblanadi, chunki u 1120°C dan yuqori haroratda eriydi va oksidlanmagan sulfid zarralarini mayda tarqalgan oltin bilan qoplab oladi. Bu esa zarrachalarning to'liq oksidlanishiga yo'l qo'ymaydi va erimaydigan qoldiq hosil bo'lishiga olib keladi.

Elementar oltingugurt hosil bo'lishining oldini olish uchun jarayon 180 dan 300°C gacha bo'lgan yuqori haroratlarda olib boriladi. Ushbu harorat diapazoni sulfidli oltingugurtning to'liq oksidlanishini ta'minlab, sulfat-ion hosil bo'lishiga imkon yaratadi. Yuqori haroratda avtoklavli tanlab eritish usuli orqali oltin tarkibli pirit-arsenopirit boyitmalarini gidrometallurgik qayta ishlash jarayonining texnologik sxemasi 2-rasmda keltirilgan.




**2-rasm. Murakkab oltin tarkibli pirit-arsenopirit boyitmalarni avtoklavda yuqori haroratda qayta ishlash jarayonining texnologik sxemasi.**

Pirit va arsenopirit boyitmalarini qayta ishlash jarayonining umumiy texnologik sxemasi quyidagi

asosiy jarayon bosqichlarini o‘z ichiga oladi: oltin saqllovchi flotakonsentratni yanchish, dekarbonizatsiya (kislota bilan ishlav berish), ya’ni flotat-konsentratdan karbonat birikmalarini oldindan ajratish jarayoni, avtoklavli oksidlovchi tanlab eritish, qattiq va suyuq fazalarni ajratish (oksidlangan eritmani filtrlash), eritmani ohak yoki ohaktosh bilan neytrallash hamda yakuniy sorbsion-sianlash jarayoni.

Mavjud texnologiyalar doirasida, oltin saqllovchi sulfidli xomashyolarni avtoklavli oksidlovchi tanlab eritish asosida qayta ishlash jarayonlarida qat’iy fizik-kimyoviy sharoitlar talab qilinadi. Masalan, yetarlicha yuqori haroratdan foydalanish zarur, chunki bu elementar oltingugurt hosil bo‘lishining oldini olishga yordam beradi, aks holda jarayonning samaradorlik ko‘rsatkichlari pasayadi. Biroq, yuqori haroratli tanlab eritish jarayonida murakkab tarkibli xomashyolarni qayta ishlash texnologiyasining qiyinligi va katta xarajat talab etishi uni amaliy jihatdan qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan, ayni paytda sulfidli boyitmalarni oksidlanish sharoitlarini, xususan, past haroratli tanlab eritish imkoniyatlari o‘rganilgan [5].

Past haroratli oksidlovchi tanlab eritish texnologiyasidan foydalanilgan holda qiyin ajraluvchi oltin saqllovchi pirit-arsenopirit boyitmalarini qayta ishlashning texnologik sxemasi 3-rasmda keltirilgan [1].



**3-rasm. Nisbatan past haroratda tanlab eritish parametrlarida murakkab oltin tarkibli pirit-arsenopirit boyitmalarini avtoklavli qayta ishlash jarayonining texnologik sxemasi.**

Past haroratli oksidlovchi tanlab eritish jarayoni uchun zarur sharoitlar quyidagilardan iborat: suyuq va qattiq fazalar o‘rtasidagi nisbat 3:1 ga teng bo‘lishi kerak, oksidlanish harorati - 130°C, kislorodning qisman bosimi - 1.0 MPa, avtoklavli oksidlovchi tanlab eritish jarayonining davomiyligi kislorodning sarfining to‘xtashiga qarab baholanadi.

Murakkab oltin tarkibli pirit-arsenopirit boyitmalari uchun karbonat birikmalarini (dekarbonizatsiya) oldindan ajratish jarayoni muhim bosqich hisoblanadi, chunki bu birikmalar avtoklavlash jarayonida gazsimon CO<sub>2</sub> chiqarilishiga, kislorodning qisman bosimini kamayishiga va uning samarali ishlatilish darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Dekarbonizatsiya jarayonini amalga oshirish quyidagi sharoitlarni talab etadi: jarayon harorati 60-65°C bo‘lishi kerak, reaktiv sifatida 1:1 hajmda suyultirilgan sulfat kislota ishlatilishi lozim. Kislota alohida miqdorlar bilan 20-30 daqiqa davomida aralashtiriladi, pH darajasi 2.0-2.2 ga tushmaguncha.

Past haroratli tanlab eritish jarayonidan keyin eritmani suvsizlantirish yana bir muammo hisoblanadi. Avtoklavli tanlab eritish jarayonini nisbatan past parametrlar bilan boshlash uchun zarur shart - oltin saqllovchi sulfid minerallarini ajratib olish uchun mayin yoki ultramayin yanchishdir. Sharli tegirmonlarda yanchish jarayoni quyidagi parametrlar bo‘yicha amalga oshirilishi kerak: 180 ta metall shar, aylanish tezligi 34 ay/min, yanchish vaqti 7 soat. Ushbu ultramayin yanchishda zarrachalarning 80% dan ko‘prog‘i 10-15 mikrondan kichik bo‘lishi, bu minerallarning kristall panjarasida yuqori darajada yorilish hosil qiladi. Bu minerallarning kristall panjarasining faolligini oshiradi va tanlab eritish jarayonining samaradorligini yaxshilaydi. Biroq, boyitmani mikron o‘lchamdagi zarrachalargacha ultramayin yanchish, keyingi quyultirish va filtrlash jarayonlarining juda qiyin borishiga olib keladi [11].

**Natijalar.** O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida oksidlash jarayoni haroratini pasaytirishga asoslangan texnologiyaning afzalliklari, ya’ni past haroratli tanlab eritishning afzalliklari ochib berildi [2]. Ushbu afzalliklar quyidagilardan iborat:

- Avtoklav uskunalarning past narxi;
- Sanoat jarayonini amalga oshirish uchun talab qilinadigan kapital xarajatlarning kamayishi;

- Organik uglerod va xloridlarning zararli ta'sirlarining kamayishi;

- Gidrometallurgiya siklida oltinni ajratib olishga foydali ta'sir.

Biroq, ushbu texnologiyaning barcha Afzalliklariga qaramay, past haroratli tanlab eritish jarayonida olingan eritmalar va jarayon parametrlariga bog'liq ba'zi kamchiliklar mavjud bo'lib, bu keyingi suyuq va qattiq fazalarni ajratish jarayoniga ta'sir qiladi. Past haroratli tanlab eritish jarayonidan keyin eritmani suvsizlantirish muammosining murakkabligi, qattiq fazaning yuqori dispersiyasi va suyuq fazadagi tuzlar miqdorining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonni qabul qilingan samaradorlik parametrlarida amalga oshirishga imkon bermaydi.

Quyultirish jarayonining samaradorligiga nafaqat qattiq fazaning mineral va granulometrik tarkibi, balki dastlabki eritmada va quyultirilgan mahsulotda qattiq moddaning miqdori, suyuq fazaning yopishqoqligi, qattiq va suyuq fazalarning zichligi, eritma harorati, muhitning pH darajasi, eritmada reaktivlar va maxsus qo'shilgan qo'shimchalar mavjudligi, shuningdek, quyultirish jarayonida ishlatilgan quyultirgichlarning dizayn xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi.

Tuzli suyuq faza bilan to'yingan eritmalarini quritishni yaxshilash uchun quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin [1]:

- Tuz miqdorini quyultirish orqali kamaytirish;

- Sintetik poliakrilamid flokulyantlaridan foydalanish;

- Avtoklavli oksidlovchi tanlab eritish jarayonidan keyin eritmani ohaktosh bilan qisman yoki to'liq neytrallash.

Neytrallash jarayoni nafaqat eritmada tuz miqdorini kamaytirishga, balki arsenatni past eruvchan temir arsenat shaklida ajratib olib, uni chiqindi tashlash maydoniga joylashtirishga yordam beradi.

Haroratni oshirish, bu esa quyultirish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Flokulyant iste'moli eritmani quyultirish xususiyatlariga ta'sirini o'rganish uchun avtoklavli oksidlovchi tanlab eritish jarayonidan keyin eritmani turli flokulyant iste'moli bilan quyultirish bo'yicha bir qator tajribalar o'tkazildi. Ma'lumki, eritmaning yopishqoqligi harorat oshgani sayin kamayadi. Shu sababli, harorat omilining ta'sirini o'rganish uchun biz maxsus tajribalar o'tkazildi,

bunda turli haroratlarda suvli termostatda sinovlar amalga oshirildi. Quyultirish parametrlarining yaxshilanishi 25°C dan 80°C gacha bo'lgan haroratda kuzatildi. Shunday qilib, 25°C haroratda 300 g/t flokulyant iste'moli bilan quyultirishning maxsus sig'imi 3,17 t/m<sup>2</sup>·kun bo'lsa, 80°C haroratda bu ko'rsatkich 3,75 t/m<sup>2</sup>·kunni tashkil etdi. 80°C haroratda quyultirilgan mahsulotdagi suyuq va qattiq fazalar o'rtasidagi nisbat 25°C haroratga nisbatan 20% ga kamroq bo'lgan.

**Muhokama.** So'nggi yillarda, sulfid xomashyolarini nisbatan past parametrlar bilan avtoklavli tanlab eritish jarayoniga asoslangan texnologiyalar keng rivojlanmoqda. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun xom-ashyo ultramayin yanchishni talab qiladi, bu esa oksidlangan eritmani suvsizlantirish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga olib keladi. Bunga qo'shimcha ravishda, jarayon oksidlangan eritmada tuzlarning yuqori miqdori tufayli yomonlashmoqda.

Murakkab oltin pirit-arsenopirit rudalari va boyitmalarini qayta ishlashda ultramayin oksidlangan eritmalarini suvsizlantirish jarayonini yaxshilash usullarini izlash hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan biridir. Rangli metallarni qayta ishlashda, ayniqsa, mahsulotlarning katta tonnasida, quyultirish va filtrlash jarayonlarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Ba'zi zavodlarda ultramayin fazalarni ajratish va suvsizlantirish jarayonlari umumiy qayta ishlash xarajatlarining taxminan 30% ni tashkil etadi, natijada olinadigan boyitmalarning ishlab chiqarish narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, quyultirish dastgohlari egallagan maydon korxonaning umumiy maydonining taxminan 25% ni tashkil etadi. Quyultirish va filtrlash jarayonlarini intensivlashtirish, quyultirish reagentlarining ortiqcha miqdori bilan material yo'qotilishini kamaytirishga va qimmatbaho komponentlarni ajratib olishning oshirishga imkon beradi. Bu qo'shimcha uskunalarni o'rnatmasdan korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytirishga yordam beradi. Quyultirish va filtrlash jarayonlarining parametrlarini optimallashtirish, mavjud uskunalarni yaxshilash va yangi yuqori samarali quyultirish uskunalarini yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, turli sintetik reagentlarni qo'llash, suspenziyaning qattiq fazasining cho'kish tezligini oshirishga yordam beradi. Bunday moddalar elektrolitlar, suv o'tkazmaydigan reagentlar va

синтетик yuqori molekulyar flokulyantlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Sintetik polielektrolitlar faol gidrofillik funksional guruhlar, masalan,  $\text{CONH}_2$  va  $\text{COOH}$  dan tashkil topgan. Bunday polimerik birikmalar eritmalarda ionlanadi va ularning makromolekulalari ion guruhlarining turiga qarab musbat yoki manfiy zaryad oladi. Bunday moddalar dispersgatsiya qilingan qiyin suvsizlanadigan tizimlarda mavjudligi, agregatlar, ya’ni flokulyantlar hosil bo‘lish orqali suspenziyaning osongina va samarali cho‘kishini ta’minlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, reagent sifatida Prestol 2510 (“Chemical Company”, Sankt-Peterburg tomonidan ishlab chiqarilgan) pirit-arsenopirit boyitmalarining avtoklavli oksidlovchi past haroratli tanlab eritish jarayonidan keyin eritmani suvsizlantirish jarayonini amalga oshirish uchun eng samarali optimal flokulyant ekanligi aniqlangan (prestol 2510). Ushbu flokulyant sedimentatsiya jarayonini eng samarali tarzda amalga oshirishga imkon beradi va suyuqlikning yuqori sifatli ajralishini ta’minlaydi. Flokulyant iste’moli 300-450 g/t ni tashkil qiladi, chunki kamroq iste’mol qilinganida qattiq komponentning tez cho‘kishi va sedimentning samarali quyulishi ta’minlanmaydi. Haroratni  $80^\circ\text{C}$  gacha oshirib,

avtoklav eritmasi suyuqlik fazasidagi tuz miqdorini 1-1.9 mol/l ga kamaytirish orqali, quyultirish jarayonining maxsus samaradorligi 1.2-3.75 t/m<sup>2</sup> kun darajasiga, filtrlash jarayonining maxsus ishlab chiqarish quvvati esa 38-40 kg/m<sup>2</sup> soat darajasiga yetkazilishi mumkin [1].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, oltin ajratib olish sanoatida xom-ashyo bazasining rivojlani-shidagi asosiy tendensiya, minerallar xom-ashyo sifatining yomonlashuvi hamda oltinli boyitmalar va rudalarni qayta ishlashda oltinning asosiy sulfid minerallari kristall panjarasiga mayda dispers zar-racha shaklida tarqalgan holda ishtirok etishidir. Ilg‘or avtoklav-gidrometallurgik texnologiyalari-ni qo‘llanilishi nafaqat past sifatli va murakkab (ishlov berish nuqtai nazaridan) murakkab oltin tarkibli pirit-arsenopirit xomashyolaridan keng qamrovli foydalanishni ta’minlaydi, balki atrof-mu-hitni muhofaza qilish muammolarini hal qilishga va tabiiy resurslarni saqlashga ham imkon beradi. Bun-day rudalarni avtoklav-gidrometallurgik usullari bilan qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni boyitish va metallurgik usullarining birgalikda qo‘llanilishi asosida kompleks yonda-shuv orqali hal qilish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Иваник, С.А. 2002. Разделение и освобождение ультратонких фаз в технологии автоклавного усиления упорных золотосодержащих концентратов. [Separation and dehydration of ultra-fine phases in the autoclave leaching technology of refractory gold concentrates], Ph.D. thesis, St. Petersburg, Mining University, pp. 133.
2. Korans, I.J. and Angew, J.E. 1993. Activation of a mineral species. Patent No. 5232491 USA. MCI 22 B 11/08, No. 902992. Appl. 23.06.1992; Publ. 03.0801993. 5C, Australia, 1993.
3. Кузякина, Т.И., Хаинасова, Т.С. и Levenets, O.O. Биотехнология извлечения металлов из сульфидных руд [Biotechnology for extracting metals from sulfide ores], KRAUNTS Bulletin. Earth Science. 12:76-86. 2008.
4. Ладеичников, В.В. Технология извлечения золота и серебра из упорных руд [Gold and silver extracting technology from refractory ores], Иркутск, OJSC “Irgiredmet”. 1999.
5. Lapin, A.Yu., Bitkov, G.A. и Shneerson, Ya.M. Автоклавно-гидрометаллургическая переработка упорных золотосодержащих сульфидных материалов при пониженных температурах [Autoclave-hydrometallurgical processing of refractory gold-bearing sulphide materials at low temperatures]. Non-ferrous Metals. 12:39-44. 2011.
6. Naboychenko, S.S., Ni, L.P., Shneerson, Ya.M. и L.V. Chugaev. Автоклавная гидрометаллургия цветных металлов [Autoclave hydrometallurgy of non-ferrous metals], Екатеринбург, GOU USTU - UPI, pp. 570-575. 2002.
7. Naboychenko, S.S., Ni, L.P., Shneerson, Ya.M., Kalashnikova, M.I., и Chugaev, L.V. Автоклавная гидрометаллургия цветных металлов [Autoclave hydrometallurgy of non-ferrous metals]. GOU USTU - UPI, 2, 351-396. 2009.

8. Самихов, Ш.Р. Технология переработки упорных и бедных золотосодержащих руд [Processing technology of refractory and low-grade gold ores], Ph.D. thesis, Dushanbe, pp. 136. 2006.
9. Шамин, В.Ю. Чановое биоокисление золото-сульфидно-арсенопиритового концентрата [Tank bio-oxidation of gold-sulphide-arsenopyrite concentrate]. Mining Bulletin of Uzbekistan. 2(21):45-49. 2005.
10. Shneerson, Ya.M. and Naboychenko, S.S. Тенденции развития автоклавной гидрометаллургии цветных металлов [Trends in the development of autoclave hydrometallurgy of non-ferrous metals]. Non-ferrous Metals. 3:15-20. 2011.
11. Sizyakov, С.М., Ivanik, S.A. and Fokina, S.B. Исследование процессов сгущения и фильтрации тонкодисперсного оксидного пульпы [Study of thickening and filtration processes of finely dispersed oxidized pulps]. Enrichment of Ores. 2:21-25. 2012.
12. Зеликман, А.Н. Теория гидрометаллургических процессов [The theory of hydrometallurgical processes]. Moscow: Metallurgy. 424. 1983.
13. О.У.Фузайлов, Ф.И.Сайфуллаев, И.И.Мажидова, С.Г.Жабборова. Исследование способов интенсификации процесса обжига сульфидных золотосодержащих концентратов с применением микроволнового излучения. Journal of Advances in AND Engineering Technology Vol.2(6) 2022.
14. Aripov A.R., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N., Majidova I.I. O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi. Sanoatda raqamli texnologiyalar ISSN: 3030-3214, Volume 2, № 3:2024.

UO‘K: 622.453

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.26

## YER OSTI KON ISHLARIDA MAHALLIY SHAMOLLATISH VENTILYATORLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI



**Ravshanov Avaz Ali**  
o‘g‘li

“NKMK” AJ Janubiy kon  
boshqarmasi O‘quv-kurs kombinati  
ishlab chiqarish ta‘limi ustasi,  
Navoiy, O‘zbekiston



**Nurxonov Xusan Almirza**  
o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universiteti,  
Geologiya va konchilik ishi  
kafedrasida dotsenti t.f.f.d. (PhD),  
Qarshi, O‘zbekiston  
ORCID ID: 0000-0003-4526-7211



**Bo‘riyev Feruz Mansur**  
o‘g‘li

“NKMK” AJ Janubiy kon  
boshqarmasi O‘quv-kurs kombinati  
ishlab chiqarish ta‘limi katta ustasi,  
Navoiy, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada foydali qazilma konlarini massivdan mexanik usulda ajratib olishda, transport vositalarini harakatlanishida, yer osti kon lahimlarini burg‘ilash va portlatish ishlari orqali massivdan ajratib olishda shaxta atmosferasida zaharli gazlar ortishi tahlil qilingan. Tahlillar natijasiga asosan atmosferasidagi zaharli gazlarning ortishini kamaytirish uchun mahalliy shamollatish ventilyatorlarini o‘rganib chiqildi hamda havo oqimlarining harakatlanishini matematik modellashtirish dasturi asosida ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoriqlik, zaharli gazlar, burg‘ilash-portlatish ishlari, massiv, havo harakati, zichlik, oqim, mahalliy ventilyator, yopishqoqlik, vektor, yer osti kon lahimi, kavjoy, qatlam, struktura.

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕСТНЫХ ВЕНТИЛЯЦИОННЫХ ВЕНТИЛЯТОРОВ В ПОДЗЕМНЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ

**Равшанов Аваз Али**  
угли

Мастер производственного  
обучения Учебно-курсового  
комбината Южного  
рудуправления АО «НГМК», г.  
Навои, Узбекистан

**Нурхонов Хусан**  
Алмирза угли

Каршинский государственный  
технический университет,  
доцент кафедры геологии и  
горного дела, кандидат  
технических наук. (PhD), Карши,  
Узбекистан

**Буриев Феруз Мансур**  
угли

Старший мастер  
производственного учебно-  
курсового комплекса Южного  
горнорудного управления АО  
«НГМК», г. Навои, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье проанализировано увеличение концентрации токсичных газов в шахтной атмосфере при механическом отделении полезных ископаемых от массива, движении транспортных средств, проведении подземных горных выработок методом буровзрывных работ. На основе результатов анализа изучены местные вентиляционные вентиляторы с целью снижения концентрации токсичных газов в атмосфере, а также рассмотрено движение воздушных потоков с использованием программы математического моделирования.

**Ключевые слова:** трещиноватость, токсичные газы, буровзрывные работы, массив, движение воздуха, плотность, поток, местный вентилятор, вязкость, вектор, подземная горная выработка, камера, пласт, структура.

## MODERN METHODS OF USING LOCAL VENTILATION FANS IN UNDERGROUND MINING OPERATIONS

**Ravshanov Avaz Ali ugli**

*Master of production training at the  
Training and Course Complex of  
the Southern Mining Department of  
NMMC JSC, Navoi, Uzbekistan*

**Nurkhonov Khusan  
Almirza ugli**

*Karshi State Technical University,  
Associate Professor, Department of  
Geology and Mining, Doctor of  
Philosophy (PhD), Karshi,  
Uzbekistan*

**Buriyev Feruz Mansur  
ugli**

*Senior Master of Production  
Education, Training and Course  
Complex, Southern Mining  
Department, JSC "NMMC", Navoi,  
Uzbekistan*

**Abstract.** This article analyzes the increase in the concentration of toxic gases in the mine atmosphere during the mechanical extraction of minerals from the rock mass, the movement of transport vehicles, and underground mining operations using drilling and blasting methods. Based on the analysis results, local ventilation fans were studied to reduce the concentration of toxic gases in the atmosphere, and the movement of air flows was examined using a mathematical modeling program.

**Keywords:** Fracturing, toxic gases, drilling and blasting operations, rock mass, air movement, density, flow, local ventilation fan, viscosity, vector, underground mining excavation, chamber, seam, structure.

**Kirish.** Jahonda foydali qazilma konlarini qazib olishda ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, foydali qazilmalarni portlatish usulida massivdan ajratib olish, mexanik yoki boshqa usullar bilan massivdan ajratib olishda rudnik atmosferasi ifloslanadi. Bu jarayonda mayda chang zarralari va portlovchi moddalarning portlashidan hosil bo'ladigan zaharli gazlar, jumladan, uglerod oksidi, azot oksidlari, oltingugurt birikmalari va boshqalar katta miqdorda ajralib chiqadi. Chang zarralarining bulut shaklida katta masofaga tarqalib, shamollatish oqimi bilan butun kon lahimi bo'ylab harakatlanadi. Tog' jinslari portlatilgandan keyin kavjoy hududida chang cho'kib qolishi va zararli gazlarning me'yoridan yuqori konsentratsiyada to'planishi kuzatiladi. Bu esa rudnik muhitida inson hayoti va faoliyati xavfsizlik me'yorlariga zid holatni yuzaga keltiradi. Tahlillar natijasiga ko'ra B.P.Kazakov, A.V.Shalimov va L.Yu.Levin tomonidan katta ko'ndalang kesim yuzali kon lahimlarini shamollatishda yuqori quvvatga ega ventilyatorlar yordamida lahimlarni shamollatish samaradorligini ko'rib chiqdilar. Ular qo'shimcha shamollatish ventilyatorlar yordamida katta ko'ndalang kesim yuzali kon lahimlarini shamollatish bo'yicha analitik va sonli modellashtirish ishlarini olib bordilar. Model-lashtirish natijalarini tahlil qilish asosida yer yuzasi bilan bevosita tutashadigan va tutashmaydigan kon lahimlarida, shuningdek, o'zaro bog'langan parallel lahimlarda havo harakatining mumkin bo'lgan miqdori hisoblab chiqildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Rudnik ventilyatsiya tarmoqlarining uzoq joylashgan uchastkalariga yetarli darajada toza havo yetkazib berish muammosini rudnik aerologiyasining eng muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydilar. Rudnikka umumiy havo oqimini oshirish uchun asosiy shamollatish ventilyatorlari va yordamchi yer osti shamollatish qurilmalaridan tashqari, mahalliy shamollatish uchun mo'ljallangan oddiy va kam quvvatli ventilyatorlar keng qo'llanilmoqda [3]. Bunday ventilyatorning asosiy vazifasi – havo sarfini qayta taqsimlash, ya'ni havo yetarli bo'lgan lahimlardan havo miqdori kam bo'lgan lahimlarga yo'naltiriladi. Ko'pgina hollarda mahalliy shamollatish ventilyator to'siqsiz o'rnatiladi, bu esa ventilyator orqali haydaladigan havo sarfini ejeti effekti hisobiga oshirish imkonini beradi. Ushbu effektning yuzaga kelishi quyidagi ikki shart bajarilganda kuzatiladi:

– Shamollatilayotgan uchastkaning aerodinamik qarshiligi yetarlicha past bo'lishi kerak (10 m<sup>2</sup> dan kam);


– mahalliy shamollatish ventilyatorlar o'rnatilgan kon lahimlari ko'ndalang kesim yuzasi ventilyator oqimining siqilish darajasini ta'minlash uchun yetarlicha kichik bo'lishi kerak (taxminan 10 m<sup>2</sup> yoki undan kam).

Ko'rsatilgan shartlar, asosan, tomirsimon konlarga xos bo'lib, bu ularning shamollatishni yaxshilash uchun ejetor qurilmalari sifatida mahalliy shamollatish ventilyatorlardan keng foyda-

lanishiga sabab bo'lgan. Tomirsimon kon lahimlarining aerodinamik qarshiligi ancha yuqori bo'lib, bu birinchi shartning bajarilmasligiga olib keladi. Shuning uchun mahalliy shamollatish ventilyatorlar to'siqsiz rejimda bunday shaxtalarda samaradorligi pastroq bo'lib, ko'pincha to'siqli holda ishlatiladi va kamroq qo'llaniladi [4].

Kon lahimlari ko'ndalang kesim yuzasi ventilyator oqimining siqilish darajasini ta'minlash uchun yetarlicha kichik bo'lishi kerak, chunki bu yerda ishchi zonadagi yo'laklarning kesimi 100 m<sup>2</sup> va undan ham ko'proq bo'lishi mumkin, hamda aerodinamik qarshiligi qatlamli konlarga qaraganda ancha past bo'lsa ham. Tomirli konlarda aerodinamik qarshilikning past bo'lishiga qaramay, uzoq joylashgan kon lahimlarining yetarlicha shamollanmasligi muammosi boshqa rudniklardagi kabi dolzarb bo'lib qolmoqda. Mahalliy shamollatish ventilyatorlari to'siqli holda joylashtirish mumkin emas va katta kesimli yo'laklarda ejetiya effektini amalga oshirish qiyinlashadi. Ventilyator oqimi bunday yo'lakning chuqur qismiga yo'naltirilgan bo'lsa ham, devorlarga yetib bormasdan energiyasini yo'qotib, qisman yoki to'liq ventilyatorning o'ziga qaytadi, natijada tortish manbai atrofida foydasiz havo aylanishi yuzaga keladi.

**Natijalar.** Mahalliy shamollatish ventilyatorlar ketma-ket o'rnatish orqali joylashtiriladi, bu esa havoning keraksiz aylanishini kamaytirish, kon ishlari olib borilmaydigan kon lahimlari orqali havo yo'qotilishini qisqartirish va kon ishlari olib borilayotgan kavjoylarga yetarli havo yetkazib berish imkonini beradi. Bugungi kunda ventilyator qurilmalarining bunday kombinatsiyalangan ishlash usuli NKMK AJ Janubiy kon boshqarmasiga qarashli Zarmitan oltin konida keng qo'llanilmoqda.



**1-rasm. Katta ko'ndalang kesim yuzali kon lahimini mahalliy shamollatish ventilyatori (MSHV) yordamida shamollatish sxemasi.**

Ushbu katta ko'ndalang kesim yuzali kon lahimlarini shamollatish sxemasi bo'yicha (1-rasm) shamollatish samaradorligini baholash uchun hisob-

kitoblarni amalga oshirish zarur. Bu holda, mavjud q<sub>0</sub> mahalliy shamollatish ventilyatorining havo oqimiga ta'siri hisobga olinib, kerakli l+l<sub>0</sub> havo sarfini ta'minlash uchun ventilyatorlar orasidagi optimal Q<sub>0</sub><q<sub>0</sub> masofani aniqlash vazifasi yuzaga keladi.

Tabiiy aerodinamik tadqiqotlarni o'tkazish orqali ushbu zonalarning o'lchamlarini va havo harakat tezliklarini aniqlash ko'pincha murakkab jarayondir. Bu bir qator omillar bilan bog'liq, jumladan, ushbu zonalarning kichik o'lchamlari, ularga yetib borishning qiyinligi, shuningdek, ularning fazo va vaqt bo'yicha parametrlarining dinamik o'zgarishi. Shu sababli, havo oqimlarining harakatini modellashtirish uchun zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday dasturlar qatoriga **ANSYS Fluent**, **ANSYS CFX** va **FlowVision** kiradi. Ishlab chiqarish sharoitida ushbu dasturlarni qo'llash imkoniyatlarini va qulayliklarini tahlil qilib, **FlowVision** dasturdan foydalanish samara hisoblanadi.

FlowVision dasturi oqim harakatini matematik modellashtirish uchun **Navye-Stoks tenglamasini** sonli usulida yechiladi hamda ushbu tenglama quyidagi shaklga ega:

$$\frac{\partial V}{\partial \tau} = -(V \cdot \nabla) \cdot V + \nu \Delta V - \frac{1}{\rho} \nabla P + F,$$

Bu yerda  $\nabla$  - Gamiltona operatori ( $\nabla = \frac{\partial}{\partial x} + \frac{\partial}{\partial y} + \frac{\partial}{\partial z}$ );

$$(\nabla^2 = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2} + \frac{\partial^2}{\partial z^2} - \text{Laplas operatori}$$

$\tau$  - vaqt;

$\nu, \rho$  - Kinematik yopishqoqlik va havo zichligi;

P - bosim;

V - tezliklar vektor maydoni;

F - massiv kuchlar vektor maydoni.

Yuqorida ko'rib chiqilgan formula asosida shaxta atmosferasidagi havo oqimi harakatlanish tezligi va massiv kuchlarga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.


**Xulosa.** Umuman olganda, FlowVision dasturi yordamida hisoblangan modellar natijalari amaliyotda kuzatilgan sharoitlarga mos keladi. Taklif etilgan metodika asosida qabul qilingan yechimlar havo oqimlarining aerodinamikasini baholash imkonini beradi, ayniqsa, odatdagi o'lchovlarni amalga oshirish qiyin bo'lgan joylarda.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yoʻnalishlardan biri yer osti kon lahimlarida gaz aralashmalarini tarqalishi oʻrganildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Абрамов Ф.А., Бойко В.А. Автоматизация проветривания шахт. Киев: Науковая думка, 1967 г. С. 310.
2. Алыменко Н.И., Каменских А.А., Николаев А.В. Воздушная завеса и общерудничная естественная тяга. г. Москва. Издательство: Горная книга. ИСБН 0236-1493; 2011 г. С. 280.
3. Бойко В.А., Кременчуцкий Н.Ф. Основы теории расчета вентиляции шахт. - М.: Недра, 1978. С. 279.
4. Бурчаков А.С., Мустель П.И., Ушаков К.З. Рудничная аэрология. - М.: Недра, 1971. - С. 376.
5. Буссугу У.Д., Качурин Н.М. Уравнения течения воздуха и его формы для расчета вентиляции шахт. // Вестник науки и образования № 4(58). часть 2. 2019. С. 88-92.
6. Махмудов А., Мусурманов Э.Ш., Ахмедов С.Т. Повышение эффективности вентиляционных оборудований управлением движения потока воздуха // Universum: технические науки: электрон. научный журнал, 2023. 9(114). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/-16013> 2023, С. 16-21. DOI - 10.32743/UniTech.2023.114.9.16013.
7. Мислибаев И.Т., Махмудов А., Мусурманов Э.Ш. Исследование и анализ системы вентиляции и вентиляционных оборудований глубоких горизонтов рудных шахт // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 446-450. 57.
8. Мислибаев И.Т., Махмудов А., Мусурманов Э.Ш. Исследование кинематика движения потока воздуха при вентиляции тупиковых рабочих мест шахты // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 226-236.
9. Мохирев Н.Н., Радько В.В. Инженерные расчеты вентиляции шахт. Строительство. Реконструкция. Эксплуатация. - М.: Недра, 2007. - С. 327.
10. Musurmanov E.SH. “Murakkab kon-texnologik sharoitli konlarda uchastkalarni shamollatishni optimallashtirish” // “Ilm-fan va innovatsion rivojlanish” ilmiy jurnali, 1/2023, 24-31 b.
11. Musurmanov E.SH. Ruda konlari shamollatish tarmogʻida havo sarfi taqsimlanishini rostlash usullari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 page 635-643
12. Ravshanov A.A., Boʻriyev F.M., Bobomurodov A.Y. Yer osti shamollatish qurilmalarini tanlash va samaradorligini oshirish // “Respublika janubida geologiya, kon-metallurgiya va neft-gaz sohalarining istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjumani matereallari toʻplami. С 135-137.

UO‘K: 622.271:553.94

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.33

## OLCHALIK MAYDONI MURAKKAB TARKIBLI POLIMETALL RUDALARIDAN OLTIN VA KUMUSH METALLARINI GRAVITATSION USULIDA BOYITISH TEXNOLOGIYASI



**Suyarov Jahongir Usmonqul o'g'li**

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali doktoranti, Olmaliq, O'zbekiston  
E-pochta: jahongirsuyarov3@gmail.com

**Annotatsiya.** Namangan viloyatida joylashgan Olchalik maydoni rudalaridan oltin va kumushni gravitatsiya usulida boyitib, ajratib olishning texnologiyasi ishlab chiqilgan. Umumiy tarzda Olchalik maydonining har xil nuqtalarida burg'u quduqlari qazib, o'rganish maqsadida olib kelingan namunalari tayyorlash jarayonlaridan o'tkazildi va kimyoviy, ratsional hamda granulometrik tahlillar natijalari olindi. Olingan natijalarga ko'ra ruda tarkibidagi oltin va kumushning asosiy qismi mayda zarrali sof holatda bo'lib, asosan gravitatsiya usulida boyitishga mos kelishi ilmiy asoslandi. Olingan natijalarga asoslanib ruda namunalari dastlab konsentratsion stolda va keyinchalik boshqa gravitatsion dastgohlarda boyitish ishlari amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar:** Ruda maydoni, burg'u qudug'i, sof, sulfid, oksid, boyitma, chiqindi, oraliq mahsulot, mineral-xomashyo, resurs, tahlil, ratsional tahlil, kompleks.

## ТЕХНОЛОГИЯ ГРАВИТАЦИОННОГО ОБОГАЩЕНИЯ ЗОЛОТА И СЕРЕБРА ИЗ ПОЛИМЕТАЛЛИЧЕСКИХ РУД СЛОЖНОГО СОСТАВА ОЛЬЧАЛИКСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ

**Суяров Джахонгир Усмонкулович**

Докторант, Алмалыкский филиал Ташкентского государственного технического университета, Алмалык, Узбекистан

**Аннотация.** Разработана технология гравитационного обогащения для извлечения золота и серебра из руд месторождения Алчалык, расположенного в Наманганской области. В общем, буровые скважины были пробурены в различных точках месторождения Алчалык, образцы, доставленные для исследования, прошли процессы подготовки, и были получены результаты химического, рационального и гранулометрического анализов. По полученным результатам было научно обосновано, что основная часть золота и серебра в руде находится в мелкодисперсном самородном состоянии и преимущественно подходит для обогащения гравитационным методом.

**Ключевые слова:** Рудное поле, буровая скважина, самородные, сульфид, оксид, концентрат, хвосты, промежуточный продукт, минеральное сырье, ресурс, анализ, рациональный анализ, комплекс.

## TECHNOLOGY OF GRAVITATION ENRICHMENT OF GOLD AND SILVER FROM POLYMETAL ORE OF THE COMPLEX COMPOSITION OF THE OLCHALYK DEPOSIT

*Suyarov Jahongir Usmonkul ugli*

*Doctoral student, Almalyk branch of Tashkent State Technical University, Almalyk, Uzbekistan*

**Abstract.** A technology has been developed for extracting gold and silver through gravitational enrichment from the ores of the Olchalik field, located in Namangan region. In general, drill holes were excavated at various points of the Olchalik field, and samples brought for study underwent preparation processes. The results of chemical, rational, and granulometric analyses were obtained. According to the obtained results, it has been scientifically substantiated that the main portion of gold and silver in the ore exists in a fine-grained pure state and is primarily suitable for enrichment using the gravity method. Based on the obtained results, ore samples were initially enriched on a concentration table and subsequently on other gravity devices.

**Keywords:** Ore deposit, drill hole, pure, sulfide, oxide, concentrate, waste, intermediate product, mineral raw material, resource, analysis, rational analysis, complex.

**Kirish.** O‘zbekistonda kon-metallurgiya sanoati mamlakat iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot va valyuta tushumlarining salmoqli qismini ta‘minlaydi. Mamlakatimiz ko‘p turdagi foydali qazilmalarning ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahonda yetakchilar qatorida turadi. Respublikamiz iqtisodiy islohotlarni boshidan kechirar ekan, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq u o‘zining imkoniyatlaridan foydalanish, iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni dunyodagi eng ilg‘or texnologiyalar asosida izchillik bilan rivojlantirishni maqsad qilib oldi.

Mamlakatimiz va jahondagi oltin rudali obyektlar ro‘yxatida birinchi o‘rinni haqli ravishda noyob Muruntov koni egallaydi. Ushbu konning ochilishi, razvedkasi, muvaffaqiyatli ekspluatatsiyasi barcha mamlakatlar geologlari, konchilari, texnologlari va tadbirkorlarida doimiy qiziqish uyg‘otmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatidan tashqari Marjonbuloq, Angren va Chodak oltin qazib olish fabrikalari ham mavjud.

Respublikaning oltin rudali namoyonlari asosan uchta metallogenik zonada: Qurama, Zarafshon-Turkiston va Janubiy Bukantov, kamroq darajada Turkiston-Oloy va Zarafshon-Oloy va yanada kamroq - Katarmay va Shimoliy Bukantov zonalarida to‘plangan. 1976-yilda V.G. Garkoves, V.V. Martinov, R.V. Soy va boshqalar “O‘zbekistonning mineral-xomashyo resurslari” monografiyasida O‘zbekistonning 4 ta oltin ruda konlarini shakllanishiga tavsif beradilar:

1. Sof oltin rudali yoki oltin-kvarsli, kam sulfidli.
2. Oltin-arsenopiritli.
3. Oltin-xalkopiritli.
4. Oltin-kumush.

Endogen rudalashuvning uchta asosiy sof oltin ko‘rinishdagi geologik-sanoat turlari ajratilgan: oltin-kvarsli, oltin-sulfid-kvarsli, o‘n ikkita kichik turga ega oltin-sulfidli (Golovanov, 2000) va ikkita kompleks: oltin-kumushli va oltin-mis-porfirli. Shu bilan bir qatorda Namagan viloyati Olchalik uchastkasi ham mavjud bo‘lib, Qurama tog‘tizmasining shimoli-sharqiy tomonida, G‘ova-soy soyining quyi qismida joylashgan. Olchalik uchastkasida: Shimol-G‘arbiy zonasining 1-sonli ruda tanasini dastlabki baholash va uning qanotlarida oltin minerallashuvini aniqlash uchun 3182 ta namunalar 1000 glik va 100 glik shaklda olindi. Shimoli-G‘arbiy Olchalik uchastkasining sanoat oltin rudalashuvi kvars, kvars-karbonat tarkibli tomirlarda va qisman gidrotermal o‘zgargan, asosan maydalangan kvarsdashgan gabbrolarda joylashgan. Tomirlarning yoyilishi submeridional va meridional bo‘lib chuqurligi 25-50 metrli burg‘ilash quduqlari va yer osti kon lahimlari orqali o‘rganildi. Umumiy tarzda Olchalik maydonining har xil nuqtalarida 2000 dan ortiq burg‘u quduqlari qazib umumiy 3 tonna namuna 3182 ta qopchalar 1 kg va 100 g dan solindi va o‘rganish maqsadida olib kelindi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotni olib borishda zamonaviy kompleks tadqiqot usullari, jumladan kimyoviy, mineralogik, optik-emission, spektral hamda analitik tahlillardan foydalanib laboratoriya tajribalari va keng qamrovli sanoat-sinov tajribalari natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar.** Olchalik maydoni polimetall rudalaridan oltin va kumushni ajratib olish darajasiga ta'sir etuvchi gravitatsion boyitish dastgohlarining asosiy texnologik parametrlari aniqlangan. Olchalik maydoni rudasini boyitib, ruda tarkibidagi oltinni 65,7%, kumushni 57,94% ajratib olindi va tarkibiy miqdori jihatdan oltin 51,43 g/t, kumush 154,8 g/t boyitmasini ajratib olish texnologiyasining optimal rejimlari ishlab chiqilgan. Olchalik maydoni murakkab tarkibli rudasining texnologik namunalari taqdim etildi. ruda namunasini sinovlarga tayyorlash orqali tog' jinsini laboratoriya valli maydalagichda 05 mm gacha maydalanadi. Namuna materialini aralastirish va qisqartirish "halqakonus" va kvarterlash usullari bilan amalga oshirildi. Yirikligi -0.5+0 mm bo'lgan rudadan o'rtacha namuna olinib, yanchilgandan so'ng kimyoviy, spektral va Ratsional tahlillar bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Rudaning o'rtacha namunasining to'liq kimyoviy tahlili laboratoriyada amalga oshirildi, uning natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**O'rtacha ruda namunasining kimyoviy tahlili natijalari**

Komponentlar	Miqdor, %	Komponentlar	Miqdor, %
SiO <sub>2</sub>	64,42	K <sub>2</sub> O	2,28
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0,88	So <sub>6</sub> ш.	2,8
FeO	5,56	SO <sub>3</sub>	0,62
TiO <sub>2</sub>	0,33	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	0,31
MnO	0,23	CO <sub>2</sub>	3,19
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	11,1	H <sub>2</sub> O	1,85
CaO	3,74	Au, r/t	2,48
MgO	2,17	Ag, r/t	8,47
Na <sub>2</sub> O	0,73	Cu	0,63

O'rtacha namunadagi kimyoviy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan ruda namunasida oltin miqdori 2,48 g/t, kumush 8,47 g/t va mis 0,63% ni tashkil etdi. O'rtacha ruda namunasining ratsional tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ruda namunasida erkin oltin miqdori 80,17% va kumush 76,06% ni tashkil qiladi; temir va marganes karbonatlari va gidroksidlari bilan 6,61% oltin va

3,87% kumush bog'langan; sulfidlar (pirit, arsenopirit) bilan 7,44% oltin va 10,92% kumush bog'langan; Oltinning 5,79% va kumushning 9,15% kvars, alyumosilikat va boshqa kislotalda erimaydigan minerallarda ingichka holda uchraydi.

2-jadval

**O'rtacha ruda namunasining ratsional tahlili natijalari oltin va kumushga**

Oltin, kumushning joylashish shakli va ularning rudali komponentlar bilan bog'lanish xarakteri	Metallarni taqsimlash			
	Au		Ag	
	g/t	%	g/t	%
Au va Ag sof tug'ma, boshqa minerallar: xloridlar, sulfatlar, kumushning oddiy sulfidlari bilan aralashmada bo'ladi	1,99	80,17	6,44	76,06
Kislotalda eriydigan minerallar, temir va marganes oksidlari bilan bog'langan Au va Ag	0,16	6,61	0,33	3,87
Au va Ag sulfidlarda (pirit va arsenopirit) (HNO <sub>3</sub> bilan ishlov berilgandan keyin sianlashtiriladigan)	0,18	7,44	0,92	10,92
Au va Ag kvars, alyumosilikatlar va boshqa kislotalda erimaydigan minerallarda	0,14	5,79	0,77	9,15
Jami namunalar	2,48	100	8,47	100

Qimmatbaho komponentlarning granulometrik tarkibini va taqsimlanishini aniqlash uchun -0,5+0 mm yiriklikkacha maydalangan rudaning nam elakli tahlili o'tkazildi. Elakli tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

**Granulometrik tahlil natijalari -0,5+0 mm yiriklikdagi maydalangan ruda**


Yiriklik sinfi, mm	Chiqish, %	Miqdor			Sinflar bo'yicha taqsimlash, %		
		g/t		%			
		Au	Ag	Cu	Au	Ag	Cu
-0,5	31,05	2,26	8,25	0,65	28,62	30,24	31,7
-1,25	23,29	2,55	8,56	0,67	23,88	23,53	24,5
-0,62	17,74	2,25	8,16	0,56	16,25	17,1	15,64
-0,315	9,88	3,08	8,35	0,63	12,63	9,74	9,8
-0,155	4,43	2,42	8,73	0,65	4,31	4,56	4,53
-0,08	3,73	2,37	8,67	0,62	3,65	3,8	3,64
-0,036	1,71	2,45	8,87	0,66	1,78	1,8	1,77
-0,044	8,17	2,51	8,21	0,64	8,44	8	8,23
Dast. ruda	100	2,48	8,47	0,63	100	100	100

**Muhokama.** Rudani elakli tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, mayda sinfdagi foydali

komponentlar miqdori yirik sinfga qaraganda biroz yuqori.

Rudaning moddiy tarkibi bo'yicha tajriba sinovlari boyitish usullari asosida amalga oshirildi. Bunda tadqiqotlar asosan boyitishning gravitatsion usuli asosiy usul sifatida qabul qilingan.

Gravitatsion boyitishda, nisbatan yirik sof oltin zarralari va sulfidlarni graviokonsentratga ajratish uchun amalga oshirildi. Gravitatsion boyitish uchun kelib tushgan materialning yirikligi dastlabki rudaning yirikligidan kelib chiqqan holda qabul qilindi. Bunda -0,5+0 mm dan -0,1+0 mm gacha o'lchamlarda o'zgarib turdi. Dastlab boyitish konsentratsion stolda amalga oshirildi.



**1-rasm. Rudalarni gravitatsion usulida boyitish sxemasi.**

Bunda quyidagi parametrlarda standart shaklda tajriba o'tkazildi.

Stolning ishlash rejimi: - tebranish chastotasi minutiga 110 yurish; - tebranish amplitudasi 8-9 mm; - dekaning ko'ndalang qiyaligi 7-10°; ruda osmasi 5-10 kg; - yuvuvchi suv sarfi - 4,5 l/min.

**Natijalar.** 4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, konsentratsion stolda namunaning boyitilishida rudani maydalashning yirikligi -0,25+0 mm bo'lganda eng yaxshi ko'rsatkichlar olindi. Bunda tarkibida 47,81 g/t oltin, 125,2 g/t kumush va 6,2 % mis bo'lgan gravioboyitma olinib, qimmatbaho metallar ajratib olishda mos ravishda 63,1%, 48,2% va 32,1% ni tashkil etdi. Bundan tashqari boshqa gravitatsion uskunalarda: cho'kltirish mashinasi, shlyuz, vintli separator va markazdan qochma konsentratlarda ham amalga oshirildi, Ushbu uskunalar Knelson rusumli markazdan qochma konsentratida amalga oshirilganda eng yaxshi ko'rsatkich olindi (markazdan qochma kuchning qiymati 70-75 G, suvining sarfi 3-3,5 l/min.) Bunda qum va quyilmaga alohida nisbatlar asosida alohida parametrli konsentrat olindi va tajriba o'tkazildi (2-rasm).


5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, konsentratorda ruda namunasini boyitilishida rudani maydalashning yirikligi -0,1+0 mm bo'lganda eng yaxshi ko'rsatkichlar olindi. Bunda tarkibida 51,43 g/t oltin, 154,8 g/t kumush va 6,9 % mis bo'lgan gravioboyitma olinib, qimmatbaho me-

4-jadval

**Konsentratsion stolda olchali uchastkasi ruda namunasini boyitish natijalari**

Boyitilgan mahsulot	Chiqish, %	Miqdor			Ajrallish			O'lcham mm
		g/t		%	%			
		Au	Ag	Cu	Au	Ag	Cu	
Gravioboyitma	3,54	36,89	105	5,55	52,7	43,9	31,2	-0,5+0
Oraliq mahsulot	6,19	1,61	7,93	0,73	4,0	5,8	7,2	
Graviochiqindi	90,27	1,19	4,72	0,42	43,3	50,3	61,6	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	-0,315+0
Gravioboyitma	2,96	48,26	130,77	6,47	57,7	45,7	30,4	
Oraliq mahsulot	5,39	1,42	8,97	0,97	3,1	5,7	8,3	
Graviochiqindi	91,65	1,06	4,49	0,42	39,2	48,6	61,3	-0,25+0
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	
Gravioboyitma	3,26	47,81	125,2	6,2	63,1	48,2	32,1	
Oraliq mahsulot	4,41	1,37	12,86	1,67	2,4	6,7	11,7	-0,1+0
Graviochiqindi	92,33	0,92	4,12	0,38	34,4	45,0	56,2	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,47</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	
Gravioboyitma	2,81	53,78	152,2	7,28	60,9	50,5	32,5	-0,1+0
Oraliq mahsulot	4,84	1,12	9,1	1,02	2,2	5,2	7,9	
Graviochiqindi	92,35	0,99	4,0	0,4	36,9	44,3	59,6	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	

tallarning ajralishi mos ravishda 65,7%, 57,94% va 34,78% ni tashkil etdi.



**2-rasm. Ruda namunalarni konsentratorlarda boyitish sxemasi.**

tratdagi oltin miqdori 50 g/t dan kam bo‘lmagan va zararli aralashmalar: As=0,7% (*margumush*) dan ko‘p bo‘lmagan hamda Sb=0,3% (*surma*) va Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>=10%. Olingan konsentrat miqdori gravitatsion boyitmalarga qo‘yilgan talab doirasida. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, laboratoriya tajribalari va tajriba-sanoat sinovlari o‘tkazildi va olingan natijalar ilmiy asoslandi, asosiy qimmatbaho komponentlarning rudadagi fraksiyalar bo‘yicha miqdoriy taqsimlanish qonuniyatlari aniqlandi hamda belgilandi, bu esa qimmatbaho komponentlarni (oltin va kumush) ajratib olishni ta‘minladi, Olchalik maydoni polimetall konlar rudalarini qayta ishlashning Gravitatsion boyitish usulini ishlab chiqish bilan izohlanadi. Olchalik maydoni rudasini Gravitatsion dastgohlarda boyitish orqali yo‘qori natijalarga erishiladi va ayniqsa ruda tarkibidagi metallarning asosiy sinfi mayda zarrali ko‘rinishda bo‘lganligi sababli markazdan qochma konsentratorlarda boyitish amalga oshiri-

5-jadval

**Konsentratorlarda Olchali uchastkasi ruda namunasini boyitish natijalari**

Boyitilgan mahsulot	Chiqish, %	Miqdor			Ajralish			O‘lcham mm
		g/t		%	%			
		Au	Ag	Cu	Au	Ag	Cu	
Gravioboyitma	2,96	48,23	150,8	7	57,56	52,7	32,9	-0,5+0
Graviochiqindi	97,04	1,08	4,12	0,43	42,44	47,3	67,1	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	
Gravioboyitma	3,05	46,31	135,8	6,32	56,9	48,93	30,6	-0,315+0
Graviochiqindi	96,35	1,1	4,48	0,45	43,1	51,07	69,4	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	
Gravioboyitma	2,73	53,6	160,37	7,75	59,1	51,69	33,6	-0,25+0
Graviochiqindi	96,69	1,05	4,2	0,43	40,9	48,3	66,4	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	
Gravioboyitma	3,17	51,43	154,8	6,9	65,7	57,94	34,78	-0,1+0
Graviochiqindi	96,83	0,88	3,68	0,42	34,3	42,06	65,22	
Ruda	<b>100</b>	<b>2,48</b>	<b>8,47</b>	<b>0,63</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	

**Xulosa.** Gravitatsion oltin tarkibli konsentratlarning sifati TU-Uz-65-001-94-003 texnik shartlari bo‘yicha baholandi, ular bilan konsen-


tratlarda yanada yo‘qori ajralish ko‘rsatgichlariga erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Самадов, А. (2019). Комплексный подход к переработке техногенных образований горно-металлургических производств. Ташкент.: Фан ва технологиялар.
2. Самадов, А., & Аскарлова, Н. (2020). Совершенствование технологии переработки шлаков медного производства. Ташкент.: “VNESHINVESTPROM”.
3. Samadov, A., Xolikulov, D., & Saidova, M. (2020). Metallar resiklingi. Toshkent: «VNESHINVESTPROM».

4. Носиров, Н., Ж.У., С., & India. (2020). Study of the Composition of the Stale Tailings of the Tailings of Hydrometallurgical Plants. International journal of advanced research in science, engineering and technology., 13584-13588.
5. Стрижко, Л. С. (2016). Полупромышленные испытания технологии выщелачивания золота в цикле измельчения с применением гидроакустического излучателя. Москва: Цветные металлы.
6. Samadov, A., Nosirov, N., & Suyarov, J. (2023). Переработке труднообогатимости золотосодержащих руд. euroasian journal of academic research, 164-168.
7. Samadov, A., & Suyarov, J. (2023). Краткий информационный обзор по переработке пробазолотосодержащей руды участка Алычалык Алычалыкской площад. INTERNATIONAL JOURNAL OF FORMAL EDUCATION, 419-424.
8. Samadov A., & Suyarov, J. (2024). Минералого-петрографическое изучение месторождения. Miasto Przyszłości, 1715-1721.
9. Samadov A., Nosirov, N., & Suyarov, J. (2024). The Study of the Location, Amount, and. International Journal of Scientific Trends- (IJST), 85-90.

UO‘K: 662.7

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.32

## METALLURGIK PECHLARDAN CHIQUADIGAN CHANGLARNI TUTISH USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI O‘RGANISH



**Murodullayeva Sabrina Otabek qizi**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

E-mail: [sabrinamurodillayeva0204@gmail.com](mailto:sabrinamurodillayeva0204@gmail.com)

ORCID ID: 0000-0002-0428-507X

**Annotatsiya.** Metallurgik pechlardan chiqadigan changlarning atmosfera va ishchi muhitiga salbiy ta'sirini kamaytirish muhim ekologik va texnologik vazifalardan biridir. Ushbu maqolada metallurgik pechlardan chiqadigan changlarni tutish usullarining samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida chang ajratish tizimlarini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Metallurgik pechlarda hosil bo'ladigan changlar tarkibida og'ir metallar, sulfidlar va boshqa zararli komponentlar bo'lib, ular atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli metallurgik pechlardan chiqadigan changlarni samarali usullar bilan tutish muhim texnologik va ekologik masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Metallurgik pechlar, chang ajratish, changni tutish usullari, ekologik muhofaza, filtratsiya, elektrostatik filtrlar, inertsiyal chang ajratish, sanoat chiqindilari, havo tozalash tizimlari, ekologik texnologiyalar.

## ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ УЛАВЛИВАНИЯ ПЫЛИ ИЗ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ ПЕЧЕЙ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

**Муродуллаева Сабрина Отабек кизи**

Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан

**Аннотация.** Снижение негативного воздействия пыли, выбрасываемой из металлургических печей, на атмосферу и производственную среду является одной из важных экологических и технологических задач. В данной статье рассматривается эффективность методов улавливания пыли из металлургических печей. Также анализируются возможности совершенствования систем пылеулавливания с использованием современных технологий и инновационных подходов. Пыль, образующаяся в металлургических печах, содержит тяжелые металлы, сульфиды и другие вредные компоненты, которые могут оказывать негативное влияние на окружающую среду и здоровье человека. Поэтому эффективное улавливание пыли, выходящей из металлургических печей, считается одной из важных технологических и экологических проблем.

**Ключевые слова:** Металлургические печи, пылеулавливание, методы улавливания пыли, экологическая защита, фильтрация, электростатические фильтры, инерционное пылеулавливание, промышленные отходы, системы очистки воздуха, экологические технологии.

## STUDYING METHODS OF CAPTURING DUST FROM METALLURGICAL FURNACES AND THEIR EFFECTIVENESS

*Murodullaeva Sabrina Otabek kizi*

*Navoi State University of Mining and Technology, Navoi, Uzbekistan*

**Abstract.** Reducing the negative impact of dust emissions from metallurgical furnaces on the atmosphere and working environment is one of the crucial environmental and technological challenges. This article examines the effectiveness of dust capture methods from metallurgical furnaces. Additionally, it analyzes the possibilities of improving dust separation systems using modern technologies and innovative approaches. Dust generated in metallurgical furnaces contains heavy metals, sulfides, and other harmful components that can adversely affect the environment and human health. Therefore, the efficient capture of dust from metallurgical furnaces is considered one of the significant technological and environmental issues.

**Keywords:** Metallurgical furnaces, dust separation, dust capture methods, environmental protection, filtration, electrostatic filters, inertial dust separation, industrial waste, air purification systems, environmental technologies.

**Kirish.** Metallurgiya sohasi zamonaviy sanoatning ajralmas qismi bo'lib, unda turli metallarni ajratib olish va qayta ishlash jarayonlari amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar natijasida muhim metall va qotishma mahsulotlari olinishi bilan bir qatorda, atmosferaga turli gazsimon, suyuq va qattiq chiqindilar hosil bo'ladi. Ayniqsa, metallurgik pechlardan chiqqan chang sanoat chiqindilari orasida alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Mis eritish zavodlarida texnologik jarayonlar davomida ajralib chiqadigan changlar tarkibida mis, qo'rg'oshin, rux kabi rangli metallar bo'lishi mumkin. Ushbu changlarning atrof-muhitga tarqalishi ekologik muammolarni keltirib chiqarib, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, chang tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni yo'qotish iqtisodiy nuqtayi nazardan ham zararli hisoblanadi. Shu sababli, metallurgik changlarni samarali usullar yordamida tutish va qayta ishlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mis eritish zavodlarida pechlardan chiqqan changlarni tutishning bir nechta asosiy usullari mavjud bo'lib, ularga mexanik, elektrostatik va ho'l chang tutish texnologiyalarini misol keltirish mumkin. Har bir usul o'ziga xos samaradorlik darajasiga ega bo'lib, ularning to'g'ri tanlanishi ishlab chiqarish jarayonining ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2,3].

Ushbu tadqiqotning maqsadi metallurgik pechlardan chiqadigan changlarni tutish usullarini

chuqur o'rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda mis eritish zavodlari uchun eng maqbul texnologik yechimlarni taklif qilishdan iborat. Tadqiqot davomida chang tarkibini, uning chiqish manbalarini va atrof-muhitga ta'sirini o'rganish bilan birga, zamonaviy chang tutish texnologiyalarining afzalliklari va kamchiliklari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etilib, metallurgiya sanoati korxonalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, metallurgik changlarni tutish va ularning samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq qilish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, sanoat korxonalarining samarali ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ko'pgina metallurgik agregatlaridan ajralib chiqadigan gazlar uchun toksik bo'lmagan changni  $100 \text{ mg/m}^3$  gacha tozalash zarur hisoblanadi, bu darajada changning rangi deyarli sezilmaydi. Ba'zi zararli moddalar uchun insonlar bo'ladigan hududdagi taxminiy maksimal ruxsat etilgan konsentratsiya ( $\text{mg/m}^3$ ) qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan [5].

Gazlar bilan chiquvchi qattiq zarrachalar (chang) dan tozalash va zararli gazsimon moddalarni kimyoviy tozalash usullari bilan ushlab qolish farqlanadi. Hozirgi vaqtda atmosferaga chiqariladigan gazlarni zararli gazsimon moddalaridan

tozalashning ko‘plab usullari mavjud. Chunki gaz va changlar tarkibida bir qator qimmatbaho moddalarni ushlab qolish zarurati mavjud.

1-jadval

**Atmosfera-dagi zararli moddalar uchun ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalar (mg/m<sup>3</sup>)**

Modda nomi	Maksimal bir martalik konsentratsiya (mg/m <sup>3</sup> )	O‘rtacha sutkalik konsentratsiya (mg/m <sup>3</sup> )
Toksik bo‘lmagan chang	0,5	0,15
Uglerod oksidi (CO)	6,0	1,0
Azot oksidlari (NO <sub>x</sub> )	0,085	0,085
Oltinugurt dioksid (SO <sub>2</sub> )	0,5	0,15
Oltinugurt vodorodi (H <sub>2</sub> S)	0,008	0,008
Fenol (C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> OH)	0,01	0,01

Metallurgik zavodlarda, asosan, gazlarni changdan mexanik tozalash amalga oshiriladi. Qo‘llaniladigan tozalash usullari ishlash tamoyiliga ko‘ra quruq va ho‘l usullarga bo‘linadi. Ho‘l chang ushlagichlari changni ushlab qolish bilan birga gazlarni qisman oltingugurt dioksididan (SO<sub>2</sub>) tozalashga imkon beradi. Biroq, bu chang ushlagichlar katta miqdorda suv iste‘mol qiladi, keyinchalik esa bu suvni ham tozalash zarur bo‘ladi. Hozirgi kunda metallurgik korxonalarda bir qator chang ushlagichlardan foydalaniladi.


Quruq mexanik usulda gaz tozalash apparatlari. Bu apparatlar chang ushlagichlar va filtrlarga bo‘linadi. Chang ushlagichlar esa o‘z navbatida gravitatsion va gaz ushlab qolish uskunalariga bo‘linadi.

Gravitatsion chang ushlagichlar. Bu uskunalar turli xil konstruksiyadagi chang kameralariga ega bo‘lib, ularda chang asosan og‘irlik kuchi ta’sirida cho‘kadi. Gravitatsiya kuchi gaz oqimidan changni ajratish jarayoniga ta’siri minimal hisoblanadi (1-rasm) [6].

Markaziy gaz kanali orqali chang va gaz aralashmasi kiritiladi, chang ushlagich korpusi yordamida harakat tezligini pasaytiradi va yo‘nalishini 180° ga o‘zgartiradi. Gaz tarkibidagi chang og‘irlik kuchi va inertsiya ta’sirida bunkerga cho‘kadi, tozalangan gaz esa chiqariladi. Gravitatsion chang ushlagichlar 100 mkm dan katta bo‘lgan chang zarralarini ushlab qolishda samarali bo‘lib, ya’ni yetar-

licha yirik zarrachalarni ushlaydi. Gravitatsion chang ushlagichlar gazni taxminan 60% gacha changdan tozalanishini ta’minlaydi.

Inertsiyaviy (markazdan qochma) chang ushlagichlarda chang zarralariga gaz oqimining buri-lishi yoki aylanishi natijasida hosil bo‘ladigan inertsiya kuchi ta’sir qiladi. Ushbu kuch gravitatsion kuchdan ancha katta bo‘lgani uchun, bunday usul yordamida gravitatsion tozalashga qaraganda may-daroq zarralar ham gaz oqimidan ajratib olinadi. Bunday chang ushlagichlarga misol sifatida siklonni keltirish mumkin (2-rasm) [7].




**1-rasm. Radiatsion chang ushlagich sxemasi.**

Siklon ichida 20 mkm dan katta bo‘lgan chang zarrachalari gaz oqimidan ajratiladi. Changlangan gaz oqimi siklon korpusining yuqori qismiga, korpusga nisbatan tangensial joylashgan quvur orqali kiritiladi. Natijada oqim aylanish harakatini hosil qiladi, inertsiya kuchi ta’sirida chang zarrachalari siklon devorlariga yopishadi va og‘irlik kuchi ta’sirida bunkerga tushadi, tozalangan gaz esa siklonidan chiqariladi. Ushbu usul yordamida changning 95% gacha ushlanadi.

Filtrlar - gazni yuqori darajada tozalashni ta’minlovchi qurilmalardir (changning 99% gacha ushlanadi). Filtrlovchi element turiga qarab, ular quyidagi turlarga bo‘linadi: tolali, matoli, donador, metallokermika va keramik filtrlovchi elementli filtrlar.

Tipik misol sifatida matoli filtrlovchi elementga ega filtrlarni keltirish mumkin. Bunday filtrlar tabiiy va sintetik matolardan yoki 600 °C gacha haroratga bardosh bera oladigan metallmatodan tayyorlanadi (3-rasm) [8]. Changlangan gaz filtr matosi orqali o'tadi, natijada chang zarrachalari mato yuzasida qoladi, tozalangan gaz esa filtdan chiqariladi.




**2-rasm. Siklon (markazdan qochma kuch ta'sirida) chang ushlagich sxemasi.**

Chang mato yuzasida to'planib, asta-sekin bunkerdagi cho'kma sifatida yig'iladi. Mato qarshiligi sezilarli darajada oshganda, filtrni qayta tiklash (regeneratsiya qilish) siqilgan havo yordamida teskari puflash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu jarayonda mato g'ilo fi changdan tozalanadi.


Elektrofiltrlar - gazni yuqori darajada tozalash uchun mo'ljallangan qurilmalar bo'lib, ular changning 98% gacha ushlanishini ta'minlaydi. Ularning ishlash prinsipi zaryadlangan zarrachalarning o'zaro va metall elektrod bilan kuchli ta'siriga asoslangan. Ma'lumki, bir xil zaryadlangan zarrachalar bir-birini itaradi, turli zaryadlangan zarrachalar esa o'zaro tortishadi.

Elektrofiltrda chang zarrachalari elektr maydoniga tushganda zaryadlanadi va so'ngra cho'ktirgich elektrod bilan o'zaro ta'sirga kirishib, ularga tortiladi, cho'kadi va o'z zaryadini yo'qotadi.



**3-rasm. Matoli filtr chang ushlagich sxemasi.**

Misol tariqasida trubkali elektrofiltrning ishlashini ko'rib chiqamiz (4-rasm) [9].



**4-rasm. Elektrofiltr chang ushlagich sxemasi.**

Filtr korpus va elektrodlar tizimidan iborat. Filtr korpusi yerga ulangan bo'ladi. Elektrodlar metall plastinalardan tashkil topgan bo'lib, ularning bir qismi (cho'ktirgich elektrodlar) korpusga ulangan, ikkinchi qismi esa (koronar elektrodlar) izolyatsiyalangan. Izolyatsiyalangan va korpusga ulangan elektrodlar ketma-ket joylashgan.

Bu elektrodlar orasida doimiy yuqori kuchlanish manbai yordamida 25-100 kV gacha bo'lgan potensial farq yaratiladi. Potensial farqning qiymati elektrodning geometriyasiga bog'liq bo'lib, ular orasidagi masofa oshgan sari bu farq ham ortadi.

Chunki elektrofiltr faqat elektrodlar orasida ion razryadi mavjud bo'lsa ishlaydi.

Gaz elektrodlar orasidan o'tganida ionlanadi. Chang zarrachalari ionlar bilan ta'sirlashib, manfiy zaryad hosil qiladi va musbat qutbli cho'ktirgich elektrodlariga tortiladi. Elektrodlar yuzasiga cho'kkan chang zarrachalari zaryadini yo'qotib, qisman bunkerga tushadi. Filtrni vibratsiya yoki yuvish orqali muntazam tozalash talab etiladi, bunda filtr vaqtincha o'chiriladi.

Rangli metall eritish pechi gazida ishlaganda, filtr har 10 soatda bir marta 15 daqiqa davomida yuviladi. Tozalanayotgan gazning maksimal harorati 300°C dan oshmasligi kerak, ish harorati esa 250°C gacha bo'lishi mumkin. Elektrodning balandligi 12 metrgacha yetadi.


Elektrofiltr 0,1 mkm gacha bo'lgan mayda chang zarrachalarini gaz oqimidan ajratib olish imkoniyatiga ega.

Gazlarni ho'l usulda tozalash. Nam tozalash apparatlarida changlangan gaz suv bilan yuviladi, bu esa changning katta qismini ajratishga imkon beradi.

Metallurgiyada eng keng qo'llaniladigan qurilmalar - turli konstruksiyadagi skrubberlar (5-rasm) va turbulent gaz yuvgichlar (6-rasm) hisoblanadi [9].


Skrubberlar - bu changlangan gaz oqimi, oquvchi suvga qarshi yuqoriga harakatlanishi orqali ishlovchi qurilmalardir. Korroziyadan himoya qilish maqsadida skrubberning ichki yuzasi keramik plitkalar bilan qoplanadi. Skrubber ichidagi gazning maksimal harorati 300°C ni tashkil etadi. Skrubber o'lchamlari: diametri - 6-8 m, balandligi - 20-30 m. Suv sarfi - 1-2 kg/m<sup>3</sup> gaz. Skrubberlarda changni o'rtacha miqdorda tozalash jarayoni amalga oshiriladi (changning 80% gacha ushlanadi).

Tezkor gaz yuvish moslamasi - changni yuqori miqdorda tozalash bo'yicha samarali qurilma bo'lib (changning 98% gacha ushlanadi), mustaqil ravishda ham, elektrofiltdan oldin gazni tayyorlash uchun ham qo'llaniladi. U purkagich trubasi va tomchi ushlovchi siklondan iborat. Chang zarrachalarining 0,1 mkm gacha bo'lgan qismlarini ushlaydi. Gaz bo'yicha unumdorligi 40000 m<sup>3</sup>/soat va undan yuqori. Oquvchi suvning o'rtacha sarfi 0,15-0,5 kg/m<sup>3</sup> gaz. Purkagich trubasining toraygan qismida gazning tezligi 40-150 m/s ni tashkil etadi.



**5-rasm. skrubber chang ushlagich sxemasi.**

Tezkor gaz yuvish moslamasining ishlash prinsipi siklonda chang zarrachalarini ushlashga asoslangan bo'lib, ular namlantiruvchi suv bilan og'irlashadi. Chang zarrachalarining namlanishi purkagich trubasida amalga oshiriladi.



**6-rasm. Tezkor gaz yuvish moslamasi sxemasi.**

**Natijalar.** O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mis eritish pechlaridan ajralib chiqadigan changlar miqdori o'rganildi.

KMEP dan olingan natijalarga ko'ra, muallaq eritish jarayonida misning chang bilan yo'qotilishi 0,8-1,0% oralig'ida bo'lib, hisob-kitoblarda u 1,0% deb olinadi. Shu bilan birga, boshqa elementlarning chang tarkibiga o'tishi ham taxminan 1% miqdorida qabul qilinadi. Chiqayotgan gazlar bilan ajralib ketayotgan changning optimal tarkibi 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, u quruq tarkibga to'g'ri keladi [10].

Jarayonga yuboriladigan boyitmaning tarkibi eritishgacha bo'lgan holatdagi foiz nisbatlariga mos keladi. Har bir komponent miqdoridan uning chang bilan yo'qotilgan qismi chiqarib tashlanib, jarayonda qatnashuvchi tarkib va miqdor aniqlanadi.

Ajralib chiqayotgan chang tarkibida asosan sulfatlar mavjud bo'lib, ular aylanuvchi xom-ashyo sifatida jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu sulfatlar jarayon haroratini pasaytirishga yordam beradi.

Chang miqdori nisbatan kam bo'lgani uchun u orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdori boshqa mahsulotlar bilan chiqayotgan issiqlikka qaraganda ancha past. Shu sababli, turli komponentlar bo'yicha changning o'rtacha issiqlik sig'imini alohida hisoblashga ehtiyoj yo'q.

kunda klinkersiz hech bir eritish pechi ishlamaydi. Shu sababli, Vanyukov pechi jarayonida materiallar muvozanatini hisoblashda klinker tarkibini optimal darajada belgilashga alohida e'tibor qaratiladi [11].

Klinkerning optimal tarkibini aniqlash uchun qabul qilingan xomashyoning kimyoviy tarkibi quyidagicha: 4,3% Cu, 1,7% Zn, 0,8% Pb, 27,5% Fe, 4,7% S, 27% C, 4,7% Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, 5,3% CaO, 17,5% SiO<sub>2</sub>, 6,5% boshqa komponentlar.

Olmaliq mis eritish zavodi sharoitida chang yo'qotish darajasi 1% deb qabul qilinadi. Klinker tarkibidagi barcha komponentlarning yo'qotilishi dastlabki tarkibga mutanosib bo'lib, 30% uglerod oksidlanib CO<sub>2</sub> holatiga o'tadi, 80% yirik chang qayta ishlanadi, 20% esa jarayonga qaytarilmay chiqindi sifatida ajralib chiqadi.

Yirik chang tarkibining kimyoviy tarkibi (kg hisobida): Cu - 0,043; Zn - 0,017; Pb - 0,008; Fe - 0,275; S - 0,047; O<sub>2</sub> - 0,021; C - 0,270; SiO<sub>2</sub> - 0,175; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 0,047; CaO - 0,053; boshqa komponentlar - 0,065.

Yirik chang tarkibidagi minerallar ratsional nisbatda quyidagicha taqsimlanadi (kg hisobida): Cu<sub>2</sub>S - 0,054; ZnS - 0,018; ZnO - 0,06; Fe - 0,165; FeS - 0,065; FeO - 0,088; SiO<sub>3</sub> - 0,175; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 0,047; CaO - 0,053; C - 0,270; Pb - 0,003; PbS - 0,006; boshqa komponentlar - 0,050. Barcha minerallarning umumiy yig'indisi 1 kg ga teng.

2-jadval

**KMEPda 100 kg boyitmani qayta ishlashda hosil bo'lgan changning ratsional tarkibi, kg**

Birikmalar	Miqdor	Cu	Fe	S	O <sub>2</sub>	SiO <sub>2</sub>	CaO	Boshqalar
CuFeS <sub>2</sub>	0,49	0,171	0,150304	0,172561				
CuS	0,28	0,019		0,009561				
FeS <sub>2</sub>	0,27		0,12617	0,144853				
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0,08		0,03926		0,014579			
SiO <sub>2</sub>	0,04					0,049		
CaO	0,005						0,0058	
Boshqalar	0,10							0,1032221
Jami	1,1	0,19	0,3104	0,327	0,014579	0,049	0,0058	

Hozirgi vaqtda barcha rux zavodlarida ruxli kek quvursimon aylanma pechlarda qayta ishlanmoqda, bu esa klinker hosil bo'lishining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Rux zavodi klinkerlari mis eritish zavodlari uchun muhim xomashyo bo'lib qolmoqda. Uning tarkibida o'rtacha 4-5% mis, shuningdek, ba'zi hollarda 1-3 g/t miqdorida kumush va oltin mavjudligi iqtisodiy jihatdan foydalidir. Aynan Olmaliq mis eritish zavodida 1985-yildan boshlangan ilmiy tadqiqotlar natijasida bugungi

Qaytar changning tarkibi (kg hisobida): Cu - 0,0344; Zn - 0,0136; Fe - 0,22; SiO<sub>2</sub> - 0,14; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 0,0376; CaO - 0,0424; C - 0,151; Pb - 0,0064; O<sub>2</sub> - 0,0168; boshqa komponentlar - 0,04. Umumiy massa 0,7352 kg ni tashkil etadi.

Mis eritish jarayonida ishlatiladigan shixta asosan dastlabki boyitmadan va qaytar changdan iborat bo'ladi. Pechga kiritiladigan shixta tarkibi amaliy jihatdan klinkerning optimal tarkibiga mos keladi. Shu bilan birga, Vanyukov pechi jarayonida

umumiy changning 20% yo‘qotish sifatida hisoblanadi.

Yallig‘ qaytaruvchi eritish pechida chang yo‘qotish darajasi 1-1,5% ni tashkil etadi. Olingan natijalarga ko‘ra, ushbu pechlarning amaliy tajribasida misning changga o‘tish darajasi 0,85-0,6% atrofida bo‘lib, hisob-kitoblar uchun u 0,5% deb olinadi.

3-jadvalda chiqib ketuvchi gazlar bilan ajralayotgan changning optimal tarkibi keltirilgan. Changning foizlik tarkibi quruq aralash boyitma tarkibiga to‘g‘ri keladi.

Har bir komponent bo‘yicha boyitmaning dastlabki miqdoridan changga o‘tib ketgan qismi chiqarib tashlanadi va shu asosda jarayonda qatnashuvchi boyitmaning yakuniy tarkibi va miqdori aniqlanadi.

yuvib tushirishga asoslangan bo‘lib, gaz tarkibidagi namlik miqdoriga ta‘sir qilishi mumkin.

Changni tutish tizimlarining samaradorligi 99% gacha yetishi mumkin, biroq texnologik va iqtisodiy omillar tufayli optimal usulni tanlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Vanyukov va yallig‘ qaytaruvchi eritish pechlarida chang yo‘qotish darajasi past bo‘lishi uchun elektrofiltrlar va ho‘l chang ushlagichlarning kombinatsiyasi ishlatiladi. Shu bilan birga, changning qayta ishlanishi va metallarning qaytarilishi umumiy jarayonning samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy chang ushlash texnologiyalarini takomillashtirish metallurgik ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini oshirish, havoga chiqadigan zararli moddalar miqdorini kamaytirish va iqtisodiy jihatdan

3-jadval

***YQEPda 100 kg boyitmani qayta ishlashda hosil bo‘lgan changning ratsional tarkibi, kg***

Birikmalar	Miqdor	Cu	Fe	S	O <sub>2</sub>	SiO <sub>2</sub>	CaO	Boshqalar
CuFeS <sub>2</sub>	0,24	0,0855	0,0751	0,863				
CuS	0,01	0,0095		0,0048				
FeS <sub>2</sub>	0,13		0,0631	0,0724				
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0,02		0,0169		0,007			
SiO <sub>2</sub>	0,02					0,0245		
CaO	0,002						0,0029	
Boshqalar	0,51							0,0516
Jami	0,93	0,19	0,3104	0,327	0,014579	0,049	0,0058	

**Muhokama.** Metallurgik pechlardan ajralib chiqadigan changlarning tutib qolish usullari sanoat jarayonlarining ekologik xavfsizligini ta‘minlash va xom-ashyo yo‘qotilishini kamaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Changni tutish usullarining samaradorligi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga changning fizik-kimyoviy xususiyatlari, gaz oqimi-ning harorati, bosimi va texnologik sharoitlar kiradi [12].

Hozirgi kunda metallurgiya sanoatida changni tutish uchun mexanik, elektrostatik va ho‘l usullar keng qo‘llanilmoqda. Mexanik usullar (siklonlar va inertsiya separatorlari) yirik zarrachalarni samarali ajratib olish imkonini bersa-da, mayda va engil changlarni to‘liq ushlay olmaydi. Elektrostatik filtrlar elektr maydonidan foydalangan holda juda mayda chang zarrachalarini ham samarali tutib qoladi, ammo ularning ishlashi uchun yuqori energiya talab etiladi. Ho‘l chang tutish usullari esa suv yoki boshqa suyuqliklardan foydalanib changlarni

samarali xom-ashyo yo‘qotishlarini minimallashtirishga yordam beradi. Kelgusida innovatsion usullar, jumladan, nanofiltrlar va plazmali chang ushlagichlar metallurgik changni tutish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

**Xulosa.** Metallurgik pechlardan chiqadigan changlarni tutish va ularning samaradorligini oshirish bugungi kunda ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim masalalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chang ushlash tizimlarining samaradorligi texnologik jarayonning xususiyatlariga, chang zarrachalarining hajmi va tarkibiga hamda qo‘llanilayotgan usulga bog‘liq.

Mexanik, elektrostatik va ho‘l chang ushlash usullari sanoatda keng qo‘llanilib, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Elektrostatik filtrlar va ho‘l chang ushlash usullari mayda zarrachalarni samarali ushlab qolsa-da, ulardan foydalanish energiya sarfi va texnologik talablar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, changlarni qayta ishlash orqali metallarning ikkilamchi foy-

dalanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xom-ashyo yo'qotilishini kamaytirishga yordam beradi.

Metallurgik changni tutish texnologiyalarining takomillashtirilishi ekologik zararlarni kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilish va metallurgiya sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelgusida nanotexnologiyalar, plazmalı chang ushlagichlar va ilg'or filtr tizimlari orqali metallurgik changni ushlab samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Shu sabab-

li, yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish metallurgik ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun muhim yo'nalish bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, 10-20 mkm dan katta chang zarrachalari ko'pgina gaz tozalash uskunalarida samarali ushlanadi. 1 mkm dan kichik zarrachalarni tozalash uchun faqat yuqori darajada tozalash moslamalari: g'ovakli filtrlar, elektro-filtrlar va tezkor gaz yuvish moslamalari mos keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Циркун О.Ф., Щёлоков Я.М., Бекгурин В.Г. Некоторые физико-химические свойства пылей предприятий цветной металлургии. Цветные металлы. 1980. №2. С.27.
2. Ванкжов А.В., Уткин Н.И. Комплексная переработка медного и никелевого сырья. Челябинск: Металлургия. 1988.
3. Патент 184266 Польша, МКИ С22В 7/02. Способ переработки окисленных пылей медеплавильных заводов. 1980.
4. Антипов Н.И., Маслов В.И., Литвинов В.П. Комбинированная схема переработки тонких конвертерных пылей медеплавильного производства. Цветные металлы. 1983. №12. С.12.
5. Преснецов В.Д., Пономарев В.Д., Панфилов П.Ф., Шумаков В.В. Переработка пылей отражательных печей Карсакпайского медеплавильного завода. Цветные металлы. 1964. №10. С.26-29.
6. Патент 70803 Польша, МКИ С22В 7/02. Способ переработки свинецсодерж пылей, полученных при выплавке меди из шахтных печах. 1974.
7. Патент 6395060 США, МПК7 С 22 В 7/02. Способ переработки печных пылей. Furnace flue dust processing method.
8. Арешина Н.С., Мальц И.Э., Красиков А.Г., Нерадовский Ю.Н. Переработка тонких пылей отражательной плавки медного концентрата ОАО «Кольская ГМК». Цветная металлургия. 2007. №2. С.8-15.
9. Aripov A.R., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N., Majidova I.I. O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi. Sanoatda raqamli texnologiyalar ISSN: 3030-3214, Volume 2, № 3:2024.
10. Aripov A.R., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N., Majidova I.I. O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi. Sanoatda raqamli texnologiyalar ISSN: 3030-3214, Volume 2, № 3:2024.
11. Sirojov T.T., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N., Yuldosheva Sh.J. Oltin va mis tarkibli rudalarni kompleks qayta ishlash texnologiyasini tadqiq qilish. Sanoatda raqamli texnologiyalar. ISSN: 3030-3214 Volume 2, № 4 2024.
12. Aripov A.R., Fuzaylov O.U., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N. Murakkab oltin tarkibli ruda va konsentratlarning maydalanish va sianlanish qobiliyatini yaxshilash uchun mikroto'liqinli energiyadan foydalanish. Sanoatda raqamli texnologiyalar ilmiy-texnik jurnali December № 2. Qarshi-2023.

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI

ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

UDC: 666.622.7.553.532

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.8

SPECIFIC FEATURES OF BASALTS, ITS MELTING AND TEMPERING IN  
DIFFERENT ENVIRONMENTS



**Sattorov Laziz  
Kholmurodovich**

Docent Karshi engineering-  
economics institute, Karshi,  
Uzbekistan



**Kurbanov Abdiraxim  
Axmedovich**

Professor Bukhara engineering -  
technological institute, Bukhara,  
Uzbekistan



**Nomozov Bakhtiyor  
Yuldashovich**

Docent Karshi engineering-  
economics institute, Karshi,  
Uzbekistan



**Juraeva Huriyat  
Zoirovna**

Lecturer of the University of  
Economics and Pedagogy, Karshi,  
Uzbekistan

**Abstract.** It is shown that a radical way to expand the possibility of obtaining metals from reserve, unused natural resources is one of the possible options for using local raw materials. This article presents the results of a scientific study devoted to the study of the specifics of the constituent elements contained. The results of the preparation and implementation of floating basalt works at the Asmansay-1 deposit are presented. metal-containing basalt minerals deposit "Asmansay-The results of melting basalts, their tempering in various environments were analyzed in order to find out the choice of optimal parameters for melting basalts and similar ores.

**Keywords:** basalt, thermodynamics, heating, pyroxene, crystalline fiber, filtering material, fiber, melting, dry processing.

ОСОБЕННОСТИ БАЗАЛЬТОВ, ИХ ПЛАВЛЕНИЕ И ЗАКАЛКА В  
РАЗЛИЧНЫХ СРЕДАХ

**Сатторов Лазиз  
Холмуродович**

Доцент Каршинского  
инженерно-экономического  
института, Карши, Узбекистан

**Курбанов Абдурахим  
Ахмедович**

Профессор Бухарского  
инженерно-технологического  
института, Бухара, Узбекистан

**Номозов Бахтиёр  
Юлдашович**

Доцент Каршинского  
инженерно-экономического  
института, Карши, Узбекистан

**Жураева Хурият  
Зойровна**

Преподавателя Экономического  
и педагогического университета,  
Карши, Узбекистан

**Аннотация.** Показано, что радикальный способ расширить возможности получения металлов из резервных, неиспользуемых природных ресурсов является одним из возможных вариантов использования местного сырья. В данной статье представлены результаты научного исследования, посвященного изучению специфики содержащихся в них составляющих элементов. Представлены результаты подготовки и осуществления плавучих базальтовых работ на месторождении Асмансай-1. Месторождение металлосодержащих базальтовых минералов "Асмансай" - Были проанализированы результаты плавки базальтов, их закалки в различных средах с целью выяснения выбора оптимальных параметров плавки базальтов и аналогичных руд.

**Ключевые слова:** базальт, термодинамика, нагрев, пироксен, кристаллическое волокно, фильтрующий материал, волокно, плавление, сухая обработка.

## BAZALTLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TURLI MUHITLARDAGI ERISHI VA TEMPERATURASI

**Sattorov Laziz  
Xolmurodovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot  
instituti dotsenti, Qarshi,  
O‘zbekiston

**Kurbanov Abdiraxim  
Axmedovich**

Professor Buxoro muhandislik-  
texnologiya instituti, Buxoro,  
O‘zbekiston

**Nomozov Baxtiyor  
Yuldashovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot  
instituti dotsenti, Qarshi,  
O‘zbekiston

**Jo‘rayeva Huriyat  
Zoirovna**

Iqtisodiyot va pedagogika  
universiteti o‘qituvchisi, Qarshi,  
O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Zaxiradagi, foydalanilmayotgan tabiiy resurslardan metallarni olish imkoniyatlarini kengaytirishning radikal usuli mahalliy xom ashyodan foydalanishning mumkin bo‘lgan variantlaridan biri ekanligi ko‘rsatilgan. Ushbu maqolada ular tarkibidagi elementlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan. Asmansoy-1 konida suzuvchi bazalt ishlarini tayyorlash va amalga oshirish natijalari taqdim etilgan. Tarkibida metall bo‘lgan “Asmansoy” bazalt minerallari koni - Bazalt va shunga o‘xshash rudalarni eritishning optimal parametrlarini tanlash maqsadida bazaltlarni eritish, ularni turli muhitlarda toblash natijalari tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar.** bazalt, termodinamika, qizdirish, piroksen, kristall tola, filtrlovchi material, tola, eritish, quritib ishlov berish.

**Introduction.** A study of the technological processes of basalt processing enterprises in Uzbekistan showed a lack of experience in organizing stone casting for petrological production. The reason for this phenomenon can be considered to be insufficient knowledge of the basalt melt: the processes of draining the liquid mass into the mold of the flask and the further state of the product associated with firing, as well as the lack of information about production costs and payback periods. In this regard, based on foreign experience, the need for an experimental study of the possibility of creating stone casting technology has been identified. Since the difference in the chemical-mineralogical composition of the basalt rock in the deposits of Uzbekistan and the melting temperature of basalts did not allow direct introduction of foreign technology into production, conditions were created in the laboratory to study the behavior of the cast form of basalts after melting and tempering in different environments.

**Literature analysis and methods.** To conduct experimental studies, the following types of work were performed:

- the material chosen for the manufacture of the mold of the flask is 2XII-3 brand refractory brick, the holding temperature of which reaches 2500 °C;

- three holes were drilled on the side of the brick with a diameter of 10; 14 and 16 mm, which was argued by the arbitrariness of the choice of hole sizes depending on the thickness of the walls of the flask [1,2];

- the flasks are prepared for work;

- so that when the rock is heated and the liquid mass is poured into the mold, no bubbles remain inside the workpiece, three through holes with a diameter of 3÷5 mm are drilled to allow air to pass through and remove gas bubbles from the mass. The channels of the holes were directed upward at such an angle that during the process of pouring the liquid mass into the holes of the flask, impurity gases freely passed into the open space;

- prepared a laboratory oven. The oven temperature was measured using an electronic thermometer. When the test heating of the furnace reached a temperature of 1000 °C, the furnace was turned off. The furnace was cooled until room temperature was reached and the furnace was loaded with flasks.

The process of smelting basalt rock was observed through the window of the furnace door. Three such flasks were made for the purpose of tempering the cast mold in the open air, at room temperature and at high temperature (800÷850 °C). When the temperature reached 1550 °C, the furnace

was turned off, the door was opened and two of the three flasks were removed from the furnace using traditional metal tongs used in the foundries of the Navoi Machine-Building Plant.

The first flask was left in the furnace with the doors open to temper the molten basalt inside the furnace. The second flask was kept outside in the open air to cool the workpiece to atmospheric temperature. The third flask was kept in laboratory conditions to room temperature. Then the ceramic bands used to separate the flasks were removed and the cooled blanks were taken out.

The results showed that the cooling of the workpiece that was in the furnace was slow. In the other two conditions, the cooling process of the workpieces occurred faster and almost equally, since the ambient temperature was 23 °C.

It is necessary to note another characteristic feature of cast basalt in a flask, which was kept in a furnace until completely cooled and had an almost smooth outer surface. Bubbles and small cracks were observed on the outer surface of the remaining two workpieces. It was established that the basalt melt, which was in the flask at a high positive temperature for a relatively longer time, to some extent went through the stage of additional “firing-homogenization”. This similarity of “annealing” can be found in the production of electrical insulators of different potentials. In general, it was found that cast basalt after annealing will have high hardness and a smooth surface. Parameters such as “time”, “temperature”, “melting rate” and “annealing” are interrelated and product performance largely depends on these parameters. Product quality depends on the annealing temperature, tempering temperature or cooling temperature gradient.

Processing of basalts using the petrological method for the manufacture of parts for a fleet of machines for various purposes. In mechanical engineering of any branch of the national economy, an important place is given to strength indicators and technological parameters, which depend on the durability of the materials used. Therefore, when designing machine parts, for example, in the oil and gas industry, special attention is paid to shock loads, operational properties, heat resistance, corrosion resistance, maximum vibration force, etc. This dissertation analyzes the results of a study of the

characteristic indicators of metals that are extracted from basalts of the Asmansay-1 deposit. The study of the Asmansay-1 minerals is argued by the fact that in the rock composition of the bottom deposit, for example, the content of iron oxides reaches up to 15% or more [3].

**Results and discussions.** Study and analysis of technical literature and patent sources showed that they do not contain information about the content and extraction of metals from basalt rock. Considering the urgent need of the country's industry for raw materials for the production of metals, it can be assumed that basalt minerals with natural and technical characteristics can be a promising mineral raw material base for the production of metals. For this purpose, an experimental study was organized to determine the content of metals in metal samples. Samples of these metals were removed from unauthorized liquids that were simultaneously released from the furnace, where the process of melting basalt rock and forming crystalline fibers took place.

**Xulosa.** Boshlang'ich olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, suyultirgichlar buralma quvur detanderga nisbatan quyidagi asosiy afzalliklarga ega:

- gazning tarkibining o'zgarishiga kam sezuvchanligi;

- tomchili suyuqliklarni paydo bo'lishiga kichik sezuvchanlik (bunday holatda markazdan qochma detander jiddiy avariya uchun duchor bo'lishi mumkin);

- qisqa muddat vaqt davomida uni ishga qo'shish (buralma quvur kam inersiali va bir necha sekund davomida ishchi rejimga chiqadi);

- konstruksiyasining soddaligi va yuqori malakali texnik xizmat qiluvchilarga bo'lgan talabning yo'qligi – suyultirgich malakali xizmat ko'rsatilmagan holatda ham avtonom rejimda uzoq muddat ishlash xususiyatiga ega;

- qurilmaga tashqi yuklanmalarni berishning zarurati yo'q (elektr generatori va b.);

- detallarda harakatning mavjud bo'lmaganligi hisobiga ish resurslarining yuqoriligi hamda qo'llaniladigan materiallarning yeyilishga chidamliligi va gazni abraziv zarralardan tozalash darajasi bilan tavsiflanadi;

- kirish bosimi o'zgaruvchan bo'lganda jaryonni optimallashtirishning, gazning tarkibini o'zgartirishni juda silliq boshqarishning imkoniyatini mavjudligi va b. Faqat bir va shu kabi suyultirgichdan unga hech qanaqa amaliy o'zgartirishlar kiritmasdan har xil konlarda qo'llash imkoniyatining mavjudligi;


- narxining pastligi va yasashda konstruksiyasining juda soddaligi, og'irligining kamligi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Известия 1998. 11 апр. № 67 (25167). С.1.
2. Рачевский Б.С. Сжиженные углеводородные газы.-М.: Изд-во «Нефтигаза», 2009.
3. Бузником В.М. Инновационные технологии переработки и использования попутного нефтяного газа.-М.: Изд-во «Оригинал-макет», 2010.
4. Кисленко Н.Н., Мурын В.И. Сурков Ю.В.Технология переработки природного газа и конденсата. //Справочник. М. «Недра-Бизнесцентр» 2002.

5. T.R.Yuldashev, E.N.Do'stkobilov, M.M.Axmedov, M.N.Qarshiyev «Sintetik yoqilg'ini ishlab chiqarish istiqbollari» // Qar MII Innovatsion texnologiyalar jurnali № 4-2013.
6. T.R.Yuldashev, E .N. Do'stqobilov, M.M.Axmedov. «Sintetik suyuqlik yoqilg'isini ishlab chiqarishni rivojlantirish va iste'mol qilishning istiqbollari» // «Yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali foydalanish muammolari va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari» to'plami. QarMII 2013 y.
7. Т.Р.Юлдашев, Ё.Л.Каримов, Э.Н.Дустқобилов, Б.Хамраев. «Эффективность мероприятий по интенсификации добычи нефти на месторождении Северный Уртабулок» // O'zbekistan konchilik xabarnomasi 1-№56, Ilmiy - texnik ishlab chikarish jurnali, 2014 йил, Навои ш.
8. T.R.Yuldashev, A.M.Avlakulov, M.N.Qarshiyev. «Yo'ldosh neft gazlarini utilizatsiya qilish yo'li orqali suyuq uglevodorodlarni ishlab chiqarish. // QarMII. Innovatsion texnologiyalar jurnali №1-2014, 10-16 bet.
9. T.R.Yuldashev, A.Y.Bo'riyev, M.N.Qarshiyev, M.P.Ismoilov. «Neftli yo'ldosh gazlarni utilizatsiya qilish va undan foydalanish». // Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash sharoitida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, QarMII 29-30 may 2015 yil, 109 -111 b.
10. Т.Р.Юлдашев, А.М.Очилов, «Установки подготовки и утилизации пластовых вод на месторождениях Узбекистана». // Кончилик ва нефть-газ тармоқларининг муаммолари ва инновацион ривожлантириш йўллари мавзусидаги РИ-АА материаллари тўплами. 2016 йил 8-9 апрел, 149-152 б.
11. Махмудов Н.Н., Шафиев Р.У., Т.Р.Юлдашев, Турсунов М.А. «Технология сбора и подготовка нефти, газа и воды на промыслах». // Тошкент «Фан ва технология», Учебник. 2016 й. 312 стр.ил.

UO‘K: 631.41+631.8

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.22

## INSHOOTLAR ASOSIDAGI SHO‘RLANGAN GRUNTLARNING SEYSMIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARI ORASIDAGI O‘ZARO KORRELYATSION BOG‘LIQLIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH



**Zafarov Olmos**

Jizzax politehnika instituti, geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Jizzax, O'zbekiston

E-mail: [olmos.zafarov@mail.ru](mailto:olmos.zafarov@mail.ru)

ORCID ID: 0009-0006-0226-6349

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizdagi inshootlar asosidagi sho'rlangan gruntlarning seysmik va fizik-mexanik xossalari orasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlik xususiyatlarini baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada qurilish maydonlarida sho'rlangan gruntlardan olingan na'munalarni laboratoriya sharoitida UK-10PMS defektoskop pribori yordamida ultratovush impulslarini grunt na'munasida tarqalish tezligi hisoblangan. Olingan natijalardan korrelyatsion bog'liqlik grafiklari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sho'rlangan gruntlar, seysmik xossalalar, fizik - mexanik xossalalar, qurilish maydonlari, UK-10PMS defektoskopi, korrelyatsion bog'liqlik.

## ОЦЕНКА ОСОБЕННОСТЕЙ КОРРЕЛЯЦИИ СЕЙСМИЧЕСКИХ И ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ЗАСОЛЕННЫХ ГРУНТОВ НА ОСНОВЕ КОНСТРУКЦИЙ

**Зафаров Олмос**

Джизакский политехнический институт, Доктор философии (PhD) по геологии и минералогии, доцент, Джизак, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье представлена информация по оценке особенностей корреляции между сейсмическими и физико-механическими свойствами засоленных грунтов на базе сооружений в нашей стране. Также в данной статье с помощью дефектоскопа УК-10ПМС рассчитана скорость распространения ультразвуковых импульсов в пробах грунта, отобранных из засоленного грунта на строительных площадках. По полученным результатам представлены графики корреляционной зависимости.

**Ключевые слова:** засоленные грунты, сейсмические свойства, физико-механические свойства, строительные площадки, дефектоскоп УК-10ПМС, корреляционная зависимость.

## EVALUATION OF THE CHARACTERISTICS OF THE CORRELATION BETWEEN THE SEISMIC AND PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES OF SALINE SOILS ON THE BASIS OF STRUCTURES

**Zafarov Olmos**

*Jizzakh Polytechnic Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Geology and Mineralogy, Associate Professor, Jizzakh, Uzbekistan*

**Abstract.** This article provides information on the evaluation of the characteristics of the correlation between the seismic and physical-mechanical properties of saline soils based on constructions in our country. Also, in this article, the speed of propagation of ultrasonic pulses in the soil sample was calculated using the UK-10PMS defectoscope in the samples taken from the saline soil at the construction sites. From the obtained results, graphs of correlational dependence are presented.

**Keywords:** saline soils, seismic properties, physical-mechanical properties, construction sites, UK-10PMS defectoscope, correlation dependence.

**Kirish.** Inshootlar asosidagi sho‘rlangan gruntlarning seysmik va fizik-mexanik xossalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik UK-10PMS defektoskopi yordamida aniqlandi. Avvalgi yillarda to‘plangan qidiruv materiallarini yig‘ish, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida hudud geologiyasining to‘rtlamchi davrdagi rivojlanish tarixi hamda tumanning analogik ma‘lumotlariga e‘tibor qaratish lozim.

**UK-10PMS Defektoskopining Tavsifi.** UK-10PMS ultratovushli defektoskopi qurilish materiallari, jumladan toshlar, plastmassa buyumlari, qurilish keramika, polimer va kompozit materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini ularning butunligini buzmasdan tekshirish uchun mo‘ljallangan.

Mazkur qurilma beton sifatini nazorat qilishda qo‘llaniladi va tayyor mahsulotlarda, shuningdek temir-beton zavodlari hamda qurilish poligonlarida qotish jarayonida ishlatiladi. UK-10PMS yordamida materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlanadi.

Qurilma ultratovushli tebranishlarning tarqalish vaqtini, qabul qilingan impulslarning birinchi yarim davr amplitudasini aniq o‘lchaydi. Shuningdek, UK-10PMS beton mustahkamligini belgilangan formulalar bo‘yicha hisoblash va raqamli bosib chiqarish moslamasi yordamida nazorat natijalarini avtomatik hujjatlashtirish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Ultratovush bu jismlarda tebranish xarakterlarni to‘lqinsimon tarqalishi bo‘lib, u tarqalayotgan muhitning ichki tuzilishi, ya‘ni strukturasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun, ushbu usul orqali turli jismlarning ichki strukturalarni buzilishi yoki qandaydir nuqson (defekt)larini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Masalan: metallurgiyada, qurilish materiallarini ishlab chiqishda (temir-beton buyumlarni sifatini aniqlashda), keramika sanoati va boshqalarda.

1-jadval

**UK-10PMS priborining texnik xususiyatlari**

Bir o‘lchov vaqti	0,5 min
Ish chastotalari UK-10PMS	25; 60; 100; 150; 200; 400; 600; 1000 kGs
O‘lchov xatoligi - UK-10PMS: vaqt oralig‘i birinchi yarim to‘lqinning amplitudalari	±0,5 % ±20 %
Ultratovushni tarqalish vaqtini o‘lchash diapazoni	10 ... 5000 m/s
Ultratovushni tarqalish tezligi uchun mos yozuvlar diapazoni	300 ... 15000 m/s
Tovush bazasining mos yozuvlar diapazoni	10 ... 1000 mm
UK-10PMS beton kuchini hisoblash chegaralari	10 ... 50 MPa
UK-10PMS ning quvvatlanishi: 50 kGs chastotali tarmog‘idan qayta zaryadlanuvchi bataryadan	220 V 12 V
UK-10PMS ning gabaritlari	280x170x350 mm
UK-10PMS ning og‘irligi	8,7 kg

Bu usuldan, ya‘ni ultratovush usulidan foydalanishimizning asosiy maqsadi sho‘rlangan gruntlarni dastlabki strukturasi namlik ta‘sirida o‘zgarishini aniqlashga qaratilgan.

Ultratovush tadqiqotlarida asosiy ko‘rsatkich, bu ma‘lum jismdan ultratovush impulslarini tarqalish tezligi hisoblanadi. Bu esa quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V=L/t, (m/s) \quad (1)$$

bunda  $L$  - to‘lqin tarqalish bazasi (ultratovush tarqalish masofasi),  $\pm 0,5\%$  aniqlikda aniqlanadi;  $t$  - bazada ultratovush to‘lqinlarini o‘tish vaqti (UZK), mikrosekundlarda o‘lchanadi ( $10^{-6}$  s).

Bo‘ylama ( $V_p$ ) va ko‘ndalang ( $V_s$ ) to‘lqinlarning tezligini o‘lchash to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatish usuli yordamida amalga oshirildi. Elastik tebra-

nishlarning generatori va kuchaytirgichi sifatida UK-10PMS defektoskopi ishlatilgan (1-rasm), kuchli yutuvchi gruntlar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan signalning katta kuchi bilan ajralib turadi. 25 kGs markaziy chastotali B1548 datchiklari siljish tebranish manbalari va qabul qiluvchilar sifatida ishlatilgan [1,2].



**1-rasm. UK-10PMS defektoskopning tashqi ko'rinishi.**

Bo'ylama to'lqinning to'g'ri chiqarilishini nazorat qilish uchun P-111 piyezo sensorlar ishlatilgan, markaziy chastotasi 25 kGs ga teng. Ushbu aniq sensor chastotalarini tanlash bizning tadqiqotlarimiz uchun to'lqin uzunligi va na'muna hajmining optimal nisbati bilan bog'liq. Manba va qabul qilgich bir xil o'qda na'munaning qarama-qarshi yuzlarida joylashgan. Datchiklar va na'munaning nisbiy holati rasmda ko'rsatilgan (2-rasm). Sensorlarning ishonchli va doimiy siqilishini ta'minlash uchun 1 kg og'irlikdagi og'irlik ishlatilgan. Model na'munalarida tezlikni o'lchash, qurilish maydonlaridan na'munalar olingandan so'ng darhol o'lchov ishlari amalga oshirildi va o'lchovlar o'zgaruvchan asosda amalga oshirildi, ya'ni na'muna  $V_s$  tezligini hisoblashning aniqligini oshirish uchun bir necha marta o'lchanadi [3,4].




**2-rasm. UK-10PMS defektoskopning ishchi holati va UK-10PMS defektoskopning texnik xususiyatlari.**

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Gruntlarda seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligi ularning fizik-mexanik xossalariga chambarchas bog'liq. Bu albatta gruntlarning zichligi, sklet zichligi, namligi (namlanganlik darajasi), g'ovakligi (g'ovaklik koef-fitsiyenti), deformatsiya moduli, bog'lanish kuchi kabi ko'plab xususiyatlarga bog'liq. Qolaversa, seysmik to'lqinlarning grunt massivida tarqalish tezligi bu ularning tarkibidagi bir qancha komponentlarga (tuzlar, minerallar) bog'liq. Bu metod bo'yicha ya'ni grunt na'munalarida laboratoriya sharoitida ultratovushli tadqiqotlar o'tkazgan olimlar I.I. Gurvichev, V.P. Nomokonovim (1981), V.V. Palaginim (1989), F.M. Lyaxoviskim (1989), V.A. Ismailov (1990), V.I. Bondarevim (2003), Y.V. Pioro (2014) va boshvalar. Tadqiqot ob'yekti deb tanlangan Jizzax viloyati hududidagi qurilish maydonlaridan olingan tabiiy strukturasi buzilmagan na'munalar asosida UK-10PMS pribori yordamida bir qanch laboratoriya tajribalari o'tkazildi [2,3].

**Natijalar.** Tadqiqot olib borilayotgan maydonning litologik tarkibi quyidagilardan iborat:

1. To'kma gruntlar – qalinligi 0,5 m dan ba'zi joylarda 1,0 m gacha yetadi.
2. Supes va suglinok qatlamlari – to'kma gruntlar ostida joylashgan bo'lib, qalinligi 0,5 m dan 25 m gacha o'zgaradi. Ushbu qatlamlarning: Zichligi: 1,45–2,15 g/sm<sup>3</sup>, G'ovakligi: 21,2–46,5%, Tabiiy namligi:  $W_e = 8,1–16,2\%$ , Skelet zichligi: 1,42–2,2 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etadi.

Jizzax viloyati hududidagi qurilish maydonlari kotlovanlaridan 3,0–8,0 m chuqurlikdan olingan sho'rlangan grunt namunalari UK-10PMS defektoskop asbobi yordamida elastik (bo'ylama va ko'ndalang) to'lqinlarning o'tish tezliklarini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida tekshirildi.




**3-rasm. Tabiiy namlik va bo'ylama to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafigi.**


Tadqiqot natijasida gruntlarning fizik va suvli xususiyatlari namlik ta'sirida o'zgarishi hamda ultratovush tezliklari orasidagi bog'liqlik aniqlandi.

3–14-rasmlarda namunalarning namligi, zichligi, g'ovakligi, g'ovaklik koeffitsiyenti va sho'rlanish darajasining ultratovush tezligiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, bo'ylama to'lqinlarning tarqalish tezligi tabiiy namlik  $W=8,2-18\%$  oralig'ida  $V_p=900-1400$  m/sek gacha o'zgaradi. Ushbu "paradoks oralig'" deb nomlanuvchi diapazonda dispers grunlarda namlik oshishi hisobiga bo'ylama to'lqin tezligining pasayishi kuzatiladi. Biroq, grunt suv bilan to'la to'yingandan keyin, bo'ylama to'lqinlarning tarqalish tezligi yana oshadi.



**4-rasm. Grunt zichligi va bo'ylama to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafifi.**




**5-rasm. Grunt zichligi va ko'ndalang to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafifi.**


Seysmik to'lqinlarning geologik muhitda tarqalishi bevosita o'sha hududdagi tog' jinslarining zichligi bilan bog'liq. Zilzila natijasida hosil bo'lgan to'lqinlar bir muhitdan boshqa muhitga o'tganda ularning tarqalish tezligi o'zgaradi. Ushbu jarayonda tog' jinslarining zichligi asosiy omil sifatida rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, grunt zichligi  $p = 1,4-2,2$  g/sm<sup>3</sup> oralig'ida bo'lganda: Bo'ylama to'lqinlarning tarqalish tezligi  $V_p = 920-$


1400 m/s gacha, Ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligi  $V_s = 550-870$  m/s gacha o'zgaradi.




**6-rasm. Grunt g'ovakligi va bo'ylama to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafifi.**




**7-rasm. Grunt g'ovakligi va ko'ndalang to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafifi.**




**8-rasm. G'ovaklik koeffitsiyenti va bo'ylama to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafifi.**




**9-rasm. G'ovaklik koeffitsiyenti va ko'ndalang to'lqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafifi.**




10-rasm. Quritilgan gruntlarning sklet zichligi va bo'ylama to'liqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqlik grafigi.




11-rasm. Gruntlar tarkibidagi eruvchan tuzlar miqdori va bo'ylama to'liqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqligi grafigi.



12-rasm. Gruntlar tarkibidagi eruvchan tuzlar miqdori va ko'ndalang to'liqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqligi grafigi.



13-rasm. Gruntlar tarkibidagi eruvchan tuzlar yuvilgandan keyingi miqdori va bo'ylama to'liqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqligi grafigi.



14-rasm. Gruntlar tarkibidagi eruvchan tuzlar yuvilgandan keyingi miqdori va ko'ndalang to'liqin tezligi orasidagi o'zaro bog'liqligi grafigi.

**Muhokama.** Sho'rlangan gruntlar hosil bo'lishining asosiy omili yer yuzasiga yaqin joylashgan minerallashtirilgan grunt suvlari va tuzli tog' jinslari hisoblanadi. Suv oqishining imkoni bo'lmagan hududlarda bug'lanish miqdorining yog'ingarchilikdan ko'pligi sho'rlanishning asosiy shartidir. Shu sababli, sho'rlangan gruntlar suv oqmaydigan tekisliklar, cho'l-adir va adirli hududlarda uchraydi.

Sho'rlanish jarayoni bevosita joyning gidrogeologik va geomorfologik sharoitlariga bog'liq. Tog'oldi tekisliklari asosan karbonatli jinslardan tarkib topgan bo'lib, odatda sho'rlanmagan gruntlar bilan ifodalanadi. Biroq, tog'oldi tekisliklari va vodiylarning quyi qismlarida suvda eruvchan sulfatlar va qisman xloridlar uchraydi.

Sho'rlangan hududlarda bino va inshootlarni loyihalash hamda qurishda gruntlarning mustahkamligi va siqilish xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Cho'kindi yotqiziqlardan iborat serg'ovak tog' jinslari tashqi kuch ta'sirida siqilib, ularning g'ovakligi va hajmi kamayadi. Ushbu jarayon siqilish qarshiligi, siqilish koeffitsienti va siqilish moduli bilan ifodalanadi.

2-jadval

**Ultratovushli tadqiqot natijalari**

Grunt na'munalari	Na'munalarning soni	Bo'ylama to'liqin tezligi, Vp, m/sek	Ko'ndalang to'liqin tezligi, Vs, m/sek	Tezliklar nisbati, Vs/Vp	Na'munalardagi tuzning miqdori, %
Supes	27	960-1393	330-423	2,9-3,2	9,2
Suglinok	20	900-1220	302-538	2,2-3	13,1
Supes	30	985-1337	284-520	2,5-3,4	12,3
Suglinok	32	876-1154	298-513	2,1-2,5	10,8

**Xulosa.** Ultratovush tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Sho‘rlangan gruntlarning namlik darajasi va g‘ovakligi oshishi ultratovush to‘lqinlarining tezligini pasayishiga olib keladi.
- Ultratovush to‘lqinlarining tezligi gruntlarning ichki strukturasi bog‘liq bo‘lib, zichlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi bilan aniqlanadi.
- Gruntlardagi eruvchan tuzlar miqdori oshishi ultratovush to‘lqinlarining tezlashishiga sabab bo‘ladi.
- Quruq sho‘rlangan gruntning namlanishi va sho‘rlanish darajasining pasayishi bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin tezligining 2–2,5 barobar kamayishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, grunt zichligi va yuk ko‘tarish xususiyatlarining pasayishini ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Zafarov O., G‘ulomov D., Murodov Z. Conducting engineering-geological researches on bridges located in our country and diagnosing their super structures, methods of eliminating identified defects //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
2. Bobojonov R., Zafarov O., Yusupov J. Soil composition in the construction of engineering structures, their classification, assessment of the impact of mechanical properties of soils on the structure //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
3. Maxkamov Z. et al. Conducting engineering and geological research on the design and construction of buildings and structures in saline areas //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
4. Kayumov A., Zafarov O., Kayumov D. Changes of mechanical properties in humidification saline soil based in builds and constructions //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
5. Hudaykulov R. et al. Filter leaching of salt soils of automobile roads //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 264. – C. 02032.
6. Maslov N. N. Fundamentals of engineering geology and soil mechanics. Textbook for high schools. –M.: Higher School, 1982.- 511 p.
7. Dmitriev V.V., Yarg L.A. Methods and quality of laboratory study of soils: textbook / V.V. Dmitriev, L.A. Yarg. –M.: KDU, 2008. - 502 p.
8. Trofimov V. T., Koroleva V. A. Laboratory work on soil science. –M.: KDU, University book, 2017. - 654 p.
9. Trofimov V. T. et al. Ground science. –M., Publishing House of Moscow State University, 2005. - 1024 p.
10. Muzaffarov A. A., Fanarev P. A. Engineering and geological support for the construction of highways, airfields and special structures. Tutorial. M.: MADI, 2016. -180 p.

UO‘K: 622.276.1/4.

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.28

**TERRIGEN KOLLEKTORLI QATLAMLARDA NEFT  
BERAOLUVCHANLIKNI SUYUQLIK OLISH SUR‘ATIGA  
BOG‘LIQLIGINING STATISTIK MODELLARINI TAHLIL QILISH VA  
ASOSLASH**



**Muhammadiyev  
Hamidullo  
Murodillayevich**

*Texnika fanlari falsafa doktori,  
dotsent, "Neft va gaz ishi", Qarshi  
davlat texnika universiteti,  
Qarshi, O'zbekiston  
E-mail: [hammuh@mail.ru](mailto:hammuh@mail.ru)  
ORCID ID: 0000-0001-9434-4207*



**Omonov O'tkir Furqat  
o'g'li**

*"Neft va gaz konlarini ishga  
tushirish va ulardan foydalanish  
mutaxassisligi" 1-kurs magistr  
talabasi, Qarshi davlat texnika  
universiteti, Qarshi, O'zbekiston*



**Nishonov Javohir Akmal  
o'g'li**

*"Neft va gaz ishi" ta'lim yo'nalishi  
2-kurs talabasi, Qarshi davlat  
texnika universiteti,  
Qarshi, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada terrigen kollektorli qatlamlarda neft beraoluvchanlikni suyuqlik olish sur'atiga bog'liqligining statistik modellarini tahlil qilish va ushbu modellarni asoslash ko'rsatib o'tilgan. Yakuniy neft beraoluvchanlik koeffitsientini baholash uchun statistik bog'liqliklar va ularni qo'llash uchun geologik va fizik sharoitlar keltirilgan. Ushbu sharoitlardan kelib chiqqan holda korrelatsiyon usulda tahlil qilingan. Suyuqlik qazib olish sur'ati koeffitsientini statistik modellarda ko'rib chiqilgan ob'ektlarga o'xshash ob'ektlarda qazib chiqarishni oshirish usullarini qo'llashga ta'sir darajasini baholash natijalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** terrigen, regressiya, neft beraoluvchanlik, indikator, kon, qovushqoqlik, karbonatli qatlam.

**АНАЛИЗ И ОБОСНОВАНИЕ СТАТИСТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ  
ЗАВИСИМОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИИ ЖИДКОСТИ ОТ ТЕМПА ОТБОРА  
НЕФТИ В ТЕРРИГЕННЫХ КОЛЛЕКТОРНЫХ ПЛАСТАХ**

**Мухаммадиев  
Хамидулло  
Муродиллаевич**

*Доктор философии по  
техническим наукам, доцент  
кафедры «Нефть и газ»  
Каршинского государственного  
технического университета,  
Карши, Узбекистан*

**Омонов Утқир Фуқрат  
ўғли**

*Магистрант 1 курса  
специальности «Разработка и  
эксплуатация нефтяных и  
газовых месторождений»,  
Каршинский государственный  
технический университет,  
Карши, Узбекистан*

**Нишонов Жавохир  
Акмал ўғли**

*Студент 2 курса специальности  
«Нефтегазовая  
промышленность», Каршинский  
государственный технический  
университет,  
Карши, Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье показано анализ статистических моделей зависимости извлечения нефти от темпа отбора жидкости в терригенных пластах-коллекторах и обосно-

вание этих моделей. Представлены статистические зависимости для оценки конечного коэффициента извлечения нефти и геолого-физических условий их применения. На основании этих условий был проанализирован корреляционный метод. Проанализированы результаты оценки уровня влияния коэффициента темпа отбора жидкости на применение методов увеличения добычи на объектах, аналогичных объектам, рассматриваемым в статистических моделях.

**Ключевые слова.** терриген, регрессия, извлечения нефти, индикатор, залежь, вязкость, карбонатный залежи.

## ANALYSIS AND JUSTIFICATION OF STATISTICAL MODELS OF THE DEPENDENCE OF LIQUID OPERATION ON THE RATE OF OIL WITHDRAWAL IN TERRIGENOUS RESERVOIR FORMATIONS

**Muhammadiev  
Hamidullo  
Murodillaevich**

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Docent, "Oil and Gas Business", Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

**Omonov Utkir Furkat  
ugli**

1st year master's student in "Oil and gas field commissioning and exploitation", Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

**Nishonov Javohir Akmal  
ugli**

2nd year student of the "Oil and Gas Industry" program, Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

**Abstract.** This article shows the analysis of statistical models of the dependence of oil recovery on the rate of fluid withdrawal in terrigenous reservoirs and the justification of these models. Statistical dependencies are presented for assessing the final oil recovery factor and the geological and physical conditions of their use. Based on these conditions, the correlation method was analyzed. Based on these conditions, the correlation method was analyzed. The results of assessing the level of influence of the liquid withdrawal rate coefficient on the use of methods for increasing production at facilities similar to those considered in statistical models are analyzed.

**Keywords:** terrigen, regression, oil recovery, indicator, reservoir, viscosity, carbonate reservoir.

**Kirish.** Oldindan shuni ta'kidlash kerakki, regressiya tahlili natijalarining dastlabki umumlashtirilishi "Yer osti boyliklaridan neft qazib olish koeffitsientlarini hisoblash bo'yicha uslubiy qo'llanma" da keltirilgan bo'lib, unda neft konlarining ma'lum geologik va fizik sharoitlarida qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan [1]. Ishlatishning so'ngi bosqichida neft uyumlarining doimiy qiymatlarining o'sishi va haqiqiy ma'lumotlar asosida regressiya tahlilini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar hanuz davom etmoqda. Ishlatishning yakuniy bosqichida bo'lgan konlar bo'yicha ko'plab materiallar to'plangan bo'lib, ushbu konlarga oid haqiqiy ma'lumotlarni umumlashtirish natijalari muayyan texnologik yechimlarning amalga oshirilgan ekspluatatsiya tizimlari samaradorligiga ta'sirini o'rganish uchun alohida ahamiyatga ega.

**Material va usullar.** Ko'p faktorli regressiya tahlili asosida olingan statistik modellarning asosiy

afzalliklaridan biri shundaki, ular bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning ta'sirini hisobga olib, ma'lum bir indikatorning jarayonga nafaqat sifat, balki miqdoriy jihatdan ham ta'sirini aniqlash imkonini beradi [2]. Bu esa faqat bitta omilga asoslangan bog'liqliklardan farqli o'laroq, turli geologik va fizik sharoitlarda NBOKga suyuqlik olish sur'atining ta'sirini baholash uchun statistik modellardan foydalanish zaruratini asoslaydi.

Hozirgacha taklif qilingan statistik modellarni qo'llash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular o'xshash sharoitlarda qo'llanganda nisbatan ishonchli natijalar beradi. Shu munosabat bilan, rivojlanish sur'atlarining kengayishiga ta'sir darajasini baholash uchun bir xil turdagi kollektor konlari hamda bir xil almashtirish rejimlarida ishlab chiqilgan statistik modellardan foydalanilgan. Ushbu modellarga asoslanib, parametrlarning o'rtacha qiymatlari va ularning o'zgarish chegaralari to'g'risida ma'lumot-

lar taqdim etilgan [3].

1-jadvalda neftni beraoluvchanlik koeffitsientini baholash hamda ularni qo'llash uchun geologik va fizik sharoitlarni aks ettiruvchi statistik modellari keltirilgan. Ushbu modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, yakuniy neft beraoluvchanlik koeffitsientiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga mahsuldor qatlamning qalinligi, qatlam va qatlam suyuqliklarining xossalari, shuningdek, amalga oshirilgan ishlab chiqish tizimini tavsiflovchi turli parametrlar kiradi.

Statistik modellarda quyidagi ko'rsatkichlar kiritilgan:  $\mu_0$  – neftning nisbiy qovushqoqligi (neftni suvga nisbatan qovushqoqligi), birlik ulushda,  $K$  – qatlamning o'rtacha o'tkazuvchanligi,  $\text{mkm}^2$ ;  $h$  – qatlamning neftga to'yingan samarali qalinligi,  $m$ ;  $K_n$  – qumlilik koeffitsienti birlik ulushda,  $S$  – quduq to'ri zichligi,  $\text{ga/qud.}$ ;  $t\alpha$  – siqib chiqarishni samaradorlik ko'rsatgichi (neftni suv bilan siqib chiqarish burchagi), birlik ulushda;  $\mu_H$  – qatlam neftning qovushqoqligi,  $\text{mPa}\cdot\text{s}$ ;  $m$  – g'ovaklik koeffitsenti, birlik ulushda.;  $b$  – qatlam neftning hajmiy koeffitsienti, birlik ulushda;  $T_H$  – neft qazib chiqarish sur'ati, %;  $T_{\text{ж}}$  – suyuqlik qazib chiqarish sur'ati, %;  $\tau$  – g'ovak muhitdan suvni kirib kelishi, birlik ulushda;  $V_y$  – neftning solishtirma hajmi,  $\text{m}^3$

$/\text{m}^2$ ;  $Q_y$  – qazib chiqarish quduqlardagi neftning solishtirma zaxirasi, ming  $\text{t./qud.}$ ;  $N_{OT}$  – qazib oluvchi quduqlar sonini haydovchi quduqlarga nisbati, birlik ulushda;  $K_{OT}$  – suv haydash bilan qazib chiqarish kompensatsiyasi, %;  $q_3/q_{\text{ж}}$  – haydovchi quduqning o'rtacha suv haydash miqdorini qazib olinayotgan suyuqlik miqdoriga nisbati, birlik ulushda;  $Q_u$  – neftning qazib olinishi mumkin bo'lgan solishtirma zaxirasi, ming  $\text{t./qud.}$ ;  $P_t$  – dastlabki qatlam bosimi va neftning gazga to'yingan bosimi o'rtasidagi farq,  $\text{MPa}$ ;  $\eta_{\text{без}}$  – suvsiz neft qazib olish koeffitsenti, %.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, turli tadqiqotchilar tanlov darajasi sifatida turli ko'rsatkichlardan foydalanadilar. Masalan, 1-statistik modelda (1-jadval) neft qazib olishning o'rtacha yillik sur'ati maksimal qazib chiqarishning pasayishi boshlanishidan oldin balans zahiralari ulushi sifatida qabul qilingan. 2-modelda esa bu ko'rsatkich o'rtacha qiymat sifatida ishlatilgan. 3 va 4-modellarda suyuqlik qazib olishning yillik miqdori balans zahiralari ulushi sifatida ko'rilgan bo'lsa, qazib olishning ikkinchi bosqichida neft qazib olishning o'rtacha yillik ko'rsatkichi dastlabki qayta hisoblangan zaxiralarga nisbatan foizda qo'llanilgan [4,5].

1-jadval

***Yakuniy neft beraoluvchanlik koeffitsientini baholash uchun statistik bog'liqliklar va ularni qo'llash uchun geologik va fizik sharoitlar***

№ t.r.	Neftgazli regionlar	Obyektlar soni	Bog'liqlik ko'rinishi	Ko'p faktorli korrelatsiya koeffitsienti	Qo'llanish doirasi
1	Ozarbayjon Turkmanistan	36	$\eta = 0,153 + 0,053 T_H + 0,025 \ln K - 0,0021 (\eta_{\text{без}} - 19,9) (T_H - 5,59) + 3,25 (1/S - 0,17)^2$	0,93	Terrigen kollektorlar, suv tazyiqi rejimi
2	Ozarbayjon	36	$\eta = -0,409 - 0,01\mu_0 + 0,261K_n - 0,0036h + 1,571m + 0,04\tau + 0,004 T_{\text{ж}} + 0,121gK + 0,451b$	0,932	Terrigen kollektorlar, suv tazyiqi rejimi
3	Boshqirdiston	18	$\eta = 0,536V_y + 0,025\mu_0 - 0,203K - 0,278K_n - 0,186S - 0,03Q - 0,338N_{OT} + 0,179t + 0,385K_{OT} - 0,087T_H - 0,489q_3/q_{\text{ж}}$	-	Terrigen kollektorlar, suv tazyiqi rejimi
4	Boshqirdiston	13	$\eta = 0,153V_y + 0,029\mu_0 - 0,035K + 0,194K_n - 0,045S + 0,219Q_y + 0,264t + 0,314T_H$	-	Terrigen kollektorlar, suv tazyiqi rejimi


Barcha parametrlarning qiymatlarini bir vaqtning o'zida o'zgartirish statistik modellar yordamida neftni siqib chiqarish koeffitsientiga qazib chiqarish sur'atining ta'sirini baholashni murakkablashtiradi. Bu ko'p o'lchovli hisob-kitoblarni talab qiladi va natijalarni tahlil qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli, raqamli tajribalarda faqat qazib olish sur'ati o'zgartirilib, statistik modellarning boshqa parametrlari o'zgarishsiz, ularning o'rtacha qiymatlariga teng holda qoldiriladi. Bunday yondashuvda qazib olish sur'ati, statistik modellar qurishda foydalanilgan oraliqlarda o'zgartiriladi. Natijada, statistik modellar o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatlariga yaqin bo'lganda eng ishonchli natijalarni beradi.

Har bir statistik model bo'yicha tanlab olingan omillarning o'zgarishi doirasida qazib olish koeffitsientini hisoblash natijalari 1 va 2-rasmlarda bog'liqlik grafiqi shaklida taqdim etilgan. Ushbu natijalardan ko'rinib turibdiki, barcha hollarda  $\eta_K = a + b \cdot T$  ko'rinishidagi chiziqli funksiya (bu yerda  $\eta_K$  - yakuniy neft beraoluvchanlik koeffitsienti,  $T$  - qazib olish sur'ati) yetarli darajada yuqori korrelyatsiya koeffitsientlari va past standart xatolikka ega (2-jadval).

2-jadval


**Statistik modellarning bog'liqlik koeffitsientlari, korrelyatsiya koeffitsienti va o'rtacha kvadratik xatolik qiymatlari**

Statistik modellar	Ko'rsatgichlar nomlanishi			
	Koeffitsientlar		Korrelyatsiya Koeffitsienti	O'rtacha kvadratik xatolik, %
	"a"	"b"		
Model 1	0,2999	0,0195	0,97	2,48
Model 2	0,5050	0,0040	0,93	3,33
Model 3	0,2711	-0,0079	0,98	1,8
Model 4	0,4015	0,0031	0,92	4,4



**1-rasm. Neft beraoluvchanlik koeffitsientini neft-1 va suyuqlik-2 qazib olish sur'atiga bog'liqlik grafiqi.**

Suyuqlik qazib olish sur'ati koeffitsientining statistik modellarda ko'rib chiqilgan obyektlarga o'xshash konlarda qazib chiqarishni oshirish usullarini qo'llashga ta'sir darajasini baholash natijalari tahlili, geologik va fizik sharoitlarda neft konlarini o'zlashtirishni loyihalash hamda tegishli texnologiyalarni joriy etishda hisobga olinishi lozim bo'lgan bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi [6,7,8].



**2-rasm. Neft beraoluvchanlik koeffitsientini neft qazib olish sur'atiga bog'liqligi. Grafikdagi raqamlar 2 -jadvalda keltirilgan statistik modellarning raqamlariga mos keladi.**

**Natijalar.** 1-model va 2-model natijalari shuni ko'rsatadiki, neft va suyuqlik qazib olish sur'atlarining katta oraliqlarda o'zgarishi suv bosimi rejimida ishlatilayotgan terrigen kollektorli qatlamlarning neft beraoluvchanlik koeffitsientiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

*1-model bo'yicha:*

- Umumlashtirilgan neft konlarining geologik va fizik sharoitlariga asoslanib, maksimal neft qazib olish boshlang'ich balans zaxiralarining 1% gacha kamaygan holatida neft qazib olish sur'atining oshishi neft beraoluvchanlik koeffitsientini 1,9% ga oshiradi.
- Qazib olish sur'atining 2% dan 10% gacha o'zgarishi natijasida qatlamlarning yakuniy neft beraoluvchanligi 0,339 dan 0,495 gacha oshadi.

*2-model bo'yicha:*

- Umumlashtirilgan neft konlarining geologik va fizik sharoitlarida suyuqlik olishning o'rtacha yillik sur'atining dastlabki neft zahiralarining 1% ga oshishi neft olish koeffitsientining 0,4% ga oshishiga sabab

bo'ladi.

- Suyuqlik olishning o'rtacha yillik sur'ati 1% dan 19% gacha oshganida yakuniy neft beraoluvchanlik koeffitsienti 0,513 dan 0,585 gacha ortadi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, qazib olish sur'atlarini oshirish qatlamlarning neft beraoluvchanligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin, ammo bu jarayonning optimal chegaralarini belgilash muhimdir.

Suv bosimi rejimida ishlayotgan konlar uchun 3 va 4-modellarda, umumlashtirilgan terrigen va karbonatli qatlamlarda, dastlabki qazib olinadigan

zaxiralar 0,1% dan 3,4% gacha bo'lganda, neft qazib olish sur'atining neft beraoluvchanlik koeffitsientiga ta'siri chegaralangan va ahamiyatsiz darajada bo'ladi.

**Xulosa.** Terrigen qatlamlarning turli geologik va fizik sharoitlarga ega ekanligini hisobga olgan holda, neft beraoluvchanlik koeffitsientini oshirish imkoniyatlarini asoslash mumkin. Suyuqlik qazib olish sur'atini oshirish bilan bog'liq ravishda, quduqlarda optimal ish rejimini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Suv bosimi rejimida ishlayotgan konlar uchun cheklangan miqdorda suyuqlik qazib olishning samaradorligi asoslab berildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Поплаухина Т.Б., Мокрушина С.С., Хомутова А.В., Красноперов Е.А. обоснование прогнозных темпов добычи нефти для геолого – экономической оценки запасов // Геология, геофизика и разработка нефтяных и газовых месторождений, 2005. -№5-6-с. 7-11.
2. Форсированный отбор жидкости как метод повышения нефтеотдачи гранулярных коллекторов /В.Г.Шеметило, А.Ю.Мосунов, В.А.Афанасьев др. // Нефтяное хозяйство. – Москва, 2004. - №2. – С. 54-58.
3. Мухаммадиев, Х. М. (2024). ОЦЕНКА ПРИРОСТА КОНЕЧНОГО КОЭФИЦИЕНТА ИЗВЛЕЧЕНИЯ НЕФТИ. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 652-657.
4. Жўраев, Э. И., Мухаммадиев, Х. М., & Рахмонкулов, М. Т. (2020). МОДЕЛИ ТЕМПА ОТБОР НЕФТИ ДЛЯ ЗАЛЕЖЕЙ ФЕРГАНСКОЙ НЕФТЕГАЗОНОСНОЙ ОБЛАСТИ. In НАУКА ТРЕТЬЕГО ТЫСЯЧЕЛЕТИЯ (pp. 1005-1011).
5. Агзамов, А. Х., Эрматов, Н. Х., Агзамов, А. А., & Мухаммадиев, Х. М. (2020). О степени влияния кратности промывки пласта на коэффициент извлечения нефти залежей ферганской нефтегазоносной области, представленных карбонатными породами. *Геология, геофизика и разработка нефтяных и газовых месторождений*, (1), 41-47.
6. Murodillayevich, M. H. (2024). SHIMOLIY O'RTABULOQ KONIDA QATLAMNI GIDROYORISH TEXNOLOGIYASINI JORIY QILISHNI BAHOLASH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(9), 26-30.
7. Muhammadiyev H., & Oripova, L. (2023). CRITICAL ANALYSIS OF TECHNOLOGICAL EFFICIENCY ASSESSMENT METHODS OF GEOLOGICAL AND TECHNICAL MEASURES IN WELLS. *Modern Science and Research*, 2(10), 664-667.
8. Hamidullo M., Eldor, J. R., & Shaxzod, T. (2024). UMID NEFTGAZ KONINING ISHLASH KO'RSATGICHLARINI BAHOLASH. *Innovations in Technology and Science Education*, 3(21), 7-12.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH  
ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО  
CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

УДК: 674.8:691.18

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.2

КОМПЛЕКСНАЯ ЗАЩИТА ДЕРЕВЯННЫХ МАТЕРИАЛОВ  
АНТИПЕРИНОМ



**Бозоров Лутфулла  
Убайдуллаевич**

Доктор философии по  
техническим наукам, доцент,  
Термезский государственный  
педагогический институт,  
Термез, Узбекистан



**Холбоева Азиза  
Ихтияровна**

Докторант Термезский  
государственный педагогический  
институт, Термез, Узбекистан



**Тураев Хайит  
Худайназарович**

Доктор химических наук,  
профессор, Термезский  
государственный университет,  
Термез, Узбекистан



**Нуркулов Файзулла  
Нурмунинович**

Доктор технических наук,  
ведущий научный сотрудник,  
Ташкентский научно-  
исследовательский химико-  
технологический институт,  
Ташкент, Узбекистан

**Аннотация.** В статье показана возможность получения новых полифункциональных олигомер, на основе серу и азотсодержащих соединений для борьбы с термитами, синтезированных на основе местного сырья, которые увеличивают количество антисептической эффективности и обеспечивают биозащитные свойства.

Помимо изучения физико-химических свойств полученных олигомеров, использование водных растворов органических олигомеров азота и серы, приготовленных из местного сырья с целью повышения устойчивости древесных материалов к термитам, привело к положительным результатам на 87%.

**Ключевые слова:** деревянные строительные материалы, азот и серасодержащих олигомер, термиты, биозащиты, синергический эффект.

YOG‘OCH MATERIALLARNI ANTIPERIN BILAN KOMPLEKS  
HIMOYALASH

**Bozorov Lutfulla  
Ubaydullayevich**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent, Termiz davlat  
pedagogika instituti, Termiz,  
O'zbekiston

**Xolboyeva Aziza  
Ixtiyarovna**

Termiz davlat pedagogika instituti  
doktoranti, Termiz, O'zbekiston

**Turayev Xayit  
Xudaynazarovich**

Kimyo fanlari doktori, professor,  
Termiz davlat universiteti, Termiz,  
O'zbekiston

**Nurqulov Fayzulla  
Nurmo'minovich**

Texnika fanlari doktori, yetakchi  
ilmiy xodim, Toshkent kimyo-  
texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti,  
Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Maqolada mahalliy xomashyolar asosida sintez qilingan termitlarga qarshi kurashda oltingugurt va azot saqllovchi birikmalar asosida antiseptik samaradorlik miqdorini oshiradigan va biosamaradorlik xususiyatini ta'minlaydigan yangi polifunksional oligomerlar olish mumkinligi ko'rsatilgan.

*Olingan oligomerlarning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish bilan bir qatorda yog'och materiallarining termitlarga chidamliligini oshirish maqsadida mahalliy xomashyolardan tayyorlangan azot va oltingugurt organik oligomerlarining suvli eritmalaridan foydalanish 87% ijobiy natijalarga olib keldi.*

**Kalit so'zlar:** yog'och qurilish materiallari, tarkibida azot va oltingugurt bo'lgan oligomerlar, termitlar, biohimoya, sinergiya effekti.

## COMPLEX PROTECTION OF WOODEN MATERIALS WITH ANTIPERINE

**Bozorov Lutfulla**

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Associate Professor, Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

**Xolboyeva Aziza**

Doctoral student of Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

**Turaev Xayit**

Doctor of Chemical Sciences, Professor, Termez State University, Termez, Uzbekistan

**Nurkulov Fayzulla**

Doctor of Technical Sciences, Leading Researcher, Tashkent Research Institute of Chemical Technology, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** The article shows the possibility of obtaining a new polyfunctional oligomer based on sulfur and nitrogen-containing compounds for the fight against termites, synthesized on the basis of local raw materials, which increases the amount of antiseptic efficiency and provides bioprotective properties.

In addition to studying the physicochemical properties of the oligomers obtained, the use of aqueous solutions of organic nitrogen and sulfur oligomers prepared from local raw materials in order to increase the resistance of wood materials to termites led to positive results by 87%.

**Keywords:** wooden building material, nitrogen and sulfur-containing oligomer, termites, biosecurity, synergistic effect.

**Введение.** В настоящее время исследования обусловлены повышенным интересом к древесине в современных строительных технологиях и поиском эффективных средств её защиты от избыточного увлажнения, биокоррозии - основных факторов, определяющих долговечность деревянных конструкций. Серные композиционные материалы относятся к специальным видам строительных материалов, при изготовлении которых в качестве вяжущего используются техническая сера в любой торговой форме (порошкообразная, жидкая, комовая, полимерная и другие виды) и/или серосодержащие отходы (содержание серы не менее 30%; при меньшем содержании серы отходы обогащают технической серой) [1-3].

Одной из проблем, с которой деревянные строительные материалы наносят большой ущерб сельскому хозяйству, а также историческим зданиям и сооружениям, являются термиты, с которыми борются во всем мире.

Сегодня ущерб, наносимый термитами по всему миру, год от года увеличивается. В Западной Африке ущерб от термитов зданий составляет 10 процентов текущих затрат на ремонт, в то время как в Соединенных Штатах ущерб от термитов оценивается в 1,5 миллиарда

долларов в год и 20 миллиардов долларов во всем мире. Одна семья из 25 000 термитов на 100 см<sup>3</sup> потребляет в среднем 50000 см<sup>3</sup> целлюлозы в год [2-4].

Два вида термитов (*A. turkestanicus* Jacobs., *A. ahngerianus* Jacobs.) принадлежащие к роду *Anacanthotermes* широко распространены в Узбекистане, особенно в последние 20-30 лет почти во всех регионах страны и в Республике Каракалпакстан, причинивших большой ущерб домам, сельскохозяйственным зданиям и даже историческим памятникам [2-5].

Химические вещества играют важную роль в борьбе с термитами. Высоких результатов можно достичь с помощью органических веществ, содержащих серу и азот.

Сульфиды элементов с валентными *s*-электронами имеют смешанную ионно-ковалентную химическую связь: ковалентную между атомами серы и ионную между атомами металлов и серы. С понижением ионизационного потенциала этих металлов увеличивается способность атомов серы к образованию друг с другом ковалентно связанных группировок и соответственно – способность металлов образовывать большое число полисульфидных фаз. Особенно склонны к образованию поли-

сульфидов металлы с невысокими первыми ионизационными потенциалами. Так, натрий (ионизационный потенциал  $I_1 = 5,14$  эВ) образует следующие сульфиды:  $\text{Na}_2\text{S}$ ,  $\text{Na}_4\text{S}_2$ ,  $\text{Na}_2\text{S}_2$ ,  $\text{Na}_4\text{S}_5$ ,  $\text{Na}_2\text{S}_3$ ,  $\text{Na}_4\text{S}_7$ ,  $\text{Na}_2\text{S}_4$ ,  $\text{Na}_4\text{S}_9$ ,  $\text{Na}_2\text{S}_5$ ; так же многочисленны сульфиды, образуемые калием ( $I_1 = 4,34$  эВ), меньшее число сульфидов образуют бериллий ( $I_1 = 9,32$  эВ;  $I_2 = 18,21$  эВ), кальций ( $I_1 = 6,11$  эВ;  $I_2 = 11,87$  эВ) и барий ( $I_1 = 5,21$  эВ;  $I_2 = 10,00$  эВ), имеющие сравнительно более высокие ионизационные потенциалы.

**Экспериментальная часть.** Синтезированы новые полифункциональные олигомеры, на основе сера и азотсодержащих соединений, при совместном введении которых в олигомерные связующие наблюдается синергический эффект.

Получение новых синтезированных композиций биозащитных добавок для древесным строительным материалам, обладающих высокой антисептической эффективностью, экологически безопасных и экономичных на сегодняшний день является актуальной задачей.

Были изучены физико-химические свойства: плотность, и основные эксплуатационно-технические характеристики в биозащитных древесным строительным материалам.

Данные физико-химических характеристик азот- и серосодержащих олигомерного антипирена представлены в табл.1.

Таблица 1.

**Физико-химические показатели серосодержащих олигомеров**

Показатели	Сера и азотсодержащие олигомеры
Плотность, г/см <sup>3</sup> ГОСТ 15139-69	1,03
Кислотность раствора рН	7,0-7,5
$\Pi_{\text{хв}}$	0,064
Растворимость	Вода
Внешний вид и цвет	Олигомерное вещество медовая

Нанесение беззащитных антисептических материалов возможно только на деревянные элементы, которые не будут подвергаться в дальнейшем механическим воздействиям [3]. Перед обработкой древесина должна быть полностью очищена от коры, смолы, грязи, пыли, а также красящих веществ.

В результате было получено антисептическое средство, в котором удалось улучшить не только биозащитные свойства, но и важнейшие эксплуатационные показатели (таб.2.). Кроме того, были улучшены эстетические показатели: естественный цвет древесины в результате обработки приобрел более глубокий желтоватый оттенок.

Обработанные древесные строительные материалы и конструкции не только способны эффективно биологическому разрушению, но и не выделяют в окружающую среду токсичных химических веществ, опасных для жизнедеятельности человека и экологии и создающих неприятные запахи. Как одно из самых безопасных для жизнедеятельности человека и природы, средство азот- и серосодержащих олигомера может быть рекомендовано для биозащиты и предупреждения преждевременного гниения деталей и конструкций из древесины, используемых в зданиях и сооружениях различного назначения, в том числе в жилых и общественных зданиях с массовым и длительным пребыванием людей.

Таблица 2.

**Основные эксплуатационно-технические характеристики на биозащитные древесные строительные материалы**

Биологическая стойкость, по ГОСТ 9.048-89	Балл 1
Химическая и коррозионная стойкость	Высокоэффективное
Расход для эффективности	100-200 г/кв.м.
Температура окружающей среды при обработке	+40°C - 0°C

В целях повышения устойчивости древесных материалов к термитам, 87% положительных результатов были достигнуты при использовании водных растворов органических олигомеров, содержащих азот и серу, изготовленных на основе местного сырья.

Кроме того, были проведены экспериментальные испытания для изучения воздействия термитов на деревянные строительные материалы. одну часть древесного материала обрабатывали водорастворимыми химикатами, а другую часть использовали как необработанные, высушенные термиты в качестве сырья. В

Таблица 3.

*Биологическая эффективность водных растворов азот и серосодержащих олигомеров по отношению к термитам в лаборатории*

химические образцы	количество мертвых термитов в месяц (%)						количество термитов	Биологическая эффективность (%)
	5	10	15	20	25	27		
<i>Азот и серосодержащий олигомер.</i>	48,2±2,9	62,7±2,4	69,8±2,0	80,5±1,7	85,1±4,0	87,2±2,0	40±1,0	87,2±2,0
Контрольные	-	-	-	-	-	-	-	-

экспериментальном процессе было использовано 40 рабочих термитов, всего термитов кормили 100 г. Экспериментальные наблюдения выявили полное уничтожение термитов через 25-27 дней.

Когда древесину, обработанную водным раствором азотсодержащих и серосодержащих олигомеров, использовали в качестве сырья для термитов, среднее количество термитов уменьшилось с 48,2% до 69,8% через 5-15 дней, а затем с 15,27 дня до 87,2%.

**Выводы:** Таким образом, анализ проведённой работы показывает перспективность

разработки и эффективность применения композиционных материалов азот и серосодержащих олигомеров в качестве биозащитных средств для древесины строительных материалов.


В Узбекистане в борьбе с термитами была достигнута высокая эффективность в широком распространении использования термитов в стратегических поселениях.

Согласно результатам этого эксперимента, профилактические меры против термитов могут привести к высокой экономической эффективности в будущем за счет строительства прочных строительных материалов.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Тычинко Н.А. Огнебиозащита древесины и экология // Пожаровзрывобезопасность 2012 ТОМ 21 №1. с 40-46.
2. Котенёва И.В., Котлярова И.А., Сидоров В.И. Комплексная защита древесины составами на основе боразотных соединений // Строительные материалы, Москва 2010г., № 6, с.56-60.
3. Холматов Б.Р., Жабборова О.И. Yog'och materiallarini termitlardan himoya qilishda antiseptik vositalardan foydalanish // Ўзбекистон биология журналы, – Тошкент, 2014. – Махсус сон, – Б. 83-87.
4. <https://neagent.org.ua/stati/effektivnye-ognebiozaschitnye-preparaty-dlya-zaschity-drevesiny-ot-vozzgoraniya.php>.
5. <http://vatandosh.uz/2013/06/termit/>

UO‘K: 621.1

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.5

## MURAKKAB IQLIM SHAROITLARIDA MUHANDISLIK INSHOOTLARINI QURISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH VA GIDROGEOLOGIK SHAROITLARINI O‘RGANISH



**Zafar Olmos**

Jizzax politexnika instituti,  
geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent, Jizzax, O'zbekiston  
E-mail: [olmos.zafarov@mail.ru](mailto:olmos.zafarov@mail.ru)  
ORCID ID: 0009-0006-0226-6349



**Qo'shmurodov Shoxrux Furkat o'g'li**

Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston  
E-mail: [shohruhqoshmurodov3@gmail.com](mailto:shohruhqoshmurodov3@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0002-9838-768X

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada murakkab iqlim sharoitlarida muhandislik inshootlarini qurishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish va gidrogeologik sharoitlarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi kunda strukturasi beqaror bo'lgan sho'rlangan gruntlar mamlakatimiz hududida keng tarqalgan bo'lib, bino va inshootlarning tabiiy va suniy asosi sifatida foydalanib kelinmoqda. Cho'l hududlarining o'zlashtirilishi natijasida sho'rlangan gruntlar ustiga sanoat va fuqaro inshootlarini qurish ishlari boshlangan. O'sha vaqtlarda me'yoriy hujjat va yo'riqnomalarning yetarli bo'lmaganligi tufayli qidiruv ishlari va loyihalashda asos uzoq vaqt namlanishi hamda tuzlar yuvilishi natijasida, sho'rlangan gruntlarning fizik va mexanik xossalari o'zgarishi hisobga olinmagan.

**Kalit so'zlar:** gruntlar, namlik, murakkab iqlim sharoitlari, muhandislik inshootlari, gidrogeologik sharoitlari, sho'rlangan gruntlar, yuqori namlangan gruntlar, fizik-mexanik xossalalar.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ СТРОИТЕЛЬСТВА ИНЖЕНЕРНЫХ СООРУЖЕНИЙ В СЛОЖНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ И ИЗУЧЕНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ

**Зафаров Олмос**

Джизакский политехнический институт,  
Доктор философии (PhD) по геологии и минералогии, доцент,  
Джизак, Узбекистан

**Кушмуродов Шохрux Фуркат угли**

Преподаватель, Джизакский политехнический институт,  
Джизак, Узбекистан

**Аннотация.** В статье представлены сведения по изучению особенностей строительства инженерных сооружений в сложных климатических условиях и изучению гидрогеологических условий. В настоящее время структурно-неустойчивые засоленные грунты широко распространены на всей территории нашей страны и используются в качестве естественных и искусственных оснований зданий и сооружений. В связи с освоением пустынных территорий начались работы по строительству промышленных и гражданских сооружений на засоленных почвах. В то время из-за отсутствия нормативных документов и методических рекомендаций при изысканиях и проектировании не учитывались изменения физико-механических свойств засоленных грунтов вследствие длительного замачивания основания и выщелачивания солей.

*Ключевые слова:* грунты, влажность, сложные климатические условия, инженерные сооружения, гидрогеологические условия, засоленные грунты, сильнозаболоченные грунты, физико-механические свойства.

## RESEARCH OF THE SPECIFIC CHARACTERISTICS OF CONSTRUCTION OF ENGINEERING CONSTRUCTIONS IN COMPLEX CLIMATE CONDITIONS AND STUDY OF HYDROGEOLOGICAL CONDITIONS

**Zafarov Olmos**

Jizzakh Polytechnic Institute,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Geology and Mineralogy,  
Associate Professor, Jizzakh, Uzbekistan

**Kushmurodov Shokhrux Furkat ugli**

Lecturer, Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh, Uzbekistan

**Abstract.** This article provides information on the study of hydrogeological conditions and the specific characteristics of construction of engineering structures in complex climatic conditions. Today, saline soils with an unstable structure are widespread in the territory of our country and are used as natural and artificial foundations of buildings and structures. As a result of the development of desert areas, the construction of industrial and civil facilities began on the saline soils. At that time, due to insufficient regulatory documents and guidelines, changes in the physical and mechanical properties of saline soil as a result of long-term wetting of the foundation and leaching of salts were not taken into account in research and design.

**Keywords:** soils, humidity, complex climatic conditions, engineering structures, hydrogeological conditions, saline soils, highly moistened soils, physical and mechanical properties.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi”gi, 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018 yil 1 martdagi PQ-3578-son “O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar Davlat qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi 213-sonli “2022-2026 yillarda Jizzax viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Strukturasi beqaror bo‘lgan sho‘rlangan gruntlar mamlakatimiz hududida keng tarqalgan bo‘lib, bino va inshootlarning tabiiy va suniy asosi sifatida foydalanib kelinmoqda.

1950-1960 yillarda, yarim cho‘l va cho‘l hududlarining o‘zlashtirilishi natijasida sho‘rlangan gruntlar ustiga sanoat va fuqaro inshootlarini qurish ishlari boshlangan. O‘sha vaqtlarda me‘yoriy hujjat va yo‘riqnomalarning yetarli bo‘lmaganligi tufayli qidiruv ishlari va loyihalashda asos uzoq vaqt namlanishi hamda tuzlar yuvilishi natijasida, sho‘rlangan gruntlarning fizik va mexanik xossalarning o‘zgarishi hisobga olinmagan.

Dunyoning sho‘rlangan gruntlar tarqalgan mamlakatlarida bino va inshootlar qurilishida, ulardan asos sifatida foydalanish davrida muhandislik-geologik va gidrogeologik sharoitlarni o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan avariya holatlarni prognoz qilish va ularning oqibatlarini kamaytirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada sho‘rlangan gruntlar tarqalgan hududlarda avariya holatlarni kompleks izlanishlar orqali baholash va prognoz qilish, ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sho‘rlangan gruntlardan foydalanish vaqtida kutiladigan avariya holatlarni baholash tadqiqotlari bunday gruntlar tarqalgan hududlarga ega bo‘lgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dunyoda shoʻrlangan gruntlardan foydalanish vaqtida sodir boʻladigan bino va inshootlarning avariya holatlarini baholash bilan bogʻliq boʻlgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada jumladan, shoʻrlangan gruntlar tarqalgan hududlarning muhandislik-geologik va gidrogeologik sxematik xaritalarini yaratish, shoʻrlanish darajasini uzoq vaqt suv taʼsirida oʻzgarishini hisobga olgan holda avariya holatlarni baholash, ulardan foydalanish vaqtida bino va inshootlardan xavfsiz foydalanishni taʼminlovchi chora-tadbirlarni takomillashtirishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Mamlakatimizda shoʻrlangan gruntlar tarqalgan hududlarda bino va inshootlarni xavfsiz, samarali ishlashi uchun muhandislik-geologik va gidrogeologik tadqiqot ishlarini olib borish boʻyicha muayan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Fargʻona kabi viloyatlarda va Qoraqalpogʻiston Respublikasida muhandislik-geologik va gidrogeologik omillarni aniqlash asosida shoʻrlangan gruntlar mukammal oʻrganilgan va baholangan.

Hozirgi kunda shoʻrlangan gruntlar tarqalgan Oʻzbekiston sharoitida koʻplab bino va inshootlarning qurilishiga katta eʼtibor berilishini hisobga olgan holda, ushbu ilmiy tadqiqot ishlari mazkur hududlarni namlanishida grunt tarkibidagi tuzlarning yuvilishi natijasida muhandislik-geologik va gidrogeologik sharoitlarning oʻzgarishini baholash, bino va inshootlarni mustahkamligi va ulardan xavfsiz foydalanishga oid masalalarni yechishga imkon beradi.

Shuningdek, agressiv yer osti suvlarining korroziya taʼsiridan, inshoot poydevorlari va yer osti qismlarini himoyalashga yetarli darajada eʼtibor qaratilmagan. Bu koʻp hollarda bino va inshootlarning deformatsiyalariga bazan esa, ommaviy tus olishiga olib kelgan. Shu munosabat bilan loyihalashda poydevorlarning tejamkor turlari qoʻllanilmadi, asos va poydevorlarni tayyorlash boʻyicha iqtisodiy zarar keltiruvchi chora-tadbirlar olib borildi.

Natijada metall va mehnat sarfi oshdi, shuningdek, bu ishlar uzoq vaqt davom etdi. Bunda loyihaviy yechimlarning ishonchligi har doim ham kafolatlanmagan.

Bundan kelib chiqib, shoʻrlangan gruntlardan bino va inshootlarning asosi sifatida tadqiq etish boshlandi. Hozirgi kunga kelib, tuzlarni filtratsiyali

yuvilish jarayonida shoʻrlangan gruntlar deformatsiyalanishining asosiy qonuniyatlarini belgilash imkonini beruvchi katta hajmdagi eksperimental va nazariy tadqiqotlar olib borildi.

Shoʻrlangan gruntlar tuzsizlanganda ularning mustahkamlik va deformatsiya xossalari oʻzgarish qonuniyatlari oʻrganildi. Shoʻrlangan gruntlardan tashkil topgan asoslarni hisoblash usullari ishlab chiqildi.

Grunt turlari, gruntidagi tuzlarning sifatli tarkibi va miqdori, qurilish turiga (gidrotexnik, yoʻl, meliorativ, sanoat, fuqorolik) koʻra batafsil tasniflar ishlab chiqilgan [1], hamda ulardan izlanishlar va shoʻrlangan gruntlar tarqalgan hududlardagi tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Koʻpgina davlatlarning hududida tuzlardan tarkib topgan gruntlar keng tarqalgan. Ular Moʻgʻiliston, Xitoy, Eron, Afgʻoniston, Iroq, Suriya, Pokiston, Hindiston, Turkiya va shuningdek, Arab davlatlarining katta maydonlarini egalagan.

Shoʻrlangan gruntlarning katta hududlari Afrikada, asosan, Liviya, Misr, Aljirda joylashgan. Shoʻrlangan gruntlar, shuningdek, Avstraliyada ham katta maydonni tashkil qiladi. Yevropadagi Fransiyaning janubi, Ispaniya, Italiya, Ruminiya, Vengriya davlatlarida ham uchraydi. Yana shuningdek, AQSh, Kanada, Meksika, Argentina, Chili va Peru davlatlarida keng tarqalgan. Xususan, shoʻrlangan gruntlar Oʻrta Osiyo, Qozogʻiston, Rossiya va Ukrainaning janubida ayniqsa keng tarqalgan. Sugʻoriladigan hududlarda shoʻrlangan maydonlar 35-45% ni tashkil qiladi. G.I.Choxonolidzening maʼlumotlariga koʻra, MDH davlatlarida shoʻrlangan va gipslangan gruntlar katta maydonlarni egallaydi [1].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Bugungi kunga kelib, bino va inshootlarning asosidagi shoʻrlangan gruntlar tarkibidagi tuzlarning miqdori va turini oʻrganish hamda ularning hisobiy koʻrsatkichlariga taʼsirini modellashtirish boʻyicha nazariy va amaliy tadqiqotlar yetakchi mamlakatlarning ilmiy markazlari, universitet va ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan keng oʻrganilgan. Shoʻrlangan gruntlarda qurilgan bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish davrida inshoot ostida, tabiiy va sunʼiy omillar hisobiga yer osti suvlarining texnogen sathi shakllanadi. Yer osti suvlari sathining koʻtarilishi va asos gruntlarining

namlanishi inshootning notekis cho'kishiga sabab bo'lib, avariya vaziyatlarga olib kelmoqda, natijada ortiqcha sarf-xarajatlar qilinmoqda.

Maxsus adabiyotlarda ilgari ko'rib chiqilgan [1,2,4,5] keng doiradagi masalalarga qaramay, ularga sho'rlangan gruntlar ustiga bino va inshootlar qurish bilan bog'liq barcha jihatlarni kiritish va to'liq ko'rib chiqish imkoni yo'q.

Bundan tashqari, amalda bu masala bo'yicha boshqa adabiyotlar yaratilmaganligi, qidiruv va loyihalash ishlarini qiyinlashtiradi.

Ushbu ishda, shu kabi kamchiliklarni to'ldirishga harakat qilindi. Mazkur ishda sho'rlangan gruntlar deganda, tarkibida oson eruvchan tuzlar va gips (gipslashgan gruntlar) bo'lgan sho'rlangan gruntlarning ikki turi tushuniladi. Alohida turga sho'rlangan gillar, abadiy muz (muzloq) sho'rlangan gruntlar, shuningdek, karbonatli gruntlar kiradi.

Shuningdek, ushbu ishda bayon qilingan natijalarning katta qismi eksperimental va nazariy tadqiqotlar asosida olingan.

Sho'rlangan gruntlarda qurilgan bino va inshootlardan foydalanish jarayonida tabiiy va sun'iy manbaalar hisobiga inshoot ostida yer osti suvlarining texnogen sathi shakllanadi. Yer osti suvlari sathining ko'tarilishi va poydevor gruntlarining namlanishi inshootning notekis joylashishiga olib keladi, bu esa favqulodda vaziyatlarga olib keladi, buning natijasida ortiqcha yo'qotishlar kuzatilmoqda. Sho'rlangan gruntlardagi tuzlarning miqdori va turini uning fizik-mexanik xossalariga ko'ra samaradorligini o'rganish bilan jahon va mamlakatimizning yirik tadqiqotchilari: M.D.Braja, G.P. Devid, V.Kun, B.G. Neal, A.R. Arutunuan, I.L. Bartolomey, V.M. Bezruk, P.B. Babaxonov, A.A. Glaz, A.I. Groth, R.S. Ziangirov, N.P. Zatenskaya, M.F. Uerusalimskaya, M.O. Karpushko, A.K. Kiualboyev, A.A. Kirillov, N.A.Klapatovskaya, U.V. Kuznetsov, A.D. Kayumov, T.X. Qalandarov, S.S.Mordovish, A.A. Mustafoev, N.S. Naletova, A.E.Oradovskaya, V.P. Petruhin, B.P. Raxmonov, U.D. Rojdestvenskiy, A.L.Rubinshteyn, U.M. Sergeyev, A.V. Suxorukov, M.N. Terleskaya, B.T. Teltayev, N.N. Florov, R.M. Xudayqulov, V.P. Shulgina, V.A. Kovda, I.K. Aimbetov, I.A. A'zamova va boshqalar [2,3].

V.A. Kovdaning ma'lumotlariga ko'ra, sho'rlangan gruntlarda tuz to'planish jarayoni quyidagi sharoitlarda paydo bo'ladi:

- subaeral deltalar va tog' etagidagi tekisliklarda, tuzlar gorizontalar yo'nalishda ko'chganda va suvlarning tog' etaklari bo'yida saqlanib qolganida;

- g'ovakliklar ichidagi eritmalar bug'lanishi va tuzlar vertikal yo'nalishi bo'yicha ko'chishi natijasida;

- tarkibida noturg'un komponentlar bo'lgan jinslarning kimyoviy yemirilish jarayoni natijasida.

Kontinental sharoitlarda sho'rlangan gruntlar hosil bo'lishiga keng botiqliklarning borligi va yer osti suvlari oqib ketishining qiyinligi hamda ularning yuzaga yaqin bo'lishi sabab bo'ladi.

Ikkilamchi sho'rlanishning asosiy sabablari (antropogen omillar ta'siri) quyidagilar:

- sug'orish tizimlarining mukammal emasligi;

- qurilgan yoki qurilayotgan hududlarning gidrosferasiga texnogen ta'sirlar;

- sanoat chiqindilaridagi tuz uyumlari, to'plagich va shlam to'plagichlardan, shuningdek, kimyoviy moddalar eritmalarining gruntlari bo'yicha filtrlanishi, turli sanoat korxonalarini kommunikatsiyalaridan.

Suvda erish darajasiga ko'ra, grunda mavjud bo'lgan tuzlar oson, yengil va qiyin eriydigan tuzlarga bo'linadi. Oson va yengil eriydigan tuzlar suvda eriydigan tuzlarga kiradi.

Sho'rlangan gipsli gruntlar tarqalgan hududlarda sanoat va fuqaro bino va inshootlarini qurish muommasiga birinchi bo'lib I.I. Cherkasov etibor qaratdi. U 1950 -yillarda Qozog'iston hududida gips miqdori 40% dan yuqori bo'lgan gilli gruntlar ustiga maxsus chora-tadbirlarsiz qurilgan va natijada deformatsiyaga uchragan bino va inshootlarni tekshirib chiqdi. Tekshiruv natijasida shu aniqlandiki, bino va inshootlarning deformatsiyalanishi asosning suv tasirida qisqa va uzoq muddatli namlanishi natijasida yuz beradi va bu gruntning cho'kishi bilan ham, poydevorning yemirilishi va buzilishi bilan ham bog'liq bo'ladi. Ko'rsatilgan deformatsiyalarni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

I.I. Cherkasov Qozog'istonning qurg'oqchil hududlaridagi shaxsiy kuzatuvlari asosida shunday hulosaga kelindiki, bino tomlaridan suv oqib tushishi, hududni sug'orish va boshqa mahalliy namlash manbaalarining tasiri hisobiga, nisbatan qisqa muddatli (1-2 yil va undan kam) suv bilan to'yinishi natijasida, kuchli gipslangan makrog'ovak gruntlardan tuzilgan asoslarning yuk ko'tarish qobili-

yatini pasayishi va deformatsiyalanishi ortadi. Bunday gruntlarda deformatsiyalanish, ular tarkibidagi tuzlar erib ketishi va filtrlovchi oqim oqizib ketishidan oldin kuzatilishi mumkin.

I.I. Cherkasovning fikricha, makrog'ovak gipslangan gruntlarda mustahkamlikning kamayishi, asosan, suv bilan to'yingan holatlarda ular orasidagi kontaktlarda tuzli bog'lanishlarning yumshashi (ivishi) hisobiga yuz beradi.

**Natijalar.** Sho'rlangan hududlarda inshootdan foydalanish tartibiga yoki uning asosidagi gidrogeologik sharoitlarni o'zgarishga ko'ra, cho'kish va suffoziyali cho'kish yuz berishi mumkin. Bunda oson va o'rtacha eruvchan tuzlar ham yuvilib ketishi mumkin, inshootlar asosidagi tuzlar chiqib ketishi tufayli gruntning turi o'zgaradi (masalan, asosning grunti tadqiq qilinganda - mustahkam gruntlar, avariya holatidagi inshoot tekshirilganda - bo'shoq gruntlar). Bunday gruntlarning suvga to'yinishi va ishqori yuvilishi natijasida, ularning deformatsiya va mustahkamlik tavsiflari qiymatlarining jiddiy kamayib ketishi kuzatilmoqda. Tadqiqotlarning tahlil natijalari, supesli va suglinkali gruntlarning kuchli sho'rlanishini ko'rsatadi. Bu holatni, ulardagi kapillyarlar orqali mineralashgan yer osti suvlarining yer yuzasiga ko'tarilib chiqishi bilan tushintirish mumkin. Bunday sharoitda gruntlarning yuza qatlamlarida tuz miqdorini oshishi kuzatiladi.

Sho'rlangan gruntlarga suv uzoq vaqt davomida ta'sir qilganida, ularning sho'rlanish darajasi va mexanik tavsiflarining o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish va prognoz qilish uchun suglinkali va supesli na'munalardan foydalanilgan.

Tajribalar natijasida tabiiy tuzilgan supes va suglinkali gruntlarning zichlik ( $\rho$ ,  $\rho_d$ ,  $\rho_s$ ), namlik ( $w$ ), mustahkamlik va deformatsiya ( $S$ ,  $\varphi$ ,  $E$ ) tavsiflari aniqlangan. Shuningdek, granulometrik, mikroagregat, kimyoviy (engil eruvchi tuzlar, gips miqdori, kalsiy) va mineral tarkibi o'rganilgan.

Gruntlarda tuzlarning paydo bo'lishi tog' jinslarining erishi va kimyoviy nurash jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, bunga minerallar tashkil etuvchilarining - tuz eritmalariga o'tishi sabab bo'ladi. Tuzli eritmalar cho'kindi jinslar, gruntlar va yer usti suvlarida harakatlanib, tuzlarning ikkilamchi to'planishini hosil qiladi. Bundan tashqari, tuzlar gruntlarda, vulqonlar otilganda, atmosferaga korxonalarining chiqindilari chiqarib tashlanganda, shuning-

dek, boshqa texnogen omillar ta'sir qilganda kelib chiqishi mumkin.

Dengiz cho'kindilarida tuzning to'planishi va gruntlarda kontinental tuz to'planishi bilan farqlanadi. Ushbu cho'kindilarda oson eruvchan tuzlarning maksimal miqdori 5-8% dan oshmaydi. Quriyotgan dengiz ko'rfazlari va kontinental dengizlar bundan mustasno, ulardagi cho'kindilarda 15-20% gacha oson va qiyin eruvchan tuzlar hosil bo'ladi.

Qurg'oqchil iqlim va gruntlardagi namlik muvozanati holatida kontinental tuzlarning to'planishi mintaqaviy bo'lgan hududlar uchun xos bo'lib, bunda bug'lanadigan namlik miqdori yog'adigan atmosfera yog'inlari miqdoridan ko'p bo'ladi. Bunday sharoitlarda sho'rlangan gruntlar hosil bo'lishi yer osti suvlarining kapillyar ko'tariladigan zonasida o'ta to'yingan bo'ladi, grunt g'ovakliklaridagi eritmalar bug'langanda, ulardan tuz kristallari ajralib chiqishi natijasida yuz beradi.

Tuzlarning yuvilishi bilan bog'liq gidrotexnik va meliorativ inshootlarning deformatsiyalari bir necha marta kuzatilgan. Sho'rlangan gruntlarning qurilishga oid xossalarni xar tomonlama o'rganish natijalari, kelgusidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi, bino va inshootlarning deformatsiyalanish bilan bog'liq hodisalari keltirildi.

Arid va yarim arid zonalarida, jumladan, qishloq xo'jaligi bo'yicha o'zlashtirish uchun yaramaydigan hududlarda qurilish hajmi oshganligi munosabati bilan sho'rlangan gruntlar ustida qurilgan fuqoro va sanoat bino va inshootlarining deformatsiyalangan holatlari ko'p kuzatildi. Ko'pincha bunday deformatsiyalar sho'rlangan hududli maydonlarda, tarkibida gips bo'lgan va gilli gruntlarda kuzatiladi.

Aniqlangan natijalardan ko'rinadiki, deformatsiyalar, cho'kishlar, siljishlar tarkibida oson eruvchan tuzlar va gips bo'lgan gruntlar ustiga qurilgan bino va inshootlarda bo'lishi mumkin. Ammo ma'lum bo'lgan avariya (halokat) holati, jumladan, o'ziga hos xususiyatga ega bo'lgan deformatsiyalar va cho'kishlar gips miqdori yuqori bo'lgan gipslangan gilli gruntlar ustidagi qurilishlarda kuzatildi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar bo'yicha, inshootlarning umumiy xususiyatga ega deformatsiyalarini keltirib chiqaruvchi sabablari batafsil ko'rib chiqiladi. Olib borilgan tadqiqot material-

lariga ko'ra, tabiiy sharoitlarda yengil-quruq holatda bo'lgan gruntlar biroz siqiluvchan va o'ta mustahkam bo'ladi. Gruntlarning qisqa muddatdagi holatida suvga to'yinishi ko'p hollarda ularning fizik-mexanik xossalarini biroz o'zgarishiga olib keladi. Uzoq muddat namlanganda esa, grunt hossalarning o'zgarish ehtimoli hisobga olinmagan. Shu bilan birga, sanoat va fuqaro, bino va inshootlaridan foydalanilganda ularning asosidagi gruntlar amalda uzoq vaqt va jadal namlanmaydi deb hisoblangan. Ko'p hollardagi tadqiqotlarda shuningdek, poydevorlar, inshootlarning yer osti qismlari va quvurlarning materiallariga nisbatan gruntlar va yer osti suvlarining agressivlik ta'siri hisobga olinmagan.

Deformatsiyalangan bino va inshootlar tekshirilganda qurilish ishlarining jumladan, nishab yo'lklarini qurish, uchastkalar yuzasini rejalash, quvurlar tutashgan joylarning sifati past deb baholandi.

Bino va inshootlardan foydalanish jaranyoida yer osti kommunikatsiyalaridan doimiy va nazorsiz suv sizishlari, inshoot asosiga yomg'ir suvlari oqib tushishi, daraxtzorlarni betartib sug'orish holatlari kuzatildi. Gruntlarning doimiy namlanishi nafaqat asosning cho'kishi va suffoziyali cho'kish rivojlanishiga, balki kommunikatsiyalarning zanglashiga olib keldi, natijada gruntga kelib tushadigan suv miqdori mutassil ortib bordi.

Deformatsiyalangan binolarni kuzatishdan ma'lum bo'ldiki, gilli gruntlardagi gips miqdori 30-40% dan yuqori bo'lganda gruntning cho'kishi va suffoziyali cho'kislari, demakki, inshootning deformatsiyalari dastlabki 1-2-yillarda yuzaga keladi, keyin esa vaqt o'tib ortib boradi va 10-20 yil davomida rivojlanishi mumkin. Bunda bino va inshootlar konstruksiyasi elementlarining vertikal surilishi 30 sm va undan ko'pga yetadi. Gilli gruntlarda gips miqdori 30% dan kam bo'lganda deformatsiyaning birinchi belgilari (bino devorlaridagi darzlar, nishab yo'lklar va piyodalar yo'lklarining cho'kishi, kommunikatsiyalarning uzilishi) bino va inshootlar 50-100 yil ekspluatatsiya qilingandan keyin paydo bo'ladi, konstruksiya elementlari vertikal surilishidagi maksimal farq esa 15-20 yil foydalanilgandan keyin, odatda, 10-15 sm dan oshmaydi (asos doimo ishlatilib turgan sharoitda).

**Muhokama.** Sho'rlangan gruntlarning fizik xossalari qattiq holatda bo'lgan va g'ovaklar ichidagi suvda erigan tuzlarning turi va miqdoriga, shuningdek, zarralarning dispersligi va gidratatsiya darajasini belgilovchi almashuv kationlarining yutilish sig'imi va tarkibiga bog'liq.

Gipslangan supes va suglinoklarda, ayniqsa, gips 10% dan ko'p bo'lsa, oson eruvchan tuzlar miqdori 2% dan oshmaydi. Yutilish sig'imi kam, shu sababli oson eruvchan tuzlar va almashuv kompleks shu gruntlarining fizik va strukturaviy-mexanik xossalari shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Gipslangan gruntlarning kristallanish sementlanish bog'liqliklari va hossalari, asosan, gipsli tashkil etuvchi bilan aniqlanadi.

Suvga to'yingan gruntlarda oson eruvchan tuzlar, odatda, to'liq suyuq fazada (g'ovaklar ichidagi eritmada) bo'ladi, bunda ularning miqdori 450 g/l va undan yuqori bo'ladi. Namlik past bo'lgan arid zonada oson eruvchan tuzlar qattiq (kristall) fazada bo'ladi. G'ovaklar ichidagi suvda erigan tuzlar gil zarralarining koagulyasiyasiga yordam beradi, shuning uchun, sho'rlangan gruntlarda  $<0,005$  mm fraksiyalar agressiv holatda bo'ladi. Oson eruvchan tuzlar hosil qilgan sementli bog'lanishlar suvga chidamli bo'lib, grunt qatlamini qisqa muddat suv bosganda yemirilishi mumkin.

Aytib o'tilganlarni hisobga olgan holda mavjud suvda eriydigan tuzlarning tarkibi va miqdoriga ko'ra, gruntlarning fizik va filtrlanish xossalari o'zgarishining asosiy qonuniyatlarini ko'rib chiqiladi.

Gruntlarning gil-kolloid fraksiyalari eritmalarining tarkibi va miqdori o'zgarishiga juda sezgir. Mavjud tuzlarning turiga ko'ra zarralar ajralishi (dispersatsiya) va birlashishi yuz beradi. Gruntlardagi almashuv jarayonlari asosan, ionlar  $\text{Na}^+$  (dispersator) va  $\text{Ca}^{2+}$  (koagulyator) miqdori bilan aniqlanadi. Grunt zarralarining disperslanishiga yordam beradigan natriyni yutganda, gidrofil bo'lib qoladi, uning suvni tutib qolish qobiliyati ko'pchishi, plastikli, yopishqoqligi, chiziqli cho'kishi, maksimal molekulyar namlik sig'imi, suvo'tkazuvchanligi ortadi. Gruntlarda bo'lgan teskari o'zgarishlar natriy ionlari kalsiy ionlari bilan, ayniqsa, vodorod ioni bilan aralashganda kuzatiladi.

Oson eruvchan tuzlar miqdori oshganda grunt zarralarining zichligi -  $\rho_s$  kamayadi, bunda  $\rho_s$  ning o'zgarishi nisbatan kichikroq diapazonda namoyon bo'ladi hamda tuzlarning tarkibiga va sho'rlanish

darajasiga bog'liq bo'ladi. Suyuq fazada bo'lgan oson eruvchan tuzlar gruntning g'ovakligi va zichligiga ta'sir qiladi. NaCl, Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, MgSO<sub>4</sub> va CaCl<sub>2</sub> eritmaları kiritilganda gruntning zichligi ortadi. Oson eruvchan tuz kristallari (ayniqsa, Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> · 10H<sub>2</sub>O va MgSO<sub>4</sub> · 7H<sub>2</sub>O kristallogidratlar) borligi gruntni zichligi va bog'langanligi kamayishiga olib keladi va filtrlash qobiliyatini oshiradi.

Umuman grunda natriy tuzlar bo'lganda gruntni zichligi ortadi, bu tabiiy agregatlar o'z-o'zidan disperslanishi va strukturaviy elementlar zich joylashishi bilan bog'liq.

Cho'kishdan keyingi (suffoziyali) deformatsiyalarning belgilangan katta qiymatlarida o'zgarib turishini gruntni vaqt bo'yicha deformatsiyalanish jarayoni murakkabligi bilan izohlash mumkin. Cho'kishdan keyingi (suffoziyali) deformatsiyalar rivojlanishining miqdoriy qonuniyati va sifat xususiyati bir qator parametrlarga bog'liq. Ularning asosiylari quyidagilar: gruntning genetik, mikeralogik va struktura xususiyatlari, tuzlarning boshlang'ich miqdori va sifat tarkibi, gruntning granulometrik tarkibi (plastikligi) zichligi (g'ovakligi), filtrlash qobiliyati, suvning tarkibi va shimish sharoitlari, gruntning tuzsizlanish darajasi, ta'sir qiluvchi bosim.

Deformatsiya bo'yicha asoslarni hisoblash (ikkinchi chegaraviy holat bo'yicha) quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- Suv yoki eritmaning filtratsiyasi natijasida gipsning grunt massasidan erishi va ishqorlanishi yuz beradi.
- Gips ishqorlanishi mumkin bo'lgan hudud (ishqorlanish hududi) uzunligi gipsning filtrlanayotgan suyuqlik bilan to'yinishi sharoiti bilan chegaralangan.
- Filtrlash sharoitida ishqorlanish hududi kengayadi, ya'ni filtratsiya oqimi yo'nalishi bo'yicha uning uzunligi oshadi va grunt tarkibidagi gips miqdori kamayadi.
- Asosning suffozion deformatsiyasi ishqorlanish hududi atrofida yuzaga keladi va hudud kengayishi bilan rivojlanadi.


Asos deformatsiyasini hisoblashda poydevor asosidagi suv oqimining filtratsiya sxemasini hisobga olish kerak (1-rasm):

1-sxema: cheksizlikdagi birtekis vertikal filtratsiya (poydevorning ostining hammasi va

uning atrofini bir vaqtda va bir tekis namlanishi natijasida yuzaga keladi);

2-sxema: chegaralangan qalinlikdagi qatlamda gorizontall filtratsiya (nisbatan suv o'tkazmaydigan qatlam ustida yotgan sho'rlangan grunt qatlami bo'lganda yuzaga keladi);

3-sxema: joylardagi manbalardan namlanishdan filtratsiya (poydevor asosining qisman namlanishidan yuzaga keladi).



**1-rasm. Poydevor asosining namlanish sxemasi:**

*I - cheksizlikdagi bir tekis vertikal filtratsiya; II - chegaralangan qalinlikdagi qatlamda gorizontall filtratsiya; III - joylardagi manbaalardan namlanishdan filtratsiya.*

**Xulosa.** Yer osti suvlarining ta'siri faqat mahalliy sho'rlanish bilan tavsiflangan va sho'rlangan bo'lmagan gruntni bilan o'ralgan hududlarga ta'sir qilish mumkin.

Maqsadga ko'ra oqimni to'xtatuvchi yoki sekinlashtiruvchi filtrga qarshi himoyalar, silikat, bitum, gilli, sement, gruntni sement va boshqalar bo'lishi mumkin.

Ba'zida himoya vositalari, yupqa betondan tayyorlanadi, lekin bu holda yuzaning suvga chidamligini yo'qotishga olib keladigan yoriqlar paydo bo'lish xavfi mavjud. Bundan tashqari, sho'rlangan gruntni beton himoya vositalarini o'rnatishda betonni suvning agressiv ta'siridan himoya qilish muommasi paydo bo'ladi.

Filtratsiyaga qarshi himoya vositalarini o'rnatish chuqurligi, ayniqsa, "gruntdagi devor" usulini qurilish amaliyotiga keng joriy etish bilan birga handaqlarni qurish ko'pincha katta miqdordagi suvdan foydalanish bilan birga bo'lishini hisobga olish kerak. Shuning uchun, sho'rlangan gruntni qurilishda ba'zan samaraliroq mexanizmlardan voz kechish (gidravlik frezlash mashinasi, yuqori bosimli reaktiv, suv osti burg'ulash moslamasi bo'lgan dastgohlar) va unumdorligi past bo'lgan tutqichli qurilmalardan foydalanish kerak. Devorlarning yaxshi barqarorligi tufayli, gipsli sho'rlangan gruntni handaqlarni qurish beton yoki boshqa eritmalaridan foydalanmasdan amalda

oshirilishi mumkin. Filtrga qarshi himoya vositalarini o'rnatish chuqurligi ko'p jihatdan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik va gidrogeologik sharoitlariga bog'liq. Gruntning yuqori darajada sho'rlanishi va taglik tuzilishda doimiy filtrlash oqimi mavjud, filtrlash oqimini tuzlar bilan su'niy ravishda to'yintirish orqali suvning erituvchi quvvatini kamaytirish usulidan ham foydalanish mumkin.

Yer osti suvlari darajasini pasaytirish va filtrlash oqimini ushlab turish uchun har xil turdagi drenajlarni tashkil qilish tavsiya etiladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, sho'rlangan gruntlarni quritishdan so'ng sirdan yoki mahalliy namlash manbalaridan suv strukturaning ostiga kirmasligi kerak. Aks holda, drenajdan keyin kelajakda (asosni namlash natijasida) gruntning tuzsizlantirish va suffoziya deformatsiyalarining rivojlanishi mumkin. Kichik qalinlikdagi gipsli blokli gruntlarda inshootlarni qurishda sho'rlangan gruntning qalinligi bo'yicha kesish, tuzsiz gruntlarga poydevor o'rnatish, gipsli gruntlarni boshqa grunt bilan almashirish va konstruktiv choralarni ko'rish tavsiya etiladi.

Agar baza katta qalinlikda ega bo'lgan katta blokli gruntlardan iborat bo'lsa, suvni himoya qilish va konstruktiv choralar, shuningdek, grunt tagligi qurilmasini qo'llash tavsiya etiladi. Shunday qilib, grunt da karbonat kalsiy miqdori 5% dan kam bo'lganda, u hisobga olinmaydi, 5% dan 25% gacha bo'lganda esa grunt ohaklashgan deb ataladi. Odatda karbonatlarning katta miqdori kelib chiqishi har xil bo'lgan changsimon gruntli gruntlarda bo'ladi.

Grunt tuzlari suv va boshqa eritmalar tasirida erib, grunt ichida yoyilib ketishi mumkin. Grunt dan eriydigan tuzlar chiqib ketishi miqdor yoki tuzning yuvilishi yoki kimyoviy suffoziya deb ataladi. Aktiv ishqor yuvilishidan oldin gruntlardagi tuzlarning erishi yoki yutilgan holatdan eritmaga o'tish jarayoni yuz beradi. Bunday jarayonlar o'zaro bog'langan, ya'ni tuzlarning erishi va eritmaga o'tishi ularni grunt dan chiqib ketishini oldindan belgilaydi.

Grunt dan tuzlarning chuchuk suv bilan yuvilish tezligi namlik ko'pchilik xususiyatiga bog'liq bo'lib, u filtrlash koefitsientining miqdori bilan nazorat qilinadi: konvektiv namlik ko'chishida (filtrlanishda) tuzning yuvilish tezligi maksimal bo'ladi. Bunday holat filtrlash koefitsiyenti

taxminan  $10^{-3}$  m/sutka napor gradienti  $10^{-6}$  m/sutka atrofida bo'lganda kuzatilishi mumkin.

Suv o'tkazuvchanlikning kichik qiymatlarida tuzlarning yuvilish aksari diffuziyali bino va inshootlar bilan ro'y beradi va sekin kechadi.

Grunt dagi tuzlarning yuvilishi shuningdek grunt orqali harakatlanayotgan suvdagi tuzlarning tarkibi va miqdori bilan ham nazorat qilinadi: tarkibidagi tuz miqdori grunt dagedek bo'lgan to'yingan eritma grunt orqali harakatlanganda grunt dagi tuzlar erimaydi. Shu sababli sho'rlangan grunt ga tushgan chuchuk suv muayyan masofani o'tib, tuzlar bilan to'yinadi va erituvchi hususiyatini yo'qotadi. Grunt ga faqatgina yangi miqdordagi chuchuk suv tushganda tuzlarni aktiv eritishi va chiqarib tashlashi mumkin. Grunt ga tuzlarning shuningdek, kislota va ishqorlarning muayyan eritmaları ta'sir qilganda grunt dan nafaqat kuchsiz va o'rtacha eruvchan, balki qiyin eruvchan tuzlarni ham to'liq butunlay chiqarib tashlash mumkin.

Sho'rlangan gruntli grunt ga chuchuk suvlar uzoq vaqt ta'sir qilishi natijasida kuchli va o'rtacha eruvchan tuzlardan (xloridlar sulfatlar) tashqari kuchsiz eruvchan birikmalar (karbonatlar, qum-grunt, temir oksidlari) ham chiqib ketadi. Ular grunt larning tabiiy sementlari bo'lib ularning mustahkamlik va deformatsiya hususiyatlarini belgilaydi. Shuning uchun bunday tabiiy sementlarni ketkazish yoki kuchsizlantirish grunt larning tarkibi va strukturasi o'zgartiradi va xossalari o'zgarishini belgilaydi.

Grunt dagi tuzlarning nisbatan bir xil taqsimlanishi va yer osti suvlarning yuqori darajasi bilan nomukammal pardani yer osti suvlari darajasiga yetkazish tavsiya etiladi. Boshqa hollarda, chuqurlikka keltiriladi, unda qo'shimcha vertikal bosimlar  $\sigma_{z\rho}$  dastlabki cho'kish bosimi  $\rho_{sl}$  va suffoziya siqilishning dastlabki bosimi  $\rho_{sf}$  kam bo'ladi [8,9].

Tadqiqot o'tkazilgan hududlarda, asosan allyuvial-prolyuvial gruntlar tarqalgan bo'lib, ularning sho'rlanish miqdori qumlarda 1,2% dan 1,8% gacha, supeslarda 1,5% dan 15,8% gacha, suglinkalarda 2,4% dan 18,5% gacha, gillarda 1,25% dan 5,8% gacha o'zgaruvchanligi aniqlandi. Grunt suvlarining sathi 1,2-2,8 metr chuqurlikda joylashgan. Ular ta'sirida bino va inshootlar asosining mustahkamlik ko'rsatkichlari 20 dan 50% gacha kamayadi.


Qiyin eriydigan tuzli, xususan, gipsli shoʻrlangan gruntlardan suv 12 oydan 24 oygacha boʻlgan vaqt davomida sizib oʻtganda, ularning mustahkamlik qiymatlari va ulardagi tuzlar miqdori, yaʼni shoʻrlanish darajasi 70-80% ga kamayadi, bu esa oʻz navbatida bino va inshootlarning asosini turgʻunligining pasayishga va choʻkishiga olib keladi.

Shoʻrlangan gruntlarning ishqorini yuvish va suvning uzoq vaqt taʼsir etishi natijasida hisoblanadigan shartli qarshilikning 1,2-1,6 barobar kamayishi va bunday sharoitlarda poydevorning qoʻshimcha choʻkishi 1,5-2,0 barobarga ortishi mumkin ekanligi baholandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Zafarov O., Gʻulomov D., Murodov Z. Conducting engineering-geological researches on bridges located in our country and diagnosing their super structures, methods of eliminating identified defects //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
2. Bobojonov R., Zafarov O., Yusupov J. Soil composition in the construction of engineering structures, their classification, assessment of the impact of mechanical properties of soils on the structure //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
3. Maxkamov Z. et al. Conducting engineering and geological research on the design and construction of buildings and structures in saline areas //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
4. Kayumov A., Zafarov O., Kayumov D. Changes of mechanical properties in humidification saline soil based in builds and constructions //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
5. Hudaykulov R. et al. Filter leaching of salt soils of automobile roads //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 264. – C. 02032.
6. Maslov N. N. Fundamentals of engineering geology and soil mechanics. Textbook for high schools. –M.: Higher School, 1982.- 511 p.
7. Dmitriev V.V., Yarg L.A. Methods and quality of laboratory study of soils: textbook / V.V. Dmitriev, L.A. Yarg. –M.: KDU, 2008. - 502 p.
8. Trofimov V. T., Koroleva V. A. Laboratory work on soil science. –M.: KDU, University book, 2017. - 654 p.
9. Trofimov V. T. et al. Ground science. –M., Publishing House of Moscow State University, 2005. - 1024 p.
10. Muzaffarov A. A., Fanarev P. A. Engineering and geological support for the construction of highways, airfields and special structures. Tutorial. M.: MADI, 2016. -180 p.

UO‘K: 543.42:546.92

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.6

**DEAMGO ERITMASI YORDAMIDA METALLARNI AMPEROMETRIK  
ANIQLASHDA INERT ERITUVCHILAR TABIATI VA  
KONSENTRATSIYASINING O‘RGANILADIGAN ERITMALARNING  
ELEKTRO‘TKAZUVCHANLIGIGA TA’SIRI**



**Safarova Guljaxon Eshtemirovna**

*k.f.f.d.(PhD), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot intinuti, Qarshi, O‘zbekiston  
E-mail: gsafarova990@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotdan maqsad tabiiy obyektlar va sanoat materiallari tarkibidagi palladiy (II), kumush (I) va simob (II) ionlari miqdorini dietilamino-4-metilgeksin-2-ol-4 (DEAMGO) eritmasi bilan suvsiz va aralash muhitlarda amperometrik titrlash uslublarini ishlab chiqish va sharoitlarini optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqot davomida aniqlangan xususiyatlar va fon elektrolitlar, inert erituvchilar, kislotalar va boshqa omillarning tabiati va konsentratsiyasini dietilamino-4-metilgeksin-2-ol-4 eritmasi eritmasi yordamida palladiy (II), kumush (I) va simob (II) metallarini suvsiz amperometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish va sharoitlarini optimallashtirishda inert erituvchilarni tabiati va konsentratsiyasini o‘rganiladigan eritmalarning elektro‘tkazuvchanligiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

Suvsiz va aralash muhitlarning elektro‘tkazuvchanligini aniqlash orqali amperometrik, potensiometrik, konduktometrik va boshqa titrlashlarni o‘tkazish mumkin, chunki to‘g‘ri va qayta tiklanadigan natijalarni olish suvsiz va aralash eritmalarning tabiatiga bog‘liq. Shuning uchun tabiati turlicha bo‘lgan metallarning tuzlarini tutgan bunday muhitlarning elektro‘tkazuvchanligini o‘rnatish zamonaviy fizik, analitik va elektrokimyoning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** dietilamino-4-metilgeksin-2-ol-4, palladiy(II), kumush(I), simob(II), metall, inert erituvchi, elektro‘tkazuvchanlik, titrlash, fon elektrolitlar, amperometrik.

**ВЛИЯНИЕ ПРИРОДЫ И КОНЦЕНТРАЦИИ ИНЕРТНЫХ  
РАСТВОРИТЕЛЕЙ НА ЭЛЕКТРОПРОВОДНОСТЬ ИССЛЕДОВАННЫХ  
РАСТВОРОВ ПРИ АМПЕРОМЕТРИЧЕСКОМ ОПРЕДЕЛЕНИИ  
МЕТАЛЛОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАСТВОРА ДЕАМГО**

**Сафарова Гулжахон Эштемировна**

*(PhD), Қаршинский инженерно-экономический институт, Қарши, Узбекистан*

**Аннотация.** Целью данного исследования является определение количества ионов палладия(II), серебра(I) и ртути(II) в природных объектах и промышленных материалах с помощью раствора диэтиламино-4-метилгексин-2-ол-4 (ДЕАМГО). в безводных и смешанных средах разработка методов титрования и оптимизация условий.

*Природу и концентрацию фоновых электролитов, инертных растворителей, кислот и других факторов определяют в ходе исследования амперометрическим определением металлов палладия(II), серебра(I) и ртути(II) без воды с использованием диэтиламино-4-метилгексин-2-ола. -4 решения при разработке методов и оптимизации условий проведены исследования по влиянию природы и концентрации инертных растворителей на электропроводность исследуемых растворов.*

*Амперометрическое, потенциометрическое, кондуктометрическое и другие титрование можно проводить путем определения электропроводности безводных и смешанных сред, поскольку получение точных и воспроизводимых результатов зависит от природы безводных и смешанных растворов. Поэтому установление электропроводности таких сред, содержащих соли металлов различной природы, является одной из актуальных задач современной физики, анализа и электрохимии.*

**Ключевые слова:** *диэтиламино-4-метилгексин-2-ол-4, палладий(II), серебро(I), ртуть(II), металл, инертный растворитель, электропроводность, титрование, фоновый электролит, амперометрический.*

## **INFLUENCE OF THE NATURE AND CONCENTRATION OF INERT SOLVENTS ON THE ELECTRICAL CONDUCTIVITY OF THE STUDIED SOLUTIONS IN THE AMPEROMETRIC DETERMINATION OF METALS USING DEAMGO SOLUTION**

*Safarova Guljakhon Eshtemirovna*

*PhD, Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan*

**Abstract.** *The aim of this study is to determine the amount of palladium(II), silver(I) and mercury(II) ions in natural objects and industrial materials using a solution of diethylamino-4-methylhexin-2-ol-4 (DEAMGO) in anhydrous and mixed media, develop titration methods and optimize conditions.*

*The nature and concentration of background electrolytes, inert solvents, acids and other factors are determined in the course of the study by amperometric determination of the metals palladium(II), silver(I) and mercury(II) without water using diethylamino-4-methylhexyn-2-ol. -4 solutions in the development of methods and optimization of conditions, studies were conducted on the influence of the nature and concentration of inert solvents on the electrical conductivity of the solutions under study.*

*Amperometric, potentiometric, conductometric and other titrations can be carried out by determining the electrical conductivity of anhydrous and mixed media, since obtaining accurate and reproducible results depends on the nature of anhydrous and mixed solutions. Therefore, establishing the electrical conductivity of such media containing metal salts of various natures is one of the urgent problems of modern physics, analysis and electrochemistry.*

**Keywords:** *diethylamino-4-methylhexyn-2-ol-4, palladium(II), silver(I), mercury(II), metal, inert solvent, electrical conductivity, titration, background electrolyte, amperometric.*

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda atrof muhitni muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda turli sanoat korxonalarining chiqindilari, oqova suvlar, tabiiy hamda texnogen obyektlar tarkibidagi rangli va nodir metallar ionlari miqdorini aniqlashda elektrokimyoviy titrlash usullari keng qo'llanilmoqda. Shunga ko'ra, rangli va nodir metallar ionlarini ichki kompleks birikmalar shaklida

elektrokimyoviy aniqlashning selektiv, tezkor, usullarini ishlab chiqish uchun yangi kompleks hosil qiluvchi organik reagentlarni sintez qilish va ularning elektrokimyoviy, fizik-kimyoviy, kislota-asosli xossalari aniqlash, hamda organik reagentlarning qimmatli analitik xossalarga ega bo'lgan yangi hosilalarini olish, ulardan analitik usul uchun eng maqbullarini tanlash va ularning analitik usul-

larda qo'llanilish sohasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot materiallari va uslubi.** Mualliflar taklif qilgan usullarda, Tahlilning elektrokimyoviy usullarida platina metallarini 8,8-dixinolindisulfid-da (DXLDS) ishlatish imkoniyati ko'rsatib berilgan (kumush va oltin). Platina (IV), palladiy (II), kumush va oltin (III) RS-SR yordamida cho'kmaga tushgan, bunda protofil erituvchilarda sariq va qizil kam eruvchan cho'kmalar va protogen muhitlarda yaxshi eriydigan, aralash ligandli kompleks birikmalar hosil qilishi o'rganilgan.

Ayniqsa asetonitrilli muhitlarda reaksiyalar tez va miqdoriy sodir bo'lgan. E.n. belgilash uchun mualliflar bir indikatorli elektrodli amperometrik usulni eng qulay deb hisoblashgan. Titrlash vaqtida indikatorli elektrodlariga beriladigan kuchlanish 0–0,1V (to'y.k.e.) diapazonda bo'lgan. Kompleksdagi komponentlarning nisbati har doim metall:reagent - 1:2 bo'lgan. O'rganilgan metallarning aniqlanadigan minimumi 30 ml tahlil qilindigan namunada 0,8 mg teng bo'lgan, nisbiy standart chetlanish 0,04 dan oshmagan. Platina, kumush va palladiy DXLDS eritmasi yordamida elektrokimyoviy aniqlash yuqori tanlab ta'sir etuvchanlik bilan farq qilgan: aniqlashga nikel, kobalt, kadmiy, rux, mis, iridiy, ruteniy, osmiy ionlari xalaqit bermasligi o'rganilgan. Mishyak (III), surma (II), kumush (I) va palladiy (II) ionlarini amperometrik aniqlash uchun titrlanadigan reagent sifatida morfolin-4-karbodionat (MFKDT) tavsiya qilingan [1; B. 501–510.]. Depolyarizator organik muhitlarda aniq ifodalangan diffuzion, bir elektronli qaytar anodli to'lqin berishi isbotlangan, u potensialning keng sohasini egallab olgan -0,2 dan +0,3V (to'y.k.e.). Reagentning oksidlanishini anodli tokini uning konsentratsiyasiga bog'liqligi aniqlangan va uning tahlil qilindigan eritmada chiziq-li xarakteri ko'rsatib berilgan (25 ml).

Dastlabki tajriba natijalariga ko'ra, berilgan reagentning eritmasi bilan kumush (I) va palladiy (II) ionlarini aniqlashda metall komplekslarining komponentlarini tegishli cho'kma hosil qilib ta'sirlashishi o'rganib chiqilgan. Berilgan tashqi potensial: mishyak (III) uchun -0,2V; surma (III) uchun -0,1V va palladiy (II) uchun -0,15V bu metallarni qaytarilishiga yo'l qo'ymasligi isbotlangan, biroq reagentni simob tomchili elektrodda to'liq oksidlanishini ta'minlashi isbotlangan.

Organik erituvchilarni (propanol-2, aseton, etanol va b.) tabiati va konsentratsiyasini konsentratsiyalarning 1:1 nisbatida ta'siri o'rganilgan, ekvivalent nuqtada u katalitik ta'sirni to'liq yo'qotishi o'rganilgan. Sulfat, xlorid va nitrat kislotalar sinalgan; faqat sulfat kislota ta'sirida katalitik ta'sir kuzatilgan, u adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga to'liq javob bergan. Au (III) konsentratsiyasini  $5,0 \cdot 10^{-4}$  dan  $2,5 \cdot 10^{-2}$ M gacha ko'payishi e.n.dagi signalni o'zgarishini oshirgan, biroq uning keyingi ko'payishlari (0,1M gacha) ingibirlovchi ta'siri tufayli, analitik signalni kamaytirishi isbotlangan, bu adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga mos kelgan. Optimal konsentratsiyalar – 0,005M Ag uchun, 0,02M va 0,01M – Pd va Hg uchun. Tajribalar ko'rsatishicha, barcha o'rganilgan elektrodlardan foydalanish mumkinligi, biroq grafitli va shishauglerodli elektrodlardan nodir metallarni ATda foydalanish afzalroqligi o'rganilgan. Xuddi shu sababli, Pd, Hg va oz miqdordagi Ag ni aniqlashda grafit elektrodlar tanlab olingan. Barcha ishlab chiqilgan usullardan foydalansa bo'lishi o'rganilgan, katod-qutbli elektrod ishtirokida AT boshqa fizik-kimyoviy va fizik usullarga qaraganda samarali emasligi isbotlangan. [2; B. 928-931. 3; B. 394. 4; B. 14-16].

Adabiyotlar sharhining taklif qilinayotgan bo'limida simob (II) ni tabiati turlicha bo'lgan reagentlarning eritmaları bilan suvsiz va aralash muhitlarda amperometrik usul yordamida aniqlashga bag'ishlangan dunyo adabiyotlarida berilgan ishlar tahlili keltirilgan [5; c.12-15. 6; c. 128. 7; B. 8-64. 8; B. 322-326. 9; B. 693-698] ishda simob (I) va simob (II) ionlarini 8-merkaptoksinolinning muli sirka kislota eritmasida AT va fotometrik aniqlash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan va optimal sharoitlari topilgan. Ishlab chiqilgan usullar real obyektlarni imitirlovchi model aralashmalarda sinalgan. Simob miqdorlarini aniqlashning 5-500 mkg sohada yotgan diapazonlari o'rnatilgan, bir martalik titrlash vaqti 35-40 min. bo'lishi, hamda barcha holatlarda nisbiy standart chetlanish 0,058 dan oshmasligi isbotlangan.

**Tahlil va natijalar.** Bu parametrlarni suvsiz eritmalarining elektro'tkazuvchanligiga ta'sir etish masalasi juda muhim, chunki suvsiz protolitik muhitlarning va ularning inert erituvchilar bilan aralashmalarining umumiy suratiga tabiati va konsentratsiyalari kuchli ta'sir qiladi. Ma'lumki, barcha

inert erituvchilar protolitik muhitlarga nisbatan yuqori solishtirma qarshiligi va turli dielektrik konstantalari bilan farq qiladi, bu ma'lumot ikki turdagi ta'sirlashuvlarning namoyon bo'lishi bilan tushuntiriladi: kuchli qutbli muhitda–uzoq ta'sir etuvchi effekt, kuchsiz qutblida–erituvchi molekulasining ion–dipol qisqa ta'sir qiluvchi ta'siri.

O'rganilgan protolitik muhitlarda inert erituvchilarning konsentratsiyalari 5-70 hajm.% da bo'ladi. Olingan ma'lumotlardan ba'zilar 4.1 va 4.2-jadvallarda keltirilgan, ularga ko'ra xulosa qilish mumkinki, tabiatiga ko'ra har xil bo'lgan inert aproton erituvchilarning qo'shimchalari barcha o'rganiladigan tizimlarning elektr o'tkazuvchanligiga adekvat ta'sir qilmaydi. Odatda, suvsiz va aralash eritmalarning elektrokimyosi va fizikaviy kimyo-

sida o'rinli bo'lgan barcha qonuniyatlar va korrelatsiyalarga rioya qilinadi.

Ma'lumki [10; B. 145-147], elektro'tkazuvchanlik hodisasi eritmalarning fizik kimyosi nazariyalarining eng murakkab masalalaridan biriga tegishli, chunki bunda muvozanatsiz xolat bilan to'qnash kelamiz, bu xolatga termodinamikaning umumiy qonunlarini joriy qilib bo'lmaydi. Termodinamik muvozanatda bo'lgan eritmada odatda har qanday ion qarama qarshi zaryadli ionlardan tashkil topgan ion atmosfera bilan o'ralgan. Biroq, eritmaga tashqi elektr maydoni qo'yilganda ion atmosferani va muvozanatli xolatni buzadigan kuchlar paydo bo'ladi, bunda ion atmosferani hosil bo'lishi uchun biroz vaqt kerak bo'ladi.

1-jadval

**Inert erituvchilarni 4 ml 0,25 M  $SN_3SOOK$  eritma tutgan sirka kislotali eritmalarning elektr o'tkazuvchanligiga ta'siri**

( $V_{um}$  tahlil qilinadigan eritma – 20 ml, harorat – xona harorati)

CH <sub>3</sub> COOH	Toluol			Dioksan			Geksan		
V, ml	V, ml	Rx	-lg $\chi$	V, ml	Rx	-lg $\chi$	V, ml	Rx	-lg $\chi$
16	–	950	2,98	–	950	2,98	–	1000	2,98
15	1	1005	3,00	1	4250	3,62	1	1100	3,04
14	2	1015	3,01	2	6780	3,83	2	1150	3,06
13	3	1250	3,10	3	7230	3,86	3	1210	3,08
12	4	1350	3,13	4	7550	3,88	4	1280	3,10
11	5	1450	3,16	5	7700	3,89	5	1300	3,11
10	6	1550	3,19	6	7890	3,90	6	1360	3,13
9	7	1700	3,23	7	8840	3,95	7	1470	3,17
8	8	1900	3,28	8	10850	4,03	8	1690	3,23
**Аннотация.** В системах сушки сельскохозяйственной продукции, применяемых в мировой практике, энергопотребление высокое, удельный расход энергии на приготовление сушеного готового продукта составляет  $2,7\div 7,4$  kVt-soat/kg. Чтобы избежать дефицита энергии на земле, необходимо будет развивать возобновляемые источники энергии. Результаты проведенного испытательного эксперимента показывают, что в гелиосушилках в виде шкафа плоды и растения защищены от разного рода пыли, загрязнений. В зависимости от вида лекарственных растений для сушки настоянных плодов, существуют различные способы изменения температуры внутри шкафа. температура внутри  $+65\dots+75^{\circ}$  C превышение температуры как еще один важный инструмент из методов стабилизации (понижения) температуры, температура внутри коллектора и шкафа может быть снижена аэродинамическими средствами. Также с целью сохранения тепловой энергии внутри шкафа коллектор изолируют и закрывают в вечернее время.

**Ключевые слова:** коллекторный гелиосушитель, температурный, конвективный, контактный, черные камни, полиэтилен, аккумулятор.

## IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING A HEAT ACCUMULATOR AIR HEATER IN SOLAR DRYERS SCIENTIFIC AND TECHNICAL ANALYSIS OF RESEARCH

**Tukhliyev Mansur Makhmudovich**

Assistant, Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan

**Abstract.** In agricultural product drying systems used in world practice, the energy consumption is high, and the specific energy consumption for the preparation of dried finished product is 7,4 kVt-soat/kg. To prevent energy shortages on Earth, it will be necessary to develop renewable energy sources. The results of the test experiment showed that in the form of a wardrobe, heliocriters, fruits and plants are protected from all kinds of dust, pollution. Depending on the type of medicinal plants poured for drying, there are ways to change the temperature inside the cabinet, through different methods. The temperature inside is +65.....As another important tool from temperature stabilization (lowering) methods if +75° C, the temperature inside the collector and Cabinet can be lowered using aerodynamic means. Also for the purpose of storing thermal energy inside the Cabinet, the collector is insulated and the top is closed at night.

**Keywords:** collector heliocouter, temperature, convective, contact, black stones, polyethylene, ultraviolet accumulator.

**Kirish.** Agar fotoelektr panellar o'ziga tushayotgan quyosh energiyasining 14–18% dan foydalansa, quyosh kollektoridagi ushbu samara 70–80% ga yetadi [2; 46-51-b]. Singh va boshqalar [3; 34-37-b] tomonidan taklif etilgan QQ, tabiiy quritgich bilan taqqoslanganda, issiq havo va tashqi havo haroratlari o'rtasidagi maksimal haroratlar farqi 35,4°C ni, qurilmaning maksimal FIK qiymati 55% ni tashkil etgan. John va boshqalar tomonidan banan mahsuloti tabiiy quritgich va vakuum quvurli quyosh kollektori asosidagi QQda quritilgan. Natijalarga ko'ra, quritish vaqti 18,87% ga qisqargan. Khadraoui va boshqalar [3; 54-58-b] tomonidan qizil qalampir avtomatik ikki o'qli quyosh kuzatgichli tabiiy quritgichda quritilgan. Havoning massaviy sarfi 0,047 kg/s bo'lganda quyosh kollektorining FIK qiymati 30 dan 80% gacha o'zgargan. QQning umumiy energiya samaradorligi 34% ni tashkil etgan. Adenitan va boshqalarning [4; 44-50-b] tadqiqot ishida majburiy konveksiyali aralash rejimda ishlovchi issiqxona turidagi QQda qizil qalampirni quritish tadqiqot qilingan va natijalar tabiiy quritish natijalari bilan taqqoslangan. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash vaqtida xavfsizlikni oshirishda issiqxona turidagi quritgichdan foydalanish tavsiya

etilgan. Ko'p sonli adabiyotlarda QQlarini IAlari, biogaz qurilmalari, organik yoqilg'ilar va elektr qizdirgichlar bilan integratsiyalash tajribaviy va nazariy tadqiqot qilingan. IAli QQlarida materiallar ortiqcha quyosh energiyasini akkumulyatsiyalaydi.

**Tadqiqot materiallari va natijalar.** Mavjud barcha turdagi quyosh (konvektorli radiatsion) meva va quritgichlar faqat quyoshli vaqtlarda mahsulotlarni quritadi. Qurilmalarning akkumulyatsiya qismi yaxshi izolyatsiya qilinmaganligi sababli yetarli darajada issiqlikni akkumulyatsiya qila olmaydi natijada meva va o'simliklarni quritishga kuproq vaqt talab qiladi. Bu mevani sifatli qurishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mahsulotlarni ochiq havoda quritganda tashqi ta'sirlar tufayli changlanadi, ifloslanadi va isrof bo'ladi. Hozirgi vaqtga qadar energiyani tejoychi qurilmalarni yaratish masalasi ayniqsa dolzarb moammolardan biri hisoblanadi. Shu bois quyosh energiyasini amaliy muammolarini hal etishga yo'naltirish imkonini beruvchi maxsus qurilmalar yanada faol ishga tushirilmogda. Bu qurilmalardan biri quyosh kollektori hisoblanib, isitish yoki issiq suv va mevalarni quritish maqsadlarida samarali foydalanish mumkin. Ochiq joylarda uzum 30-35 kunda, zardoli 8-11 kunda, qovun 5-6 kunda quriydi [5; 14-15-b]. Bu hozirgi kungacha yara-

tilgan geliquritgichlarga nisbatan 3-4 barobar ko‘p kun talab qiladi.

Biroq quyosh energiyasini issiqlik energiyasiga to‘la aylantirish uchun hozirgi asboblardan yetarli emas. Yerga yetib kelayotgan quyosh quvvatining miqdori yil, oy va kun davomida o‘zgarib turadi, ya’ni yerning geografik kengligiga, atmosferaning holatiga (ochiq bulutli, tumanli, changli ekanligiga) bog‘liq bo‘ladi. Quyosh nurlanish intensivligi past bo‘lganda quritish davrini uzayishi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifati yomonlashadi. Quyosh nurlanish intensivligi past bo‘lgan davrda IAini QQ bilan integratsiyalash yuqoridagi muammolarni hal etish imkonini beradi, shuningdek, quyosh yorug‘ligi bo‘lmagan soatlarda quritish uzluksizligini ta’minlaydi va mikroblar rivojlanishini oldini olishga yordam beradi. Tadqiqot ishimizda shkaf tipidagi meva quritgichlarni geliokollektorini takomillashtirish, energiya samaradorligini va foydali ish koeffitsientini oshirishdan iborat. Bizning yurtimizdagi yerlarning  $1m^2$  yuzasiga tushadigan quyosh nurining energiyasi taxminan  $1 kW/m^2$  ga teng [4; 18-25-b]. Quyosh quritish qurilmamizning sinov natijalari Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanidagi “Bog‘i saroy yulduzi” fermer xo‘jaligi dalasida, 2023 yil 12 iyundan 15 iyungacha o‘tkazildi. Dalada yetishtirilgan o‘rik mahsuloti quritildi. Aniqlangan ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**Quyosh radiatsiyasi va mikroiklim sharoitlarining urik massasi o‘zgarishiga ta’siri**

Vaqt (soat)	Urik masasi (kg)	Quyosh radiatsiyasi $W/m^2$	Tashqi harorat $^{\circ}C$	Shkaf ichidagi harorat $^{\circ}C$	Shkaf ichidagi namlik %
8:00	75	588	29	33	18
10:00	71	778	34	45	24
12:00	67	936	37	58	22
14:00	62	978	38	64	18
16:00	59	810	36	64	16
.....	...	.....	.....	.....	.....
14:00	33,3	976	38	65	13

Quritishga qo‘yilgan 75 kg o‘rik mahsuloti 54 soat davomida tarkibidagi namlikni 82% ga yo‘qotib, 33,3 kg tayyor mahsulot olindi. Bu ko‘rsatkich K.M.Xazimov (Qozog‘iston) tomonidan 2015 yida yasab ishga tushirilgan konvektiv radiatsion meva quritgichiga nisbatan 11 soat oldinroq quritadi [3; 22-24-b].

Bizning takomillashtirilgan kollektorimizga, akkumulyatsiya uchun qo‘yilgan toshlar pastki qismdagi stiklovatalarga tegmasligi uchun tosh bilan stiklovata orasiga 6,5 cm qalinlikdagi reyka taxtalar paralel qilib joylashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Kollektorning tag qismini izolyatsiyalash.



2-rasm. Quyosh quritgichning tashqi ko‘rinishi.

Parallel reyka taxtalar orasiga aerodinamika qonunlariga binoan qizigan havo harakatlanadi. Har bir qavat toshlar orasiga qizigan havo harakatlanishini ta’minlasak qavatlar orasidagi haroratlar farqi kamayadi, kollektor ichidagi hamma toshlar bir xil haroratda qiziydi va kollektor ichidagi harorat oshadi. Kollektor ichidagi haroratini sovishi ham tosh qavatlari orasidagi harakatlanuvchi havoning tezligiga bog‘liq bo‘ladi. Toshlar orasidagi harakatlanuvchi qizigan havo orqali kollektor ichidagi haroratni barqaror saqlab turish mumkin.

Tavsiya etilayotgan shkaf tipidagi quyosh quritgich qurilmamiz quyidagi bir qancha Afzaliklarga ega:

- Takomillashtirilgan qurilmada mahsulotni quritish uchun kamroq vaqt sarf bo‘ladi;
- Hech qanday elektr va yoqilg‘i energiyasi sarflanmaydi;

- Quritish davomida atrof muhitga hech qanday zararli moddalar chiqarmaydi.

Olingan eksperimental tajribalar shuni ko'rsatadiki akkumuliyatsiyalashda foydalaniladigan qoraga bo'yalgan toshlarning har bir qavatida 24 soat davomida haroratlar farqi kuzatildi. Har bir qatlamdagi toshlarning harorati har xil bo'ladi. Eksperiment tajribalar shuni ko'rsatadiki akkumuliyatsiya uchun foydalaniladigan toshni sirti qanchalik katta bo'lsa o'ziga shunchalik ko'p issiqlik energiyasini yig'adi. Ammo undan quyosh radiatsiyasi past bo'lganda, foydalanib bo'lmaydi o'ziga tushgan kam issiqlik energiyasini yutib oladi (2-rasm). Quyosh radiatsiyasi yuqori bo'lganda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

IAlarining eng yaxshi xususiyatlariga yuqori solishtirma issiqlik sig'imi, yuqori zichlik, yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik va uzoq muddatli barqarorlikni kiritish mumkin. Materialda akkmulyatsiyalangan oshkora issiqlik miqdori quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$Q = mc_p(T_{ox} - T_b) = \rho c_p V(T_{ox} - T_b) \quad (1)$$

bu yerda  $Q$ -akkumuliyatsiyalangan issiqlik,  $J$ ;  $m$ -material massasi,  $kg$ ;  $c_p$ -solishtirma issiqlik sig'imi,  $J/(kg \cdot ^\circ C)$ ;  $T_b$ -boshlang'ich harorat,  $^\circ C$ ;  $\rho c_p$ -qattiq materialning hajmiy issiqlik sig'imi,  $J/(m^3 \cdot ^\circ C)$ ;  $V$ -hajm,  $m^3$ ;  $T_{ox}$ -oxirgi harorat,  $^\circ C$ .

IAning issiqlik sig'imi hajmiy issiqlik sig'imi qiymatiga sezilarli bog'liq. Issiqlik uzatish tezligi yuqori bo'lishi uchun IA materiali yuqori issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi kerak. IAlari sifatida qo'llaniladigan eng ko'p tarqalgan materiallar qum, tosh, beton, cho'yan, quyma po'lat va g'isht [6; 35-39-b]. QQda foydalaniladigan IAlarning turlari va ularning issiqlik-fizik xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**IA materiallarining issiqlik-fizik xususiyatlari [6; 35-39-b]**

Material	Zichligi, $kg/m^3$	Solishtirma issiqlik sig'imi, $J/(kg \cdot ^\circ C)$
G'isht	1800	837
Alyuminiy	2710	896
Metal	7900	452
Yer toshlari	2050	1840
Dengiz toshlari	2405	815
Qum zarralari	2200	712
Beton	200	880
Suv	988	4182

Yog'och	700	2390
Tosh, granit	2640	820
Ohaktosh	2500	900

IA bilan integrallashgan QQ arzon va tez tayyorlanadi. IA materiallari odatda nasadkali qatlam shaklida to'planadi, u orqali zaryadkalovchi va issiqlik energiyasini olib ketuvchi issiqlik tashuvchi sirkulyatsiyalanadi. Quyosh kollektorining foydali ish koeffitsienti quyosh nurining kollektor qabul qiluvchi yuzasiga tushgan qismining foydali issiqlik energiyaga aylangan qismiga teng bo'ladi. Kollektorning qabul qiluvchi yuzasi esa, quyosh nuri effektiv ta'sir qilgan sirtga teng bo'ladi. Foydali ish koeffitsienti kollektorning holatiga bog'liq bo'ladi. Kollektor yuzasiga tushgan nurning bir qismi akslanish ta'sirida orqaga qaytadi. Kollektorga tushgan nurlanish va absorberda issiqlik energiyasiga aylangan nurlanish quvvati orasidagi munosabatdan foydalanib, quyosh kollektorida yo'qotiladigan jami issiqlik quyidagicha hisoblash mumkin [4]:

$$\sum Q_{yoriq} = Q_{plyo} + Q_{chang} + Q_{tag} + Q_{tir} \quad (2)$$

Ilmiy tadqiqot davomida kollektorda imkon qadar yo'qotilgan issiqlik miqdorini kamaytirish maqsadida kollektorning pastki qismi (yer) ga issiqlik energiya yutilmasligi uchun suyuq stiklovata, betum bilan ishlov berilgan va quritilib ustidan nur qaytaruvchi folgali stiklovata bilan yopilgan natijada yer bilan izolyasiya qilingan.

$Q_{tag}$  - kollektorning tagiga yo'qoladigan issiqlik miqdori nolga yaqin bo'ladi, deyarli issiqlik kollektorning tagqismiga yutilmaydi u holda (2) formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\sum Q_{yoriq} = Q_{plyo} + Q_{chang} + Q_{tir} \quad (3)$$

(2) formuladan quyosh kollektorlarini samaradorligini oshishini bilishimiz mumkin.

O'rtacha bir dona toshning issiqlik miqdorini hisoblash:

$$Q = mc(t_2 - t_1) \quad (4)$$

$$Q = \rho Vc(t_2 - t_1) \quad (5)$$

$$V = \frac{m}{\rho} \quad (6)$$

$c$  - jismlarni va moddalarni solishtirma issiqlik sig'imi. Akkumuliyatsiya uchun solishtirma issiqlik sig'imi katta bolgan jism va moddalardan foydalanish kerak.

(3) va (4) formulalar yordamida ichidagi bir dona toshning issiqlik miqdorini aniqlash mumkin. Agar tosh shar shaklida deb hisoblasak uning hajmi:

$$V = \frac{4}{3}\pi R^3 \quad (7)$$

(5) bilan (7) - formulani tenglashtirsak va  $R$  ni topsak:

$$R = \sqrt[3]{\frac{3m}{4\pi}} \quad (8)$$

(8) formuladan bir dona toshning massasi aniq bo'lsa uning  $R$  – radiusini aniqlash mumkin:

$$S = 4\pi R^2 \quad (9)$$

(8) formulani (9) formulaga qo'yib:

$$S = 4\pi \left(\frac{3m}{4\pi}\right)^{\frac{2}{3}} \quad (10)$$

hosil qilamiz (10) formula yordamida shar shaklidagi toshni massasini bilgan holda uning sirtini yuzini topish mumkin bo'ladi. Toshning zichligi  $\rho_{tosh} = 2600 \text{ kg/m}^3$ .

Kollektor ichidagi hamma toshlarni mas-salarini, sirt yuzasini, suvning hajmini hisoblab topish kerak. Toshlardan mavsumga qarab katta va kichik foydalanish kerak. Eksperiment hisoblash-lardan aniqlandiki, hajmi katta toshlar hajmi kichik toshlarga qaraganda sekinroq qiziydi. Pastki qat-lamdagi kollektor ichidagi toshlarni harorati yuqori qatlamga qaraganda pastroq bo'ladi. Quyosh ener-giyasi toshga tarqalishi va yutilishini hisoblash uchun quyidagi issiqlik balansi tenglamasidan foy-dalanish mumkin [1].

$$Q_{yut}(\tau) + \lambda \frac{\partial t_T(x_1\tau)}{\partial} - a_{TSK}[t_{TS}(\tau) - t_{TSK}(\tau) - \vartheta] = 0 \quad (11)$$

Bu yerda;

$Q_{yut}$  – quyosh energiyasining tosh qatlamida yutiladigan qismi,

$t_{TS}$  – tosh sirtini temperaturasi,


$t_{TSK}$  – tosh sirti yaqinidagi temperaturasi,

$\lambda$  – toshning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffit-siyenti,

$\tau$  – vaqt [4].

**Muhokama.** Kollektorlarni yasashda,  $Q_{yut}$  tosh qatlamiga yutiladigan quyosh energiyasini oshirish kerak. Tosh qatlamlari orasida g'ofak joy qoldirib terib chiqish kerak, shunda quyosh nurlari pastki qavatdagi toshlarni ham qizitadi. Agar toshlar orasida g'ovak joylar qolmasa haroratlar farqi oshadi pastki qavatdagi toshlarni harorati tashqi haroratdan farq qilmay qoladi. Kunning issiq vaqt-larida hajmi katta toshlardan foydalanib, tosh qavat-larini sonini oshirish bilan kollektor ichidagi haro-ratni oshirib, ko'proq vaqt issiqlik energiyasini saq-

lab turadi. Kuz va bahor fasllarda tashqi harorat past bo'lganda kollektor ichiga hajmi kichik toshlardan foydalanish maqsadga muvofiq chunki hajmi kichik toshlarni harorati tezroq oshadi va shu bilan birga tezroq soviydi. Tashqi harorat past bo'lganda kol-lektor ichidagi hajmi katta toshlar o'ziga tushgan hamma issiqlik energiyasini yutib oladi.



**3-rasm. O'rik quritishda tashqi va ichki parametrlariga bog'likligi.**

O'rik mahsulotini quritishda (3-rasm) kollektor qismi yaxshi izolyatsiya qilingani uchun quritish shkafini kechki vaqtda ham issiqlik energiyasi bilan ta'minlab turganligi uchun mahsulotlarni quritish uzluksiz bo'lgan.

Tadqiqot qilingan quyosh kollektorlari uchun bir nechta muhim xususiyatlar mavjud:

- samaradorligi yuqori;
- texnik xizmat ko'rsatish qulay;
- yasash oson;
- kerakli hamma materiallar va moddalar uy xo'jaliklarida mavjud;

- tannarxi qiymat emas;

- ishonchli, xizmat muddati 15-20 yil, (plyonka 7-8 yil);

- iqlim tizimi boshqa kollektorlarga qaraganda qulay;

- kollektor ichidagi temperaturani barqarorlashtirish imkoniyatlari mavjud.

Asosiy kamchiliklari sovuq kunlarda deyarli ishlamaydi, shuning uchun ular issiq iqlimi bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Kollektor yuzasini shaffof polietilen bilan qoplashda iloji boricha silliq qilib (tortib) qoplash tavsiya qilinadi.


**Xulosa.** O'zbekiston mintaqasida qayta tiklanuvchi energiya resurslarini tahlil etib aytish mumkinki, elektr va issiq suv ta'minotida quyosh energiyasidan foydalanish, mamlakatimiz sharoitida iqtisodiy jihatdan to'liq o'zini oqlaydi. Quyosh energiyasidan amalda foydalanish uchun O'zbekistonda yaratilgan shart-sharoit va mavjud

imkoniyatlar mazkur mintaqadan bir sohadagi ilg'or | doni sifatida foydalanishga asos bo'lib xizmat qiladi  
texnologiyalarni nafaqat respublikamizda, balki bu- | [5].  
tun O'rta Osiyoda tajriba tariqasida joriy etish may-

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Uzoqov G'.N., Xo'jaqulov S.M., Uzoqova Yu.G'. "Muqobil energiya manbalaridan foydalanish asoslari". Toshkent: Fan va texnologiya. (2017).
2. M.M.To'xliyev. Improved solar fruit dryer collector insulated test results. №8 Vol. 11, Issue 1, January 2024 (Osiyo mamlakatlari). India.
3. M.M.To'xliyev. Meva va o'simliklarni quritish davomiyligini quyosh radiatsiyasi, tashqi havо harorati va namligiga bog'liqligini tajribaviy tadqiqotlari. Jurnal "Innovatsion texnologiyalar" Qarshi-2024. 36bet. (№38).
4. Тўхлиев М.М., Овлаев Ж.О. Такoмиллаштирилган кyёш кyрити кyрилмасининг харорат режимини тадқиқот қилиш // Jurnal "(2019) Инновацион технологиялар" Qarshi-2022. № 1(45). 36-40 bet.
5. То'xliyev M.M., Ovlayev J.O.Past potentsialli takomillashtirilgan quyosh quritish qurilmasining amaliyot sinov natijalari. Jurnal "O'zbekiston qishloq xo'jaligi". Toshkent. "Qishloq va сув хўжалиги вазирлиги"-2024. №2. 43-45 bet. (05.00.00; №8).
6. <https://nuz.uz/ekonomika-i-finansy/35155>

UO‘K: 662.997:662.63

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.18

## BIOMASSANI QAYTA ISHLASH ORQALI ENERGETIK JIHATDAN QIMMATLI MAHSULOTLARGA AYLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI



*Xoliqov Komil Nurmahmatovich*

*Katta o‘qituvchi, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Qarshi, O‘zbekiston  
E-mail: [xoliqov.80@mail.ru](mailto:xoliqov.80@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Briketlangan biomassaning zichligi biomassaning dastlabki holatdagi yirik zichligidan qariyb 6 baravar yuqori. Mahsulotlarga termo-kimyoviy, fizik-kimyoviy va biologik usullar bilan qayta ishlashning mavjud usullari ko‘rsatilgan. Xom biomassaning “sovuq” briketlash jarayoni ko‘pincha bog‘lovchi modda qo‘shishni talab qiladi. Piroлиз usuli biomassadan olingan tayyor qattiq briketlangan yoki granulalangan yoqilg‘ining iste‘mol xususiyatlarini oshirish uchun samarali qo‘llaniladi. Oqimda gazifikatsiya qilishda yuqori haroratlar 2000°C gacha qo‘llaniladi. Qurimalarning soddaligi va nisbatan past energiyani sarfi tufayli asosiy ulush (taxminan 75%) qattiq biomassa yoqilg‘ilarni ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladi. Piroлиз qilish jarayonlarida qo‘llaniladigan biomassa asosiy turi yog‘och qirindisi va organik chiqindilar. Olingan yog‘och ko‘mir maydalanganidan so‘ng, uning asosida pirolizlangan pelletlar ishlab chiqariladi. O‘simlik biomassasini piroliz qilish uchun ishlatishning yana bir afzalligi shundaki, uning tarkibida lignin mavjud.

**Kalit so‘zlar:** Biomassa, texnologiya, yoqilg‘i, energiya, piroliz, gazifikatsiya, bug‘-havo, ekstraksiya, uglerod, termo-kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik.

## ТЕХНОЛОГИИ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ БИОМАССЫ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИ ЦЕННЫЕ ПРОДУКТЫ ПУТЕМ ПЕРЕРАБОТКИ

*Холиков Комил Нурмахматович*

*Старший преподаватель, Каршинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан*

**Аннотация.** Плотность брикетированной биомассы почти в 6 раз выше, чем плотность биомассы в ее первоначальном состоянии. Существуют различные методы термической, физико-химической и биологической переработки продуктов. Процесс «холодного» брикетирования сырой биомассы часто требует добавления связующего вещества. Метод пиролиза эффективно используется для повышения потребительских свойств готового твердого брикетированного или гранулированного топлива, полученного из биомассы. При газификации в потоке применяются высокие температуры до 2000°C. Из-за простоты конструкции и относительно низкого энергопотребления основная доля (примерно 75%) приходится на производство твердого биомассового топлива. Основным типом биомассы, используемой в процессе пиролиза, — это древесные опилки и органические отходы. После измельчения полученного древесного угля изготавливаются пиролизные пеллеты. Еще одним преимуществом использования растительной биомассы для пиролиза является наличие в ее составе лигнина.

**Ключевые слова:** Биомасса, технология, топливо, энергия, пиролиз, газификация, пар-воздух, экстракция, углерод, термо-химический, физико-химический, биологический.

## TECHNOLOGIES FOR CONVERTING BIOMASS INTO ENERGY- VALUABLE PRODUCTS THROUGH PROCESSING

*Kholikov Komil Nurmakhmatovich*

*Senior Lecturer, Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan*


**Abstract.** The density of briquetted biomass is nearly 6 times higher than the original bulk density of the biomass. The available methods for processing products include thermo-chemical, physico-chemical, and biological methods. The "cold" briquetting process of raw biomass often requires the addition of a binder. The pyrolysis method is effectively used to improve the consumer properties of the finished solid briquetted or granulated fuel obtained from biomass. High temperatures up to 2000°C are applied in gasification in the flow. Due to the simplicity of the equipment and relatively low energy consumption, the main share (about 75%) is used for producing solid biomass fuels. The main types of biomass used in pyrolysis processes are wood chips and organic waste. After grinding the obtained wood charcoal, pyrolyzed pellets are produced from it. Another advantage of using plant biomass for pyrolysis is that it contains lignin.

**Keywords:** Biomass, technology, fuel, energy, pyrolysis, gasification, steam-air, extraction, carbon, thermo-chemical, physico-chemical, biological.

**Kirish.** Biomassadan muqobil yoqilg'i olishning eng samarali metodlaridan biri uni turli temperaturalar berib boyitilgan yoqilg'iga aylantirishdir. Bunday qayta ishlangan xomashyoning zichligi boshlang'ich xom-ashyoning zichligidan yuqori bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, briket qilingan xomashyoning zichligi dastlabki holatdagi yirik xom-ashyoning zichligidan qariyb 5 baravar yuqori, bundan ko'rinadiki shu hajmdagi xomashyoda briket qilinganda energiya miqdorini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, bunday muqobil yoqilg'ilarning ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan issiqlik miqdori kam sarf qilinish bilan ajralib turadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Xomashyo reaksiya zonasida yuqori haroratda qisqa vaqt ichida xomashyoni suv bug'lari bilan yetarlicha aralash-tirish gaz hosil bo'lish tezligini oshiradi. Gaz hosil bo'lishi bilan birga qo'shimcha suyuq mahsulot, ya'ni piroliz rezina ham hosil bo'ladi. Piroliz — bu neftni kimyoviy sintez qilishda sanoatda xomashyo olishning eng muhim usullaridan biridir. Bu jarayon nisbatan past haroratda (500–800°C) ro'y beradi, gazifikatsiya (800–1300°C) va yonish (900–2000°C) jarayonlariga nisbatan. Qadimgi davrlarda, ya'ni 80–90 yil oldin, yog'ochni havo yo'q joyda 450 dan 800°C gacha qizdirganda gaz va suyuq mahsulotlar, shuningdek, qattiq qoldiq — ko'mir hosil bo'lardi. Bu usul qadim zamonlarda, masalan, ko'mir tayyorlash, temirchilik, shashlik pishirish,

zargarlikda keng qo'llanilgan [1]. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya manbalari agentligi ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrning ikkinchi o'n yilligida bioyoqilg'i mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatlari deyarli ikki baravar oshdi (1-rasm).




**1-rasm. Muqobil yoqilg'i ishlab chiqarish quvvatlari.**

2-rasmda xomashyoni turli muqobil ener-giya olish maqsadlarida qo'llaniladigan mahsulot-larga termokimyoviy, fizik-kimyoviy va biologik usullar bilan qayta ishlashning mavjud usullari ko'rsatilgan [2].


Muqobil energiya olishda texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan biomassaning asosiy turlari yog'och qirindilari, organik chiqindilar va g'o'zapoya bo'lib qolmoqda (bugungi kunda dun-yoda ishlatilayotgan bioyoqilg'ining taxminan uch-

dan ikki qismi yog'och qirindilaridan olinadi). 2-sxemada yog'och qirindisini turli xil energetik jihatdan qimmatli mahsulotlarga qayta ishlash usullari keltirilgan. Biroq, barcha issiqlik berish usullari boshqa o'simlik xomashyolarini qayta ishlashda ham qo'llaniladi.



**2-rasm. Biomassani qayta ishlash orqali turli xil muqobil energiya olinish va qo'llanilishi sxemasi.**

Qurilmalarning soddaligi va nisbatan past energiya sarfi tufayli asosiy ulush (taxminan 75%) qattiq bioyoqilg'i ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Bunday mahsulotlar xomashyoni harorat ta'sirida qayta ishlash jarayonida olinadi.



**3-rasm. Yog'och qirindilaridan issiqlik energiyasini olishning texnologik usullari.**

Termik ishlov berish usulida qattiq bioyoqilg'i olishning eng sodda usuli — bu tarkibida gemitsellyuloza, selluloza va lignin bo'lgan o'simlik xomashyosini piroliz qilish texnologiyasidir. Pirolizning boshlang'ich bosqichi sifatida ko'rib chiqiladigan va ko'pincha adabiyotda "yumshoq piroliz" deb ataladigan usulda, o'simlik xomashyosi inert muhitda 200–300°C gacha qizdiriladi. Natijada, yog'och qirindisi tarkibidagi

gemitsellyuloza va asosiy polimerlarning parchalanishi natijasida namlik va uchuvchan moddalar ajralib chiqadi. Bunday jarayonda xomashyo massasi taxminan 30% ga kamayadi, ya'ni bio-ko'mirning energiya sig'imi dastlabki xomashyo massasiga nisbatan 10% ga pasayadi. Bu esa xomashyoning maxsus yonish issiqligini oshiradi, transport xarajatlarini kamaytirishga va energetikada foydalanish ulushini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan issiqlik sarfini parchalanish jarayonida ajralib chiqqan gaz yoki uglerod qoldig'ini yoqish hisobidan qoplash mumkin [2].

**Natijalar.** Olingan yog'och ko'mir maydalangandan so'ng, uning asosida pirolizlangan pelletlar ishlab chiqariladi. Ushbu pelletlar ko'mir bilan qo'shma yoqish texnologiyalarida, shuningdek, pelletli qozonlar uchun mustaqil yoqilg'i sifatida qo'llaniladi. O'simlik biomassasini piroliz qilishning yana bir afzalligi shundaki, yog'och tarkibida lignin mavjud bo'lib, u temperatura oshishi bilan plastik holatga o'tadi va pelletlash yoki granullash jarayonida ichki bog'lovchi modda sifatida xizmat qiladi. Bunday usul inert gaz o'rniga arzon va mavjud materiallardan foydalanish hisobiga yanada tejamkor bo'ladi. Piroliz jarayonida olingan gazsimon mahsulotlarning sifatini pasaytiruvchi inert gazdan foydalanishni talab qilmaydi.


Bundan tashqari, piroliz qilish usuli biomassadan olingan tayyor qattiq briketlangan yoki granulalangan bioyoqilg'ining iste'mol xususiyatlarini oshirish uchun samarali qo'llaniladi. Tabiiy saqlash sharoitlarida 270°C da piroliz qilingan yog'och qirindilarining namligi 30 kun ichida atigi 3 foizga oshadi, shu bilan birga, ishlov berilmagan pelletlarning namligi 12-15 foizga oshadi. Xomashyoga oldindan ishlov berishning yana bir afzalligi shundaki, bu jarayonda uchuvchan gazlarning bir qismi ajralib chiqadi, natijada biomassadan olingan bioyoqilg'ining o'z-o'zidan alanganlash ehtimoli kamayadi.

Pirolizning kamchiliklaridan biri – aniq harorat rejimini saqlash zaruriyatidir. Hatto haroratning ozgina oshishi ham pirolizlangan xomashyoning o'z-o'zidan alanganlashiga yoki qizib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, uning massasining sezilarli darajada kamayishiga va piroliz jarayonida olinadigan foydali mahsulot miqdorining pasayishiga sabab bo'ladi. Piroliz jarayonida

biomassa 240-250°C gacha qizdirilganidan so'ng va reaktor o'chirilgandan keyin uning harorati o'sishda davom etib, 430°C ga yetgan. Yarim sanoat qurilmasini sinovdan o'tkazishda esa reaktordagi gazning harorati 255°C ga ko'tarilishi bilan biomassaning isitish tezligi oshgan va natijada pelletlarning harorati gaz haroratidan yuqori qiymatlarga yetgan.

Piroliz qilinadigan xomashyoning o'lchamlari va namligiga qat'iy talablar qo'yilmaydi, ammo ushbu xususiyatlardagi farqlar xomashyoning no-tekis parchalanishiga va jarayon samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, piroliz jarayoni bioyoqilg'ini energetik foydalanishga tayyorlashning qo'shimcha bosqichi hisoblanadi, bu esa ajralib chiqadigan mahsulotning narxini oshiradi. Ushbu omilning ta'siri qattiq bioyoqilg'ining energiya zichligi va yonish issiqligi dastlabki biomassaga nisbatan oshishi hisobiga qoplanadi.

**Muhokama.** Gazifikatsiya va tezkor piroliz texnologiyalari yonuvchi gaz yoki suyuq bioyoqilg'ilar olishda qo'llaniladi. Gazifikatsiya — bu biomassani yuqori haroratda qisman oksidlanish orqali gazsimon yoqilg'iga aylantirish jarayonidir.



**4-rasm. Olingan gaz tarkibidagi aralashmalar.**

- Gazifikatsiya jarayonida olingan gazning tarkibi:
  - 30-40% vodorod

- 20-30% uglerod oksidi
- 10-15% metan
- 15-20% karbonat angidrid
- 1% etilen
- 6% suv
- 1% azot
- Gazning yonish issiqligi:
  - Havo yoki bug'-havo aralashmasida gazifikatsiya qilishda 4-6 MJ/m<sup>3</sup>
  - Vodoroddan foydalaniladigan texnologiyalar bilan 40 MJ/m<sup>3</sup> gacha.

Gazifikatsiya jarayoni biomassadan yuqori energiyali gaz ishlab chiqarishga imkon beradi va uni turli energiya manbalariga aylantirishda samarali texnologiya hisoblanadi.

**Xulosa.** Biomassadan energetik maqsadlarda keng foydalanishning asosiy muammolaridan biri uni an'anaviy usullarda yoqishning past samaradorligidir. Shu sababli, biomassaning energetik xususiyatlarini oshirish maqsadida termik qayta ishlashning muqobil texnologiyalarini joriy etish dolzarb masaladir. Ushbu usullardan biri piroliz bo'lib, u turli fraksiyalardagi — suyuq, qattiq va gazsimon — energetik jihatdan qimmatli yoqilg'ini olish imkonini beradi.

Biomassani piroliz usulida qayta ishlashga asoslangan uskunalarni joylashtirish yuqori xarajatlarni talab qiladi. Natijada, tayyor mahsulotning qiymati oshadi, bu esa piroliz uskunalarni keng joriy etishda cheklovchi omillardan biri hisoblanadi.

Biroq, organik tarkibli biomassaning parchalanish reaksiyalari natijasida ajralgan issiqlikdan foydalanish orqali issiqlik sarflarining bir qismini qoplash mumkin. Bundan tashqari, biomassaning piroliz jarayoni avtotermik rejimda tashkil etilishi mumkin, bu esa jarayonni faqat boshlash uchun tashqi energiya talab etilishini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kholikov Komil Nurmahmatovich. (2021). Getting fuel by pyrolysis device and using it. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2(2), 103-105. Retrieved from <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/70>
2. Ушаков Д.Е., Карелин Д.В., Бычков А.Л. Получение топливных брикетов из растительной биомассы // Химия твердого топлива. – 2017. – №. 4. – С. 46-50

UO‘K: 66.097.3

doi 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.29

## KREMNIYLI SEOLITLARDA N-GEKSANNI AROMATLASH



**Rahmatov Xudoyor  
Boboniyozovich**

Qarshi davlat texnika universiteti  
professori, Qarshi, O‘zbekiston



**Abdullayev Baxtishod  
Mengliqul o‘g‘li**

Qarshi davlat texnika universiteti  
assistenti, Qarshi, O‘zbekiston



**Uzoqov Elyor Ulug‘bek  
o‘g‘li**

Qarshi davlat texnika universiteti  
magistranti, Qarshi, O‘zbekiston



**Maxsetov Bekzat Rustem  
uli**

Qarshi davlat texnika universiteti  
magistranti, Qarshi, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yuqori katalitik xususiyatga ega bo‘lgan mezog‘ovakli yuqori kremniyli tseolitar yordamida chiziqli tuzilishga ega bo‘lgan N-geksanni katalitik aromatlash jarayoni o‘rganilgan. Tadqiqotda katalizator sifatida qo‘llanilgan Ni, Cu va Fe modifikatorlarining tabiati va konsentratsiyasining katalitik faollikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari aromatlash jarayoni samaradorligini oshirish va benzol qatori uglevodorodlarining tarkibini optimallashtirishga imkon beradi.

**Kalit so‘zlar:** aromatlash, mezog‘ovak, alyumosilikat, oktan soni, vodorod, konversiya.

## АРОМАТИЗАЦИЯ N-ГЕКСАНА В КРЕМНИЕВЫХ ЦЕОЛИТАХ

**Рахматов Худойёр  
Бобониязович**

Профессор, Каршинский  
государственный технический  
университет,  
Карши, Узбекистан

**Абдуллаев Бактишод  
Менгликул угли**

Ассистента Каршинского  
государственного технического  
университета,  
Карши, Узбекистан

**Узоков Элёр Улузбек  
угли**

Магистрант Каршинского  
государственного технического  
университета,  
Карши, Узбекистан

**Максетов Бекзат  
Рустем улы**

Магистрант Каршинского  
государственного технического  
университета,  
Карши, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье изучен процесс каталитической ароматизации N-гексана линейной структуры с использованием мезопористых высококремниевых цеолитов с высокими каталитическими свойствами. Проанализировано влияние природы и концентрации модификаторов (Ni, Cu, Fe) на каталитическую активность. Полученные результаты позволяют повысить эффективность процесса ароматизации и оптимизировать состав углеводородов бензольного ряда.

**Ключевые слова:** ароматизация, мезозой, алюмосиликат, октановое число, водород, конверсия.

## AROMATIZATION OF N-HEXANE IN SILICON ZEOLITES

**Rahmatov Khudoyor  
Boboniyozovich**

Professor of Karshi State Technical  
University, Karshi, Uzbekistan

**Abdullaev Bakhtishod  
Menglikul ugli**

Assistant of Karshi State Technical  
University, Karshi, Uzbekistan

**Uzakov Elyor Ulugbek  
ugli**

Master's student of Karshi State  
Technical University,  
Karshi, Uzbekistan

**Makhsetov Bekzat  
Rustem uli**

Master's student of Karshi State  
Technical University,  
Karshi, Uzbekistan

**Abstract.** This article studies the catalytic aromatization process of linear-structured N-hexane using mesoporous high-silicon zeolites with high catalytic properties. The influence of the nature and concentration of modifiers (Ni, Cu, Fe) on catalytic activity has been analyzed. The obtained results contribute to improving the efficiency of the aromatization process and optimizing the composition of benzene-series hydrocarbons.

**Keywords:** aromatization, Mesozoic, aluminosilicate, octane number, hydrogen, conversion.

**Kirish.** Hozirgi kunda Navbahor konidan olingan bentonit loyining muhim xususiyatlaridan kelib chiqib, asosan uning adsorbsion xossasini inobatga olib unga katta e'tibor qaratilmoqda. Navbahor konidan olingan bentonit sanoatning turli sohalarda keng qo'llanilmoqda, hozirda undan ishlab chiqarishning ikki yuzdan ortiq yo'nalishida, jumladan uglevodorod gazlarini tozalash va tayyorlashda ham foydalanilmoqda, lekin adabiyotlarda bu haqdagi ma'lumotlar jumladan tabiiy gazni tozalash jarayonida ma'lumotlar kam. Navbahor konidan olingan bentonit loyining arzonligi uni ishlab chiqarishdan tashqari tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bir kilogram Navbahor konidan olingan bentonit kukuni boshqa turdagilardan ancha arzon, bundan tashqari uni qazib olish ham, qayta ishlash ham, sotish ham neft mahsulotlaridan ancha arzon tushadi [1]. Reagentlar yutilish qobiliyati tabiiy gazda shudring nuqtasi haroratida baholanadi [2-6].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Jarayonni amalga oshirish uchun tanlangan yuqori katalitik xususiyatgan ega bo'lgan tanlangan katalizatorlarning fazaviy tarkibi va kristallik darajasi rentgen nurlari difraksiyasi (RFA) bilan baholandi. Tahlil qilishdan oldin jarayonni amalga oshirish uchun tanlangan yuqori katalitik xususiyatgan ega bo'lgan

tanlangan katalizatorlar shablonni olib tashlash uchun 600°C da 3 soat davomida issiqlik bilan ishlov berildi. Difraksiya chizmalarini qayd qilish Ultima IV «Rigaku» difraktometrida monoxromatlangan CuK $\alpha$  nurlanishida 3 dan 50 dan 2 $\theta$  gacha burchaklar oralig'ida 0,5 grad/min amalga oshirildi. Jarayonni amalga oshirish uchun tanlangan yuqori katalitik xususiyatgan ega bo'lgan tanlangan katalizatorlarning morfologiyasi va kristall o'lchami JEOL JSM-6490LV elektron mikroskopida skanerlash elektron mikroskopi (SEM) orqali o'rganildi. Navbahor bentonitidan olingan yuqori kremniyli alyumosilikatlari kukunlarining fraksion tarkibi SALD-2201 Laser Diffraction Particle Size Analyzer (SHIMADZU, Yaponiya) lazerli sochilish usuli orqali aniqlandi. Navbahor bentonitidan olingan yuqori kremniyli alyumosilikatlarning solishtirma sirt yuzasi ( $S_{sol}$ ) Branuer-Emmet-Teller bir nuqtali usuli yordamida azotning termal desorbsiyasi bilan aniqlandi. Navbahor bentonitidan olingan yuqori kremniyli alyumosilikatlarning umumiy g'ovak hajmini ( $V_{\Sigma}$ ) namlik sig'imi bo'yicha aniqlash piknometrik suyuqlik sifatida suv yordamida amalga oshirildi [7-9].

450-500°C harorat oralig'ida nikel bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit

1-jadval

**Turli tarkibli katalizatorlarda normal geksanni katalitik aromatlab olingan benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillari aralashmasining oktan soni**

Uglevodordlar sinfi	H-YuKS	2.0% Ni-H- YuKS	2.0% Cu-H-YuKS	2.0% Fe-H- YuKS
350°C				
Izoalkanlar	25.84	36.75	37.12	31.75
Aromatik birikmalar	62.35	52.25	50.35	52.40
Σnaftenlar, olefinlar, alkanlar	6.440	5.885	8.220	8.660
<b>jami</b>	<b>94.63</b>	<b>94.885</b>	<b>95.69</b>	<b>92.81</b>
450°C				
Izoalkanlar	4.660	11.25	7.770	5.125
Aromatik birikmalar	88.80	90.12	91.40	95.35
Σnaftenlar, olefinlar, alkanlar	6.330	4.550	4.225	4.885
<b>jami</b>	<b>99.79</b>	<b>105.92</b>	<b>103.395</b>	<b>105.36</b>
500°C				
Izoalkanlar	3.775	4.115	3.330	1.910
Aromatik birikmalar	96.80	97.85	99.75	104.4
Σnaftenlar,olefinlar, alkanlar	4.330	6.880	4.525	5.125
<b>jami</b>	<b>104.905</b>	<b>108.845</b>	<b>107.605</b>	<b>111.435</b>

2-jadval

*To'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan benzin fraksiyasini mis bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitga aylantirish*

№ namuna	T, °C	Suyuq mahsulotlar tarkibi, %	Suyuq mahsulotlar tarkibidagi uglevodorodlar, %		
			Propan	Olefinlar	Aromatik birikmalar
YuKS*	350	72.85	58.75	2.225	11.60
	380	69.40	52.25	2.550	15.80
	430	65.25	50.50	4.012	17.70
1% Ni- YuKS	350	73.65	53.12	2.015	16.15
	380	71.60	43.20	2.220	22.90
	430	70.70	39.55	2.815	28.25
2% Ni- YuKS	350	77.12	47.60	0.925	20.40
	380	75.45	35.65	2.015	27.80
	430	72.65	33.20	2.525	32.50
3% Ni- YuKS	350	76.85	44.20	0.885	22.50
	380	74.25	35.15	0.995	28.85
	430	71.20	31.80	2.125	35.25

eng katta aromatlash qobiliyatini namoyish etadi va mis bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit eng kam. Ni va Cu modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitlarda bu harorat oralig'ida aromatlashning tanlab ta'sir etuvchanligi mos ravishda 84,7-89,3% va 79,5-83,3% ni tashkil qiladi. Benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarining tanlab ta'sir etuvchanligini oshirish uchun chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan katalizatorlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: Ni-H-yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit>Cu-H-yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit>Fe-H-yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, H-YuKS, 2.0% Ni-H-YuKS, 2.0% Cu-H- YuKS va 2.0% Fe-H-YuKS katalizatorlarda normal geksanni katalitik aromatlab olingan benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillari aralashmasining oktan soni 350-450-500°C haroratda aniqlab ko'rilganda 2.0% Fe-H-YuKS katalizatorida eng yuqori oktan soniga (mos ravishda 92,81-105,36-111,435) ega bo'ldi.

2-jadvada 1-3% mis bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitda normal geksanni aromatik birikmalarga aylantirish kon-

versiyasi 350-380-430°C haroratlarda aniqlab chiqilganda, 3% Ni-YuKS katalizatorida eng yuqori natijagan erishildi, ular mos ravishda 22,50-28,85-35,25% ni tashkil etgani qayd etilgan.

**Muhokama.** Yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitning mis, nikel va rux bilan modifikatsiyasi chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan katalizatorlarda benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarining umumiy o'sishiga yordam beradi va ulardagi benzol miqdori faqat chiziqli tuzilishli normal geksanni 350°C da konversiya qilish natijasida olingan chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan katalizatorlarda <5,0% normaga javob beradi. Ushbu namunada 380°C da, izotuzilishli to'yingan uglevodorodlarining xom ashyoga nisbatan unumdorligi atigi 2,5% ga oshadi. 2,0% mis bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitda chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan katalizatorning oktan soni tadqiqot usuliga ko'ra 85 ga ko'tariladi. Shunday qilib, o'rganilgan chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan katalizatorlar orasida tarkibi 2,0% bo'lgan chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan

katalizator eng yaxshisi bo'lib chiqdi. Cu-H-yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit, bu 380°C haroratda oktan soni 85 va suyuq chiziqli tuzilishli normal geksanni katalitik aromatlab, benzol qatori uglevodorodlarining dastlabki vakillarini olish uchun tanlangan katalizatorning 74,5% ga teng bo'lgan benzin tarkibiy qismini olish imkonini beradi.

450-500°C harorat oralig'ida nikel bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit eng katta aromatlash qobiliyatini namoyish etadi va mis bilan modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit eng kam. Ni va Cu modifikatsiyalangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitlarda bu harorat oralig'ida aromatlashning tanlab ta'sir etuvchanligi mos ravishda 84,7-89,3% va 79,5-83,3% ni tashkil qiladi.


**Xulosa.** Tabiiy Navbahor bentonitidan olingan va kislotaga hamda ishqoriy faollashtirilgan mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolitni maydalash darajasi turli o'lchamdagi namunalarning xususiyatlariga ta'siri aniqlandi va mezog'ovakli alyumosilikat sorbentlarini sintez qilish uchun berilgan o'lchamli 0,045-0,1 mm, 0,1-0,2 mm, 0,2-0,5 mm, 0,5-1 mm, <0,5 mm zarrachalarga ega mezog'ovakli yuqori kremniyli tseolit namunalari tayyorlandi.

YuKS-30 va H-YuKS-30/30% Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> katalizatorlarining g'ovakli tuzilishi xususiyatlarining qiymatlari o'zaro yaqin. Shu bilan birga, YuKS-30 mezog'ovaklining g'ovak tuzilishi faqat turli xil dispersiyadagi mezog'ovakli kristallari va H-YuKS-30/30% Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> jarayonni amalga oshirish uchun tanlangan yuqori katalitik xususiyatga ega bo'lgan tanlangan katalizatorlarda mezog'ovakli va alyuminiy oksidi kristallari bilan hosil bo'lishi aniqlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fayzullayev, N. I., R. R. Umirzakov, and S. B. Paradaeva. "Study of acetylating reaction of acetylene by gas chromatographic method." ACS National Meeting Book of Abstracts. 2005.
2. Fayzullayev, N. I., and R. R. Umirzakov. "To obtain acetone by spontaneous hydration of acetylene." ACS National Meeting Book of Abstracts. 2005.
3. Buronov, F., & Fayzullayev, N. (2022, June). Synthesis and application of high silicon zeolites from natural sources. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1). AIP Publishing.
4. Buronov, F. E., & Fayzullaev, N. I. (2023). Mathematical modeling of ethylene oxidative acetylation process. In E3S Web of Conferences (Vol. 411, p. 01037). EDP Sciences.
5. Aslanov, S.C., Buxorov, A.Q., Fayzullayev, N.I. Catalytic synthesis of C<sub>2</sub>-C<sub>4</sub>-alkenes from dimethyl ether// International Journal of Engineering Trends and Technology, 2021, 69(4), стр. 67–75.
6. X.B.Rahmatov, A.B.Togayev Study of the kinetics of the reaction of high molecular hydrocarbons with synthesis gas // European Chemical Bulletin Eur. Chem. Bull. 2023, 12(Special Issue 4), pp.14456-14462.
7. X.B.Рахматов, А.И.Тобаев Исследование кинетики реакции высокомолекулярных углеводородов с синтез-газом // UNIVERSIUM: технические науки : электрон. научн. журнал. 2023. 12(117).
8. Abdullaev, B. M., & Sayfullaev, T. K. (2024). Cobalt fischer-tropsch catalyst regeneration. *journal of multidisciplinary bulletin*, 7(1), 105-113.
9. Bakhtishod, A., & Temurbek, S. (2024). EFFECT OF INITIAL SOLVENT SLURRY INSIDE THE REACTOR FOR FISCHER-TROPSCH SYNTHESIS. *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности*, 2(1), 171-180.
10. Abdullayev, K. O. A. I. (2023). Research of the catalytic properties of a catalyst selected for the production of high-molecular weight liquid synthetic hydrocarbons from synthesis gas. *Химическая технология*, 14(10), 115.

UO‘K: 665.644.44

 10.70769/3030-3214.SRT.3.1.2025.34

## DEGIDROTSIKLIZATSIYA KATALIZATORLARINING BIFUNKSIONALLIK XUSUSIYATLARI



**Toshqobilov Javoxir Shaymardon o'g'li**

Mustaqil izlanuvchi, yetakchi mutaxassisi "O'zbekistan GTL" MChJ, Qarshi, O'zbekiston  
E-mail: javohirbek0818@gmail.com

**Annotatsiya.** Siklizatsiya mahsulotlari 5 yoki 6 a'zoli halqali birikmalar bo'lishi mumkin. Ushbu uglevodorodlarning hosil bo'lishiga olib keladigan reaksiyalar  $C_5$  va  $C_6$ -sikliksizatsiya reaksiyalarini ifodalaydi. Parafinlarni degidriqlash uchun platina katalizatorlari rivojlangan sirtga ega issiqlikka bardoshli oksid tashuvchi kiritilgan yuqori darajada dispers ko'p komponentli tizim hisoblanadi. Platina va promotorlarning konsentratsiyasi odatda 1% mass. dan oshmaydi. Eng keng tarqalgan tashuvchisi  $\gamma$ -alyuminiy oksididir. Ilgari shunga o'xshash platina katalizatorlari past bosimli riforming jarayonida keng qo'llanilgan.

Bimetall alyuminiy-platina degidriqlash katalizatorlarining yuqori samaradorligini hatto katalizatorning og'irligi bo'yicha 10% dan ortiq koks bilan ham saqlanishini tushuntirishga imkon beradi. Sintetik nafta asosida aromatik uglevodorodlar sintezida katalitik tizimlar  $Cr_2O_7$  katalizatori va  $AlNiMo$ +bentonit katalizatori bilan qo'llanilganda na'munalarning aromatik uglevodorodlarga birinchi bohqichdayoq o'tishi isbotlandi. Ushbu katalizatorlardan birgalikda foydalani n-geksan, n-septan, n-oktan massa ulushi yuqori bo'lgan nafta uglevodorodlar aralashmasidan monoaromatik uglevodorodlarni yuqori unum bilan hosil bo'lishi hamda ushbu sintez uchun yuqori selektivlikni namoyon etdi.

**Kalit so'zlar:** siklizatsiya reaksiyasi, bifunksional katalizatorlar, parafinlarni degidrotsikliksizatsiyasi, n-geksan, karbonlanish, sintetik nafta.

## БИФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СВОЙСТВА КАТАЛИЗАТОРОВ ДЕГИДРОЦИКЛИЗАЦИИ

**Тошқобилов Джавахир Шаймардон угли**

Независимый соискатель, ведущий специалист ООО «Uzbekistan GTL», Қарши, Узбекистан

**Аннотация.** Продукты циклизации могут представлять собой 5- или 6-членные кольцевые соединения. Реакции, приводящие к образованию этих углеводородов, представляют собой реакции  $C_5$  и  $C_6$ -цикликации. Платиновые катализаторы дегидрирования парафинов представляют собой высокодисперсные многокомпонентные системы, включающие термостойкий оксидный носитель с развитой поверхностью. Концентрация платины и промоторов обычно составляет 1% по массе, не превышает Наиболее распространенным носителем является  $\gamma$ -оксид алюминия. Ранее подобные платиновые катализаторы широко применялись в riformинге низкого давления.

Xalqning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasidan kelib chiqib, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida "O'zbekiston-2030" strategiyasi tasdiqlangan [5].

Strategiyamizda Xalqaro mehnat tashkilotining "Ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi va gigienasi to'g'risida"gi konvensiyasini [6] O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlariga mos keladigan maqbul normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish vazifasi ham belgilab berilgan [7].

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, barcha tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash, mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish, xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish, fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan iboratdir [8]. O'z o'rnida ushbu yo'nalish O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (O'RQ-57-son) Qonuni bilan tartibga solingan [9].

Mazkur Qonunda qator asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan, jumladan:

- zararli ishlab chiqarish omili – ta'siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili;
- ish o'rni – mehnat faoliyati jarayonida xodimning doimiy yoki vaqtinchalik bo'lish joyi;
- ishlab chiqarish faoliyati – mahsulot ishlab

chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish chog'ida amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa – xodimning ish beruvchining hududida yoki uning tashqarisida o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa;

- kasb kasalligi – xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili ta'siri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turg'un yo'qotishiga sabab bo'lgan o'tkir yoki surunkali kasalligi;

- mehnat sharoitlari – mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi;

- mehnatni muhofaza qilish – mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariyagigiena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

- mehnatda mayib bo'lish – ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi;

- noqulay ishlab chiqarish omillari – zararli ishlab chiqarish omilining va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilining mavjudligi;

- xavfli ishlab chiqarish omili – ta'siri xodimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili;

- shaxsiy himoya vositalari – xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalash uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh sanitar vrachining "Rudali, ruda bo'lmagan va maydalangan foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun sanitariya qoida-

lari" [10] bilan yer osti kon ishlari bo'yicha korxonalar uchun gigienik talablar tartibga solingan. Sanitariya qoidalari ruda, noruda (ko'mirdan tashqari) va foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish bilan shug'ullanadigan barcha korxonalarga nisbatan qo'llanilishi va ularni loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ishlatish uchun majburiyligi belgilangan.

Jumladan, qoidalarda yer osti kon ishlari korxonalar uchun gigienik talablar, ochiq kon qazish korxonalar uchun gigienik talablar, o'simliklarni qayta ishlash va maydalash va saralash uchun gigienik talablar, ta'mirlash ishlarini tashkil yetish va bajarishga qo'yiladigan talablar, yoritish talablari hamda yordamchi binolar va binolarga qo'yiladigan talablar hamda atrof-muhitni sanitariya muhofazasi (suv omborlari, tuproq, havo) ishlab chiqarish muhiti omillarining holatini nazorat qilish yo'nalishlarida aniq gigienik talablar belgilangan.

Yer osti konlardagi mehnat sharoitida xavfsizlikni ta'minlashga kompleks yondashuv, shu jumladan texnik choralar (konlarni zamonaviy uskunalalar bilan jihozlash) va tashkiliy jihatlar (xodimlarni o'qitish, mehnat xavfsizligini boshqarish tizimlarini yaratish) muhim ahamiyatga ega. Asosiy e'tibor mehnat sharoitlarini doimiy monitoring qilish va xavflarni minimallashtirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishga qaratilishi lozim.

Bu esa o'z o'rnida ushbu yo'nalishdagi iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasiga e'tibor qaratishni talab etadi. Bunday mamlakatlarda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi: yuqori standartlarga erishish va mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish sharoitlarini doimiy ravishda rivojlantirish va yaxshilash zarur. 1985 yilda Xalqaro mehnat Tashkilotining (XMT) 161-sonli konvensiyasi qabul qilinib [11], unda mehnat xavfsizligi xizmatlari uchun zarur standartlar taklif etildi. Garchi, Konvensiya ko'lami rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan bo'lsada, uning asosiy qoidalari sanoat mamlakatlari tajribasiga va u yerda amalga oshirilgan dasturlarga asoslangan edi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy standartlarni belgilaydigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik talablari mavjud.

Quyida ushbu mamlakatlar tajribasini batafsil

ko'rib chiqamiz.

AQSh tajribasi. Bu mamlakatda mehnat xavfsizligi masalalari uzoq yillardan buyon juda muhim rol o'ynab kelgan. Qo'shma Shtatlardagi amaldagi mehnatni muhofaza qilish tizimining huquqiy asoslari 1970-yilda qabul qilingan mehnat xavfsizligi to'g'risidagi Qonun [12] bo'lib, mazkur Qonun asosida mehnat xavfsizligini boshqarish bo'yicha Federal Agentlik tashkil etilgan. Agentlik Qo'shma Shtatlari bo'ylab qonunlarni ijro etuvchi asosiy organ bo'lib hisoblanib, har bir shtatda mehnat xavfsizligi sohasida alohida qonunlar qabul qilingan.

Qonunga ko'ra ish beruvchilar xodimlarni mavjud xavf-xatarlar to'g'risida xabardor qilishlari, ishlab chiqarish jarayonlari va ularni xavfsizlik texnikalaridan foydalanishga o'rgatishlari shart. Shuningdek, ish beruvchilardan kasbiy jarohatlar va yo'qotish holatlarini qayd etish talab etiladi, ish vaqtida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida har qanday xodim muayyan ish joyida mehnatni muhofaza qilish bilan bog'liq mavjud muammolar bo'yicha mehnatni muhofaza qilish bo'limiga murojaat qilish huquqiga ega.

Shtatlardagi barcha korxonalarda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va qoidalarga rioya qilishi majburiydir. Halokatli baxtsiz hodisa sodir bo'lganda Agentlik albatta ishtirok etadi [13], jumladan har yili o'n minglab ishlarni olib boradi va qonunga rioya etmagan ish beruvchilarga katta miqdordagi jarimalarni soladi.

Ispaniya tajribasi. Ispaniyada Mehnat inspeksiyasi Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligining bir qismidir [14]. Uning Bosh direktori vazir o'rinbosari oldida tekshirish ishlarini boshqarish, rejalashtirish va tashkil etishda javobgardir [15]. Mehnat vaziri tomonidan yakuniy tayinlashlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'ladi. Kasbiy jarohatlar yoki kasalliklar bo'lgan taqdirda mamlakat mehnat xavfsizlik tizimida kompensatsiya to'lovlarini ta'minlaydigan sug'urta kompaniyalari muhim o'rin tutadi.

Qonunga ko'ra, ish beruvchilar, shuningdek ishchi va xizmatchilar kasallik va nogironlik shuningdek, keksalik pensiyalari to'lovlari to'lab beradigan ijtimoiy himoya Milliy institutiga pul badallari to'lovlarini to'lab borishlari kerak. Bundan tashqari, Ispaniyada turli xil sug'urta agentliklari mavjud bo'lib, ular a'zolik badallarini yig'adilar va

keyin ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga uchragan yoki kasalliklar tufayli mehnatga layoqatsizlik davrida ishchi-xizmatchilarga ish haqini to'lab beradilar, shuningdek har qanday darajadagi baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida nogironlikka ega xodimlarni xarajatlarini qoplaydilar.

**Natijalar.** Dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda risklarni baholashda quyidagi modeldan foydalaniladi (2-jadval). Mehnat xavfsizligini boshqarishda "Qabul qilinadigan xavf darajasini aniqlash modeli" [16] (Risk Assessment Model) qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bu model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: xavflarni aniqlash; xavf darajasini baholash va xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

2-jadval

**Xavf darajasini baholash bo'yicha matritsa**

Xavf darajasi	Oqibatlar ehtimoli	Raqamli baho
Yuqori	katta ehtimol	>8
O'rta	o'rtacha ehtimol	5-7
Past	past ehtimol	<4

Yer osti kon ishlarida mehnat xavfsizligini boshqarish uchun matematik modellar xavflarni aniqlash, ularning ehtimolini baholash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha optimal qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu sohada qo'llaniladigan bir nechta matematik model-larni keltiramiz.

Xavflarni baholash modeli [17]. Bu model xavf darajasini aniqlashda foydalaniladi. Xavfning umumiy darajasi ( $R$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$R = P * S$$

bu yerda  $R$  – xavfning umumiy darajasi,  $P$  – xavf yuzaga kelish ehtimoli (0 dan 1 gacha),  $S$  – xavfning oqibati yoki zarar ko'rsatkichi (sonli baho, masalan, moddiy zarar summasi yoki salomatlikka zarar darajasi).

Mehnat sharoitlari xavfsizligini optimal-lashtirish modeli [18]. Xavfsizlikni oshirish uchun chora-tadbirlarning samaradorligini baholashga qaratilgan optimallashtirish modeli quyidagicha ifo-dalanadi:

$$\text{Maximize: } U = \sum_{i=1}^n (B_i - C_i)$$

quyidagi chegarani kiritgan holda

$$\sum_{i=1}^n C_i \leq B$$

bu yerda  $U$  – xavfsizlikni oshirishdan kutilgan umumiy foyda,  $B_i$  –  $i$ -tadbirning xavfsizlikka keltirgan foydasi (masalan, avariya ehtimolini kamaytirish),  $C_i$  –  $i$ -tadbirning xarajati,  $B$  – xavfsizlik chora-tadbirlariga ajratilgan umumiy byudjet,  $n$  – chora-tadbirlar soni.

Ventilyatsiya tizimi samaradorligini tahlil qilish modeli [18]. Yer osti konlarida ventilyatsiya tizimi xavfli gazlarni kamaytirishda asosiy rol o‘ynaydi. Tizimning samaradorligi quyidagi differensial tenglama orqali baholanishi mumkin:

$$\frac{dC}{dt} = -k * C + Q$$

bu yerda  $C$  – gaz kontsentratsiyasi ( $\text{mg}/\text{m}^3$ ),  $k$  – ventilyatsiya samaradorlik koeffitsiyenti,  $Q$  – gaz chiqish tezligi ( $\text{mg}/\text{m}^3 \cdot \text{s}$ ),  $t$  – vaqt (s).

Xodimlarni joylashtirish modeli [20]. Yer osti konlarida xodimlarning xavfsizligini ta‘minlash uchun ularni optimal joylashtirish masalasi quyidagicha formulalanadi:

$$\text{Minimize: } Z = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m d_{ij} * x_{ij}$$

quyidagi shartlarni kiritgan holda

$$\sum_{j=1}^m x_{ij} = 1, \forall i \in \{1, 2, \dots, n\}$$

$$\sum_{i=1}^n x_{ij} \leq 1, \forall j \in \{1, 2, \dots, m\}$$

bu yerda  $Z$  – umumiy xavf darajasi (xodimlar xavfli hududlardan uzoqlashtiriladi),  $d_{ij}$  –  $i$ -xodimning  $j$ -joyga ko‘chish xavfi,  $x_{ij}$  —  $i$ -xodimning  $j$ -joyda joylashishi (0 yoki 1),  $n$  – xodimlar soni,  $m$  – joylar soni.

Ushbu modellar yer osti kon ishlarida xavfsizlikni oshirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvni ta‘minlaydi.

**Munozaralar.** Yer osti kon ishlarida mehnat sharoitlari xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha milliy va xalqaro yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi va amaliy ahamiyati mavzusi keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Bu sohada mavjud muammolarni yechish uchun huquqiy, texnologik va boshqaruv usullarining sinteziga asoslangan strategik yondashuvlar talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida yer osti konlarida xavfsizlikni tartibga soluvchi bir qator qonun va normativ hujjatlar mavjud. “Mehnatni muhofaza

qilish to‘g‘risida”gi qonun va boshqa tegishli hujjatlar xavfsizlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda xalqaro standartlar, xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) 176-konvensiyasining tamoyillari to‘liq integratsiya qilinmagan.

Milliy tizimning kuchli tomonlari quyidagilardan iborat:

- mehnatni muhofaza qilish masalalarida davlat organlarining qat‘iy nazorati;

- tog‘-kon ishlarida xavfsizlik bo‘yicha ishlab chiqilgan alohida texnik reglamentlar mavjud.

Ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda resurslarning cheklanganligi esa zaif tomon bo‘lib hisoblanadi:

- kon xodimlarining xavfsizlik bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emasligi;

- xavfsizlikni monitoring qilish tizimlarining kam rivojlanganligi.

Mazkur zaif tomonlarni bartaraf etish uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish talab qilinadi. Xalqaro konvensiyalarning tamoyillarini milliy tizimga joriy etish faqat huquqiy o‘zgarishlarni emas, balki zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etishni ham talab qiladi.

Rivojlangan davlatlar yer osti konlarida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega. Misol uchun:

Avstraliya konlarida xavfsizlikni boshqarish uchun “Zero Harm” [21] strategiyasi joriy etilgan bo‘lib, unda barcha xavf omillarini butunlay yo‘q qilishga e‘tibor qaratiladi.

Kanadada raqamli texnologiyalar asosida xavfsizlik monitoring tizimlari (masalan, gaz kontsentratsiyasi yoki ventilyatsiya samaradorligini real vaqt rejimida kuzatish) keng qo‘llaniladi.

Shvetsiya – tog‘-kon uskunalari va xavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirishda yetakchilardan bo‘lib hisoblanadi [22].

Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlikni ta‘minlashda quyidagi omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

1. raqamli va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari;

2. xodimlarning xavfsizlik bo‘yicha doimiy o‘qitilishi;

3. xavfsizlikka davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribani to‘g‘ridan-

to'g'ri o'zlashtirish jarayonida mintaqaviy sharoitlarni hisobga olish zarur. Misol uchun, O'zbekistonning yer osti konlarida yerning geologik xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari mavjud cheklolarni vujudga keltiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash xavfsizlikni oshirishning asosiy shartlaridan biridir. O'zbekistonda yer osti konlari uchun quyidagi texnologik echimlarni joriy qilish muhim:

Hozirgi kunda shaxta tizimlarini raqamlashtirish jarayoni orqali monitoring qilish tizimlari rivojlanmoqda. Bu tizimlar gaz kon-sentratsiyasi, harorat va bosimni real vaqt rejimida kuzatib, tezkor xavfsizlik choralarini qo'llash imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan ventil-yatsiya tizimlari havoni tozalash va xavfli gazlarni chiqarish uchun samarali tizm sifatiga foydalanilyapdi.

Boshqaruv yondashuvlari sifatida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va xodimlar o'rtasida xavfsizlikka bo'lgan mas'uliyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan "Vision Zero" (Nol darajadagi xavf) falsafasi xodimlarning xavfsizlik madaniyatini oshirish uchun samarali vosita bo'lib hisoblanadi.

Yer osti kon ishlarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarning milliy tizimga joriy etilishi ijobiy natijalar berishi kutilsa-da, quyidagi savollar ochiq qolmoqda:

1. xalqaro standartlarning mahalliy iqtisodiy va geologik sharoitlarga moslashtirilish darajasi;
2. qonunchilikni takomillashtirish jarayonida davlat va xususiy sektorning mas'uliyat chegaralari;
3. texnologik yechimlarning mahalliy sharoitlarda qo'llanishi uchun kerakli investitsiyalar miqdori ozligi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda xavfsizlikka oid zamonaviy boshqaruv usullarini iqtisodiy tahlil qilish va O'zbekiston respublikasi sharoitida optimal modellarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy va xalqaro tajriba asosida yer osti konlarida xavfsizlikni oshirish uchun integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash talab etiladi. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, yer osti konlarida mehnat sharoitlari xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari ishchilarning sog'lig'ini himoya qilishning muhim jihati bo'lib, davlat va ish beruvchilardan tizimli yondashuvni talab qiladi. Bugungi kunda mehnatni muhofaza qilish shartlariga rioya qilish iqtisodiy jihatdan har qanday korxonada uchun foydalidir. Fuqarolarning mehnat huquqlarini, shu jumladan fuqarolik huquqlarini himoya qilishni ta'minlash xavfsiz mehnat sharoitlari, mamlakatimizning strategiyasini o'z ichiga olgan mehnatni muhofaza qilish yo'nalishlarida, prinsip va maqsadlariga muvofiq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy qonunchilikka xalqaro tajribani moslashtirish va kon xavfsizligi tizimlarini avtomatlashtirish zarurati talab qilyapdi. O'zbekistonda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: xalqaro hujjatlarni milliy darajada ratifikatsiya qilish; zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy etish; xodimlar uchun xavfsizlik bo'yicha muntazam treninglar tashkil qilib borish. Ushbu tavsiyalar bajarilsa kon sanoati korxonalari mehnatni muhofaza qilish ishlari yanada samaraliroq ishlayishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov A.A. Inson organizmining zararlanish yo'llari. // ISSN: 2181-1385 Academic Research in Educational Sciences ilmiy jurnali, №3 (4) 2022, 56-61 bet. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-56-61.
2. Muradov S.H. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha O'qitish va yo'riqnomalarni raqamlashtirish asoslari. // "raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali | 2024, 8-son 266-274 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -80 b. ISBN: 978-9943-9506-1-0.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risi”dagi Farmoni.
6. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. O‘zr. PF-158-son Farmoniga 1-ilova.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vaziflarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
8. O‘.R.Yo‘ldoshev, O.D.Rahimov, R.T.Xo‘jaqulov, O.T.Hasanova. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. – T.: «Davr nashriyoti» mchj, 2013, 200 bet. ISBN 978–9943-4226–8–1.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yild 15-sentabrdagi “Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 263-son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Bosh sanitar vrachining 2007-yil 29-martdagi “Rudali, ruda bo‘lmagan va maydalangan foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun” sanitariya Qoidalari.
11. А.С. Пупова. Состояние безопасности и охраны труда на предприятиях: зарубежный опыт. Вестник магистратуры. 2017. № 9(72). ISSN 2223-4047 10 ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ УДК 331.1. 10-12 ст.
12. Калинин А.В. Состояние охраны труда на предприятиях в мире //“Вопросы инновационной экономики” научно-практический журнал -2011. -№ 5. -с. 37-42.
13. Flin R., Mearns K., O‘Connor P., Bryden R. Measuring Safety Climate: Identifying the Common Features. Safety Science, 2000, no. 34, pp. 177–192.
14. Иванов Г.С. Охрана труда: от античности к современности // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 8, №3 (2016). DOI: 10.15862/16EVN316
15. Pavlov A., Gavrilov D. Improvement and development of the motivation system in the occupational and industrial safety field//The Second International Innovative Mining Symposium. 2017. DOI: 10.1051/e3sconf/20172104030.
16. Бадалова, А.Г., Пантелеева А.В. Управление рисками деятельности предприятия: учебное пособие / А.Г. Бадалова, А.В. Пантелеев. -3-е изд.-М.: Вузовская книга, 2017. -234 с.: ил ISBN: 978-5-9502-0821-8
17. Куклина Т.В. Модели страхования профессиональных рисков в зарубежных странах // Вопросы инновационной экономики. – 2020. – Том 10. – № 2. – С. 721-736. DOI: 10.18334/vinec.10.2.100942
18. Васильев А.В., Аношкин Д.В. Человеческий фактор как причина аварийности и травматизма на производстве и его анализ на основе принципов системного подхода к обеспечению безопасности // Безопасность труда в промышленности. 2010. № 11. С. 22-25. DOI: 10.37313/1990-5378-2021-23-5-113-119
19. Бутенко М.А., Бурнос Д.В., Хоперсков С.А., Холодков В.С., Морозов А.Г., Оптимизации и управления системами вентиляции на основе прямого газодинамического моделирования. //Технические инновации научный журнал. Серия 10. Вып. 6. Стр. 31-37
20. Новиков А.В., Многофункциональная система безопасности-практика применения систем определения персонала. //Горная промышленность научный журнал– 2018. – 2. – №. Стр. 93–98.
21. Рудаков М.Л. Корпоративные программы «ноль несчастных случаев» как элемент стратегического планирования в области охраны труда для угледобывающих предприятий //Записки Горного института научный журнал. 2016. Т.219. С.465-471. DOI 10.18454/PMI.2016.3.465
22. С.И.Попов, Э.Д.Кадыров.Зарубежный опыт автоматизации в горнодобывающей отрасли.//Записки Горного института научно-методический журнал. ISSN 0135-3500. 2008.Т.177, стр.82-84.

**SANOATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR,**  
**ILMIY-TEXNIK (ELEKTRON) JURNALI E-ISSN: 3030-3214**  
**AXBOROT XATI**

**“Sanoatda raqamli texnologiyalar” (e-ISSN: 3030-3214)**

(<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>) **ilmiy-texnik jurnali** ochiq jurnal hisoblanib, mazkur jurnalning vazifasi ilm-fan taraqqiyotining modellashuvi, ta’limning yutuqlari va istiqbollarini, dolzarb muammolari va ularning yechimlarini, shuningdek, ishlab-chiqarish va ta’limning modernizatsiyalashuvi bosqichini yoritib borishdir. “Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnalining maqsadi belgilangan soha mutaxassislar va olimlarning tadqiqotlari va innovatsiyalari to’g’risidagi nashrlarini jamoatchilikka xabardor qilish, yosh avlodning fan va ta’lim sohasidagi qiziqishlarini oshirish va ilmiy konsepsiyalarini bayon etishdir.

Jurnalga: **05.00.00-TEXNIKA FANLARI, 04.00.00-GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI, 02.00.00-KIMYO FANLARI** ixtisosliklari bo’yicha ilmiy maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalga maqolalar: **o‘zbek, rus va ingliz** tillarida qabul qilinadi.

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali quyidagi yo‘nalishlar bo’yicha maqolalar qabul qilinadi:

- Kon-metallurgiya va ishlab chiqarish sanoati;
- Geologiya va neft-gaz sanoati;
- Kimyoviy texnologiya va qurilish;
- Yengil sanoat tarmoqlari;
- Ekologiya, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnaliga chop qilingan har bir maqolaga raqamli identifikator (Digital Object Identifier <https://www.doi.org>) beriladi.

Jurnal quyidagi bazalarga indeksatsiya qilingan:

1. CYBERLENINKA — ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – Ilmiy elektron kutubxonasiga ([https://www.elibrary.ru/title\\_about\\_new.asp?langid=1&id=81309](https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309))
3. ResearchBib – ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – Ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Har bir maqola Google akademiyasiga indeksatsiya qilinadi (<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – ilmiy jurnallar bazasi (<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

***Jurnal ta’rischilari:***

- 1. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti;**
- 2. “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ;**

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro‘yxatga olingan 26.07.2023 yildagi №106679-sonli guvohnoma. Turkum nashrlarning chiqish ma’lumotlarini GOST 7.4-95 “Nashrlar. Chiqish ma’lumotlari” hamda GOST 7.56-2002 «Xalqaro standart turkum raqami» davlatlararo standartlar talablari asosida bo‘lishini to‘liq ta’minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan 2023 yil 12-dekabrda Davriy nashrlarga ISSN xalqaro standart raqami ISSN: 3030-3214 raqam berilgan.

## MAQOLALARGA QO‘YILGAN TALABLAR

**Maqolaning standart hajmi:** 4-15 betli matn Word matn muharririda, o‘zbek, rus yoki ingliz tilida.

**Maqola mualliflari 4 nafardan ko‘p bo‘lmasligi kerak.** Mualliflarning har biri uchun to‘liq ma‘lumotlar ko‘rsatilishi lozim (ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, shahar va davlati)

Maqolada shartli ravishda **kirish, Adabiyot tahlili va metodi, tadqiqot natijalari va muhokama, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan** iborat bo‘lishi lozim.

**Aannotatsiya, kalit so‘zlar** Annotatsiya berilgan shakl va ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Iltimos, bu shaklni o‘zgartirmang. Annotatsiya 100-250 so‘zdan hamda 4-20 kalit so‘zlardan iborat bo‘lishi lozim. Annotatsiya (ingliz tilida ABSTRACT) va kalit so‘zlar (keywords) xalqaro tizimlarda indekslanishi uchun (3 ta tilda) o‘zbek, rus va ingliz tilida ham berilishi zarur. Kalit so‘zlar 4-20 so‘zdan iborat maqoladagi asosiy urg‘u olgan atamalarni yozish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi** adabiyotlar oxirgi 10 yil ichidagi adabiyotlar ko‘rsatilishi tavsiya etiladi.

**O‘lchov birliklari va belgilar** SI xalqaro birliklar tizimida ko‘rsatilishi kerak.

**Maqola materiallarining yuqoridagi talablarga mos kelmasligi nashrni rad etish uchun sabab bo‘lishi mumkin.**

**Maqola matniga qo‘yilgan talablar:**

**Sarlavha ko‘rinishi:** Shrift “Times New Roman”, o‘lchami 14 pt, bosh harfdan, markazdan, chiziqcha yo‘q, qalin. Maqola sarlavhasi tepasida (1.5 intervaldan keyin), o‘ng burchakda - mualliflarning ismi va shariflari, odatiy shrift, o‘lchami 14 pt; chap burchakda - UO‘K indeksi;

**Maqola sarlavhasi ostida** - mualliflarning ismi va sharifi - qalin shriftda; ish joyi, lavozimi ilmiy unvoni, tashkilot nomi – 10 pt. o‘lchamdagi odatiy shriftda va 3x4 rasmi ko‘rsatilishi lozim.

**Annotatsiya ko‘rinishi:** “Times New Roman” shriftlar to‘plami, 14 pt. o‘lchamida, (1 intervaldan).

**Kalit so‘zlar ko‘rinishi:** “Times New Roman” shriftlar to‘plami, 14 pt. o‘lchamda.

**Asosiy matnga talablar:** Shrift “Times New Roman”, 14 pt., qator oralig‘i 1, xat boshi – 1 sm, sahifa chekkalari – chap va o‘ng – 1.5 sm; yuqori va pastki – 1.5 sm.

**Jadval ko‘rinishi:** Jadval nomi - “Times New Roman”, 14 pt oralig‘ida, qalin, markazda, jadvaldagi matn - “Times New Roman”, 10-14 pt., odatiy.

**Formula kiritish talablar:** Formulalar va maxsus belgilar faqat «Microsoft Equation-3» muharririda yoziladi. Formulalar chap tomonda joylashtiriladi.

**Rasmlarga talablar:** Rasmlar aniq ko‘ringan bo‘lishi kerak, chop etishga tayyor, matnga qo‘shilishi va GIF, BMP, JPEG formatida.

**Adabiyotlar ro‘yxatiga talablar:** “Times New Roman”, 14 pt o‘lchamda, kursiv, 4-30 ta (25% o‘z ishlariga havola), oxirgi 10 yilda nashr etilgan adabiyotlar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotga havola keltirish raqami kvadrat qavs ichida, matnning tegishli joyida beriladi. Adabiyotlarga to‘g‘ri havola keltirish uchun [www.snoska.info](http://www.snoska.info) saytidan yoki <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/> veb resurlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**Rasmlar** JPEG, TIF, EPS yoki PSD formatlarida yetarlicha kengayishda (tiniqligi) (1:1 masshtabda kamida 300 dpi) alohida grafik fayllar sifatida yozib olinishi lozim.

**Bog‘lanish uchun ma‘lumotlar,** Har bir muallifning 3x4 rasmi, mualliflar ismi shariflari (to‘liq), ish joyi va lavozimi va elektron pochta manzili, ORCID (orcid.org tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish tavsiya etiladi) va SPIN (elibrary.ru tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish tavsiya etiladi) raqamlar va bog‘lanish uchun telefon raqamlari kiritilishi shart. **(Maqolaga materialni ochiq matbuotda nashr etilish imkoniyati to‘g‘risida ekspert xulosasi ilova qilinishi mumkin).**

**Izoh:** Maqolaning orginalligini aniqlangan (antiplagiat) hisoboti taqdim etish shart (originallik darajasi 65 foiz va undan yuqori bo‘lganda va yuqoridagi talablarga javob berganda, gramatik xatolar bo‘lmaganda maqola qabul qilinadi). Antiplagiatdan o‘tkazish manzili: <https://antiplag.uz/>

**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ,  
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ (ЭЛЕКТРОННЫЙ) ЖУРНАЛ E-ISSN: 3030-3214  
ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» (e-ISSN: 3030-3214 (<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>)) является открытым журналом, задачей которого является освещение моделирования прогресса науки, достижений и перспектив образования, актуальных проблем и их решений, а также этапов модернизации производства и образования. Цель научно-технического журнала «Цифровые технологии в промышленности» заключается в информировании специалистов в данной области, публикации исследований и инноваций ученых для общественности, повышении интереса молодого поколения к науке и образованию и изложению научных концепций.

В журнал принимаются научные статьи: **05.00.00-ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ, 04.00.00-ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРАЛОГИЯ, 02.00.00-ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ.**

Статьи в журнал принимаются: **узбекском, русском и английском языках.**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» принимает статьи по следующим направлениям:

- Горно-металлургическая и обрабатывающая промышленность;
- Геология и нефтегазовая промышленность;
- Химическая технология и строительство;
- Легкая промышленность;
- Экология, охрана труда и техническая безопасность.

Цифровой идентификатор объекта (Digital Object Identifier <https://www.doi.org>) присваивается каждой статье, опубликованной в научно-техническом журнале «Цифровые технологии в промышленности».

Журнал индексируется в следующих базах данных:

1. КИБЕРЛЕНИНКА – научная электронная библиотека (<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – научная электронная библиотека ([https://www.elibrary.ru/title\\_about\\_new.asp?langid=1&id=81309](https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309))
3. ResearchBib – научная электронная библиотека (<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – научная электронная библиотека (<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Каждая статья индексируется в Google Academics. (<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – база данных научных журналов (<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

**Учредители журнала:**

1. Каршинский инженерно-экономический институт;
2. АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат»;

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан, свидетельство №106679 от 26.07.2023. Выходные данные серии публикаций предусмотрены ГОСТ 7.4-95 «Издания. В целях полного обеспечения соответствия «Выходной информации» и ГОСТ 7.56-2002 «Международный стандартный серийный номер» требованиям международных стандартов, 12 декабря 2023 года в Национальной библиотеке Узбекистана имени Алишера Навои был объявлен международный ISSN. Периодическим изданиям присвоен стандартный номер ISSN: 3030-3214.

## ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ

**Стандартный размер статьи:** Текст объемом 4-15 страниц в текстовом редакторе Word на узбекском, русском или английском языках.

**Авторов статьи должно быть не более 4.** Необходимо предоставить полную информацию по каждому из авторов (место работы, должность, ученая степень, ученое звание, город и страна).

Статья должна содержать условное **введение, анализ и метод литературы, результаты исследования и их обсуждение, выводы и предложения, а также список использованной литературы.**

**Аннотация, ключевые слова** Аннотация должна быть в заданной форме и формате. Пожалуйста, не изменяйте эту форму. Аннотация должна состоять из 100-250 слов и 4-20 ключевых слов. Аннотация (ABSTRACT на английском языке) и ключевые слова (keywords) должны быть предоставлены на узбекском, русском и английском языках (на 3-х языках) для индексации в международных системах. Ключевые слова. Термины, получившие основной акцент в статье, желательно писать в объеме 4-20 слов.

**Единицы измерения и символы** должны быть отображены в Международной системе единиц SI.

**Несоответствие материалов статьи указанным требованиям может стать основанием для отказа в публикации.**

**Требования к тексту статьи:**

**Просмотр названия:** Шрифт — Times New Roman, размер 14 пт, прописной, центрированный, без подчеркивания, жирный. Над названием статьи (через 1,5 интервала) в правом углу — фамилия и инициалы авторов, шрифт стандартный, размер 14 пт; в левом углу – индекс УДК;

**Под названием статьи** - имя и фамилия авторов – жирным шрифтом; место работы, ученое звание, название организации – 10 пт. должно отображаться шрифтом стандартного размера и изображением 3x4.

**Абстрактный вид:** Набор шрифтов Times New Roman, 14 пт. в размере, (от 1 интервала).

**Просмотр ключевых слов:** Набор шрифтов Times New Roman, 14 пт. по размеру.

**Требования к основному тексту:** Шрифт «Times New Roman», 14 пт., межстрочный интервал 1, шапка – 1 см, поля страницы – левое и правое – 1,5 см; верх и низ – 1,5 см.

**Вид таблицы:** Название таблицы – «Times New Roman», интервал 14 пт, жирный, по центру, текст таблицы – «Times New Roman», 10–14 пт, обычный.

**Требования к вводу формулы:** Формулы и специальные символы пишутся только в редакторе «Microsoft Equation-3». Формулы располагаются слева.

**Требования к фотографиям:** Изображения должны быть четко видны, готовы к печати, содержать текст и иметь формат GIF, BMP, JPEG.

**Требования к списку литературы:** Times New Roman, 14 пт, курсив, 4-30 (25% ссылки на собственные работы), желательны публикации за последние 10 лет.

Номера ссылок даются в квадратных скобках в соответствующем месте текста. Для корректной ссылки на литературу рекомендуется использовать сайт [www.snoska.info](http://www.snoska.info) или <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/>.

**Контактная информация:** Фотография 3x4 каждого автора, ФИО автора (полностью), место работы и должность, адрес электронной почты, ORCID (рекомендуется указывать идентификационный номер, зарегистрированный на [orcid.org](http://orcid.org)) и SPIN ([elibrary.ru](http://elibrary.ru) рекомендуется указывать идентификационный номер). зарегистрированы на стороне) необходимо вводить номера и контактные телефоны. *(К статье может быть приложено экспертное заключение о возможности публикации материала в открытой печати).*

**Примечание:** Необходимо предоставить отчет, подтверждающий оригинальность статьи (антиплагиат) (статья принимается при уровне оригинальности 65% и выше и соответствии вышеуказанным требованиям, а также отсутствию грамматических ошибок). Адрес антиплагиата: <https://antiplag.uz/>

**DIGITAL TECHNOLOGIES IN INDUSTRY, SCIENTIFIC-TECHNICAL (ELECTRONIC)  
JOURNAL E-ISSN: 3030-3214 INFORMATION LETTER**

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” (e-ISSN: 3030-3214 (<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>)) is an open journal whose task is to cover the modeling of scientific progress, achievements and prospects of education, current problems and their solutions, as well as stages of modernization of production and education. The purpose of the scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” is to inform specialists in the field, publish research and innovations of scientists for the public, increase the interest of the younger generation in science and education and present scientific concepts.

The journal accepts scientific articles: **05.00.00-TECHNICAL SCIENCES, 04.00.00-GEOLOGY-MINERALOGY, 02.00.00-CHEMICAL SCIENCES.**

Articles for the journal are accepted: **Uzbek, Russian and English** languages.

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” accepts articles in the following areas:

- Mining, metallurgical and manufacturing industries;
- Geology and oil and gas industry;
- Chemical technology and construction;
- Light industry;
- Ecology, labor protection and technical safety.

A Digital Object Identifier (<https://www.doi.org>) is assigned to each article published in the scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry”.

The journal is indexed in the following databases:

1. CYBERLENINKA – scientific electronic library  
(<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – scientific electronic library  
([https://www.elibrary.ru/title\\_about\\_new.asp?langid=1&id=81309](https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309))
3. ResearchBib – scientific electronic library  
(<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – scientific electronic library  
(<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Each article is indexed in Google Academics.  
(<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – scientific journal database  
(<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

***The founders of the journal:***

- 1. Karshi Engineering-Economics Institute;**
- 2. JSC Almylk Mining and Metallurgical Combine;**

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” is registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, certificate No. 106679 dated July 26, 2023. The output data of the series of publications is provided for by GOST 7.4-95 “Publications. In order to fully ensure compliance of the “Output Information” and GOST 7.56-2002 “International Standard Serial Number” with the requirements of international standards, an international ISSN was announced on December 12, 2023 at the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi. Periodicals are assigned a standard ISSN number: 3030-3214.

## REQUIREMENTS FOR ARTICLES

**Standard article size:** Text of 4-15 pages in the Word text editor in Uzbek, Russian or English.

**There should be no more than 4 authors of the article.** It is necessary to provide complete information on each of the authors (place of work, position, academic degree, academic title, city and country).

The article should contain a conventional **introduction, analysis and method of literature, research results and their discussion, conclusions and suggestions, as well as a list of references.**

**Abstract, keywords:** The abstract must be in the specified form and format. Please do not change this form. The abstract should consist of 100-250 words and 4-20 keywords. Abstract (ABSTRACT in English) and keywords must be provided in Uzbek, Russian and English (in 3 languages) for indexing in international systems. Keywords. It is advisable to write terms that receive the main emphasis in the article in 4-20 words.

**Units and symbols** must be displayed in the SI International System of Units.

**Failure to comply with the specified requirements may be grounds for refusal to publish.**

**Requirements for the article text:**

**View title:** Font: Times New Roman, size 14 pt, uppercase, centered, no underlining, bold. Above the title of the article (with 1.5 intervals) in the right corner - the surname and initials of the authors, standard font, size 14 pt; in the left corner - UDC index;

**Under the title of the article** - the name and surname of the authors - in bold; place of work, academic title, name of organization – 10 pt. should be displayed in a standard size font and a 3x4 image.

**Abstract view:** Font set Times New Roman, 14 pt. in size, (from 1 interval).

**View keywords:** Font set Times New Roman, 14 pt. to size.

**Requirements for the main text:** Font “Times New Roman”, 14 pt., line spacing 1, header – 1 cm, page margins – left and right – 1.5 cm; top and bottom – 1.5 cm.

**Table view:** Table name – “Times New Roman”, spacing 14 pt, bold, centered, table text – “Times New Roman”, 10–14 pt, regular.

**Requirements for entering a formula:** Formulas and special characters are written only in the Microsoft Equation-3 editor. Formulas are located on the left.

**Photo requirements:** Images must be clearly visible, print ready, contain text and be in GIF, BMP, JPEG format.

**Requirements for the list of references:** Times New Roman, 14 pt, italics, 4-30 (25% references to own works), publications within the last 10 years are desirable.

Reference numbers are given in square brackets in the appropriate place in the text. For correct reference to literature, it is recommended to use the website [www.snoska.info](http://www.snoska.info) or <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/>.

**Contact Information:** 3x4 photo of each author, full name of the author, place of work and position, email address, ORCID (it is recommended to indicate the identification number registered on orcid.org) and SPIN (elibrary.ru it is recommended to indicate the identification number). registered externally), you must enter numbers and contact numbers (*An expert opinion on the possibility of publishing the material in the open press may be attached to the article*).

**Note:** It is necessary to provide a report confirming the originality of the article (anti-plagiarism) (the article is accepted if the originality level is 65% or higher and meets the above requirements, as well as the absence of grammatical errors). Anti-plagiarism address: <https://antiplag.uz/>